O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TAHRIRIYAT HAY’ATI
Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.
Mas’ul kotib: dots. Ne’matova Y.O.
Tahririyat hay’ati a’zolari:
prof. Bahriddinova B.M.
prof. Yoziyev L.Y.
prof. Jabborov A.M.
prof. Jabborov X.J.
f.-m.f.d. Imomov A.A.
prof. Kamolov L.S.
prof. Normurodov M.T.
prof. Nurillayeva Sh.N.
p.f.d. Oripova N.X.
prof. Korotkov A.S.
prof. Ochilov A.O.
prof. Tojiyeva G.N.
prof. To‘rayev D.T.
prof. Umirzakov B.YE.
prof. Xayriddinov B.X.
prof. Xolmurodov A.E.
prof. Choriyev S.A.
prof. Shodiyev R.D.
prof. Shodmonov N.N.
prof. Erkayev A.P.
prof. Ernazarova G.X.
prof. Eshov B.J.
prof. Qo‘yliyev B.T.
prof. Bekmurodova G.H.
prof. Imanova G.T.
prof. Bobonazarov G‘.Y.
prof. Shukurov O.M.
prof. Yusupova A.SH.
f.f.d. Imomova G.M.
dots. Ro‘ziyev B.X.
dots. Eshqorayeva N.G‘.
dots. Hamrayeva Y.N.
dots. Rizayev B.X.
dots. Nashirova Sh.B.
f.f.f.d. Musayeva D.T.
prof. Tashatov A.K.
prof. Nabiyev G‘.A.
t.f.d.Qurbonov M.
prof. Diyorova M.
prof. Xurramov J.
dots. Rahmatullayev Y.
dots. Jabborov O.
dots. Qurbanbayev I.A.

2026
3(1)

QarDU xabarlari

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti
Jurnal Qashqadaryo viloyati Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2010.17.09 da № 14–061 raqamli guvohnoma bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

Musahhihlar:
Shodmonova D.E.
Tursunboyev B.N.
Pardayeva D.R.
Sahifalovchi:
Yuldoshev D.N.
Texnik muharrir:
Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik, filologiya, pedagogika-psixologiya va iqtisod fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2009-yilda tashkil etilgan.

Yiliga 4 marta chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Pochta manzili: 180003, Qarshi, Ko‘chabog‘,17.Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.
Telefon: 97-222-10-80
TelegramID:
https://t.me/Qardu_Xabarlari2024
Elektron pochta:qardu_xabarlari@mail.ru
Veb-sayt:
https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalariga qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Eshmirzayev Z.O. Amudaryoning tabiiy-geografik tasnifi 4

Sultonova N.Sh. Muzey hujjatlari va fotosuratlari asosida Buxoro amirlik davri liboslarining tahlili 9

Maxmanova M.N. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida musiqa va san'at maktablarida kadrlar masalasi: institutsional islohotlar, hududiy tafovutlar va barqaror rivojlanish omillari 13

FALSAFA

Saitxodjaev X.B. Huquqiy ijtimoiylashuv – yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish omili 18

Navro'zova G.N. Naqshbandiya ruhiy kamolot yo'li va Alisher Navoiy ma'naviy merosi (tahliliy tadqiq) 24

Abdullayeva Z.N. Raqamli makonda ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik muammolari 29

Jabborov E.E. Yoshlar infantilligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlili 35

Ruziyeva D.M. Ma'naviy liderlik fenomenining falsafiy talqini 39

Abduvaliyeva D.A. Sun'iy intellekt va axborot oqimi tezlashuvining kommunikativ muhitga ta'siri 45

Boysunov J.X. Yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda urf-odat, marosim va milliy bayramlarning o'rni 50

Salomova H.Yu. Ekologik qiymatni asrash – yashil iqtisodiyot poydevori 56

FILOLOGIYA

Shakirova N.M. "Oila" konseptining konseptual maydon sifatida shakllanishi semantik yadrosi va periferik elementlari 63

Shadmanova N.I. Rus va o'zbek tillarida murojaat nutqiy etiketining qiyosiy tadqiqi 67

Baynazarov Z. O'zbek tarixiy lisoniy manzarasida fitonimlarning o'rni 71

Mustofoqulov F.X. Fransuz tilida memorial turizm obyekti nomlarining lingvokulturologik tahlili 79

Novruzova N.N. Anbar otin muxammaslarida an'ana va ijodiy o'ziga xoslik 83

Abdullayeva F.B. In Xigyonning "Tilsim va yolg'on" romanida sintetizm masalasi 87

Imamova G.L. Ernest Xeminguey ijodida realizm va romantizm sintezi 93

Hamdamova M.T. Some aspects of translation in poetry: the case of Robert Frost's poems 98

Ernazarova G.X. Erkin Vohidov she'riyatida vaqt konsepti talqini 101

Niyazova D.X. Assotsiativ tilshunoslikning nazariy poydevori va ilmiy tadqiq masalalari 105

Usmonova M.L. Adabiyotshunoslikda Abdulqodir Noqis hayoti va ijodining o'rganilishi 112

Shodmonova D.E. Idiostil kategoriyasi va uning poetik sintaksis tahlilidagi o'rni 116

Ne'matova Yu. Namangan viloyati oykonimiyasining raqamli tadqiqi: korpus tuzish tajribasi va struktur-semantik tahlil 124

Usmonov Sh.P. Guljamol Asqarova lirikasida ayol ruhiyatining badiiy-estetik talqini 130

Shukurova M.P. Shukur Xolmirzayev nasrida peyzajning badiiy-estetik funksiyasi 134

Kenjayev T. Fitrat she'riyati talqinida ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik mezonlar munosabati ... 139

PEDAGOGIKA

Ernazarov Z.N. Intellektual axborot tizimlari asosida ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirish 145

Usmonova D.I. Learning preferences and challenges in developing idiomatic competence of EFL students at Uzbek universities 148

Alauatdinov S.I. Oliy ta’lim tizimida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning institutsional xususiyatlari 152
Mamadaliyev K.R., Sarmanova S.Sh. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari 156
Boltayeva G.K. O‘quvchilarda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar tahlili 162
Ergasheva M.X. Ta’lim tizimi rivojlanishining sinergetik paradigmasi va uning konstruktiv imkoniyatlari 166
Xurramov O.Sh. Issiqlik tarqalish jarayonini differensial tenglamalar yordamida o‘qitish metodikasi 173
Xo‘jaqulov A.E. Axloqiy-ma’naviy qadriyatlar asosida raqamli madaniyatni shakllantirishning pedagogik konsepsiyasi 180
Xayitov A.X. Oliy ta’lim muassasalarida ichki ta’lim sifatini ta’minlash siyosati 185
Parmanov J.T. Magistrantning individual ilmiy-tadqiqot trayektoriyasini elektron portfolio asosida boshqarish mexanizmi 192

AMUDARYONING TABIIY-GEOGRAFIK TASNIFI

Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
ziyodullaeshmirzayev@gmail.com
ORCID 0009-0002-4167-6237

Annotatsiya. Maqolada Amudaryoning tabiiy-geografik taraqqiyoti tarixiy-geologik, fizik-geografik va tarixiy-ekologik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Daryoning nomlanishi, shakllanish bosqichlari, qadimiy geografik rivojlanishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Amudaryoning qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, Xorazm hamda Qashqadaryo vohasining rivojlanishidagi o‘rni, o‘zan almashinuvi jarayonlarining ahamiyati ko‘rib chiqilgan. XX asrda amalga oshirilgan irrigatsiya siyosati natijasida daryo oqimining kamayishi va Orol dengizi inqirozining yuzaga kelishi tarixiy-ekologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Hozirgi zamonaviy bosqichda suv resurslarini boshqarish, ekologik monitoring va barqaror rivojlanish strategiyalarining dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Amudaryo havzasida tabiiy jarayonlar va antropogen omillar o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi hamda mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, tabiiy-geografik taraqqiyot, Xorazm vohasi, o‘zan almashinuvi, Orol dengizi inqirozi, irrigatsiya siyosati, ekologik muvozanat, suv resurslari boshqaruvi.

NATURAL-GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF THE AMU DARYA

Abstract. This article comprehensively analyses the natural-geographical development of the Amu Darya using historical-geological, physical-geographical and historical-ecological approaches. It examines the origin of the river’s name, the stages of its formation and its ancient geographical evolution. Particular attention is given to the river’s role in ancient civilizations, especially Khorezm and the Kashkadarya oasis, and to channel migration. The twentieth-century irrigation policy that reduced river discharge and triggered the Aral Sea crisis is assessed. The relevance of water resource management, ecological monitoring and sustainable development strategies is substantiated. The findings reveal the interrelationship between natural processes and anthropogenic factors in the basin.

Key words: Amu Darya, natural-geographical development, Khorezm oasis, channel migration, Aral Sea crisis, irrigation policy, ecological balance, water resource management.

Kirish. Amudaryo Markaziy Osiyo hududining eng yirik va tarixiy jihatdan eng muhim daryolaridan biri bo‘lib, uning tabiiy-geografik taraqqiyoti nafaqat mintaqa landshaftlari, balki sivilizatsiyalar rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Daryo havzasi tog‘li hududlardan boshlab keng cho‘l tekisliklarigacha cho‘zilgan murakkab tabiiy-kompleks tizimni tashkil etadi. Shu bois Amudaryoning shakllanishi, geologik evolyutsiyasi, gidrologik xususiyatlari va ekologik o‘zgarishlarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ayniqsa, bugungi global iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va ekologik inqiroz sharoitida daryoning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amudaryoning tabiiy-geografiyasi tarixi Markaziy Osiyoning geologik rivojlanishi, iqlimiy o‘zgarishlari va inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning o‘rganilishi mintaqaning suv resurslari, landshaft evolyutsiyasi hamda qadimgi sivilizatsiyalar taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Amudaryo havzasi bugungi kunda transchegaraviy suv manbayi sifatida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning tarixiy-geologik shakllanish bosqichlarini tahlil qilish zamonaviy ekologik muammolar ildizini aniqlashga yordam beradi.

Metodlar: Maqolada Amudaryo tabiiy geografiyasining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari kompleks yondashuv yordamida o‘rganilgan. Bu jarayon tarixiy-taqqoshlash, manbashunoslik, kartografik tahlil, geologik va gidrologik ma’lumotlarni birgalikda o‘rganish metodlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. Tahlil qilishda tabiiy-hududiy o‘zgarishlar va ularning tarixiy kontekstdagi ahamiyati o‘rganilgan. Avvalo, tarixiy-taqqoshlash metodi yordamida Amudaryoning qadimgi davrlardagi o‘rni, uning sivilizatsiyalar taraqqiyotidagi ahamiyati va o‘zan yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlar turli tarixiy bosqichlar kesimida qiyosiy o‘rganildi. Bunda Amudaryoning tarixiy nomlari, geografik tasvirlari va xo‘jalik hayotidagi roli aniqlashtirildi. Bu yondashuv daryo havzasida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning tabiiy-geografik

omillar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatishga xizmat qildi.

Shuningdek, geologik va gidrologik ma’lumotlar tarixiy jarayonlarni izohlashda yordamchi manba sifatida qo‘llanildi. Iqlim o‘zgarishlari, suv sathining ko‘tarilishi yoki pasayishi kabi tabiiy omillar mintaqadagi hududlar ravnaqi yoki inqirozi bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Natijada Amudaryoning tabiiy-geografik tarixi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq murakkab tarixiy jarayon sifatida yoritildi.

Natija va muhokama: Amudaryo Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolardan biri bo‘lib, uning manbayi Pomir tog‘larida, Hindikush tizmasining shimoliy hududidagi baland tog‘ muzliklar orqali boshlanadigan va bu qo‘shilish Afg‘oniston va Tojikiston chegarasidagi Tigrovaya Balka (ruscha: Тигровая Балка, “Yo‘lbarsli jarlik”) qo‘riqxonasida joylashgan bo‘lib, daryo shu yerdan shimoli-g‘arbga qarab oqib, Orol dengizining janubiy qoldiqlariga quyiladi. Uning havzasi Markaziy Osiyo davlatlari — Tojikiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston va Turkmaniston hududlarini qamrab oladi. Daryo ikki yirik irmoq — Panj va Vaxsh daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi [1,24]. Ushbu daryoning uzunligi taxminan 1415 kilometrni tashkil qiladi [2,236]. Ushbu daryolar uzunligi hisobga olinganda, umumiy uzunlik 2540 kilometrga teng bo‘ladi [3,237]. Havza maydoni esa 309 ming kilometr kvadratdan ortiqni tashkil etadi [4,458]. Mazkur daryo Turkmaniston, O‘zbekiston hamda Afg‘oniston davlatlari o‘rtasida tabiiy chegara vazifasini bajaradi.

Qadimdan xalqlarning kundalik va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ushbu suv yo‘li necha ming yillardan beri aholining suvga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Tarixan O‘rta Osiyoning eng qadimgi gidronimlari antik davr mualliflari asarlarida tilga olingan bo‘lib, xususan, Amudaryoning qadimiy nomi yunonlar tomonidan Oks (Ὦξος, Oxus), Rimliklar Okosos (Oxus), Gerodot va Klavdiy Ptolemey tomonidan Araks nomi tarzida berilgan [7,81]. Arablar Jayxun (shiddatli daryo) [8,661-662], zardo‘shtiylar Vaxsh [9,74-75], xorazmiylar — O‘kuz (katta daryo) [10] nomi bilan tilga olganlar.

“Amudaryo” atamasi tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, mintaqaning ko‘p asrlik siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Nomning birinchi qismi — “Amo” (yoki “Amu”) qadimgi Amul shahri nomidan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur shahar hozirgi Turkmanobod hududida joylashgan va tarixan savdo hamda madaniyat markazi sifatida muhim o‘rin tutgan. Ikkinchi qism — “daryo” fors tilidan olingan bo‘lib, “katta daryo” yoki “dengiz” ma’nolarini anglatadi. Bu esa mazkur suv oqimining kengligi va mintaqa hayotidagi ahamiyatini ifodalaydi[11,32-37]. Tadqiqotchilar Amudaryoni nafaqat yirik gidrografik obyekt, balki Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan ramziy omil sifatida ham baholaydilar. Xususan, Amudaryo mintaqaning madaniy va ma’naviy merosida muhim o‘rin egallashi, uning suvlari ko‘p asrlik tarixiy xotirani va kelajak istiqboliga bo‘lgan umidni mujassam etishi [12,256] haqida fikr keltiriladi.

O‘rta Osiyoning quruq va issiq iqlim sharoitida suv resurslari masalasi doimo muhim bo‘lib kelgan. Amudaryo havzasining xo‘jalik va siyosiy geografiyasi sug‘orish tizimlarining joylashuvi va suv taqsimoti bilan belgilangan. Amudaryoning quyi qismida tuproq tuzilishining beqarorligi daryo oqimining doimiy o‘zgaruvchan bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Daryo o‘z sohillarini yuvib, gullab-yashnagan hududlar, shahar va qishloqlarni vayron qilgan. Amudaryoning qadimgi o‘zanlarining nishabini hisobga olish, ulardan qadimgi va o‘rta asr kanallarini chiqarishda foydalanish — bularning barchasi Xorazm vohasida shakllangan katta amaliy ilmiy tajribadan dalolat beradi [15,163].

Xorazmliklar tabiatga qarshi kurashishdan ko‘ra, unga moslashish va tirik qolish yo‘lini tanlaganlar. Ular hatto shunday duo qilganlar: “Daryo sersuv bo‘lsin, u o‘z o‘zanida oqsin”.

Shu bois, Amudaryo turli tarixiy jarayonlar, madaniy almashinuvlar va

sivilizatsiyalar taraqqiyotining bevosita guvohi bo‘lgan hamda Markaziy Osiyoning hayotiy ahamiyatga ega asosiy suv arteriyalaridan biri sifatida shakllangan. Shuningdek, Amudaryo nafaqat geografik va iqtisodiy jihatdan, balki ma’naviy-madaniy ma’noda ham voha hayotida alohida o‘rin tutgan.

Geografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amudaryo qadimda bir necha bor o‘z o‘zanini o‘zgartirgan. Xususan, uning bir tarmog‘i g‘arbga burilib, hozirgi Turkmaniston hududi orqali O‘zboy yo‘nalishida oqib, Kaspiy dengizi tomon yo‘nalgan bo‘lishi ehtimoli mavjud. Tarixiy davrlarda tabiiy o‘zgarishlar yanada murakkablashgan. Qadimgi va o‘rta asrlarda daryoning o‘zan almashinuvi, deltadagi ko‘llar va botqoqliklarning shakllanishi mintaqa landshaftini tubdan o‘zgartirgan. Ayniqsa, Xorazm vohasining shakllanishi bevosita Amudaryo deltasining rivojlanishi bilan bog‘liq. Daryo keltirgan allyuvial yotqiziqlar unumdor tuproq qatlamlarini hosil qilib, qadimgi sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, sug‘orish tizimlarining kengayishi tabiiy gidrologik muvozanatga ta’sir ko‘rsatib, ayrim davrlarda o‘zanlarning sun’iy ravishda burilishiga sabab bo‘lgan. Demak, Amudaryoning tabiiy-geografik tarixi geologik jarayonlar, iqlimiy omillar va inson faoliyati o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Amudaryo gidrografik tizimi ko‘plab yirik va kichik irmoqlar hisobiga shakllanib, uning suv rejimi hamda gidrologik xususiyatlari aynan shu qo‘shiluvchi daryolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Vohondaryo, Pomirdagi Zo‘rko‘l chiqib kelgan Pomir daryosi bilan qo‘shilgandan so‘ng, Panj deb ataladi. Panjga o‘ng tomondan G‘unt, Bartang, Yazg‘ulom, Vanj, Qizilsuv kabi irmoqlar kelib qo‘shiladi. Nihoyat, eng yirik va sersuv irmoq — Vaxsh daryosi qo‘shilgach, daryo Amudaryo nomini oladi. Ushbu qismda unga Amudaryoning boshqa irmoqlari ham qo‘shiladi: chapdan Qunduzdaryo, o‘ng tomondan esa Kofirnihon, Surxondaryo, Sheroboddaryo — uning o‘rta oqimi bilan birga qo‘shiladi va Orol dengiziga suv olib boradi [4,460]. Sheroboddaryo suvi Amudaryoga vaqti-vaqti bilan yetib boradi, shuningdek, g‘arbdagi Ko‘hitangdaryo suvi ham yo‘l-yo‘lakay sug‘orish maqsadlarida sarflanadi[18,110-118]. Surxondaryo daryosi Amudaryoga qo‘shilgandan so‘ng, Orol dengiziga yetguncha 1200 kilometrga yaqin masofada boshqa irmoqlar qo‘shilmaydi. Ammo shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, Qadimda Amuning irmoqlari sanalgan bu daryolar XIX asrlardan boshlab o‘z suvini Amudaryogacha yetkazib kelolmagan [19,104].

Amudaryo suvi loyqaligi (mutligi) yuqoriligi bilan ajralib turadi: osma oqiziqlar miqdori (tonna hisobida) bo‘yicha u Yer sharidagi eng yuqori ko‘rsatkichli daryolardan biri hisoblanadi[20,18].

Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Amudaryo havzasida 78,46 kub.km suv shakllanadi. Uning umumiy suv resurslarining katta qismi tog‘larda shakllanadi (yerosti suvlari va muzliklar hisobiga); o‘rta va quyi oqimda esa suvsiz yoki kichik suvli daryochalar: Qashqadaryo (1,34 kub.km), shuningdek Murg‘ob, Tejen, Atrek va Shimoliy Afg‘onistonning sersuv daryolari — Hilmand, Balxob, Sari-Pul va Qaysar (umumiy hajmi 4,86 kub.km) mavjud [21,179].

Zarafshon va Qashqadaryo daryolari Amudaryoning eski irmoqlari hisoblanadi va bu daryolar suvi to‘lig‘icha sug‘orish maqsadlarida sarflangan. Bu borada akademik Yahyo G‘ulomovning izlanishlari darak beradi. Zarafshon suvining Amudaryoga yetib borgan yoki yo‘qligini aniqlash uchun 1961-yilda tashkil qilingan O‘. Islomov, A. Asqarov, A. Muxammadjonov va S. Rahimovlar ishtirokidagi arxeologik ekspeditsiya buni isbotladi [22,17]. Lekin keyinchalik Zarafshon suvlarining sug‘orishda ko‘p ishlatilganligi sababidan suv Amudaryoga yetib bormay quriganligi qayd etiladi [23,154]. Qashqadaryoning quyi qismidagi qadimiy hayot izlari akademiklar Yahyo G‘ulomov, Ahmadali Asqarov va boshqa qadimshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ma’lumotlarga qaraganda, bir zamonlar Zarafshon daryosining suvi Buxoro viloyatinig

Qumsulton pasttekisligida Qashqadaryo suvi bilan qo‘shilib, yerlarni obod qilgan va ortiqcha suvlar Amudaryoga quyilgan [24,88]. Qashqadaryo va uning irmoqlari Qamashidaryo, Jar suvlarining Amudaryoga qo‘shilishi, Qashqadaryo Amudaryoning irmoqlaridan biri bo‘lganligini isbotlaydi.

Keyinchalik Markaziy Osiyoda paxtachilik va sug‘orma dehqonchilikni kengaytirish maqsadida olib borilgan irrigatsiya loyihalari va suv taqsimoti tizimining o‘zgarish siyosati XX asrda Amudaryo suvlaridan yuqori darajada foydalanishni talab qildi, bu esa daryo oqimining kamayishiga va uning ekologik holati yomonlashuviga sabab bo‘ldi. Xususan, Qarshi cho‘liga Amudaryo suvining keltirilishi natijasida hududning 300 ming gektar yeri Amudaryo suvi bilan sug‘oriladigan bo‘ldi. Bu yerlarni sug‘orish uchun har yili 4 mlrd. kub metrdan ortiq Amudaryo suvi ishlatildi. Bu esa Qashqadaryo havzasining barcha suv manbalari beradigan suvdan 4 marta ortiq degani [25,18-20].

Hozirda Amudaryoning gidrologik rejimi Vaxsh daryosining suv oqimini qisman tartibga solish, shuningdek, Qoraqum, Qarshi magistral kanali (QMK), Amu–Buxoro mashina kanali (ABMK) hamda boshqa yirik kanallar orqali sug‘orish uchun suv olish hajmining muntazam ortib borishi natijasida sezilarli darajada buzilgan [26,13]. Keyingi bosqichda suv resurslaridan samarali foydalanish oqimni mavsumiy va ko‘p yillik tartibga solish uchun suv omborlari qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p yillik tartibga solish, ilg‘or sug‘orish usullarini joriy etish va irrigatsiya tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish orqali Amudaryo havzasi suvlari hisobiga taxminan 7 mln gektar yerni (1960-yilda 1,73 mln ga sug‘orilgan) paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun sug‘orish mumkin bo‘ladi [27,355-359].

Amudaryo daryosi tasnifga ko‘ra ko‘chuvchan (o‘zani siljib turuvchi) daryolar toifasiga kiradi. Ya’ni, daryo quyi oqimida grunt tuzilishining bo‘shligi va oqim tezligining keskin o‘zgarishi o‘zanning doimiy ravishda yangi yo‘nalishlar izlashiga olib keladi. Daryo katta irrigatsion ahamiyatga ega. Amudaryo havzasida sug‘oriladigan ekinlar maydoni 1,2 mln gektardan ortiqni tashkil etadi. Qoraqum, Amu-Buxoro va Zang kanallarining qurilishi munosabati bilan daryoning irrigatsion ahamiyati yanada ortgan, o‘rta oqimda sug‘oriladigan yerlar maydoni kengaygan. Biroq quyi oqimda yerlar maydoni qisqarishi va sifatining yomonlashuvi ham kuzatilgan [29,19].

XX asrda amalga oshirilgan keng ko‘lamli irrigatsiya siyosati va suv taqsimoti o‘zgarishlari Amudaryo oqimini sezilarli kamaytirib, uning tabiiy gidrologik rejimini izdan chiqarishiga hamda quyi oqimda ekologik muammolarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Global iqlim isishi va muzliklarning erishi sharoitida Amudaryoning suv resurslarini o‘rganish nafaqat ekologik, balki mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham dolzarbligini oshirdi.

Xulosa. Amudaryo Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik tizimida alohida o‘rin tutadigan, mintaqaning tarixiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini belgilab kelgan yirik suv arteriyasidir. Uning shakllanishi Pomir va Hindikush tog‘ tizmalari bilan bog‘liq bo‘lib, Panj va Vaxsh daryolarining qo‘shilishidan vujudga kelgan murakkab gidrografik tizimni tashkil etadi. Daryo havzasining transchegaraviy xususiyatga ega ekanligi, ya’ni Tojikiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston va Turkmaniston hududlarini qamrab olishi uning nafaqat tabiiy, balki geosiyosiy ahamiyatini ham belgilaydi. Tarixiy manbalar Amudaryoning turli nomlar bilan tilga olinganini ko‘rsatadi, bu esa uning qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasida joylashganligini tasdiqlaydi. Amudaryo qadimgi davrlardan boshlab Xorazm va boshqa vohalarning shakllanishi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi hamda shahar madaniyatining yuzaga kelishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan.

XX asrga kelib, Amudaryo suv resurslaridan intensiv foydalanishni keskin kuchayishi, yirik kanallar va suv omborlarining qurilishi, xususan, Qoraqum, Qarshi

magistral va Amu–Buxoro kanallari orqali suvning katta hajmda olinishi daryoning tabiiy oqim rejimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada daryoning quyi oqimiga yetib boradigan suv miqdori kamaydi, Orol dengizi inqirozi chuqurlashdi va ekologik muvozanat buzildi. Bu jarayon Amudaryoning tabiiy-gidrologik tizimi inson omili ta’sirida qay darajada o‘zgarishi mumkinligini yaqqol namoyon etdi.

Hozirgi bosqichda Amudaryo havzasida suv resurslarini boshqarish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Transchegaraviy suv siyosati, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish hamda ekologik monitoringni kuchaytirish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Shu tariqa, Amudaryoning tabiiy-geografik taraqqiyoti geologik omillar, iqlimiy jarayonlar va inson faoliyati uyg‘unlashgan murakkab evolyutsion tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Daryoning tarixiy va zamonaviy ahamiyatini kompleks yondashuv asosida o‘rganish mintaqaning ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Омонов Б., Очилова Г. Чучук сув танқислиги муаммосининг Марказий Осиёга хавфи. // Enternational Scientific journal of Biruni, ISSN (E) 2181-2993, Vol/ 3, Issue 1, Feb. 2024/– Б. 24.

2. Икромова М., Ходжиев А., Ўмиров Ж., Икромов О. Амударёдан Қарши каналига сув олиш ҳудудида ўзан жараёнлари динамикаси. // Enternational scientific and practical conference “ Environmental protection and scientific foundations of the “green” economy”, April 4-5, 2025. –P. 236.

3. Большая советская энциклопедия. –3-е изд. –М.: Советская энциклопедия, 1970. -Т. 1. –С. 458-460.

4. Караев С.К. Древнейшие гидронимы Средней Азии. // Всесоюзные тюркологическая конференция. –Ташкент, 1980. –С. 81.

5. Кабулов Э. А. Вахш в качестве гидронима Амударьи // Бюллетень науки и практики. Т.7. №9, 2021. –С. 661-662.

6. Abu Rayhon Beruniy. Осори боқия (Аль-асар ал-боқия ‘ан ал-қурун ал-холия). — Тошкент: Фан, 1968. — Б. 74–75.

7. Ломов В. Сырдарья и Амударья две неразлучные сестры. // Прозару. №221122600313, 2021.

8. Бартольд В. Сочинения. Т. I: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. — М.: Наука, 1963. — С. 32–37.

9. Юсупов Ф. Амударья в историко-культурном пространстве Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2018. — С. 256.

10. Толстов С. П. Древней Хоразм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва, 1948. — С. 28.

11. Гулямов Я. Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957 — С. 152.

12. Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана // Бартольд В. В. Соч. - Т. 3. - С. 163

13. Заиков Б. Гидрография Средней Азии. –Л.: Гидрометеоиздат, 1955. –С. 110–118.

14. Хакимова С.Б. XIX-XX аср боши тарихий манбаларда Ўзбекистон ҳудудидаги сув ҳавзаларига оид маълумотлар. // ФарДУ Илмий хабарлар, 2021/№4, -Б. 104

15. Абдулхамидов А. Орошение в передгорьях Узбекистана.- Ташкент, 1990. –С.18.

16. Рахимов З., Камолидинов А. От Арала до Рогуна: Современная водохозяйственная обстановка в бассейне Амударьи. // Центральная Азия и Кавказ. Том 17. Выпуск 1. 2014. –С. 179.

17. Гулямов Я. Исследование исторической гидрографии низовьев Кашкадарьи и Зарафшана // Истории материальной культуры Узбекистана Вып. 6. –Ташкент, 1965. –С. 17.

18. Костенко Л. Туркестанский край. Опыт военно-статистического обозрения Туркестанского военного округа. – СПб, 1880. –С. 154.

19. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. –Тошкент: Фан, 1995. –Б.88.

20. Тошев Х. Дарёлар туташган диёр. –Қарши: Насаф, 2020. –Б.18-20.

21. Артыкбаева Ф., Нишанбаев Х., Шарипов О. О., Азимов С. С., Улжаев С. М. Затруднения эксплуатации бесплотинного водозабора реки Амударья в Каршинский магистральный канал // International Academy Journal Web of scholar Печатный: 2518-167X, 6(24), Vol.2, June 2018 –С. 13

22. Шульц В.Л. Реки средней Азии. – Ленинград, 1965. -С. 355-359.

MUZEY HUJJATLARI VA FOTOSURATLARI ASOSIDA BUXORO AMIRLIK DAVRI LIBOSLARINING TAHLILI

Sultonova Nigina Sheraliyevna
Osiyo xalqaro universiteti (OXU) doktoranti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining
katta ilmiy xodimi
ORCID 0009-0007-3429-9038
UDK 94(575.1):391

Annotatsiya. Maqolada Buxoro amirligi davri milliy liboslarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni hamda aholining mavqeyi va ijtimoiy mansubligini ifodalovchi vosita sifatidagi ahamiyati muzey manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning manbaviy asosini Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, ilmiy pasportlar, tarixiy fotosuratlar, kitob va albomlar tashkil etadi. Hujjatlar asosida amir tomonidan faxriy liboslarning taqdim etilishi, saroy zardo‘z ustalarining faoliyati hamda zardo‘zi liboslarning hukmdor saroyi va yuqori ijtimoiy qatlam vakillari bilan bog‘liqligi yoritiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda bo‘lgan fotograf va rassomlarning tasviriy materiallari tahlil qilinib, liboslarning shakli va bezaklari ochib beriladi. Libos shaxsning ijtimoiy maqomini aks ettiruvchi tarixiy-madaniy belgi bo‘lganligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, milliy liboslar, zardo‘zi liboslar, muzey hujjatlari, fotosuratlar, moddiy madaniy meros, ijtimoiy qatlam, Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi.

ANALYSIS OF BUKHARA EMIRATE–ERA CLOTHING BASED ON MUSEUM DOCUMENTS AND PHOTOGRAPHIC SOURCES

Abstract. This article analyses the role of traditional Bukhara Emirate clothing in socio-cultural life and as a means of expressing social status and affiliation, drawing on museum sources. The source base comprises archival documents, object records, historical photographs, books and albums of the Bukhara State Museum-Reserve. Documents attest to the emir’s presentation of honorary garments, the work of court gold embroiderers and the elite character of gold-embroidered garments. Visual materials by visiting photographers and artists of the late nineteenth and early twentieth centuries reveal the forms and decoration of clothing. The article shows that clothing was an marker of social status.

Key words: Bukhara Emirate, national costumes, gold-embroidered garments, museum documents, photographs, material cultural heritage, social stratification, Bukhara State Museum-Reserve.

Kirish. Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda asta-sekin unutilib borayotgan qadimiy milliy an’ana va qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash hamda qayta jonlantirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda muzeylar hamda ularda uzoq yillar davomida jamlanib, saqlanib kelinayotgan osori-atiqalar, yozma manbalar va turli buyumlar muhim manba vazifasini bajarmoqda.

Xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi milliy liboslar qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy jarayonni o‘zida mujassam etib, moddiy va ma’naviy yodgorliklar orasida har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini yaqqol namoyon qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Buxoro amirligi davri milliy liboslarining o‘ziga xos xususiyatlarini bevosita tavsiflashdan ko‘ra, ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni va shaxsning ijtimoiy mavqeyini ifodalashdagi ahamiyatini manbalar asosida ochib berishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bir qator olimlarning ishlari o‘rganilib, qiyoslandi. Ayniqsa, Buxoro milliy liboslarini o‘rganish masalasida keng ko‘lamli tadqiqot olib borgan O.A.Suxarevaning ishlari alohida ahamiyatga ega. U dala tadqiqotlari va hujjatli materiallar asosida Buxoro aholisining an’anaviy kiyimlari haqida bir qator fundamental asarlar yaratgan[10. С. 3–13.]. N. Sodiqovaning kitobida ham O‘rta Osiyo, jumladan, Buxoroda tayyorlangan, foydalanilgan va olib kelingan fabrika matolari haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan [9. Б.11.].

Bizning tadqiqotda tarixiylik, xolislik, manbashunoslik tahlili, qiyosiy-tarixiy hamda vizual tahlil metodlaridan foydalanildi. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, ilmiy pasportlar, tarixiy fotosuratlar, kitob-

albomlar va boshqa muzey materiallari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Yozma hujjatlardagi faxriy liboslar, saroy zardo‘zlari va liboslarning ijtimoiy mavqe bilan bog‘liqligiga doir ma’lumotlar fotografik hamda tasviriy manbalar bilan solishtirildi. Vizual manbalarni o‘rganishda liboslarning shakli, bezaklari va ayrim tarkibiy elementlari bilan bir qatorda, ularni kiygan shaxslarning ijtimoiy mansubligiga alohida e’tibor qaratildi. Bunday kompleks yondashuv muzey hujjatlari va fotosuratlarni o‘zaro to‘ldiruvchi tarixiy manbalar sifatida o‘rganish hamda Buxoro amirligi davri liboslarining ijtimoiy maqomni aks ettiruvchi tarixiy-madaniy belgi sifatidagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Buxoro amirligi tugatilgach hukumat o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan osori-atiqalarga egalik qilish maqsadida ularni bir joyga yig‘ish vazifasini birinchi masala sifatida qo‘ydi. Bu yilda birinchi tashkil etilgan muzey fondida jamlangan ashyolar soni salmoqli darajaga yetadi [7. C.64-65.]. To‘plamning katta qismini Buxoroning so‘nggi amiri Olimxondan qolgan buyumlar tashkil etdi. Bu to‘plam ichida turli mazmundagi hujjatlar ham ahamiyatli hisoblanadi [11. Б.19.].

Muzeyda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy xodimlar ham o‘z ilmiy izlanishlari davomida ayni shu hujjatlar Buxoro amirligida milliy liboslarning aholi ijtimoiy hayotidagi o‘rni va uning kishilar mavqeyini ko‘rsatib beruvchi element ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan bir qator hujjatlar (ilmiy pasport)ni yozishgan. Jumladan, bunday tadqiqotlar sirasiga B.A. Kazakovning Buxoro amirligi hujjatshunosligiga bag‘ishlangan asarini ko‘rsatish mumkin [5].

Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi Hujjatlar fondida aynan amirlikda yuritilgan bir qator hujjatlar saqlangan bo‘lib, ular orasida mavzuga oid ma’lumotlarni uchratamiz. B.Kazakov yozgan bir qancha ilmiy pasportlar hozirda muzey fondida saqlanadi. 1966-yilda muzeyning asosiy kirim kitobiga kiritilgan bir qator hujjatlarga B.Kazakov 1977-yilda ilmiy pasport yozgan. Hujjatning birida “Ushbu buyruq shu haqdakim, bu shaxs amir xaznasidan faxriy libosga loyiq ko‘rildi” – deb ko‘rsatilgan [6. № 7, Инв:10981/11.]. Hujjatda shaxs nomi ko‘rsatilgan qismi shikastlangani sabab ayni kimga berilgani aniq emas. Lekin bu hujjat libosning qanday ahamiyat kasb etganligi haqidagi xulosani bera oladi. Chunki amirlik davrida zardo‘zi liboslar faqat amir oilasi kiyadigan va amir hadya etgan shaxslarda mavjud bo‘ladigan libos bo‘lgan. Libos ayni maxsus hujjat orqali taqdim etilayotgani esa bu libos zardo‘zi libos ekan degan xulosa berishga imkon beradi.

Muzeyda uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan tarix fanlari nomzodi, numizmat G‘.N.Qurbonov ham o‘z faoliyatlari davomida muzey hujjatlar fondi bilan ishlagan. Shunday hujjatlarning birida saroy zardo‘z ustalarining nomlari va ularning bir kunlik ish haqi maoshlari keltirilgan [6. № 6, Инв:10952/11-23.]. Hujjatda 22 ta zardo‘z usta nomlari keltirilgan bo‘lib, bu bizga o‘rganilayotgan davrda amirlik saroyida ishlagan zardo‘z ustalar haqida ishonchli ma’lumot beradi.

Mavzuni yoritishda muzey fondida mavjud, ayni shu davrga oid kitoblar, fotosuratlar, kitob-albomlardan ham keng foydalanildi. Fotosuratlarda ham biz o‘rganayotgan davrning turli ko‘rinishlari muhrlangan. Bunday fotosuratlar asosida chet elda nashr etilgan kitob-albomlar ham mavjud. Jumladan, Namkinning “Bukhara” nomli kitob-albomida amir oila-a’zolari 24 ta, amaldorlar 42 ta, amir harbiy qo‘shini 53 ta, Buxoro aholisi hayotiga oid 59 ta surat bor [1. 159 p.].

Muzey-qo‘riqxonaning hujjatlar fondi ham mana shunday noyob fotosuratlar kolleksiyasini o‘z bag‘rida saqlab kelmoqda. Bu kolleksiya tarkibida amir va uning oilasi, amaldorlar, oddiy aholi suratlari borki [3. Б. 82.], ular asosida biz o‘rganilayotgan davr liboslari va aholi ijtimoiy qatlami haqida yanada ko‘proq ma’lumotlarni jamlay olamiz.

XIX asr o‘rtalaridan XX asr birinchi yarmiga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan fotograflar o‘z ishlarida shahar hayoti, ijtimoiy qatlam va uning ko‘rinishlari, zodagon va oddiy aholi turmushini yoritib beruvchi lavhalarni muhrlashgan. Ayni shu davr oralig‘ida Buxoroda bo‘lgan fotograflar quyidagilar:

Rus armiyasi polkovnigi L.Barshevskiy Buxoro amirligi harbiylarining suratlarini olgan. Amir shaxsiy gvardiyasi sarkardasi tasvirlangan suratda biz harbiy amaldorning ust kiyimini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Suratda amaldor uzun yengli paxtali to‘n kiygan. To‘n harbiylarning mundiri ko‘rinishini eslatadi, chunki uning tik yoqasidagi jiyak yelka tomonidan ko‘rinib turibdi. Libos yoqa va yeng qismiga bir xilda bezak berilgan. Libos o‘ng ko‘krak qismida to‘rtta orden mavjud. Chap yelkadan ko‘ksiga faxriy lenta o‘tkazilgan. Kamari kumushdan ishlangan. Amaldor boshiga mo‘ynali telpak kiygan. Surat orqa fonida uchta mulozim ham bo‘lib, ular liboslari nisbatan oddiyroq va boshlarida oq salla o‘ralgan. Bellarida kamar tasvirlanmagan [6. № 1, Инв:592/нвсп.].

Buxoro amirligiga 1880-yilda tashrif buyurgan fotograf N.Orde o‘zining noyob kolleksiyasi bilan alohida ahamiyatli. Uning ishlari jamlanmasida amir Muzaffarxon, amir Abdulahadxon, amir qarindoshlari va amaldorlar suratlarini uchratamiz. 30 yoshli amir Abdulahadxon va oldida qushbegi Durbinbiy tasvirlangan fotosuratda ikkala shaxs ham qimmatbaho libosdaligi ko‘rinib turibdi. Ularning boshdan oyoq kiyimlari zardo‘zi-guldo‘zi uslubida tikilgan. Amir to‘ni yeng uchlarida mo‘ynali jiyak mavjud. Kamarlari baxmaldan bo‘lib, kumush bilan bezatilgan. Bunday xulosaga kelishning asosiy sababi bu davrda zodagonlar libosi kamarlari deyarli shu holda tayyorlangan [6. № 1, Инв:864/фф.].

Rossiya imperiyasi badiiy Akademiyasi akademigi, rassom L.E. Dmitriyev-Kavkazskiy ko‘p mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilgan. Uning 1894-yilda “По Средней Азии. Записки художника (199 рисунков)” nomli kitobi nashrdan chiqadi. Kitobda O‘rta Osiyoning ko‘plab hududlari, jumladan, Buxoro, Samarqand shaharlari haqida ham ma’lumotlar va suratlar keltirilgan. Aholining shug‘ullanadigan hunarmandchilik turlari haqida batafsil yoritilgan. Kitobdagi illyustratsiya suratlari ofort (akvafort) uslubida amalga oshirilgan. 199 suratning 30 dan ortig‘i Buxoro tarixiga oid bo‘lib [4. Б.66.], shulardan, 14 tasida shahar aholisi tasvirlangan. Jumladan, buxorocha chodir (palatka) deb nomlangan suratda 3 kishi o‘tirgan holda tasvirlangan. Asar o‘zida ko‘p ma’lumotlar va chizmalarni jamlagan qo‘llanma sifatida Rossiya uchun o‘sha davrdagi O‘rta Osiyoning noma’lum jihatlarini ochib bergan [8. C.82.]. “Qishki kiyimdagi buxorolik” deb nomlangan rasmda muallif buxoroliklarga ta’rif berib o‘tadi, ularning bir-biriga tashqi ko‘rinishi va kiyimlari jihatidan o‘xshab ketishini ta’kidlaydi [2. C.26.]. Suratda tasvirlangan buxorolik kimsa yon tomonga qaragan, uning egnida po‘stin mavjud bo‘lib, qo‘y yoki echki terisidan tayyorlangan. Po‘stin yuqori qismi yorqin sariq rangli baxmal charmdan ishlangan, shuningdek, nozik ipak kashtali bezagi bor. Buxorolikning boshida konussimon shakldagi qalpoq – kuloh bor. Mahalliy aholi asosan do‘ppi kiygan bo‘lib, uning ustidan qishda qalinroq bosh kiyim kiyishgan. O‘z vaqtida hukmdor va amaldorlar salla ostidan kiyish uchun bunday qalpoqlardan foydalanishgan.

Kitobning 17-sahifasida keltirilgan “Chorjo‘y begi” suratida o‘rta yoshlardagi erkak kishi tasvirlangan. Suratdagi shaxs bayram marosimlari uchun mo‘ljallangan marosim kiyimida. Kiyimning chap tomonida ko‘krak nishonlari tasviri mavjud. To‘q binafsharang baxmaldan tikilgan yengil ust kiyim ko‘krak qismi katta naqshli bezaklardan tashkil topgan. Kiyimning old qismida amirlikning yulduzli 2 ta ko‘krak belgisi va bo‘ynida xoch tasvirli rus ordeni mavjud. Uning belida keng buxorocha belbog‘ – kamar (to‘qasi tilla va kumushdan tayyorlangan) bo‘lib, kamarning bir tomoniga hashamdor shamshir osilgan, ikkinchi tomoniga o‘q solish uchun zardo‘zi xaltacha ilingan. Chalvarining pastida ipak jiyak bilan hoshiyalangan qismi mavjud bo‘lib, yon tomonida popukchalari bor. Oyog‘ida poshnasi baland bo‘lmagan buxorocha etik bor. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida ham ushbu kitobdan nusxa bo‘lib, kitob muzey ekspozisiyasida namoyish etilmoqda [6. № 6, Инв: 10370/11.].

Yana bir fotogrof bu S.M.Prokudin-Gorskiy bo‘lib, u yurtimizga jami 3 marta safar qilgan. So‘nggi safari 1911-yil bahor va kuz fasllarida bo‘lgan. Uning ishlari ichida eng noyobi bu albatta Amir Olimxon portretidir.

Muzey fondida yana bir surat borki, unda Amir Olimxon tik holatda suratga olingan. Suratda Olimxon generallik libosida. Fransuz velyuridan tikilgan mundir yelkasida oq rangli generallik pogoni, boshida muslindan salla, belida to‘qalik kamar, oyog‘ida etik bilan tasvirlangan. Amirning o‘ng qo‘li pastga tushirilgan, chap qo‘lida qilich ushlab turibdi. Mundirning old qismida ikki qatorda oltitadan tugma, o‘ng yelka pogoni pastidan chapga tomon charmdan tayyorlanib, metall plastina va toshlar bilan bezatilgan qilichni ushlashga mo‘ljallangan tasma. Chap tomon pogon ostida lenta o‘tkazilgan va uning markazi bo‘ylab ikkita Rossiya imperiyasi ordeni, undan o‘ngda ikkita Buxoro amirligi va uchta Rossiya imperiyasi ordenlari tasvirlangan. Mundir oq yoqali bo‘lib, o‘rtasida Rossiya imperiyasi ordeni krest taqilgan[6. № 5, Инв: 8622/12.].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida Buxoro amirligi davrining ijtimoiy-madaniy hayoti va milliy liboslariga oid muhim ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan tarixiy fotosuratlar, arxiv hujjatlari hamda boshqa muzey materiallarining salmoqli kolleksiyasi saqlanmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida ushbu manbalarning faqat ayrim namunalari tanlab olinib, mavzu nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ularning o‘rganilishi yozma manbalardagi ma’lumotlarni vizual dalillar bilan to‘ldirish, shuningdek, amirlik davrida aholining turli qatlamlariga xos liboslarning ko‘rinishi va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Ayniqsa, tarixiy fotosurat va tasviriy materiallarda Buxoro jamiyatining ijtimoiy tarkibi, turli hunar egalari, shaharda yashagan turli millat vakillari, saroy amaldorlari, harbiylar hamda zodagonlarning tashqi qiyofasi va kiyinish madaniyati aks etganligi bilan ahamiyatlidir. Ularni arxiv hujjatlari va muzey ilmiy pasportlari bilan qiyosiy o‘rganish liboslarning faqat kundalik ehtiyojni qondiruvchi moddiy madaniyat namunasi bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Ayrim liboslar, ularning bezaklari va tarkibiy elementlari kishining ijtimoiy mavqei, kasbiy mansubligi hamda saroy ierarxiyasidagi o‘rnini ifodalovchi muhim belgi vazifasini bajargan.

Shu jihatdan, muzey fondlarida saqlanayotgan hujjatli va vizual materiallar Buxoro amirligi davri liboslarini tarixiy kontekstda o‘rganish uchun muhim manbaviy majmuani tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Naumkin V. Bukhara. – Great Britain.:Garnet, 1993. – 159 p.

2. Дмитриев-Кавказский Л.Е. По Средней Азии. Записки художника с 199 рис. автора. - СПб.: А.Ф. Девриен, - С.26.

3. Жураев Ш. Коллекция Ремпеля в музейном фонде Бухары // «INFOLIB» 4 (32) 2022 – Б. 82.

4. Жўраев Ш.Дмитриев-Кавказскийнинг “По Средней Азии” асарида Бухорога бағишланган суратлар тавсифи // Инфолиб, 2021. – Б.66.

5. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. Ташкент, 1987. – С. 87.

6. КК(Бухоро давлат музей-қўриқхонасининг инвентарь китоби)

7. Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1983. –№ 1. – С.64-65.

8. Прищепова В.А. Иллюстративные коллекции по народам Центральной Азии второй половины XIX - начала XX века в собраниях Кунсткамеры. Санкт-Петербург «Наука» 2011. – С.82

9. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари (XIX – XX асрлар). - Т.: Ғафур Ғулом, 2006. – Б.11.

10. Сухарева О.А. Бухара XIX начало – XX в. (Позднефеодальний город и его население). – М., 1966. – 327 с.; Ўша муаллиф. Вопросы изучения костюма Средней Азии. // Костюм народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. – М., 1979. – С. 3–13.

11. Файзуллаев Ш.Н., Кличев О.А. Бухоро архив иши тарихи. – Бухоро: Дурдона, 2015. – Б.19.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARIDA MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA KADRLAR MASALASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR, HUDUDIY TAFOVUTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI

Moxira Maxmanova Normuminovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil taqdidotchisi
sevinchumir213@gmail.com
ORCID 0009-0004-2567-6792
UDK 94(575.1)

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bolalar musiqa va san'at maktablarining kadrlar bilan ta'minlanishi hamda inson resurslarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Ta'lim tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish jarayonlari hamda davlat siyosatining musiqa va san'at ta'limi sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Kadrlar ta'minoti, moddiy-texnik imkoniyatlar va malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishdagi hududiy tafovutlar ham o'rganilgan. Arxiv hujjatlari, rasmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlillar natijasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish hamda bolalar musiqa va san'at maktablarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan aniq amaliy taklif va tavsiyalar muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: musiqa va san'at maktablari, kadrlar siyosati, pedagog kadrlar, hududiy nomutanosiblik, malaka oshirish, Qashqadaryo, Surxondaryo, institutsional islohotlar.

PERSONNEL ISSUES IN MUSIC AND ART SCHOOLS OF KASHKADARYA AND SURKHANDARYA REGIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: INSTITUTIONAL REFORMS, REGIONAL DISPARITIES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abstract. This article examines human resource issues in music and art schools of the Kashkadarya and Surkhandarya regions during the years of Uzbekistan's independence. It analyses institutional reforms in the education system, the training and professional development of teachers and the implementation of state policy in music and art education. Particular attention is paid to regional disparities in staffing, the availability of qualified specialists and the factors influencing the sustainable development of these institutions. The research draws on archival documents, legal sources, statistical data and comparative historical analysis. The findings reveal achievements and challenges and offer recommendations for strengthening institutional capacity.

Key words: music and art schools, human resources policy, teaching staff, regional disparity, professional development, Kashkadarya region, Surkhandarya region, institutional reforms.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini modernizatsiya qilish jarayonlari umumta'lim tizimi bilan bir qatorda ixtisoslashgan musiqa va san'at maktablarining ham kadrlar bazasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Ushbu muassasalar hududiy madaniy kapitalni ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab beruvchi institut sifatida nafaqat ijrochilik an'analarini saqlaydi, balki bolalar va o'smirlar estetik tarbiyasi, kreativ kompetensiyalar, sahna madaniyati hamda mahalliy ijro maktablarining uzluksizligini ta'minlaydi. Biroq institut sifatida barqaror ishlashi avvalo pedagog kadrlarning soni, sifat ko'rsatkichlari, ixtisoslar tarkibi, ularning doimiy malaka yangilashi va kasbiy motivatsiyasiga bog'liq. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida bu bog'liqlik yanada yaqqol ko'rinadi, chunki mazkur hududlar demografik o'sish, qishloq aholisining salmog'i, tumanlararo masofa, transport va madaniy infratuzilma zichligi kabi omillar bilan ajralib turadi; bularning barchasi kadrlar oqimi va

Mavzuning dolzarbligi shundaki, kadrlar ta'minoti san'at ta'limi sifatini belgilovchi muhim, biroq ko'pincha bevosita ko'zga tashlanmaydigan omillardan biridir. Ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, bino va inshootlari, cholg'u asboblari hamda o'quv rejalarining yangilanishi pedagoglarning kasbiy salohiyati va malakasi yetarli darajada ta'minlanmagan sharoitda kutilgan ta'limiy natijalarni to'liq ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda san'at maktablarining kadrlar bilan ta'minlanishi, asosan, umumiy madaniyat va san'at siyosati doirasida tadqiq etilgan bo'lib,

hududiy darajadagi institutlararo hamkorlik, tumanlar kesimida pedagog kadrlar harakati va almashinuvi, ayrim ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tanqisligi yoki ortiqchaligi, shuningdek, malaka oshirish infratuzilmasining amaliy faoliyat mexanizmlari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mazkur holat san’at ta’limi tizimida kadrlar siyosatini hududiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanishini uzluksiz qo‘llab-quvvatlash masalalarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi ijtimoiy-geografik jihatdan murakkab hududlarda kadrlar muammosining tarkibiy sabablari va barqaror yechimlari to‘liq konseptuallashtirilmagan ilmiy bo‘shliq sifatida namoyon bo‘ladi. Mavjud tadqiqotlar ta’lim tizimi islohotlarini umumiy makro darajada bayon etadi, biroq san’at maktablari miqyosida pedagoglarni tayyorlash zanjiri, ishga joylashtirish, attestatsiya va rag‘batlantirish mexanizmlarining hududiy moslashuvini tahlil qilish cheklangan [1; 2].

Mazkur maqolaning maqsadi mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida musiqa va san’at maktablarida kadrlar bilan ta’minlashning institutsional dinamikasini tahlil qilish, muammolarni tizimlashtirish va barqarorlashtiruvchi omillarni aniqlashdan iborat. Maqsadga muvofiq vazifalar quyidagicha talqin qilinadi: birinchidan, san’at ta’limi kadrlar siyosatiga ta’sir qilgan normativ va boshqaruv omillarini ajratib ko‘rsatish; ikkinchidan, hududlararo taqqoslash asosida kadrlar yetishmovchiligi va sifati bo‘yicha tipik konfiguratsiyalarni aniqlash; uchinchidan, malaka oshirish, qayta tayyorlash va attestatsiya mexanizmlarining hududiy samaradorligini baholash; to‘rtinchidan, kadrlar barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy takliflarni ilmiy asoslash. Tadqiqot muammosi “kadrlar taqchilligi”ni faqat son ko‘rsatkichi sifatida emas, balki ixtisos tarkibi, kasbiy kompetensiyalar, institutsional rag‘batlar va hududiy sharoitlar bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida ko‘rish zaruratidan kelib chiqadi.

Metodlar. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-institutsional va tizimli yondashuv uyg‘unligiga asoslandi, chunki mustaqillik yillarida san’at ta’limi muassasalari kadrlar masalasi bir vaqtning o‘zida normativ boshqaruv, ta’lim bozori, hududiy infratuzilma va madaniy ehtiyojlar kesishgan maydonda shakllanadi. Birinchi metod sifatida hujjatshunoslik va normativ tahlil qo‘llanib, san’at ta’limi hamda kadrlar tayyorlashga oid dasturiy hujjatlar, vazirlik va idoralar qarorlari, hududiy boshqaruv amaliyotlaridagi tartiblar o‘rganildi; bu yondashuv kadrlar siyosatining rasmiy maqsadlari bilan amaldagi natijalar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rish imkonini beradi [3; 4]. Ikkinchi metod sifatida qiyosiy tarixiy tahlil tanlanib, Qashqadaryo va Surxondaryoda kadrlar ta’minoti omillari vaqt bo‘yicha va hududlar kesimida solishtirildi; bunday taqqoslash ijtimoiy-geografik sharoitlar bir-biriga yaqin bo‘lgan, biroq madaniy infratuzilma zichligi va kadrlar migratsiyasi yo‘nalishlari turlicha kechadigan viloyatlarda umumiy tendensiyalar va lokal farqlarni ajratishga xizmat qiladi. Uchinchi metod sifatida ikkilamchi empirik ma’lumotlar tahlili amalga oshirildi: ochiq statistik to‘plamlar, tarmoq hisobotlarida uchraydigan ko‘rsatkichlar, kadrlar tarkibi va ta’lim muassasalari tarmog‘i haqidagi ma’lumotlar kontekstual o‘qildi; bunda maqsad raqamlarni keltirishdan ko‘ra, ularning ortidagi institutsional mexanizmlarni izohlash uchun tipologik xulosalar chiqarishdir [5].

Shuningdek, konseptual tahlil doirasida inson kapitali va kasbiy kompetensiya haqidagi nazariy qarashlar san’at ta’limi kontekstiga moslashtirildi; bu pedagog kadrning “ijrochi” va “o‘qituvchi” sifatidagi ikki yoqlama professional identifikatsiyasini hisobga olishga yordam beradi [6]. Metodlarning bunday kombinatsiyasi tanlangan maqsadga mos, chunki kadrlar masalasi faqat boshqaruv qarorlarining mahsuli emas, balki hududiy mehnat bozori, ijtimoiy prestij, kasbiy o‘sish yo‘llari va ta’lim sifatini nazorat qilish institutlari bilan uzviy bog‘liq. Tadqiqotda axloqiy betaraflik tamoyili saqlanib, shaxsiy ma’lumotlar yoki identifikatsiya qiluvchi dalillar keltirilmagan, tahlil umumlashtirilgan ilmiy xulosalar darajasida olib borilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi musiqa va san'at maktablarining kadrlar ta'minotida uchta yirik yo'nalish doirasidagi muammolar izchil va barqaror ravishda takrorlanib kelganini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalish institutsional boshqaruv va strategik rejalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bunda kadrlar ehtiyojini aniqlashda mutaxassisliklar kesimidagi nomuvofiqlik va noaniqliklar ustunlik qiladi. Amaliyotda "pedagog yetishmovchiligi" tarzidagi umumiy tashxis ko'p uchrasa-da, mavjud kadrlar taqchilligi, asosan, tor ixtisosliklar doirasida namoyon bo'ladi. Xususan, ayrim cholg'u sinflari, ansambl va orkestr faoliyati, vokal ijrochilik hamda nazariy fanlar bo'yicha malakali pedagoglarni jalb etish va ularni tizimda barqaror saqlab qolish muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bois muammo faqat pedagoglar sonining yetarli yoki yetarli emasligi bilan emas, balki mavjud kadrlar tarkibining ixtisosliklar bo'yicha muvozanatli shakllantirilmagani bilan ham belgilanadi. Natijada o'quv rejasining tashkiliy jihatdan bajarilishi ta'minlangan taqdirda ham, ta'lim mazmunining kasbiy chuqurligi va o'quvchilarning amaliy ijrochilik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi pasayishi mumkin.

Ikkinchi blok hududiy nomutanosiblik bilan belgilanadi. Viloyat markazlari va yirik shaharlarda kadrlar resurslari nisbatan jamlangan, tuman va chekka hududlarda esa pedagoglar aylanishi yuqori bo'ladi. Qashqadaryoda tumanlararo masofalar va ish joyiga qatnovning murakkabligi ayrim mutaxassislarning bir necha muassasada o'rindoshlik asosida ishlashiga olib keladi; bu esa darslarning barqaror jadvalini ta'minlash va individual mashg'ulotlar sifatini bir maromda ushlab turishni cheklaydi. Surxondaryoda esa tog'oldi va chegaraoldi hududlarning logistik xususiyatlari, shuningdek, aholi zichligining notekis taqsimlanishi pedagoglarning ish joyini tanlashida markazga intilish tendensiyasini kuchaytiradi. Natijada tuman darajasida ixtisoslashgan fanlar bo'yicha "bitta mutaxassisga qaramlik" holati paydo bo'ladi: pedagog ish joyini o'zgartirsa yoki vaqtincha ketib qolsa, sinf to'liq to'xtab qolishi mumkin.

Uchinchi blok kasbiy rivojlanish mexanizmlarining uzluksizligi bilan bog'liq natijalarni qamrab oladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi formal mavjud bo'lsa-da, hududiy sharoitlarda uning samaradorligi ko'pincha qisqa muddatli kurslar bilan cheklanib, ijrochilik mahorati va pedagogik metodika integratsiyasini yetarli darajada ta'minlamaydi. San'at maktabi pedagogi uchun malaka oshirish ikki komponentdan tashkil topishi kerakligi aniqlanadi: sahna-ijrochilik kompetensiyasi va didaktik dizayn kompetensiyasi. Amaliyotda esa bir komponent ikkinchisini siqib chiqaradi: ayrim hollarda ijrochilikka urg'u kuchli bo'lib, metodik yondashuv ikkilamchi qoladi; boshqa vaziyatlarda esa metodik hujjatlashtirish ustunlashib, ijrochilik darajasini saqlash qiyinlashadi. Bu nomutanosiblik ta'lim sifatida "standartlashgan", biroq ijodiy natijasi sustlashgan modelga olib kelishi mumkin.

Natijalar, shuningdek, kadrlar barqarorligiga ta'sir qiluvchi rag'batlar tizimi hududlarda bir xil ishlamasligini ko'rsatadi. Maosh va ustamalar, xizmat uy-joyi, ish hajmini me'yorlash kabi omillar bir-birini to'ldiruvchi paket sifatida shakllanmagan taqdirda, yosh mutaxassisni tuman darajasida ushlab qolish qiyinlashadi. Qashqadaryo va Surxondaryoda yosh pedagoglar uchun kasbiy mentorlik mexanizmlarining yetarli institutsionallashmaganligi ham kuzatildi: tajribali o'qituvchidan yangi kadrga metodik va ijrochilik tajribasini o'tkazish ko'pincha shaxsiy tashabbus darajasida qoladi. Natijada kadrlarning "moslashuv davri" cho'zilib, ishda qolish ehtimoli pasayadi.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari tarmog'i kengayishi va qabul kontingenti o'sishi kadrlar ehtiyojini tezlashtiruvchi omil bo'lgan, biroq ta'minot zanjiri hududiy buyurtma logikasiga to'liq moslashmagani aniqlandi. Ya'ni, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tayyorlangan kadrlarning hududlarga qaytishi, tuman kesimida taqsimlanishi va uzoq muddatli ushlab qolinishini kafolatlaydigan mexanizmlar yetarli darajada mustahkam bo'lmaganda, ta'minot "markazga oqim" shaklida namoyon bo'ladi.

Bu holat san’at maktablari uchun ayniqsa sezilarli, chunki ixtisoslar tor va alternativ kadr topish imkoniyati cheklangan.

Muhokama. Olingan natijalar san’at ta’limi kadrlar siyosatini inson kapitali nazariyasi va institutsional boshqaruv yondashuvi nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Inson kapitali konsepsiyasida ta’lim sifati xodimning kompetensiyalari, tajribasi va motivatsiyasi orqali ishlab chiqariladi; san’at maktablarida esa bu kapital ikki karra murakkab, chunki ijodiy natija o‘qitish jarayonining ajralmas mahsuli sanaladi [6]. Shuning uchun Qashqadaryo va Surxondaryoda aniqlangan ixtisos bo‘yicha defitsit oddiy “kadr yetishmasligi” emas, balki hududiy inson kapitali tarkibining nomutanosibligi sifatida baholanishi lozim. Bu xulosa ta’lim menejmenti adabiyotlarida kadrlarni rejalashtirishda kompetensiya xaritalari va ehtiyoj prognozlarining ahamiyati ta’kidlanishi bilan mos keladi [7]. Biroq san’at maktablari kontekstida bunday xaritalash faqat fan nomlari bo‘yicha emas, balki ijro maktablari, ansambl tajribasi, sahna amaliyoti va repertuar siyosatini ham qamrab olishi kerak.

Rossiya tadqiqotchilarining san’at ta’limida pedagogik mahorat va ijrochilik mahorati uyg‘unligi haqidagi qarashlari bilan taqqoslaganda, mazkur maqolada aniqlangan malaka oshirishdagi ikki komponentning ajralib qolishi muammosi tizimli xususiyatga egaligi ko‘rinadi. Masalan, musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni integrativ modelda tashkil etish g‘oyasi didaktik va ijrochilik bloklarini bir dastur ichida uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi [8]. Qashqadaryo va Surxondaryoda esa hududiy cheklovlar, safar xarajatlari va o‘quv yuklamasining zichligi integratsiyani amalda qiyinlashtiradi, natijada kurslar ko‘proq formal attestatsiya ehtiyojini qondirishga yo‘naltiriladi. Demak, muammo kurslarning mavjudligida emas, ularning dizayni va hududiy moslashuvchanligida.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda hududiy tafovutlar ko‘pincha infratuzilma va moliyalashtirish bilan izohlanadi [1; 2]. Ushbu maqola esa hududiy tafovutlarning “yumshoq” determinantlarini ham ochib beradi: kasbiy prestij, mentorlik institutining zaifligi, o‘rindoshlik orqali ishlashning ko‘payishi va natijada o‘quv jarayonining fragmentatsiyalashuvi. Bunday xulosalar xalqaro adabiyotlarda madaniyat va san’at ta’limi muassasalarida ish sharoitlari hamda professional hamjamiyatning mavjudligi kadrlar barqarorligining hal qiluvchi omili ekani haqidagi qarashlar bilan uyg‘unlashadi [9]. Ya’ni, kadrni ushlab qolish faqat moddiy rag‘bat bilan cheklanmaydi; ijodiy muhit, metodik hamkorlik, repertuar va sahna amaliyoti imkoniyatlari ham muhim.

Hududiy nomutanosiblikning kuchayishida “markazlashuv inertsiyasi” alohida rol o‘ynaydi. Bu tushuncha san’at ta’limida kuchli pedagogik maktablar va sahna imkoniyatlari ko‘pincha markazlarda jamlanishi, natijada yosh mutaxassislar kasbiy o‘sishni markaz bilan bog‘lashi bilan izohlanadi. Qashqadaryo va Surxondaryoda aniqlangan “bitta mutaxassisga qaramlik” holati aynan shu inertsiya bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘quv dasturlarining uzluksizligiga risk tug‘diradi. Ta’lim siyosati bo‘yicha adabiyotlarda risklarni pasaytirish uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish, ko‘nikmalarni ko‘p tarmoqli qilish va tarmoqlararo hamkorlikni kuchaytirish taklif etiladi [7]. San’at maktablari uchun bu, masalan, nazariy fan o‘qituvchisini bir vaqtning o‘zida ansambl ishlari metodikasi bo‘yicha ham tayyorlash, yoki bir nechta cholg‘u bo‘yicha boshlang‘ich darajada dars bera oladigan kadrlarni ko‘paytirish kabi yo‘nalishlarda ko‘rilishi mumkin. Biroq bunday “ko‘p funksiyalilik” ijro sifati pasayishiga olib kelmasligi uchun standartlar va metodik nazorat aniq belgilanishi kerak.

Natijalar muhokamasida yana bir muhim jihat shundaki, hududiy buyurtma va taqsimot mexanizmlarining yetarli ishlamasligi kadrlar oqimini tabiiy ravishda markazga yo‘naltiradi. Xalqaro tajribada bunday vaziyatlarda “hududga qaytish”ni rag‘batlantiruvchi kontraktlar, stipendiya-majburiyat modellaridan foydalaniladi; biroq ularning samaradorligi faqat ma’muriy mexanizm sifatida emas, balki professional rivojlanish

yo‘llari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash paketlari bilan birga qo‘llangandagina oshishi ko‘rsatiladi [9; 10].

Xulosa. Tadqiqot mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi musiqa va san’at maktablarida kadrlar masalasi ko‘p qatlamli tizim ekanini asoslab berdi: muammo faqat pedagoglar sonida emas, balki ixtisoslar tarkibi, hududiy taqsimot, kasbiy rivojlanishning uzluksizligi va rag‘batlar paketining yetukligida jamlangan. Hududiy nomutanosiblik asosan tuman darajasida kuchliroq ko‘rinib, “bitta mutaxassisga qaramlik” va o‘rindoshlik asosidagi fragmentatsiyalashuv o‘quv jarayonining barqarorligiga risk tug‘diradi. Malaka oshirish amaliyotida ijrochilik va didaktik kompetensiyalar integratsiyasi yetarli bo‘lmagani ta’lim sifati uchun yashirin cheklov sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy hissa sifatida kadrlar barqarorligini oshiruvchi omillar tizimi taklif etildi: hududiy kompetensiya xaritalari asosida rejalashtirish, mentorlikni institutsionallashtirish, rag‘batlar paketini hudud sharoitiga mos yig‘ish, hamda sahna-amaliyot va metodik hamkorlik infratuzilmasini tumanlararo darajada kengaytirish. Kelgusidagi tadqiqotlar tuman kesimidagi ixtisoslar defitsiti xaritasini chuqurroq empirik o‘lchash, pedagoglar migratsiyasi motivlarini sifat tadqiqot usullari bilan ochish va rag‘batlantirish paketlarining samaradorligini baholash yo‘nalishlarida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Ташкент: Узбекистон, 1997. 326 с.

2. Абдураҳмонов Қ. Ҳ., Холмўминов Ш. Р. Инсон капитали: назария ва амалиёт. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2019. 312 б.

3. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. 28 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 44 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: statistik to‘plam. – Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi, 2018. 320 b.

6. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press, 1993. 412 p.

7. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. London: SAGE Publications, 2011. 224 p.

8. Николаева Е. В. Музыкальная педагогика: теория и практика профессиональной подготовки. – Москва: Академический проект, 2010. 256 с.

9. McCarthy K. F., Ondaatje E. H., Zakaras L., Brooks A. Gifts of the Muse: Reframing the Debate About the Benefits of the Arts. Santa Monica: RAND Corporation, 2004. 140 p.

10. UNESCO. The Road Map for Arts Education: Building Creative Capacities for the 21st Century. Paris: UNESCO, 2006. 24 p.

HUQUQIY IJTIMOIYLASHUV – YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILI

Saitxodjaev Xusan Bekjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi professori, falsafa fanlari nomzodi
xsaitxodjayev@mail.ru
ORCID 0009-0000-8421-7239
UDK 101.1:316.614-053.6

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonlarining o‘rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy asosda tahlil qilinadi. Huquqiy ijtimoiylashuv umumiy ijtimoiylashuvning alohida shakli sifatida qarab chiqilib, uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Huquqiy ijtimoiylashuvning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda axloqiy-ma’naviy turlar bilan o‘zaro dialektik birligi tahlil qilinadi, ularning umumiy va farqli jihatlari asoslanadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi ustuvor yo‘nalishlarga mualliflik munosabati bildiriladi. Shunga ko‘ra, yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv va subyektiv omillari o‘zaro birlikda tadqiq etiladi. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda huquqiy ijtimoiylashuvning bevosita va bilvosita usul hamda vositalarining muhim o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, huquqiy ijtimoiylashuv, yoshlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, obyektiv va subyektiv omillar, huquqiy norma, qonun.

LEGAL SOCIALIZATION AS A FACTOR IN ENHANCING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH

Abstract. This article analyses, from a socio-philosophical perspective, the role of socialization processes in the formation and development of legal consciousness and legal culture among modern youth. Legal socialization is examined as a specific form of general socialization. The study reveals the dialectical unity of legal socialization with its socio-economic, political-legal and moral-spiritual types, establishing their shared and distinctive features. Based on a comparative analysis of approaches by domestic and foreign scholars, the author’s position on priority directions is formulated. The article also highlights the significance of direct and indirect methods and instruments in shaping the legal consciousness of the generation.

Key words: socialization, legal socialization, youth, legal consciousness, legal culture, objective and subjective factors, legal norm, law.

Kirish. Inson tabiatning biologik farzandi sifatida dunyoga keladi. Ma’lum vaqtdan boshlab, ya’ni go‘daklik, bolalik va o‘smirlik davridan e’tiboran u o‘z intilishlari, qadriyatlari, maqsad va manfaatlariga hamda o‘zga insonlarga nisbatan muayyan munosabatiga ega bo‘la boshlaydi. Inson bu holatga ijtimoiylashuv jarayoni orqali erishadi. Taniqli faylasuf olim Q. Nazarov: “Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kekchirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilishi jarayoni”[1.454], deb ta’riflaydi. Ijtimoiylashuv – individning jamiyatda to‘la huquqli faoliyat ko‘rsatishi uchun ijtimoiy normalar, qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalar tizimini o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, unda shaxs shakllanadi va ravnaq topadi. Ijtimoiylashuv jarayonlari insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim determinant hisoblanadi.

Bugungi kunda internet olamining shiddat bilan rivojlanishi hamda raqamlashtirish jarayonlari yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda ijobiy ahamiyat kasb etish bilan birga, ongi va tafakkuri to‘liq shakllanib ulgurmagan yoshlarimizga salbiy ta’sir ham ko‘rsatmoqda. Mazkur masalani ilmiy jihatdan tadqiq qilish mavzuning o‘ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Ijtimoiylashuv – o‘z “men”ini shakllantirayotgan individning ijtimoiy va huquqiy normalarni o‘zlashtirishi asnosida betakror shaxsga aylanish jarayonidir. Insonning ijtimoiylashuvi murakkab va serqirra hodisa bo‘lib, u tashqi muhit hamda ongli ravishda yo‘naltirilgan huquqiy-tarbiyaviy ta’sirlar ostida amalga oshiriladi. Biroq bugungi kunga kelib, zamon mo‘jizasi sifatida namoyon bo‘layotgan sun’iy intellekt texnologiyalari

jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda va insoniyat rivojining yangi bosqichini belgilab bermoqda.

Adabiyotlar tahlili. Huquqiy ijtimoiylashuv – ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas tarkibiy qismini tashkil qiladi hamda yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ijtimoiylashuv masalasiga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar turlicha yondashadilar, ularning fikrlarida umumiy va farqli jihatlar mavjud. Amerikalik ruhshunos olim Lourens Kolberg o‘zining "*Axloqiy rivojlanish nazariyasi*"da yoshlar ongining shakllanish bosqichlarini o‘rganib, huquqiy ijtimoiylashuvda ta’lim tizimi va axloqiy tarbiyaning o‘rnini alohida qayd etadi [2.25]. Uning nazariyasiga ko‘ra, yoshlar huquqni bilish bilan birga uni hayotda qo‘llashni ham o‘rganishi zarurligini ta’kidlaydi. Yana bir amerikalik faylasuf "*Adolat nazariyasi"* muallifi Jon Roulz shaxs huquqiy ongi va madaniyati shakllanishi hamda rivojlanishini adolat prinsiplari asosida huquqiy ijtimoiylashuvning natijasi ekanligini e’tirof etadi [3.535].

Fransuz olimi Per Burdyo huquqiy ijtimoiylashuvni "*Madaniy kapital konsepsiya*"si orqali izohlab, ijtimoiy muhit ta’siri o‘rnining muhimligini alohida qayd etadi[4.60-74]. Jumladan, mahalliy olimlardan N.K. Daminova ta’lim tizimida huquqiy madaniyat tarbiyasi yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvining asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etadi[5]. O‘.K. Artiqov huquqiy ijtimoiylashuvda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi ahamiyatiga urg‘u beradi[6]. N.Sh. Umarova yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatiga OAV va internet tarmoqlarining ta’sirini o‘rgangan hamda zamonaviy media vositalaridan samarali foydalanish yo‘llarini tavsiya qiladi[7]. X.B. Saitxodjayev: "Ijtimoiylashuv – individning jamiyatda to‘la huquqli faoliyat ko‘rsatishi uchun ijtimoiy normalar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, shu jarayonda u shaxs sifatida shakllanadi", deb ta’kidlaydi. [8.351.b].

Huquqiy ijtimoiylashuv orqali yoshlar faqat huquqiy bilimlarnigina emas, balki huquqiy raftor, munosabat va fuqarolik pozitsiyasini mustahkam tarzda shakllantiradi. Huquqiy ijtimoiylashuv to‘g‘risidagi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlaridagi umumiy jihatlar shundan iboratki, bu jarayonda, avvalambor oila, ta’lim tizimi, jamiyat institutlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari hamda milliy kontent muhim rol o‘ynaydi.

Insonning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi o‘ta murakkab va serqirra hodisa bo‘lib, uning butun hayoti davomida: tug‘ilganidan boshlab, to umrining oxirigacha tabiiy huquqqa va pozitiv qonunlarga bo‘ysungan holda kechadi. Ular jamiyatda o‘zlari hamda atrofdagilarning xatti-harakatlari va yurish-turishlariga tegishli bo‘lgan qonun va qoidalarni bilishga intilib yashaydi va ularga amal qiladilar. Shuning uchun, biz huquqiy ijtimoiylashuvni insonlar xatti-harakatlarini imkon darajada belgilab beradigan huquqiy bilim va tajribalar hamda qonunlarni o‘zlashtirish, sohalar bo‘yicha zaruriy ijtimoiy malakalarni asta-sekinlik bilan egallash, o‘z huquqlarini anglab borish va ularga amal qilish, kishilar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar va ijtimoiy institutlar bilan bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganib, tushunib borish jarayonlarini huquqiy ijtimoiylashuv, deb hisoblaymiz. Huquqiy ijtimoiylashuv – huquqiy jihatdan himoya qilinadigan qadriyatlarning yoshlar qadriyatlari normasiga qo‘shilib borishidir.

Yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni quyidagi jihatlarni:

birinchidan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarga baho berish mezonlarini o‘zlashtirish;

ikkinchidan, kishining o‘ziga hamda butun jamiyatga daxldor bo‘lgan qonun va qoidalarni bilib borishi;

uchinchidan, mavjud qonun va qoidalardan qanday darajada foydalanish lozimligini o‘rganishni qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda falsafaning dialektik metodi,

analiz, sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, obyektivlik, tarixiylik, tizimli yondashuv tamoyillaridan foydalanildi.

Yoshlar jamiyatda o‘rnatilgan tartib-qoidalar va qonunlarni faqat tushunibgina qolmay, balki mana shu holatlar uning o‘ziga ham daxldor ekanligi, ya’ni bular orqali nimalarga ruxsat etiladi-yu, nimalarga ruxsat etilmasligi, agar qonunlarga itoat qilinmasa, qanday jazolar belgilanishi va qanday qonunlar orqali o‘zini himoya qilishi mumkinligini mantiqiy-falsafiy jihatdan o‘zlashtirgan holda tahlil qilishi lozim.

Huquqiy ijtimoiylashuv yoshlarning turli ijtimoiy guruhlarda o‘zining ijtimoiy rollarini tushunib hamda takomillashtirib borishi bilan bog‘liqdir. Yoshlar jamiyatda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishganida har xil rasmiy va norasmiy rollarni bajaradi. Ularning rasmiy rollari jamiyatdagi qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, norasmiy rollar bundan mustasno. Darvoqe, huquqiy ijtimoiylashuv jarayonini o‘rganishda asosiy e’tibor rasmiy rollarga qaratiladi.

Yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi – uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma’naviy va boshqa turlaridan quyidagi jihatlari bilan: *birinchidan*, o‘zining aniqligi; *ikkinchidan*, oldindan belgilab qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilganligi; *uchinchidan*, harakatlar mazmun-mohiyatining aniqligi bilan ajralib turadi. Bajarilishi lozim bo‘lgan rollar oldindan ma’lum qoidalar va qonunlar asosida belgilab qo‘yiladi. Uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan barqaror ijtimoiy munosabatlar o‘ziga xos huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Natijada har xil kasb bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy guruh vakillari o‘zlarining qonunlarda belgilab qo‘yilgan majburiyatlari to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladilar. Qonunlar shaxsning u yoki bu guruhdagi rasmiy maqomini belgilaydi.

Yoshlar o‘zlarining kasbiy faoliyati yoki lavozimini o‘zgartirganda yoxud bir ijtimoiy-demografik guruhdan boshqasiga o‘tganda (balog‘at yoshiga yetishi, turmush qurishi, nafaqaga chiqishi va boshqa holatlarda) mazkur tizimda qonuniy-me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan huquq va majburiyatlarning ijrochisiga aylanadi. Bunday holatlarda yoshlarga huquqiy bilimlar va ko‘nikmalarni lozim darajada bilishligi muhim hisoblanadi. Shu bois ham muhtaram Shavkat Miromonovich: “Bugun davlatlarning rivojlanishi ham, aholi farovonligi ham inson kapitali – shaxslarning bilim, ko‘nikma va salohiyatiga bevosita bog‘liq. Boshqacha aytganda, inson kapitali – taraqqiyotni belgilovchi resurs. Xuddi shunday qonuniyat davlat xizmatida ham amal qiladi. Davlat xizmatchisining bilimi, malakasi va ko‘nikmasi qancha yuqori bo‘lsa, boshqaruv samaradorligi ham shuncha baland bo‘ladi”[7], deb ta’kidlaydi.

Ayni paytda bu jarayonlar yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy madaniy munosabatlar, ularning kundalik turmushdagi munosabatlari, ya’ni aloqalaridan ajralgan holda boshqacha tarzda uchrashi mumkin. Ular urf-odat va axloqiy-huquqiy normalar bilan birgalikda keladi. Ko‘p hollarda bu munosabatlarga ularni boshqa guruhlardan ajratib turadigan kichik guruhlardagi o‘zaro munosabat usullari ham ta’sir etishi mumkin. Shuningdek, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayoniga jamoani boshqarish turi ham katta rol o‘ynaydi hamda guruh boshqaruvchisining shaxs sifatida psixologik, individual xususiyatlari bevosita unga ta’sir etadi. Bu va boshqa omillar mazkur jamoada mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiradi. Ba’zi hollarda guruh ichida qonunlarda belgilab qo‘yilgan talablarga zid bo‘lgan o‘zaro munosabatlar turi hamda noqonuniy va hatto kriminal munosabatlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Tahlillar va natijalar. Tabiiyki, bunday normalardan og‘ish g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun, avvalo, guruh manfaati, qolaversa, boshqaruvdagi shaxs — rahbar manfaatlari uchun amalga oshiriladi. Bunday holatlar sobiq sovet tuzumidan keyingi o‘tish davrida o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim eski qonunlarning ommaviy ravishda deyarli rad etilishi, yangi qonunlarning esa hali yetarlicha shakllanib ulgurmaganligi, shuningdek, alohida korxona va tashkilotlarga mustaqil xo‘jalik yuritish imkoniyatlarining berilishi

hamda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari ayrim rahbarlarga davlat mulkini noqonuniy o‘zlashtirish uchun asos yaratdi. Darvoqe, tarixiy vaziyat shuni ko‘rsatdiki, huquqiy ijtimoiylashuvning eski qolipdagi ko‘rinishlari o‘zini oqlamadi, yangilari esa ishlab chiqilmaganligi sababli yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayoni qonun va qonunchilik hujjatlariga ishonchning muayyan darajada yo‘qolishi hamda ularning obro‘sizlanishiga olib keldi.

Mustaqillik esa Yangi Uyg‘onish davri – bir butun holda amalga oshirilayotgan jarayonlar bilan bog‘liq ekanligini tushunishga yordam beradi. Ya’ni, jamiyatdagi huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy normalar hamda hayot qadriyatlari yo‘nalishlari yoshlarning hayot faoliyati uchun ilg‘or yo‘nalish va qadriyatlarga aylangandagina yoshlarda muayyan huquqiy ong hamda xatti-harakatlar shakllanadi.

Yangi O‘zbekiston yoshlari turli xil ijtimoiy munosabatlar tizimi hamda ijtimoiy guruhlar ta’sirida ulg‘ayib borar ekan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, huquqiy, iqtisodiy tuzilishini tashkil qiluvchi milliy qadriyatlar bilan munosabatda bo‘ladi hamda moslashib boradi. Ular negizida qonuniylashgan ijtimoiy falsafiy va axloqiy normalar yotadi. Shuning uchun ijtimoiy va huquqiy munosabatlar ijtimoiylashayotgan yoshlar tomonidan tabiiy va odatiy zarurat sifatida baholanadi. Aytish joizki, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi, avvalambor mehnat jamoalari, kichik guruhlar va alohida fuqarolik institutlari bilan barqaror munosabatlar natijasiga ko‘ra, tarixan tarkib topgan siyosiy tuzum ostida shakllanadi. Ular ko‘p hollarda qonun kuchi bilan mustahkamlanadi. Yoshlar tomonidan barqaror va o‘zaro huquqiy munosabatlarning o‘zlashtirib borilishi, ularning jamiyat va hokimiyat ishlarida ishtirok etishini kafolatlaydi. O‘z navbatida, jamiyatda qabul qilingan barcha qonunlar va ijtimoiy normalarga rioya qiladigan yoshlar jamiyatdagi mavjud siyosiy tuzumning barqarorligiga ishonch hosil qilib, uning asosini tashkil qilishadi. Bunday huquqiy ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u o‘ziga ta’sir etuvchi bevosita va bilvosita omillarga bog‘liqdir.

Yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi *bevosita omillar*ga birinchi navbatda, ta’lim tizimi orqali maqsadga yo‘naltirilgan huquqiy munosabatlarni o‘zlashtirish hamda huquqiy ong va madaniyatni uzluksiz targ‘ib hamda tashviq qilish kiradi. Bularning to‘rtta turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

*Birinchi turi*ga huquqiy ta’lim va tashviqot kiradi. Huquqiy ta’lim boshqa ta’lim yo‘nalishi singari uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, tarbiya usullari va pedagogika va psixologiya fanlarining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Huquqiy tashviqot ommaviy ma’ruzalar o‘qish, plakatlardan foydalanish, reklama hamda OAV orqali amalga oshirib boriladi. Zaruriy ashyolar puxta ishlab chiqilishi va ravon tilda yozilishi hamda estetik jihatdan o‘ziga tortadigan bo‘lishi lozim. Bu vazifalarning barchasi huquqiy madaniy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan yuridik hamda falsafiy yo‘naltirilgan institutlarning zimmasiga yuklatiladi.

*Ikkinchi turi*ga qonunlarda belgilab qo‘yilgan huquqlarni himoya qilish uchun qonunchilik organlariga murojaat qilib, uning natijadorligiga imkon boricha qoniqish hosil qilishni kiritish mumkin.

*Uchinchi tur*ga qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining ochiq-oydinligi va legitimligi hamda barcha yuridik institutlar va davlat organlarining mana shu qonunlarga qat’iy ravishda itoat etishini kiritish joizdir. Har qanday huquqiy hujjat sharoitga qarab tayyorlanish bosqichida o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun tushunarli va ravon bo‘lishi kerak. Ta’kidlash joizki, qabul qilinayotgan qaror yoki uning amalga oshirilishi mansabdor shaxsning individual xususiyatlari hamda kayfiyatlari va g‘arazli manfaatlariga bog‘liq bo‘lmasligi lozim.

*To‘rtinchi tur*ga ijtimoiy guruhlarning qadriyatlar, axloqiy normalar va urf-odatlariga yaqin bo‘lgan o‘zaro ishonch munosabatlari falsafiy-mantiqiy mushohada

orqali olib kiriladi.

Yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvining *bilvosita omillariga* jamiyatda moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy hamda madaniy sohalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi nazarda tutiladi. Ular to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuviga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta'sir etmasa-da, balki davlat qonunchilik hujjatlariga ishonch hisini uyg‘otadi hamda uning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turadigan konstitutsiyaviy qonunlar ham yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining bilvosita omillaridan bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining nisbatan keng tarqalgan omillaridan biri atrofdagilarning qonunlarning legitimligiga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishidadir.

Shunday qilib, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi jamiyat huquqiy-siyosiy tizimi to‘g‘risidagi mexanik axborotlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmay, balki mazmunan o‘ta murakkab jarayondir. U yuridik tashkilotlar faoliyatiga mas'uliyat va majburiyatlar hamda chuqur ilmiy nuqtayi nazardan falsafiy-mantiqiy dunyoqarash asosida yondashishni talab qiladi.

Aytish joizki, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi obyektiv va subyektiv omillardan iboratdir. Yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv omillariga aholi asosiy qismining turmush tarzi va farovonligi, jamiyatda olib borilayotgan huquqiy-siyosiy amaliyot hamda joriy qonunlarning amaliyotga qanday darajada tatbiq etilishi, ya'ni qonunlarga fuqarolarning amal qilishi kiradi. Agar jamiyatda olib borilayotgan davlat siyosati huquqiy davlat qurishga yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyatda demokratik prinsiplar qaror topayotgan bo‘lsa, jamiyatning huquqiy tizimida umuman ijobiy muhit shakllanadi. Bunday siyosat yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayoniga shubhasiz, ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Aks holda, jamiyat huquqiy tizimida qonunlarga munosabat salbiy tarzda bo‘lishi mumkin.

Yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining subyektiv omiliga eng avvalo yoshlarning o‘zi kiradi. Yoshlar – o‘zini o‘zi tarbiyalashi, o‘zini mustaqil shaxs sifatida yo‘naltirishi ular huquqiy ijtimoiylashuvining asosiy subyektiv omili bo‘lib hisoblanadi. *Ikkinchidan*, ota-onalar, qarindosh-urug‘lar, xesh aqrabolar, jamoa a'zolari va boshqalar yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining muhim omillaridir. *Uchinchidan*, jamiyatning yuridik va jamoa institutlari, boshqa ta'lim-tarbiya muassasalari yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining alohida subyektiv omillarini tashkil qiladi. Jamoa institutlari yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining subyektiv omili sifatida, huquqiy ijtimoiylashuvining aniq maqsadlari mazmun-mohiyati, metodikasi mexanizmlarini belgilab beradi, ya'ni yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, umuman, jamiyat madaniyati yaxlit holda yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv va subyektiv omillari sifatida namoyon bo‘ladi hamda huquqiy ijtimoiylashuvning yo‘nalishlarini belgilaydi. Yoshlar huquqiy ijtimoiylashuvi alloma Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadur" ulug‘ falsafiy dunyosi kabi amalga oshadigan murakkab va bir butun jarayon bo‘lib, ularning yetuk huquqiy madaniyat sohibi bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi[8.272.]. Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksalib boradi. Kelajagimiz vorislari bo‘lgan har bir yosh yigit va qizlarimiz yuksak darajada huquqiy ong va madaniyatga ega bo‘lishadi. Ular davlat manfaatlarini asrab-avaylash hamda huquqiy normalarga rioya qilgan holda o‘zlari faoliyat olib boradigan jamoalarda ibrat bo‘lishlari aniq, albatta.

Xulosa. Xulosa shuki, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatni egallashi faol fuqarolik pozitsiyasini olishga hamda qonun-qoidalarga hurmat bilan yondashishga yordam beradi. Huquqiy ijtimoiylashuvning samarali tarzda o‘sa borishi yoshlarda huquqiy tarbiyaning ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston "*Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat*" degan asosiy g‘oya negizida

barpo etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad va vazifa asosida xalqimiz yangidan yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-жилд. –Т.: 2023. Б.454.

2. Кольберг Л. Ступени морального развития / Пер. с англ. // Развитие личности. –2004. – № 3. – С. 25.

3. Ролз Дж. Теория справедливости / Пер. с англ. В. В. Целищева при участии А. А. Шевченко и В. Н. Карповича. – Новосибирск: Изд-во Новосиб. ун-та, 1995. – 535 с.

4. Бурдье П. Формы капитала / Пер. с англ. М. С. Добряковой // Экономическая социология. – 2002. – Т. 3, № 5. – С. 60–74.

5. https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/1193588.pdf.

6. https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/14369/18513.

7. https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/1132037

8. Saitxodjaev X.B. Sotsiologiya. Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017. B. 351.

9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonga qanday kadrlar kerak? // Yangi O‘zbekiston. – 2020-yil 25-yanvar.

10. Румий Ж. Ичиндаги ичиндадур. –Т 2023. – Б 272.

NAQSHBANDIYA RUHIY KAMOLOT YO‘LI VA ALISHER NAVOIY MA’NAVIY MEROSI (tahliliy tadqiq)

Navro‘zova Gulchehra Nigmatovna
Buxoro davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori
premium.progress@mail.ru
ORCID 000-0002-7965-0748
UDK 10(091)(045)

Annotatsiya. Maqolada Naqshbandiya ta’limotining asoschisi Bahouddin Naqshband g‘oyalarining Alisher Navoiy tomonidan nazariy rivojlantirilganligi asoslangan. Navoiyning ma’naviy merosidagi Naqshbandiya ta’limoti tarixi va asosiy tushunchalari tasnifiga bag‘ishlangan asarlari tahlil etilgan, ularning tarbiyaviy ahamiyati ko‘rsatilgan. “Lison ut-tayr” dostonidagi misralar va Naqshbandiya g‘oyalari qiyosiy tahlil etilib, Navoiyning “Safar dar Vatan” tamoyili mohiyatini naqadar mahorat bilan angla gani ochib beriladi. Bu tamoyilda botindagi sayohat orqali illatlardan xalos bo‘lib, maqtalgan axloqqa erishish yo‘llari ko‘rsatilgan. Inson kamolotga yetib, zohiran “kichik olam” bo‘lsa-da, botinan “Kabir olam” darajasiga yetishi tavsiflangan. Navoiy qit’asida Naqshbandiya axloqiy talablarining asosi bo‘lgan “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar Vatan”, “Xilvat dar anjuman” tamoyillarini izohlaydi.

Kalit so‘zlar: Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Naqshbandiya, rashha, “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar Vatan”, “Xilvat dar anjuman”, zikr.

THE NAQSHBANDI PATH OF SPIRITUAL PERFECTION AND THE SPIRITUAL HERITAGE OF ALISHER NAVOI: AN ANALYTICAL STUDY

Abstract. The article substantiates that the ideas of Bahauddin Naqshband, founder of the Naqshbandi order, were theoretically developed by Alisher Navoi. It analyses Navoi’s works devoted to the history of the Naqshbandi tradition and highlights their significance for the upbringing of a well-rounded generation. Verses from Lison ut-Tayr are compared with Naqshbandi principles, demonstrating Navoi’s profound understanding of Safar dar Vatan, the inner journey through which a person is purified of vices and attains praiseworthy character. In one qit’a Navoi explains the four ethical principles of the order: Hush dar Dam, Nazar bar Qadam, Safar dar Vatan and Khalvat dar Anjuman.

Key words: Bahauddin Naqshband, Alisher Navoi, Naqshbandiyya, rashha, “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar watan”, “Khalvat dar anjuman”, dhikr.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun barkamol insonni tarbiyalash dolzarb masaladir. Bu vazifani amalga oshirishga Birinchi va Ikkinchi Renessans ma’naviy merosidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ikkinchi Renessans davrining ikki tabarruk insoni – Bahouddin Naqshband va Alisher Navoiy ta’limotlari ta’sirini o‘rganish zaruratdir. Shuning uchun Naqshbandiya ruhiy kamolot yo‘li va Alisher Navoiy ma’naviy merosini o‘zaro ta’sir dialektikasini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Naqshbandshunoslik sohasida navoiyshunos olimlar A. Hayitmetov, Izzat Sulton, Hamidxon Islomiy, Sultonmurod Olim, Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan, Sayfiddin Sayfulloh va boshqalarning tadqiqot natijalari e’lon qilindi. 1991-yilda “Adabiyot va san’at” nashriyotidan Ibrohim Haqqulning “Tasavvuf va she’riyat” asari nashr etildi. Unda naqshbandiya ta’limoti Alisher Navoiy nigohi bilan tahlil etilgan. Bahouddin Naqshband haqida Alisher Navoiyning asarlarini tahlil etib, Izzat Sulton 1994-yilda “Bahouddin Naqshband abadiyati” nomli risola tayyorlab, “Fan” nashriyotidan chop etdi. Unda Naqshbandiya tariqatining hozirgi davr uchun ahamiyatli jihatlariga maxsus e’tibor berilgan. 1995-yilda “Movarounnahr” nashriyoti Hamidxon Islomiyning “Ipor hid bilan tug‘ilgan orif” (Xoja Bahouddin Naqshband) degan risolasini chop etdi. Sultonmurod Olim 1996-yilda “Naqshband va Navoiy” asarini nashr etib, unda Navoiyning Bahouddin Naqshband va Naqshbandiyaga oid merosini ilmiy tahlil qildi [1:8]. Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligiga bag‘ishlab Sayfiddin Sayfulloh 2019-yil “O‘zbekiston” nashriyotidan “Yetti pir. Dunyo murshidlari” nomli asarni chiqardi. Unda ham Bahouddin Naqshband haqida ma’lumotlar berilgan.

Bahouddin Naqshband haqidagi manbalar tarjima etildi, “Avrod” asari borligi

aniqlandi va qator yangi tadqiqotlar natijalari e'lon qilindi. Ammo hali o'rganilishi lozim bo'lgan ko'p masalalar mavjud. Shulardan biri Naqshbandiya ruhiy kamolot yo'li va Alisher Navoiy ma'naviy merosining ochilmagan qirralarini o'rganishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Naqshbandiya ruhiy kamolot yo'li va Alisher Navoiy ma'naviy merosining tadqiq etishda qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik hamda germenevtika uslubidan foydalandik.

Natijalar va muhokama. Ma'lumki, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy do'sti va ustozi Abdurahmon Jomiy rahbarligida tasavvuf falsafasi va Naqshbandiya ta'limotini o'rgangan [2:142]. Alisher Navoiy 1476-yilda Naqshbandiya tariqatini ixtiyor etib, unga kirgan [3:84, 4:13]. U Abdurahmon Jomiyni o'ziga pir-u murshid deb tanlagan. Bu tarixiy voqea Naqshbandiya tariqatining Alisher Navoiy hayoti, falsafiy qarashlari va ta'limotida yuksak va muhim mavqe egallaganini ko'rsatadi.

Navoiy ma'naviy merosini o'rganib, uning Naqshbandiya tariqatiga doir yaratgan durdonalarini mazmun-mohiyatiga qarab shartli ravishda ikkiga bo'lishimiz mumkin:

Birinchidan, "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat" Alisher Navoiyning Naqshbandiya tarixiga doir yozilgan eng yirik asaridir. Bu asar asosan Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarot al-quds" asarining to'ldirilgan tarjimasidir.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari turkiy tilda yozilgan tasavvuf tarixiga oid juda qimmatli manbadir. Unda O'rta Osiyoda tarqalgan tasavvufning yo'lboshchisi va Xojagon-Naqshbandiya tariqatining piri Yusuf Hamadoniy, Xojagon tariqatining asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoniy, uning izdoshlari Xoja Ali Rometaniy, Xoja Muhammad Boboi Samosiy, Said Amir Kulol, Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari Xoja Muhammad Porso, Sa'duddin Qoshg'ariy, Mavlono Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror va boshqalar haqida nodir ma'lumotlar berilgan. Eng qimmatlisi – bu asar turkiy tilda yozilgan asl manbadir. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarining boshqa forsiy tilda yozilgan Naqshbandiya tarixiga doir manbalardan afzalligi shundaki, unda turk mashoyixlari haqida nodir ma'lumotlar bor. Masalan, bu asarda biz Naqshbandiya tariqatining asoschisi bo'lgan Bahouddin Naqshbandning ustozlaridan turk mashoyixlari Qusam Shayx va Xalil ota haqida ma'lumotni topdik. Bu esa Naqshbandiya tarixini yoritadigan asosiy manbalar Jomiyning "Nafahot ul-uns" va Faxriddin Ali Koshifiy as-Safiyning "Rashahot ayn-ul xayot" asarlarida uchramaydi.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Xoja Bahouddin Naqshband zikrida Naqshbandiya ta'limotining o'ziga xos tomonlarini juda yaxshi bayon etgan. Bu ta'limotda anjumanda xilvat, zohir yuzidan xalq bilan va botin tarafidan Haq bilan ekanligini ishonchli dalillar bilan isbotlagan [5:261-265].

Hazrat Bahouddinni Shoh Naqshband ekanligi haqida eng mukammal tavsiflangan manba Alisher Navoiyning dunyoga mashhur "Xamsa" asarining birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"dir. Bu dostonning XXI bobidagi 30-misrasi to'la Bahouddinga bag'ishlangan. Bu tavsifda Alisher Navoiy 23 marotaba naqsh va 8 bor ildizi naqsh bo'lgan so'zdan mohirona foydalanib, Bahouddinni "Naqshbandlar Shohi" va u yaratgan ta'limotni "dilnavoz naqsh", "ajab naqsh" sifatida tavsiflagan.

Alisher Navoiy bobni "Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirruhu madhidakim, sun' naqqoshi hikmat xomasi bilan ro'zg'or sahifasida aning vujudi naqshini islomiy tarh etti va surati irshodi bilan kufr ahli ko'ngli varaqidan xitoyi va farangi naqshi ketti" deb nomlagan [6:82-83].

Muncha ajab naqsh bila arjumand,

Kimsa emas g'ayri Shahi Naqshband [7:83].

"Muncha ajab naqsh" deb Naqshbandiya ta'limotini ajoyib naqsh sifatida ta'riflab, Bahouddin qalbiga solinganligi aynan shu ajab naqsh Bahouddinni Shoh Naqshband

sifatida arjumand – aziz-u mukarram etilganligiga ishorat etilmoqda.

“Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” asarida ham Naqshbandlar naqshi ulug‘lanib, shunday yozilgan:

Tu naqshi naqshbandonro chi doni,
Tu shaklu paykari jonro chi doni?
Daraxti sabz donad qadri boron,
Tu xushki qadri boronro chi doni? [8:166]
Mazmuni:
Sen Naqshbandlar naqshini qayerdan bilarding,
Sen jonimiz paykari bo‘lgan shaklni qayerdan bilarding?
Yashil daraxtlar yomg‘ir qadrini biladi,
Sen quruq bo‘lganing uchun uni qadrini qayerdan bilarding?

Ikkinchidan, Alisher Navoiyning Naqshbandiya ta’limotining asl mohiyati to‘g‘risidagi fikrlari uning qit’a va she’rlari, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarida nazmiy va nasriy shaklda keng yoritilgan.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy Naqshbandiya yo‘lining asoschisi Bahouddin Naqshband va u kishining izdoshlari bo‘lgan shayxlarni “Lison ut-tayr” asarida sidra daraxti (jannatdagi daraxt)dagi qushlarga o‘xshatadi. Shoir bu qushlar sokin va tinch hayot kechiradilar, hech narsadan norozi emaslar, har yoqqa talpinib parvoz qilmaydilar deya, bunday yuksak darajaning asosini Naqshbandiya ta’limotining tamoyili bo‘lgan to‘rt rashha tashkil etganligini ta’kidlaydi. Asarda Hudhud tili orqali Naqshbandiya ta’limoti mohiyati quyidagicha ochib berilgan:

Bor aningdek qushki ochmay bolu par,
Sidra shoxi ustida aylar maqar [9:81].

Bu misrada Alisher Navoiy “qushki ochmay bolu par” sidra-yettinchi osmondagi daraxtning shoxida manzil qurgan degan majoziy iboralar orqali Naqshbandiya tariqatining asosiy axloqiy tamoyillaridan bo‘lgan “Safar dar Vatan”ning mohiyatini ochib beradi.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi misralar bilan Naqshbandiya ta’limoti g‘oyalarini qiyosiy tahlil etsak, Navoiyning naqadar mahorat bilan “Safar dar Vatan” tamoyili mohiyatini anglaganini ko‘ramiz. “Safar dar Vatan” tamoyilida botindagi sayru sayohat ila barcha illatlardan qutulib, hamida, ya’ni maqtalgan axloqqa erishish yo‘llari ko‘rsatilgan. Buning natijasida inson kamolotga yetib, zohiran “Kichik olam” bo‘lsa ham, botinan “Kabir olam” darajasiga yetishini Navoiy “ochmay bolu par”, “Arshparvoz” va “Sidranishin” iboralari bilan quyidagicha tavsiflagan:

Keldi xilvatgohi oni anjuman,
Sayr etar, lekin yeri doim vatan.
Arshparvoz o‘ldiyu sidranishin,
Elga zohir aylamay parvoz ishin [10:81].

“Xilvatgohi oning anjuman” misralari orqali Alisher Navoiy Naqshbandiya axloqiy tamoyillaridan yana biri “Xilvat dar anjuman”ni tavsif etadi. Aynan “Xilvat dar anjuman” va xufiya zikr Naqshbandiya ta’limotida “Dil ba Yoru dast ba kor” – “Qalb Alloh bilan va qo‘l ishda” shiori asosida faol yashash hamda xolis mehnat qilib, ezgu ishlarni qilishga imkon beradi.

Alisher Navoiy o‘zining “Qanoat naqshining ifshosi va Naqshbandiya tariqatining adosi” qit’asida Naqshbandiya axloqiy talablarining asosi to‘rtta ekanligi: “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar Vatan”, “Xilvat dar anjuman”larni she’r ila izohlaydi.

Naqshbandiya ta’limotidagi asosiy kamolot holati – fanoga oid Navoiyning aytgan fikrlari juda qimmatlidir. Alisher Navoiy “Lison-ut tayr” dostonida fanoi komil haqida fikr yuritarkan, Bahouddin Naqshband xoksorlik qilib o‘zini itning izidan ham past

tutganligini bayon etadi. Bu yerda ham Navoiyning Naqshbandiya tariqatining mohiyatini to‘la anglab yetganligi ko‘rsatiladi. Darhaqiqat, bu tariqat ahli butun borliq Ollohning tajalliysi, uning husni namoyon bo‘lishi, deb uni e’zozlaganlar. Alisher Navoiy bu dostonda Naqshbandiylarning fano darajasini quyidagicha tavsiflagan:

Ahli Haq bu nav’ etib salbi vujud
Bo‘ldini bu vajh ila aylab nobud.
Bo‘yla oshom ettilar jomi fano,
Qolmog‘ondin so‘ng asar o‘zdin yano.
Haq vujudidin baqoye topmayin,
Jomi vahdatda liqoye topmayin,
Chun fano xayliga doxil bo‘ldilar,
Boqiyi mutlaqqa vosil bo‘ldilar [11:225].

Bahouddin Naqshbandning “Al kosib habibulloh” hadisini sharhlab, bayon etganlarini Alisher Navoiyning quyidagi nazmiy misralari ochib bergan:

Nukta asnosida Habibulloh,
Dedi, al kosibu habibulloh.
Ma’ni aytur bu so‘zga piri komil,
Ki so‘z erdi Haq sari shomil.
G‘araz ermas bu so‘zdin dunyo,
Bal erur kasbdin murod fano [12:487].

Misralar mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, halol mehnat, xolis amal natijasida fano holati hosil bo‘ladi va shaxs boqiylik bilan bog‘lanadi. Alisher Navoiy fano darajasiga ulg‘ayish uchun qanoat zarurligini ta’kidlaydi.

Naqshbandiya ta’limotini qabul etib, o‘z asarlari orqali targ‘ib etgan Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da yozadiki, butun olamni yaratishdan maqsad inson bo‘lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo‘qdir. Inson ko‘ngli bamisoli bilimlar xazinasi bo‘lib va bu tilsim ichida Tangri o‘zini yashirgan. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasi o‘laroq o‘zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Chunki Tangri o‘z sirining xazinasini ochmoqchi bo‘lganida uni na samo, na yer qabul qilmadi. Inson shuning uchun barcha narsalardan mumtoz qilib yaratilgan. Inson Yerda Xudoning o‘rinbosari – xalifasi bo‘lish baxtiga sarafroz bo‘lgan. Inson Tangri Jamolu Jalolini bilishi, o‘ziga xos, mumtoz va Tangrining yerdagi xalifasi bo‘lishi baxti qalbi – ko‘ngli tufaylidir.

Navoiy inson ko‘ngli Haq tomoniga qaratilsa, unda Ollohning husn-u jamoli jilva etadi, bu jarayonda inson oinani to‘g‘ri tutishi masalasi ham muhim ekanligini ta’kidlamoqda. Chunki ko‘zgu qayerga qarasa, o‘sha nurni aks ettiradi. Inson o‘z mohiyati va ko‘nglini oliy qadriyatligini anglasa uni to‘g‘ri tutib, oinadorlik – ko‘zguni saqlash, ya’ni qalbni Allohga qaratish, “Vuqufi qalbiy” vazifasini ijobiy hal eta oladi.

Ma’lum bo‘ladiki, ko‘ngil qancha pok va ilohiy mohiyatni anglashga ravona etilgan bo‘lsa, shuncha asl haqiqat unda aks etadi. Agar inson miyasi moddiy olamnigina in’ikos etsa va uni anglab, tahlil etsa, qalb butun borliqni aks ettira oladi. Miyani bilish, in’ikos etishning chegara, cheki, meyori bor, ammo qalbning bilish darajasi cheksizdir. Shuning uchun ham qalb in’ikos etishini umuman aksning eng oliy darajasi deyish mumkin.

Alisher Navoiy umrining oxiri – 1500–1501-yillarda yaratgan “Mahbub ul-qulub” asarida butun tasavvuf va inchunin, Naqshbandiya uchun zarur maqomlar sifatida qabul etilgan tavba, qanoat, sabr, ishq to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Xulosa. Poklik va soflikning ramzi bo‘lgan Alisher Navoiy Naqshbandiya tariqatining ixlosmandi sifatida Naqshbandiya tarixi, nazariyoti va amaliyotini chuqur bilgan. Navoiy o‘zining shoh satrlari orqali Naqshbandiya tarixi va mohiyatini bizlargacha yetkazgan buyuk allomadir.

Alisher Navoiyning Naqshbandiya ta’limotiga oid ma’naviy merosini chuqur tahlil

etish va yoshlar ongiga singdirish barkamol insonni tarbiyalashning muhim omilidir. U yozgan asarlar tilini tushunish uchun maxsus tayyorgarlik kerakligi uchun Naqshbandiyaga oid asarlarini sharh va izohlar bilan nashr etish lozim.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga kirganliklari va Abdurahmon Jomiy kabi Naqshbandiyaning Hirot jamoasining piridan ta'lim olganliklari uchun yaratgan asarlari bu ta'limotning muhim va qimmatli manbasi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. 8-bet.

2. Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi. G. N. Navro'zova. –Toshkent: Sano-standart, 2019. 142-bet.

3. Тримингэм Дж.С.Суфийские ордены в исламе/ Перевод с англ. А.А.Ставиской, под редакцией с предисл О.Ф.Акимушкина. Масква: Наука Глав.ред.вост.лит-ры,1989. - 84 с.

4. Афсахзод А. Абдураҳмон Жоми. – Душанбе: Маориф, 1978. 13 с.

5. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Мукаммал асарлар тўплами. 17-том. – Тошкент:Фан, 2001. 261-265-бетлар.

6. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр / Хамса. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011. 82-83-бетлар.

7. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр/ Хамса. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011. 83-бет.

8. Абул Муҳсин Муҳаммад Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент: O'zbekiston, НМИУ, 2019. 166-бет.

9. Алишер Навоий. Лисонут-тайр. (Насрий баёни билан). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 81-бет.

10. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот (Оби ҳаёт томчилари). Тарихий-маърифий асар. Табдил ва сўнгсўз муаллифи: М. Ҳасаний; луғат, сўнгсўз муаллифи ва масъул муҳаррир Б. Умрзоқ; ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр, 81-бет.

11. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. (Насрий баёни билан). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 225-бет.

12. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. Мукаммал асарлар тўплами. 5-том. Тошкент: Фан, 1990. 487-бет.

RAQAMLI MAKONDA ISHONCHSIZLIK, ALGORITMIK XATO VA AXLOQIY JAVOBGARLIK MUAMMOLARI

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar kafedrasi, dotsent
z.abdullayeva.tatu@gmail.com
ORCID 0009-0006-0318-2091
UDK 177:004.4

Annotatsiya. Maqolada ishonch va ishonchsizlik o‘rtasidagi munosabatlar tizimli bog‘liqlik nuqtayi nazaridan yoritilib, raqamli makonda ishonchsizlikning shakllanishi, algoritmik xatolarning ijtimoiy oqibatlari hamda axloqiy javobgarlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari, raqamli platformalar inson hayotiga chuqur kirib bormoqda, biroq ular har doim ham adolatli, shaffof va xatosiz ishlamaydi. Algoritmik noto‘g‘ri baholash, ma’lumotlardagi tarafkashlik, shaxsiy ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish hamda javobgarlik chegaralarining noaniqligi ishonch inqiroziga sabab bo‘lishi ko‘rsatiladi. Inson va algoritmik qarorlar o‘zaro taqqoslanib, ishonchsizlikni kamaytirish yo‘llari umumlashtirilgan. Raqamli texnologiyalar inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun shaffoflik, adolat, maxfiylik, javobgarlik va inson nazorati asosiy mezonlar sifatida qaralishi zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli makon, ishonchsizlik, algoritmik xato, sun’iy intellekt, axloqiy javobgarlik, shaffoflik, adolat, inson nazorati.

PROBLEMS OF DISTRUST, ALGORITHMIC ERROR AND ETHICAL RESPONSIBILITY IN THE DIGITAL SPACE

Abstract. This article treats trust and distrust as a systemic relationship and analyses the formation of distrust in the digital space, the social consequences of algorithmic errors and ethical responsibility. Artificial intelligence, automated decision-making systems, social networks and digital platforms are penetrating various areas of human life, yet they do not always work fairly, transparently and without error. Algorithmic misjudgment, data bias, misuse of personal data and unclear boundaries of responsibility are shown to cause a crisis of trust in the digital society. The article argues that transparency, fairness, confidentiality, accountability and human control should be key criteria for digital technologies.

Key words: digital space, distrust, algorithmic error, artificial intelligence, ethical responsibility, transparency, justice, human control.

Kirish. Internet, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va elektron xizmatlar inson faoliyatining deyarli barcha yo‘nalishlarida qo‘llanilmoqda. Ta’lim, tibbiyot, bank-moliya, davlat boshqaruvi, xavfsizlik, mehnat bozori va ommaviy axborot sohalarida raqamli yechimlar samaradorlikni oshirish, vaqtni tejash va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bermoqda [1].

Shu bilan birga, raqamli makon faqat qulaylik va taraqqiyot manbayi emas, balki murakkab ijtimoiy-axloqiy muammolar maydoni ham hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli tizimlarga nisbatan ishonchsizlik, algoritmik xatolar va axloqiy javobgarlik masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki insonlar tobora ko‘proq qarorlarni algoritmlar, dasturlar va sun’iy intellekt tizimlariga topshirmoqda. Masalan, kredit berish, ishga qabul qilish, o‘quvchini baholash, bemorga tashxis qo‘yish yoki xavfsizlik xavfini aniqlash jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanilmoqda.

Biroq algoritm tomonidan qabul qilingan qaror har doim ham to‘g‘ri, adolatli yoki inson manfaatlariga mos kelavermaydi. Tizim noto‘g‘ri yoki biryoqlama ma’lumotlar asosida o‘qitilgan taqdirda, uning natijalari ham xato bo‘lishi mumkin. Shuningdek, algoritm tarkibida tarafkashlik mavjud bo‘lsa, ayrim shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarga nisbatan adolatsiz munosabat yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Bu boradagi eng muhim muammolardan biri esa algoritmik xatolar uchun javobgarlik masalasining aniq belgilanmaganidir. Bunday holatlarda javobgarlik dasturchi, texnologiyani ishlab chiqqan kompaniya, platforma egasi yoki undan amaliyotda foydalangan tashkilot zimmasiga yuklanishi kerakligi masalasi alohida huquqiy va axloqiy muhokamani talab etadi.

Raqamli makonda ishonchni ta’minlash uchun texnologiya faqat texnik jihatdan

mukammal bo‘lishi yetarli emas. U axloqiy, huquqiy va ijtimoiy mezonlarga ham javob berishi kerak. Shu sababli algoritmik shaffoflik, inson nazorati, ma’lumotlar xavfsizligi, adolatli baholash va javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy raqamli jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mavzuni yoritish uchun ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli makonda yuzaga kelayotgan ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik muammolarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilishdan iborat.

Birinchidan, ilmiy-nazariy tahlil metodi orqali raqamli makon, sun’iy intellekt, algoritmik qaror, ishonch va axloqiy javobgarlik tushunchalari mazmunan izohlandi. Bu metod mavzuning asosiy nazariy poydevorini ochib berishga xizmat qildi [2].

Ikkinchidan, taqqoslash metodi yordamida inson tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va algoritmik tizimlar tomonidan chiqariladigan qarorlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rib chiqildi. Inson qarorida hissiy, axloqiy va ijtimoiy omillar mavjud bo‘lsa, algoritmik qaror ko‘proq ma’lumotlar va matematik modelga asoslanadi. Biroq aynan shu jihat algoritmni mutlaq xolis deb qabul qilish uchun yetarli emas.

Uchinchidan, tizimli yondashuv orqali raqamli ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik alohida-alohida emas, balki yagona muammo sifatida tahlil qilindi. Chunki algoritmik xato ishonchsizlikni kuchaytiradi, ishonchsizlik esa texnologiyalardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Axloqiy javobgarlikning aniq belgilanmasligi esa ushbu muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

To‘rtinchidan, umumlashtirish metodi asosida raqamli texnologiyalardan foydalanishda xavflarni kamaytirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Ushbu tadqiqotda raqamli makonda ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik muammolari ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlari asosida o‘rganildi. Har bir metod mavzuning muayyan jihatini ochib berishga xizmat qildi. Ya’ni tadqiqot jarayonida muammo faqat texnik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va boshqaruvga oid masala sifatida tahlil qilindi.

1. Ilmiy-nazariy tahlil metodi asosida muammoni o‘rganish. Ilmiy-nazariy tahlil metodi orqali raqamli makon, ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik tushunchalarining mazmuni ochib berildi. Tadqiqotda aniqlanishicha, raqamli makon bugungi kunda insonlar o‘rtasidagi muloqot, axborot almashinuvi, ta’lim, tibbiyot, moliya va davlat xizmatlari amalga oshiriladigan muhim ijtimoiy maydonga aylangan [3].

Biroq raqamli tizimlarning murakkabligi foydalanuvchilarda ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Chunki ko‘pchilik foydalanuvchilar algoritm qanday ishlashi, qanday ma’lumotlardan foydalanishi va qanday qaror qabul qilishini to‘liq tushunmaydi. Shu sababli raqamli texnologiyalarga bo‘lgan ishonch faqat texnik tezlik yoki qulaylik bilan emas, balki shaffoflik, adolat va javobgarlik bilan ham bog‘liq ekani aniqlandi.

1-jadval

Ilmiy-nazariy tahlil metodi asosida aniqlangan asosiy tushunchalar

Tushuncha	Mazmuni	Raqamli makondagi ahamiyati
Raqamli makon	Internet, platformalar, sun’iy intellekt va elektron xizmatlar faoliyat yuritadigan muhit	Inson faoliyatining ko‘p qismini raqamli shaklga o‘tkazadi
Ishonchsizlik	Foydalanuvchining tizimga shubha bilan qarashi	Texnologiyadan foydalanish samaradorligini pasaytiradi
Algoritmik xato	Algoritmning noto‘g‘ri yoki adolatsiz natija chiqarishi	Inson huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin
Axloqiy javobgarlik	Texnologiya oqibatlari uchun mas’uliyatni belgilash	Xato qarorlar uchun javobgar tomonlarni aniqlashga yordam beradi

Shaffoflik	Tizim ishlash mexanizmining tushunarli bo‘lishi	Foydalanuvchi ishonchini oshiradi

Ushbu metod asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli ishonchsizlikning asosiy sababi texnologiyaning o‘zi emas, balki uning qanday ishlashi va kim tomonidan nazorat qilinishining noaniqligidir [4].

2. Taqqoslash metodi asosida inson qarori va algoritmik qarorni tahlil qilish. Taqqoslash metodi orqali inson tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va algoritmik tizimlar tomonidan chiqariladigan qarorlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Inson qarorida tajriba, axloqiy baho, hissiy omil va vaziyatni chuqur tushunish mavjud bo‘ladi. Algoritmik qaror esa asosan ma’lumotlar, dasturiy model va matematik hisob-kitoblarga asoslanadi [5].

Tadqiqotda aniqlanishicha, algoritmik qaror tezkor va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Biroq u har doim ham insoniy vaziyatni, ijtimoiy sharoitni yoki axloqiy oqibatni to‘liq hisobga olmaydi. Shu sababli muhim qarorlar, ayniqsa ta’lim, tibbiyot, moliya va huquqiy sohalarda to‘liq avtomatlashtirilmasligi kerak.

2-jadval

Inson qarori va algoritmik qarorning taqqoslanishi

Mezoni	**Inson qarori**	**Algoritmik qaror**	**Muammo**
Qaror asosi	Tajriba, bilim, axloqiy baho	Ma’lumot, model, hisob-kitob	Algoritm insoniy holatni to‘liq tushunmasligi mumkin
Tezlik	Nisbatan sekin	Juda tez	Tezlik ba’zan xatoni ko‘paytiradi
Shaffoflik	Qarorni izohlash mumkin	Ba’zan “qora quti” shaklida bo‘ladi	Foydalanuvchi qaror sababini tushunmaydi
Javobgarlik	Mas’ul shaxs aniqlanadi	Mas’uliyat noaniq bo‘lishi mumkin	Xato uchun kim javob berishi mavhumlashadi
Axloqiy baho	Mavjud	Cheklangan yoki yo‘q	Adolat va inson qadr-qimmati xavfostida qoladi

Taqqoslash natijasida algoritmik qaror inson qarorini to‘liq almashtirishi emas, balki unga yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi kerakligi aniqlandi. Chunki algoritm texnik jihatdan kuchli bo‘lsa-da, axloqiy mas’uliyatni mustaqil ravishda anglay olmaydi.



1-rasm. Raqamli makonda ishonchsizlik, algoritmik xato va javobgarlik bog‘liqligi

3. Tizimli yondashuv asosida muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish. Tizimli yondashuv metodi orqali ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik alohida muammolar emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlar ekani ko‘rsatildi. Algoritmik xato foydalanuvchida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Ishonchsizlik esa raqamli

xizmatlardan foydalanish darajasini pasaytiradi. Javobgarlik mexanizmi aniq bo‘lmasa, bu muammolar yanada kuchayadi.

Masalan, foydalanuvchining kredit olish arizasi algoritm tomonidan rad etilsa, lekin rad etish sababi tushuntirilmasa, foydalanuvchi tizimga nisbatan ishonchsizlik bildiradi. Agar bu qaror noto‘g‘ri ma’lumot yoki tarafkash algoritm asosida chiqarilgan bo‘lsa, bu nafaqat texnik, balki axloqiy muammoga ham aylanadi [6].

Ushbu rasmda ko‘rinadiki, algoritmik tizimdagi xato oddiy texnik kamchilik sifatida qolmaydi. U foydalanuvchining huquqi, ishonchi, axloqiy bahosi va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, raqamli makonda har qanday algoritmik qaror javobgarlik tizimi bilan birga yuritilishi lozim.

4. Umumlashtirish metodi asosida asosiy muammolar va yechimlarni aniqlash. Umumlashtirish metodi yordamida tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar tizimlashtirildi. Natijada raqamli makonda ishonchni ta’minlash uchun faqat texnik himoya yetarli emasligi aniqlandi. Bunda axloqiy nazorat, huquqiy tartibga solish, foydalanuvchi roziligi, shaffof algoritmlar va inson ishtiroki muhim o‘rin tutadi.

3-jadval

Raqamli makondagi muammolar va ularni kamaytirish yo‘llari

Muammo	**Kelib chiqish sababi**	**Salbiy oqibati**	**Taklif etiladigan yechim**
Ishonchsizlik	Algoritm ishlashining tushunarsizligi	Foydalanuvchi texnologiyadan shubhalanadi	Tushuntiriladigan sun’iy intellekt tizimlarini joriy etish
Algoritmik xato	Noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar	Noto‘g‘ri qarorlar chiqariladi	Ma’lumotlar sifatini tekshirish va testdan o‘tkazish
Tarafkashlik	Tarixiy yoki ijtimoiy noxolis ma’lumotlar	Ayrim guruhlarga nisbatan adolatsizlik yuzaga keladi	Algoritmik audit va adolat mezonlarini qo‘llash
Javobgarlik noaniqligi	Mas’ul tomonlarning belgilanmaganligi	Xato uchun javobgarni aniqlash qiyinlashadi	Huquqiy va axloqiy javobgarlik chegaralarini belgilash
Maxfiylik buzilishi	Shaxsiy ma’lumotlarning noto‘g‘ri ishlatilishi	Foydalanuvchi huquqlari buziladi	Rozilik, shifrlash va xavfsiz saqlash mexanizmlarini kuchaytirish

Umumlashtirish natijasida quyidagi ilmiy xulosaga kelindi: raqamli makonda ishonchli muhit yaratish uchun algoritmlar faqat samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki insonparvarlik, adolat va javobgarlik mezonlari asosida ham baholanishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli makonda yuzaga kelayotgan muammolar ko‘p qatlamli xarakterga ega. Bir tomondan, sun’iy intellekt va algoritmik tizimlar inson faoliyatini yengillashtiradi, qaror qabul qilishni tezlashtiradi va katta hajmdagi axborotni qayta ishlash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu tizimlar noto‘g‘ri ishlab chiqilsa yoki yetarli nazorat qilinmasa, ishonchsizlik, kamsitish, noto‘g‘ri baholash va javobgarlikdan qochish kabi muammolarni yuzaga keltiradi [7,8].


Ilmiy-nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, raqamli ishonch texnik xavfsizlikdan kengroq tushunchadir. Ya’ni foydalanuvchi tizimga faqat parol himoyasi yoki tezkor ishlashi uchun emas, balki adolatli, tushunarli va mas’uliyatli bo‘lgani uchun ham ishonadi.

Taqqoslash metodi asosida aniqlanishicha, inson va algoritm qarorlarining har biri o‘ziga xos ustunlik va cheklovlarga ega. Algoritm tez va aniq hisob-kitob qilishi mumkin, ammo u insoniy qadriyatlarni mustaqil baholay olmaydi. Shu bois muhim ijtimoiy qarorlar inson nazoratisiz qabul qilinmasligi zarur.

Tizimli yondashuv natijasida esa algoritmik xato, ishonchsizlik va axloqiy javobgarlik bir-birini kuchaytiruvchi omillar ekani aniqlandi. Agar algoritm xato qilsa,

lekin bu xatoning sababi ochiqlanmasa va javobgar tomon belgilanmasa, foydalanuvchi tizimga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi.

Umumlashtirish metodi orqali esa raqamli makonda ishonchni oshirishning asosiy shartlari belgilandi. Bular: shaffoflik, algoritmik audit, inson nazorati, ma’lumotlar himoyasi, foydalanuvchi huquqlarini ta’minlash va axloqiy javobgarlikni aniq belgilashdir.



2-rasm. Raqamli ishonchni shakllantirish modeli

Ushbu modeldan ko‘rinadiki, raqamli ishonch birgina texnologik omilga emas, balki bir necha axloqiy va tashkiliy shartlarga asoslanadi. Ayniqsa, inson nazorati raqamli tizimlarning mas’uliyatli ishlashida markaziy o‘rin egallaydi.

Tahlil va muhokama natijalariga ko‘ra, raqamli makonda ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq. Tadqiqotda qo‘llangan metodlar yordamida ushbu muammolarning nazariy mazmuni ochildi, inson va algoritmik qarorlar taqqoslandi, muammolar o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlik aniqlandi hamda ularni kamaytirish yo‘llari umumlashtirildi. Shu asosda raqamli texnologiyalar inson manfaatiga xizmat qilishi uchun shaffoflik, adolat, maxfiylik, javobgarlik va inson nazorati asosiy mezonlar sifatida qaralishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi [9].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Raqamli makonda ishonchsizlik, algoritmik xato va axloqiy javobgarlik muammolari zamonaviy axborot jamiyatining eng dolzarb masalalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar inson hayotini yengillashtirishi, xizmatlar sifatini oshirishi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishi mumkin. Biroq ular noto‘g‘ri ishlatilsa yoki yetarlicha nazorat qilinmasa, inson huquqlari, adolat, maxfiylik va ijtimoiy ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Algoritmik xatolar ko‘pincha noto‘g‘ri ma’lumotlar, tarafkash model, yetarli sinovdan o‘tmagan tizim yoki javobgarlik mexanizmlarining zaifligi natijasida yuzaga keladi. Bunday xatolar oddiy texnik nosozlik emas, balki ijtimoiy va axloqiy oqibatlarga ega muammo hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiyot, ta’lim, moliya, xavfsizlik va davlat boshqaruvi kabi muhim sohalarda algoritmik qarorlar inson taqdiriga bevosita ta’sir qilishi mumkin.

Shuning uchun raqamli makonda ishonchni ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhimdir: algoritmlarning shaffofligini oshirish, ma’lumotlar sifatini nazorat qilish, algoritmik auditni yo‘lga qo‘yish, inson nazoratini saqlab qolish, foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish va axloqiy javobgarlikni aniq belgilash. Eng muhimi, raqamli texnologiyalar inson qadr-qimmatiga xizmat qilishi, insonni texnologiyaga bo‘ysundirmasligi kerak.

Demak, raqamli jamiyatning barqaror rivojlanishi texnologik taraqqiyot bilan axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Faqat shunday yondashuv orqali raqamli makonda ishonchli, adolatli va insonparvar muhitni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aysolmaz, B., Muller, R., & Meacham, D. The public perceptions of algorithmic decision-making systems: Results from a large-scale survey. Telematics and Informatics, 2023. № 79. Article 101954. P: 101-120.

2. Hanna, M. G., Pantanowitz, L., Jackson, B., Palmer, O., Visweswaran, S., Pantanowitz, J., Deebajah, M., & Rashidi, H. H. Ethical and bias considerations in artificial intelligence/machine learning. Modern Pathology, 2025. № 38(3), P: 100-120.

3. Hofmann, B. Biases in AI: Acknowledging and addressing the inevitable ethical issues. Frontiers in Digital Health, 2025. № 7. P: 161-170.

4. Johnson, D. G. Algorithmic accountability in the making. Social Philosophy and Policy, 2021. № 38 (2), P: 111–127.

5. Kaur, D., Uslu, S., Rittichier, K. J., & Durresi, A. Trustworthy artificial intelligence: A review. ACM Computing Surveys, 2022. № 55 (2), Article 39, P: 1–38.

6. Lareyre, F., & Raffort, J. Ethics and legal framework for trustworthy artificial intelligence in vascular surgery. EJVES Vascular Forum, 2023. № 60, P: 42–44.

7. Smith, H. Clinical AI: Opacity, accountability, responsibility and liability. AI & Society , 2021. № 36, P: 535–545.

8. Walker, R., Dillard-Wright, J., & Iradukunda, F. Algorithmic bias in artificial intelligence is a problem—And the root issue is power. Nursing Outlook, 2023. № 71(5), Article 102023. P: 102-113.

9. Kossow, N. Algorithmic transparency and accountability. Transparency International Anti-Corruption Helpdesk Answer, 2021. № 7, P: 1–18.

10. Riege, A., & Lindsay, N. Knowledge Management in the Digital Era: Trust and Collaboration in Online Communities. Journal of Knowledge Management, 2006. № 10(1), P: 9–18.

YOSHLAR INFANTILLIGI FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Jabborov Elbek Eshpo‘latovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
jabborovelbek1989@gmail.com
ORCID 0009-0006-2654-5166
UDK 101.1:316-053.6

Annotatsiya. Maqolada yoshlar infantilligining asosiy shakllari, uning yuzaga kelish sabablari hamda uni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Yoshlar infantilligi jamiyat rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyatining pastligi ularning hayotga moslashuvchanligini cheklaydi va mehnat bozoriga tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Davlat siyosati va ta’lim tizimining yoshlarni hayotga moslashtirishdagi o‘rni, oilaviy tarbiyaning ahamiyati ochib berilgan. Infantillik darajasini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan: yoshlarni o‘z hayotiy yo‘lini mustaqil tanlashga o‘rgatish, ularga iqtisodiy va kasbiy jihatdan mustaqillikka erishish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar infantilligi, ijtimoiy infantillik, psixologik infantillik, iqtisodiy mustaqillik, yoshlar tarbiyasi, ta’lim tizimi, mehnat bozoriga moslashuv, yoshlar siyosati, yoshlar faolligi.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF YOUTH INFANTILISM

Abstract. This article examines the main forms of youth infantilism, the factors contributing to its emergence and approaches to its prevention. Youth infantilism is regarded as a pressing social issue that affects societal development. A limited capacity among young people to make independent decisions and to participate actively in social and economic life restricts their adaptability and their preparedness for the labour market. The study considers the role of public policy and the education system in young people’s adaptation. Practical recommendations are offered: encouraging independent life choices, creating conditions for economic and professional independence and implementing strategies to enhance social participation.

Key words: youth infantilism, social infantilism, psychological infantilism, economic independence, youth development, education system, labor market adaptation, youth policy, youth engagement.

Kirish. Hozirgi jamiyatda yoshlarning hayotga moslashish jarayoni tobora qiyinlashib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va ta’lim tizimidagi ayrim kamchiliklar yosh avlodning hayotiy mustaqillikka erishishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida infantillik, ya’ni mustaqil qaror qabul qilishga, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, real hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga tayyor emaslik holatlari keng tarqalgan.

Yoshlar infantilligi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda u ijtimoiy hayotga befarqlik, faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ba’zan psixologik jihatdan mustaqil bo‘lolmaslik yoki iqtisodiy mustaqillikka intilmaslik shaklida ko‘rinadi. Bu holatning yuzaga kelishida turli omillar – oilaviy tarbiya, ta’lim tizimidagi kamchiliklar, zamonaviy texnologiyalarning ortiqcha ta’siri va yoshlarning real hayot tajribasiga ega emasligi muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar o‘rtasida infantilizm XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlana boshladi. Bunga, shubhasiz, ilmiy-texnik taraqqiyot, oila institutidagi o‘zgarishlar, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda oilaviy munosabatlarda erkak va ayollarning ijtimoiy-psixologik rollaridagi o‘zgarishlar sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [1:40].

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni hayotga tayyorlash bo‘yicha qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishdir [2].

Mazkur maqolada yoshlar infantilligining asosiy shakllari, uning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish hamda uni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish maqsad qilib olingan. Shuningdek, davlat siyosati va ta’lim tizimining yoshlarni hayotga moslashtirishdagi o‘rni,

oilaviy tarbiyaning ahamiyati va jamiyatda yoshlarning faolligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, obyektivlik, tizimlilik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Yoshlar infantilligi quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Ijtimoiy infantillik – bu shaxsning o‘zini kichik yoshdagi bola kabi his qilish, mas’uliyatni qabul qilishdan qochish, va hayotning qiyinchiliklari bilan kurashishdan yiroq bo‘lish holati. Bu tushuncha ko‘pincha odamlarning mustaqillik va qarorlar qabul qilishdagi yetishmovchiligini ta’riflash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy infantillikning belgilari orasida o‘zining ehtiyojlarini va muammolarini boshqalarga yuklash, o‘zining xatti-harakatlarini va qarorlarini boshqarishdagi qiyinchiliklar hamda javobgarlikni boshqalarga o‘tkazishga moyillik mavjud. Infantil shaxs hayot haqida murakkab savollar berib, chuqur fikr yurita olmaydi. Uning hayotidagi voqealar ko‘pincha anglanmagan holda kechadi, sodir bo‘layotgan hodisalar hayotiy tajribaga aylanmaydi, balki shunchaki tasodifiy voqealar sifatida qolib ketadi [3:123-128].

Ijtimoiy infantillik ko‘pincha jamiyatdagi turli ijtimoiy va iqtisodiy omillar, ota-ona tarbiyasi yoki ta’lim tizimining ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘lmaslik, o‘z kelajagini rejalashtirishda qiyinchiliklar yaratadi. Ijtimoiy infantillik murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen bo‘lib, u shaxs hayotining turli jabhalarida namoyon bo‘luvchi alohida xususiyatlar va xulq-atvor ko‘rinishlari asosida shakllanadi [4:447].

Psixologik infantillik – bu shaxsning emotsional va kognitiv jihatdan o‘z yoshiga mos bo‘lmagan darajada bolalarcha, mustahkam bo‘lmagan va o‘zgaruvchan reaksiyalarni ko‘rsatishi holatidir. Bu, odatda, psixologik rivojlanishning kechikishi yoki to‘liq bo‘lmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Psixologik infantillikning ba’zi belgilari o‘zini boshqarish qobiliyatining yetishmasligi, mas’uliyatni qabul qilishdan qochish, emotsional beqarorlik va o‘z-o‘zini anglashdagi qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi. Bunday holatda odam o‘zining psixologik ehtiyojlarini boshqalarga yuklashni ma’qul ko‘radi va mustaqil fikr yuritishda yoki stressni boshqarishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Psixologik infantillik noto‘g‘ri tarbiya, ijtimoiy sharoitlar yoki rivojlanishdagi kechikishlar sababli paydo bo‘lishi mumkin va uni bartaraf etish uchun terapiya va o‘z-o‘zini anglash zarur.

Iqtisodiy infantillik – bu shaxsning yoki jamiyatning o‘z iqtisodiy holatini boshqarish, mas’uliyatni olish, mustaqil ishlash yoki qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq holatdir. Bunday shaxslar ko‘pincha moliyaviy mustaqillikka erishishdan, o‘z xarajatlarini boshqarishdan va moliyaviy rejalashtirishdan qochadilar. Ular o‘zlarining ehtiyojlarini boshqalar orqali qondirishga, o‘zlariga mas’uliyat yuklashdan qochishga moyil bo‘lishlari mumkin.

Iqtisodiy infantillik, shuningdek, jamiyatning kengroq qatlamlarida ham ko‘rinishi mumkin. Masalan, davlat yoki turli ijtimoiy guruhlar iqtisodiy yordam yoki subsidiya olishga o‘rganib qolgan bo‘lishi mumkin. Bu holat, shaxslar yoki jamiyatlar o‘z iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tashabbuskorlikni yo‘qotishi yoki faqat tashqi resurslarga tayanishi bilan ifodalanadi. Yoshlar ishlab chiqarishda hal qiluvchi o‘rin ahamiyatga ega bo‘lgan tizimli ravishda yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantiradigan ijtimoiy qatlam [5:1502].

Iqtisodiy infantillikning ba’zi belgilari orasida moliyaviy rejalashtirishda yordamga muhtoj bo‘lish, qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelish va mustaqil iqtisodiy faoliyatga kirishishda qo‘rquv yoki ishtiyoq yo‘qligi mavjud. Bu holat, odatda, noto‘g‘ri tarbiya, ijtimoiy sharoitlar yoki iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Global iqtisodiy inqirozlar, boylar va kambag‘allar orasidagi tafovut, ish bilan bandlik muammolari — yoshlar uchun katta xavf manbayi hisoblanadi. Ular o‘z

kelajak rejalari va professional rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi [6:1970].

Infantillikning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, ota-ona tarbiyasi**.** Ota-onaning bolaga nisbatan juda himoyachi yoki qarorlarni o'zi qabul qilishi bolada mustaqillikka erishish va o'z hayotini boshqarish qobiliyatini cheklaydi. Agar ota-ona doimiy ravishda bolani qo'llab-quvvatlasa va uning o'rnida qarorlar qabul qilsa, bola mustaqil fikrlash va mas'uliyatni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Infantillikning shakllanishi ko'pincha bolalik davriga borib taqaladi. Uning asosiy sabablaridan biri ota-onalar tomonidan beriladigan noto'g'ri tarbiya hisoblanadi. Farzandni ortiqcha himoya qilish, uni mustaqil qaror qabul qilish va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkoniyatidan mahrum etish kelajakda shaxsiy yetuklikning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [7:439].

Ikkinchidan, ijtimoiy sharoitlar**.** Jamiyatda ijtimoiy himoya va yordam muhitining mavjudligi shaxsning mustaqillikni rivojlantirishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Agar shaxs jamiyatda yoki oila a'zolari tomonidan doimiy yordam olishga o'rganib qolsa, mas'uliyatni boshqalarga yuklashni ma'qul ko'radi.

Uchinchidan, shaxsiy rivojlanish**.** Psixologik va kognitiv rivojlanishning kechikishi ham infantillikni yuzaga keltirishi mumkin. Bola yoki kattalar o'z-o'zini anglashda, hissiyotlarini boshqarishda yoki muammolarga yondashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, o'zgarishlarga qarshi kurashish va mas'uliyatni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, tashqi yordamga o'rganish. Ijtimoiy va iqtisodiy yordamga doimiy tayanish, shaxsning mustaqil yashashga tayyorlanmasligiga olib keladi. Jamiyat yoki davlat tomonidan taqdim etilgan yordam, shaxsning o'zini boshqarish, qarorlar qabul qilish va moliyaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rgatmaydi.

Infantillikni bartaraf etish uchun bir qator usullar mavjud.

Birinchi navbatda, mustaqillikni rivojlantirish zarur. O'z hayotini boshqarish va qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lish, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Kichik vazifalarni berish, mas'uliyatni qabul qilishni o'rgatish shaxsga o'z fikrini rivojlantirish va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Misol uchun, shaxsning o'z kundalik ishlarini bajarishi, o'z rejasini tuzishi va ishlarni mustaqil bajarishga o'rgatish unga qarorlar qabul qilishda tajriba orttirishga yordam beradi.

Psixologik rivojlanish ham muhim omil hisoblanadi. O'z-o'zini anglash va hissiyotlarni boshqarish shaxsning psixologik mustahkamligini oshiradi. Oila muhitidan mahrum qolgan bolalar ijtimoiy-psixologik rivojlanishning eng muhim tayanchidan ayrilgan toifa hisoblanadi [8:347]. Psixoterapiya, maslahatlar yoki o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha treninglar shaxsning psixologik salomatligini yaxshilash va stressni boshqarish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. O'z-o'zini anglash orqali shaxs o'zining haqiqiy ehtiyojlari va istaklarini aniqlab, ularga erishish yo'llarini topadi.

Moliyaviy mustaqillikni rivojlantirish ham juda muhimdir. Shaxsga moliyaviy rejalashtirishni o'rgatish, budjet tuzish, daromad va xarajatlarni boshqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish, uning moliyaviy mustaqillikka erishishiga yordam beradi. Bu ko'nikmalarni o'rganish shaxsga o'z hayotida qarorlar qabul qilishda ishonch hosil qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkoniyatini beradi. Moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi alohida uy xo'jaliklari darajasida moliyaviy inqirozlarga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida butun mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qiladi [9:327].

Tashqi yordamga tayanishni kamaytirish ham infantillikni bartaraf etishga yordam beradi. Agar shaxs doimiy ravishda tashqi yordamga tayanib yashasa, o'z hayotini boshqarish va muammolarni mustaqil hal qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tashqi yordamni bosqichma-bosqich kamaytirish va shaxsni o'z ehtiyojlarini o'zi qondirishga o'rgatish muhimdir.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish ham bunday jarayonning ajralmas qismidir. O‘z qadriyatlarini, maqsadlarini va hayotdagi yo‘nalishini aniqlash, shaxsning psixologik rivojlanishini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, infantillik — bu nafaqat muammo, balki jamiyat uchun muayyan chaqiriq hamdir. U yoshlarni tarbiyalash va ta’lim berish yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi [10:53].

Xulosa va takliflar. Yoshlar orasida infantilizmning shakllanishi, uning sabablari va bartaraf etish usullari turli ijtimoiy, psixologik va shaxsiy omillar bilan bog‘liq. Infatillik, yoshlarning hayotdagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan, mustaqil fikrlash va qarorlar qabul qilishdan qochishi natijasida shakllanadi. Bu holat, asosan ota-onaning himoyachi tarbiyasi, ijtimoiy sharoitlar, shaxsiy rivojlanishdagi kechikishlar va tashqi yordamga doimiy tayanish kabi omillar tufayli yuzaga keladi.

Yoshlar orasida infantilizmni bartaraf etish uchun bir qator samarali usullar mavjud. Mustaqil fikrlash va qarorlar qabul qilishni rivojlantirish, psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyatni qabul qilishni o‘rgatish, moliyaviy mustaqillikni rivojlantirish va tashqi yordamga tayanishni kamaytirish kabi usullar yoshlarning mustaqil va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlaydi. O‘z-o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlar o‘z hayotini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mikhailova O.B., Gutvajn N. Growing Infantilism in Modern Adolescents and Young People: Symptoms and Causes. RUDN Journal of Psychology and Pedagogics. 2022 Vol. 19 No. 1 40.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son qonuni.

3. Павленко Т.П. Учебная деятельность как фактор социальной адаптации подростков с отклонениями в развитии // Журнал практического психолога. – 2007. – № 2. – С. 123-128.

4. Ж.В. Пузанова, Т.И. Ларина, А.Г. Тертышникова Инфантилизация молодежи: методологический подход к измерению. RUDN Journal of Sociology, 2021, 21 (3), 447.

5. Djurayev L.N., Ro‘zimurodov S.M Jamiyatda yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformasiyalashuvi. “Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanishlar davri: fan va ta’lim tarbiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2026-yil 27-28-fevral, 1502-bet.

6. Usmonova Sh.B. Zamonaviy global muammolar tizimi va yoshlar tarbiyasi. “Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanishlar davri: fan va ta’lim tarbiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2026-yil 27-28-fevral, 1970-bet.

7. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М, 1968. – С. 439.

8. Ergasheva M.J Oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy psixologik rivojlanishiga oid nazariy qarashlar. “MA’RIFATLI JAMIYAT: MAZMUN VA MOHIYAT, IJTIMOIY-FALSAFIY ASPEKTI (O‘ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASI ASOSIDA)” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 27-oktabr, 347-bet.

9. M.B.Pulatova, R.Sh.Abdulatipova Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. "Science and Education" Scientific Journal. June 2024 / Volume 5 Issue 6, 327-bet.

10. Андреева А.В. Профилактика инфантилизма молодежи. ОБРАЗОВАНИЕ СЕГОДНЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ОБУЧЕНИЯ, РАЗВИТИЯ, ВОСПИТАНИЯ. - Петрозаводск. Сборник статей Международной научно-практической конференции, сентябрь 2025.

MA’NAVIY LIDERLIK FENOMENINING FALSAFIY TALQINI

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
dilnozaruziyeva89@gmail.com
ORCID 0009-0000-4500-5196
UDK 101.1:316.42

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida liderlik va ma’naviy liderlik fenomenining mazmun-mohiyati, ijtimoiy-falsafiy tabiati hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ma’naviy liderlikning ontologik, gnoseologik va aksiologik asoslari, uning axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatlari ham falsafiy yondashuvlar asosida yoritiladi. Globallashuv, raqamlashtirish va axborotlashuv sharoitida ma’naviy lider shaxsning axloqiy nufuzi, ma’naviy yetukligi, qadriyatlarga sodiqligi, ijtimoiy mas’uliyati va adolatparvarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy liderlik jamiyat a’zolariga ijobiy ruhiy-ma’naviy ta’sir ko‘rsatish, ularni ezgulik va bunyodkorlik g‘oyalari atrofida birlashtira olish bilan tavsiflanadi. Uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tahlil qilinadi. Ma’naviy liderning ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyotdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: lider, ma’naviy lider, ma’naviy liderlik fenomeni, ontologik asos, gnoseologik yondashuv, aksiologik yondashuv, ma’naviyat, qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot.

A PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF SPIRITUAL LEADERSHIP

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the essence of leadership and spiritual leadership in contemporary society and their role in social development. Particular attention is devoted to the ontological, epistemological and axiological foundations of spiritual leadership and to its ethical, aesthetic and social dimensions. It is clearly argued that spiritual leadership is manifested not only in managerial abilities but also in moral authority, responsibility, commitment to values, a sense of justice and spiritual maturity. The article analyses the factors that shape spiritual leadership and the interaction of national and universal values. Its significance for social stability is theoretically substantiated.

Key words: leader, spiritual leader, phenomenon of spiritual leadership, ontological foundation, epistemological approach, axiological approach, spirituality, values, social development.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda har bir xalq uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan biri liderlik hisoblanadi. Vaholanki, liderlik tushunchasi jamiyat a’zolarini birlashtira olgan, yagona maqsad sari yetaklashga xizmat qiluvchi zaruriy funksional tushuncha sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy lider qiyofasi, uning falsafiy mohiyati, axloqiy-estetik sifatlarini ilmiy-nazariy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, global taraqqiyot davrida insoniyatni birlashtirish, ezgulik maqsadlariga yo‘naltirish tobora murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ham ma’naviy-axloqiy saviyasi yuksak rahbarlarni shakllantirish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaydigan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan jiddiy chora ko‘riladi. Lo‘nda qilib aytganda, bunday loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o‘rin yo‘q [2;53]”. Bizningcha, davlat rahbari ta’kidlagan adolatlilik, xalqning dardi bilan yashash tuyg‘usi aynan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosidagina shakllanishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy liderlikning ma’naviy-axloqiy mohiyatini anglab yetish muhim vazifalardan biri sifatida talqin etilmoqda. Zero, ma’naviy liderlik deyilganda, shaxsning axloqiy nufuzi, qadriyatlarga sodiqligi va ruhiy ta’sir kuchi orqali boshqalarni ijobiy yo‘nalishga undash qobiliyati tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Liderlik tushunchasi falsafa ilmi tarixida turli ilmiy maktablarda turlicha talqin qilingan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “liderlik” hamda “ma’naviy liderlik” tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, mazmunan aynan bir hodisani anglatmaydi. Ya’ni, liderlik ko‘p hollarda ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmini ifodalasa, ma’naviy liderlik inson ongiga qadriyatlar orqali ta’sir etuvchi, shaxs va jamiyatning ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi fenomen sifatida talqin

etiladi. Liderlikning ma’naviy-axloqiy jihatlari qadimdan falsafa ilmida tahlil etib kelingan. Jumladan, Konfutsiy qarashlarida “Boshqaruv — bu ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish”[8; 63] ekanligi ta’kidlansa, Aflotun ta’limotida “Davlat obodonchiligiga ikki narsa taalluqli: birinchidan, mansabdor va mansabdorlarni tayinlash, ikkinchidan har qanday mansab qanday qonunlar bo‘yicha ish olib borishini belgilash”[6; 161] deya e’tirof etiladi. Arastu esa, “Axloq – siyosatning tarkibiy qismi”[5; 130] ekanligini alohida tushuntiradi.

Qadimgi Markaziy Osiyo falsafasida Avesto asari ma’naviy lider qiyofasini ochib bergan muhim manbalardan biri sanaladi. Unda rahbar shaxsining ma’naviy fazilatlari davlat va jamiyat barqarorligining zarur sharti sifatida talqin qilinadi. “…olam yomon rahbarlardan xalos bo‘lsin”[4; 47], deya ta’kid etilgan mazkur parchada ham, bizning nazarimizda, rahbar shaxsining axloqiy mas’uliyati va jamiyat ma’naviy barqarorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi muhim falsafiy g‘oya mujassamlashgan. Islom falsafasi liderlik konsepsiyasini yanada boyitib, uni ilm, hikmat va adolat bilan bog‘laydi. Muqaddas Qur’oni karimda “Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat etingiz, Payg‘ambarga itoat etingiz va o‘zingizdan bo‘lgan rahbarlarga itoat etingiz”[19; 94]. Mazkur oyat ma’naviy liderlikning islomiy konsepsiyasini ifodalovchi muhim nazariy manbalardan biridir. Umuman olganda, sharq falsafasida, shu jumladan, markaziy Osiyo mutafakkirlari ma’naviy merosida liderlikning ma’naviy-axloqiy jihatlariga asosiy e’tibor qaratiladi. Sharq mutafakkirlaridan, ayniqsa, Abu Nasr Forobiy qarashlarida haqiqiy ma’naviy lider qiyofasi ochib beriladi. Uning “Fozil shahar” konsepsiyasida ideal rahbar nafaqat siyosiy boshqaruvchi, balki jamiyatning ma’naviy kamolotiga yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs sifatida tavsiflanadi. Farobiy rahbar (lider) ning 12 fazilatga[16; 244] ega bo‘lishi zarur ekanligini ta’kidlaydi.

Ma’naviy liderlik konsepsiyasi sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Bobur Mirzo, hukmdor Amir Temur qarashlarida ham batafsil bayon etiladi. Barcha qarashlarning mohiyatida liderlikning mazmuni ma’naviyat, axloq, adolar, ezgulik, gumanizm kabi yuksak sifatlarga ega bo‘lish bilan tushuntiriladi. Shuni alohida qayd o‘tish lozimki, Yevropa Uyg‘onish davrida liderlik fenomenining talqini keskin o‘zgaradi. Jumladan, Nikcolò Makiavelli “Hukmdor” asarida davlat barqarorligini oliy qadriyat sifatida ko‘rib, siyosiy liderlikni axloqdan nisbatan mustaqil hodisa sifatida izohlaydi. Shuningdek, nemis klassik falsafasida liderlikning falsafiy mohiyati yangi bosqichga ko‘tariladi. Immanuel Kant va Gegel qarashlarida ham liderlik fenomeni izohlanadi. XIX asrda Tomas Karlayl, Maks Veber ma’naviy liderlik fenomeni alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmida fenomenologiya, germenevtika va kommunikativ falsafa liderlikka yangi metodologik yondashuvlarni taklif etadi.

Liderlik fenomenining zamonaviy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy talqini XX asrning ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Aynan shu davrda Simon Western [14; 384], Peter G. Northouse, Sarah Sabir [12; 28-53], Y.N. Kribenisheva, P.Y. Ovsyankin [11; 166] va boshqa tadqiqotchilar liderlikning nazariy, aksiologik, kommunikativ hamda ma’naviy-axloqiy jihatlarini turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qildilar.

Mazkur masalada mamlakatimiz olimlari, shuningdek, zamonaviy falsafa ilmi doirasida ham qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida rahbar kadrlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, g‘oyaviy-mafkuraviy salohiyati, ularda ratsional tafakkur va xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari borasida tadqiqotlar olib borgan A. A. Saidov, M. U. Atamuratov, K. S. Aliyeva, U. S. Elmurodov, K.A. Karimov, G.N.Nigmatova, L. U. Ravshanov, X.K. Buriyevlar ilmiy ishlarini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, mazkur masala doirasida B.E. Yuldashev [20; 133] ning zamonaviy rahbar ijtimoiy mavqeyi, U.B. Shakarov [17;

150] ning rahbar axloqiy qiyofasi, N.T.Kariyeva [7; 123] ning rahbar hamda uning boshqaruvidagi insonlar bilan munosabati borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, ob'yektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Ma'naviy liderlikning falsafiy tahlili uning axloqiy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'naviy-axloqiy fazilatlar har bir lider faoliyatining asosini tashkil etishi lozim. Yuksak ma'naviyatga asoslangan liderlik faoliyati jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bizning nazarimizda ma'naviy liderlik fenomenining falsafiy talqini quyidagi yondashuvlar asosida tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Ma'naviy liderlikning ontologik va ekzistensial talqini;
- ✓ Ma'naviy liderlikning gnoseologik talqini;
- ✓ Ma'naviy liderlikning aksiologik talqini;
- ✓ Ma'naviy liderlikning fenomenologik talqini;
- ✓ Ma'naviy liderlikning axloqiy-estetik talqini;

Demak, ma'naviy liderlik fenomenini ontologik, gnoseologik, aksiologik, fenomenologik, etik va estetik paradigmalarning o'zaro uyg'unligi asosida tadqiq etish uning nazariy-falsafiy mohiyatini chuqurroq anglash, mazkur fenomenning ichki qonuniyatlari hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va funksiyalarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Ma'naviy liderlikning mavjudlik mohiyati, ya'ni uning borliqdagi o'rni, qanday ijtimoiy-falsafiy fenomen ekanligi, jamiyat hayotidagi ahamiyati, mavjud bo'lish shakllari ontologik mazmunni ifodalasa, inson omili bilan aloqador xususiyatlari, ya'ni "ma'naviy lider inson" tushunchasini ochib beradigan jihatlari ekzistensial asoslar bilan tushuntirilishi mumkin. "Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma'naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chuqur hayolotning mevasi bo'lgan ertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham, borliqning qismi bo'lgan ma'naviy reallik sifatida mavjuddir" [15; 243]. Demak, ma'naviy liderlik ham faqat muayyan shaxsning individual sifati yoki boshqaruv faoliyati emas, balki ma'naviy borliqning o'ziga xos namoyon bo'lish shakli sifatida talqin etilishi lozim.

Bizningcha, ma'naviy liderlikning *ekzistensial*, ya'ni inson omili bilan bog'liq jihatini uch darajaga ajratish mumkin, ya'ni individual, ijtimoiy va aksiologik daraja. Bunda individual daraja deganda lider shaxsining o'z-o'zini anglashi, tarbiyalashi, muntazam tarzda tanqid va nazorat qilishi, o'z faoliyati uchun murakkab mas'uliyatni zimmasiga olishi tushuniladi. Ijtimoiy darajada esa, ma'naviy liderlik nafaqat alohida individning muhim xususiyati, balki ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida tushuniladi. Ya'ni, adolatli jamiyat mavjud bo'lmagan joyda ma'naviy liderlik ham mavjud bo'lmaydi. Ma'rifatli, adolatli fuqarolik jamiyatida ma'naviy liderlik fenomeni shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, aksiologik darajada lider qadriyatlar tashuvchisi va yaratuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni jamiyat azolarini, ma'lum lider shaxsi atrofida birlashtiruvchi asos ma'naviy qadriyatlar hisoblanadi. Axloqan barkamol, insonparvar, adolatli, oqil lider atrofidagina insonlar uyushadi, unga ergashadi.

Ma'naviy liderlik fenomenining nazariy-falsafiy talqinini ochib berishda *gnoseologik* yondashuv ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Zero, gnoseologik yondashuv mazkur fenomenni faqat ijtimoiy-amaliy faoliyat mahsuli sifatida emas, balki insonning bilish faoliyati, ongning rivojlanish qonuniyatlari va ilmiy dunyoqarashining shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ma'naviy-intellektual hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Ma'naviy liderlikning gnoseologik mohiyati ong, ratsional

tafakkur, ilmiy dunyoqarash, refleksiv fikrlash, kognitiv kompetensiya, kreativ tafakkur hamda intellektual mas'uliyatning o'zaro integratsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Ma'rifatparvar jadid mutafakkiri A. Avloniy ta'biri bilan aytganda: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur" [3; 22]. Demak, ma'naviy lider shakllanishining fundamental asosi ilm hisoblanadi. Ilmli, ma'rifatli lider shaxsi ma'naviy fazilatlarga ham ega bo'lishga intiladi. Ma'lumki, "Bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir" [18; 13]. Ana shu ishonch orqali ma'naviy liderning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, atrofidagilarni ham ishontira olish imkoniyati ortib boradi. Bilimsiz lider jamiyat a'zolarini ishonchini qozona olmaydi. Natijada uning ergashtirish, birlashtirish, yagona maqsad sari yo'naltirish salohiyati shakllanmaydi.

Ma'naviy liderlik fenomenining falsafiy mohiyatini ochib berishda *aksiologik* (qadriyatli) yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, "Barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmati, ahamiyati haqida so'zlash bema'nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o'zining qadriyatlilik ahamiyatini yo'qotadi" [9; 43]. Demak, eng avvalo, inson omiliga bog'liq fenomen hisoblangan, ma'naviy liderlikning aksiologik mohiyati ham inson qadri orqali belgilanadi.

Ma'naviy liderlikning *fenomenologik* talqini ham uning falsafiy mazmun-mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviy liderlik fenomenining asl mohiyati inson ongida shakllanadigan ma'no, tajriba va qadriyatlar tizimi bilan bog'liqdir. Shu sababli fenomenologiya ma'naviy liderlikni tahlil qilishning muhim metodologik asosi sanaladi. "Fenomenalizm – noyob, kamyob, kam uchraydigan holat yoki inson, his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan yorqin hodisani anglatuvchi tushuncha bilan bog'liq bo'lgan falsafiy ta'limot" [10; 618] hisoblanadi. Bizning nazarimizda, fenomenalizmning mazmuni faqat noyob yoki kam uchraydigan hodisalarni tavsiflash bilan cheklanmaydi. Fenomenalizm, avvalo, borliqning inson ongida qanday namoyon bo'lishi va uni bilishni tushuntirishga qaratilgan gnoseologik yo'nalish sanaladi. Mazkur ta'limotga ko'ra, inson tashqi olamni bevosita emas, balki sezgi, idrok va ong orqali namoyon bo'ladigan fenomenlar vositasida anglaydi. Demak, fenomenalizmning markazida faqatgina hodisalarning noyobligi emas, balki ularning inson tajribasi va ongida namoyon bo'lish usuli ham mujassamlashgandir. Shu nuqtayi nazardan fenomenalistik yondashuvda ma'naviy liderlik yetakchi shaxsning ma'naviy qiyofasi, axloqiy fazilatlari, qadriyatlari, ijtimoiy xulqi va jamiyat ongida hosil qilgan ma'naviy obraz orqali idrok etiladi. Misol uchun, Amir Temur davlat boshqaruvida adolat, tartib-intizom va mas'uliyat tamoyillarini ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirishga intilgan tarixiy shaxs sifatida milliy tarixiy xotirada alohida o'rin egallaydi. Alisher Navoiy esa davlat arbobi, mutafakkir va ma'rifatparvar sifatida ilm, ezgulik, saxovat va komil inson g'oyalarini o'z faoliyati orqali namoyon etgani sababli ma'naviy lider timsoli sifatida qadrlanadi. Ya'ni, liderning mavjudligi uning egallagan lavozimi yoki rasmiy maqomi bilan emas, balki izdoshlar ongida shakllangan ishonch, e'tirof va ma'naviy yaqinlik tajribasi bilan belgilanadi.

Ma'naviy liderlik fenomenining falsafiy mohiyati tarkibida uning *axloqiy-estetik* qirralari alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihat ma'naviy liderlikning shaxs ichki dunyosi, ma'naviy olami, ruhiyati, tafakkuri, vijdoni, e'tiqodi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mohiyatini ifodalaydi. Bunda ma'naviy liderlik insonning axloqiy kamoloti, estetik didi, madaniyati va shaxsiy namunasi orqali namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin etiladi. Bizning nazarimizda, ma'naviy liderning aynan ichki ma'naviy-axloqiy olami va estetik dunyoqarashi uning boshqaruv uslubi, qaror qabul qilish madaniyati hamda jamiyat bilan munosabatlarining mazmunini belgilaydi. "Ma'naviyat – insonning ruhiyatini, uning o'z-

o‘zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir”. Demak, ma’naviyat inson va jamiyat hayotining axloqiy mezonlarini shakllantiruvchi hamda tartibga soluvchi fundamental omillardan biridir. Shu sababli ma’naviy liderlik ham jamiyatning ma’naviy qadriyatlari bilan dialektik birlikda rivojlanadi. Bizningcha, oqilona ma’naviy ta’lim-tarbiya olgan lider faoliyati adolat, halollik, insonparvarlik, vijdon, mas’uliyat va fidoyilik kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shu boisdan ham, bugungi kunda mamalakatimizda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda” [1]. Zero, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli, axloqan barkamol avlodni shakllanishi, yuksak ma’naviy liderlarni yetishib chiqishining kafolati hisoblanadi.

Ma’naviy liderlikning *estetik* jihati ham uning falsafiy mohiyatini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Estetik madaniyat liderning tashqi qiyofasi yoki muomala odobi bilangina cheklanmay, balki uning fikrlash uslubi, nutq madaniyati, muomala etikasi, qarorlarining uyg‘unligi, ijtimoiy munosabatlarni go‘zallik va mutanosiblik tamoyillari asosida tashkil eta olish salohiyatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, “Inson estetik ongini shakllantirishning ahamiyati estetik munosabatlarning subyektiv shakli, avvalambor estetik jihatdan qimmatli munosabatlar va estetik faoliyat bilan bevosita aloqador bo‘lgan obyektlar haqida chuqur, murakkab va mazmunli namoyishlar, baholar, mulohazalarni amalga oshirishi bilan bog‘liq. Estetik ong ma’naviy ehtiyojda namoyon bo‘lib, voqelikka ma’lum munosabatni keltirib chiqaradi va keyinchalik faoliyatning asosini, uning elementini tashkil etadigan aniq harakatlar bilan ifodalanadi” [13; 36]. Demak, ma’naviy liderlik fenomeni shakllanishida estetik ong muhim ahamiyat kasb etadi. U liderning ham tashqi, ham ichki go‘zalligini namoyon bo‘lishida konstruktiv o‘rin egallaydi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda ta’kidlashimiz mumkinki, ma’naviy liderlikning falsafiy mohiyati uning ontologik, gnoseologik, aksiologik, fenomenologik hamda axloqiy-estetik tahlili orqali ochib beriladi.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, ma’naviy liderlik faqat boshqaruv yoki yetakchilik faoliyatini ifodalovchi tushuncha emas, balki insonning ma’naviy mavjudligi, bilish salohiyati, qadriyatlar tizimi hamda axloqiy-estetik kamolotini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen hisoblanadi.

Ikkinchidan, ma’naviy liderlikning mohiyati ontologik jihatdan ma’naviy borliqning tarkibiy qismi sifatida, gnoseologik jihatdan ilmiy dunyoqarash, ratsional va kreativ tafakkur mahsuli sifatida, aksiologik jihatdan umuminsoniy va milliy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida, axloqiy-estetik jihatdan esa ezgulik, adolat, vijdon, mas’uliyat va go‘zallik tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, zamonaviy ma’naviy lider nafaqat siyosiy salohiyatga ega bo‘lgan boshqaruvchi, balki yuksak intellektual, ma’naviy va axloqiy madaniyatni o‘z shaxsida uyg‘unlashtirgan transformativ subyekt sifatida talqin etilishi lozim. Mazkur yondashuv ma’naviy liderlik fenomenini zamonaviy ijtimoiy falsafaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruratini asoslaydi hamda uning nazariy-metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4307 сонли Қарори. 2019 йил 3 май. // Халқ сўзи, 2019 йил 4 май.

2. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш – халқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир. // Миллий

тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- Б.592.

3. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yohud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 160.

4. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н. Жўраев; таржимон А.Маҳкам. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015. – Б. 732.

5. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика / Маҳкам Маҳмуд, Уммат Тўйчиев таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 352.

6. Афлотун. Қонунлар / Урфон Отажон таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 450.

7. Кариева Н. Ёш ходимлар ва раҳбарлар орасидаги ишончни шакллантириш механизмлари: Псих. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: O‘RYOIAHYOMO‘IKTI, 2022. -123 б.

8. Confucius. *The Analects of Confucius: An Online Teaching Translation.* Translated and annotated by **R.Eno.** Version 2.21. 2015. – P. 159.

9. Masharipova G.K., Xo‘janova T.J. Ma’naviyatshunoslik. – T.: Fan ziyosi, 2022. – B. 43.

10. Маънавият асосий тушунчалар луғати // Қ. Назаров ва б. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – Б. 816.

11. Овсянкин П.Е. Социально-философские аспекты управления развитием организации: Дис. ...канд. филос. наук. - Архангельск, 2000. -166 с.

12. Sabir S. A study on Ethical leadership perceptions and its impact on teachers’ commitment in Pakistan. International Journal of Educational Leadership and Management. 9 (1), 2020. – P.28-53, doi: 10.17583/ijelm.2020.4525.

13. Самадов А., Эргашева М. Шахс эстетик идеали: шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Монография. – Тошкент: “Ziyo buloq”, 2021. . – Б. 306.

14. Simon W. Leadership: A critical text. SAGE, 2013 M09 18 – P.384. ISBN 9781446294208.

15. Спиркин А.Г. Философия (учебник). - М.:Высшая школа, 2000. - С. 243.

16. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 320.

17. Шакаров У. Раҳбар ахлоқи ва адолатли бошқарувни ташкил этиш муаммолари: Сиё. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: ТошАҚИ, 2018. -150 б.

18. Шермуҳамедова Н.А. Гносеология – билиш назарияси. Т.: Noshir, 2011.

19. Қуръони карим маъноларининг ўзбекча баёни / “Рувводут-таржама” маркази таржимаси. 2023-10-31 - V1.0.4. – B.772.

20. Юлдашев **Б. Замонавий раҳбар ижтимоий қиёфасини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Самарқанд: ҚарДУ, 2022. -133 б.**

SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT OQIMI TEZLASHUVINING KOMMUNIKATIV MUHITGA TA'SIRI

Abduvaliyeva Dildora Abulkasimovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi magistranti
dildoraxon8686@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellekt va axborot oqimi tezlashuvining zamonaviy kommunikativ muhit hamda inson tafakkuriga ta'siri falsafiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, global internet tarmoqlari va algoritmik boshqaruvning insonning diqqat, xotira, idrok va tanqidiy fikrlash jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Axborot oqimining ortishi natijasida yuzaga kelayotgan kognitiv yuklama, emotsional-psixologik bosim, tafakkurning fragmentarlashuvi hamda yoshlar ongidagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Algoritmik qarorlar bilan bog'liq axloqiy mas'uliyat masalalari tahlil etilgan. Axborot tezlashuvi va sun'iy intellekt bir tomondan bilim almashinuvi va global kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirishi, ikkinchi tomondan esa tanqidiy tafakkur, ma'naviy barqarorlik va axloqiy refleksiya uchun yangi xavf va sinovlarni yuzaga keltirishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, axborot oqimi, kommunikativ muhit, kognitiv jarayonlar, tanqidiy fikrlash, algoritmik boshqaruv, raqamli texnologiyalar, axloqiy mas'uliyat.

AI AND THE ACCELERATION OF INFORMATION FLOW IN THE COMMUNICATIVE ENVIRONMENT

Abstract. This article analyses the impact of artificial intelligence and the acceleration of information flow on the modern communicative environment and human thinking. It examines the influence of digital technologies, global networks and algorithmic governance on attention, memory, perception and critical thinking. Cognitive overload, emotional pressure and fragmentation of thinking caused by the growing flow of information are discussed. Issues of ethical responsibility related to algorithmic decision-making are explored in detail. The study concludes that accelerated information flow and artificial intelligence expand opportunities for knowledge exchange and global communication, while creating new risks for critical thinking, moral stability and ethical reflection.

Key words: artificial intelligence, information flow, communicative environment, cognitive processes, critical thinking, algorithmic governance, digital technologies, ethical responsibility.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarining keng rivojlanishi insoniyatning kommunikativ muhitini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda axborot ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish jarayoni misli ko'rilmagan darajada tezlashib, jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, mobil kommunikatsiya vositalari va algoritmik tavsiya tizimlari insonni doimiy axborot oqimi ichida yashashga majbur qilmoqda. Natijada inson tafakkuri, bilish mexanizmlari va ijtimoiy munosabatlari yangi sharoitga moslashmoqda [1]. Axborot oqimining uzluksizligi diqqatning bo'linishi, tezkor fikrlash, qisqa muddatli idrok va yuzaki tahlil kabi holatlarni kuchaytirayotgan bo'lsa, bir vaqtning o'zida bilim olish, global muloqot va intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida raqamli muhitning ta'siri kuchayib, axborotni qabul qilish va baholash usullari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Shu sababli axborot oqimi tezlashuvini faqat texnologik taraqqiyot mahsuli sifatida emas, balki inson tafakkuri va ijtimoiy ongni qayta shakllantirayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o'rganish dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonni yanada murakkablashtirmoqda. Algoritmik boshqaruv va raqamli platformalar insonning axborot tanlovi, qaror qabul qilishi va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar kredit ajratish, tibbiy tashxis, ta'lim, mehnat bozori va axborot tarqatish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda faol qo'llanilayotgani sababli axloqiy mas'uliyat, insoniy agentlik va tanqidiy tafakkur bilan bog'liq muammolar yanada dolzarb tus olmoqda [2]. Axborotning ortiqcha ko'pligi va algoritmik filtrlar natijasida inson muqobil qarashlardan uzoqlashib, "kognitiv yopiq doira" ichida qolib ketishi mumkin. Bu

esa jamiyatda stereotiplar, biryoqlama fikrlash va emotsional manipulyatsiya xavfini kuchaytiradi. Mazkur maqolada sun'iy intellekt va axborot oqimi tezlashuvining kommunikativ muhit hamda inson tafakkuriga ko'rsatayotgan ta'siri falsafiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitning diqqat, xotira, idrok, tanqidiy fikrlash va ma'naviy qadriyatlarga ta'siri hamda sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy mas'uliyat masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt va axborot oqimi tezlashuvining kommunikativ muhit hamda inson tafakkuriga ta'sirini tahlil qilishda falsafiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda interpretativ tahlil metodlari qo'llanildi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya, kognitiv jarayonlar va algoritmik boshqaruvga oid ilmiy adabiyotlar, nazariy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida axborot oqimi tezlashuvi va sun'iy intellektning inson tafakkuri, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ongga ko'rsatayotgan ijobiy hamda salbiy ta'sirlari ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy jamiyatda inson axborot bilan munosabatda passiv iste'molchi emas, balki doimiy ravishda axborot ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va baholovchi subyektga aylandi. Shu bilan birga, axborot hajmi va tezligi insonning tabiiy kognitiv imkoniyatlaridan ancha yuqori sur'atda rivojlanmoqda. Bu esa tafakkurda moslashuv jarayonlarini kuchaytirib, yangi idrok shakllari, fikrlash tezligi va qaror qabul qilish modellari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda [3]. Axborot oqimi endilikda inson tafakkurining tashqi sharoiti emas, balki uning ichki faoliyatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axborot oqimi tezlashuvi jarayoni inson tafakkuriga biryoqlama emas, balki murakkab va ziddiyatli tarzda ta'sir etadi. Bir tomondan, u bilimga tezkor kirish, global muloqot va intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa axborotning ortiqcha ko'pligi, uning fragmentarligi va tez almashinuvi tafakkurda yuzakilik, diqqatning bo'linishi va tanqidiy tahlilning susayishiga olib kelishi mumkin.

Axborot tezligining diqqat, xotira va idrok jarayonlariga ta'siri; raqamli muhitda kognitiv yuklamaning ortishi; algoritmik tanlov va axborot filtrlari orqali tafakkurning yo'naltirilishi; emotsional-psixologik holatlarning bilish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot tezlashuvining ijtimoiy va ma'naviy oqibatlari, ayniqsa yoshlar tafakkurida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar alohida e'tibor markaziga olinadi [4].

Axborot oqimi tezlashuvining asosiy omillaridan biri raqamli texnologiyalar va global internet tarmoqlarining kengayishidir. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari insonni doimiy axborot muhitida yashashga majbur qilmoqda [5]. An'anaviy jamiyatda axborot cheklangan manbalar orqali uzatilgan bo'lsa, bugungi kunda inson bir vaqtning o'zida turli formatdagi matnli, vizual, audiovizual va interaktiv axborot signallariga duch keladi. Bu holat tafakkurda tanlash, filtrlash va ustuvorlik belgilash mexanizmlarining haddan tashqari faollashuviga olib keladi.

Axborot oqimi tezlashuvining tafakkurga ta'siri, avvalo, diqqat jarayonlari bilan bog'liq. Kognitiv psixologiya tadqiqotlari diqqat resursining cheklanganligini ko'rsatadi. Raqamli muhitda esa diqqat doimiy ravishda bo'linadi: bildirishnomalar, tezkor xabarlar, reklama va algoritmik tavsiyalar insonni uzluksiz chalg'itadi. Natijada tafakkurda fragmentar idrok shakllanadi, ma'lumotlar izchil mantiqiy tizimga emas, balki alohida, parchalanib qabul qilinadi. Bu holat chuqur fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini anglash va refleksiv mushohada qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Axborot tezligi inson tafakkurining xotira mexanizmlariga ham bevosita ta'sir

ko‘rsatadi. Raqamli muhitda tashqi xotira vositalari – qidiruv tizimlari, onlayn arxivlar, sun’iy intellekt yordamchilari asosiy tayanchga aylanmoqda. Inson bilimni yodda saqlashdan ko‘ra, uni qayerdan topishni bilishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ushbu holat “kognitiv delegatsiya” jarayonini kuchaytirib, tafakkurning ichki intellektual faolligini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida bilimning mazmunidan ko‘ra, uning tezkor mavjudligi ustuvor bo‘lib bormoqda [6].

Axborot oqimi tezlashuvining yana bir muhim jihati – emotsional va psixologik yuklamaning ortishidir. Doimiy yangilanish, ijtimoiy solishtirish, onlayn baholash va reaksiya kutish holati shaxsni psixologik bosim ostida qoldiradi. Tafakkur nafaqat bilish, balki emotsional reaksiya rejimida ham ishlay boshlaydi. Bu holat yoshlar orasida tashvishlilik, tez zerikish, barqaror diqqatni jamlay olmaslik va ichki beqarorlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Axborot tezlashuvining tafakkurga ta’sir etuvchi muhim omillaridan biri algoritmik boshqaruv va seleksiyadir [7]. Raqamli platformalar foydalanuvchining xatti-harakati asosida axborotni tanlab taqdim etadi. Natijada shaxs ma’lum bir axborot doirasida qolib ketadi va muqobil qarashlar bilan kamroq to‘qnashadi. Bu esa tafakkurda “kognitiv yopiq doira”ni shakllantirib, tanqidiy fikrlash va plyuralistik dunyoqarashni cheklashi mumkin. Ijtimoiy ongda esa stereotiplar va biryoqlama qarashlar mustahkamlanadi.

Axborot oqimi tezlashuvi tafakkurning vaqtni idrok etish shakllarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. “Darhol javob”, “tezkor natija” madaniyati sabr, ichki mushohada va uzoq muddatli fikrlashni ikkinchi planga suradi. Tafakkur tobora instrumental va pragmatik tus oladi. Bu esa tarbiya jarayonida ma’naviy qadriyatlarni chuqur anglash, axloqiy qarorlarni ongli qabul qilish imkoniyatlarini murakkablashtiradi.

Axborot oqimi tezlashuvining ijtimoiy oqibatlari ham bevosita tafakkur bilan bog‘liq. Bilim va axborot endi ko‘proq individual ekran orqali qabul qilinadi, kollektiv fikrlash va an’anaviy muloqot shakllari qisqaradi. Natijada tafakkurda empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy ongni shakllantirish mexanizmlari zaiflashishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiylashuv jarayonida virtual muloqotga ko‘proq tayana boshlaydi, bu esa real hayotdagi kommunikativ ko‘nikmalarni qayta formatlaydi. Ma’naviy nuqtayi nazardan, axborot oqimi tezlashuvi qadriyatlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Axborotning ko‘pligi va tezligi sababli axloqiy mezonlar nisbiylashadi, “trend” va “ommaviylik” qadriyatlarning o‘rnini egallay boshlaydi. Tafakkurda chuqur ichki mezonlardan ko‘ra, tashqi baho va ijtimoiy reaksiya muhimroq bo‘lib qolishi mumkin. Bu holat yoshlar tarbiyasida ma’naviy immunitet masalasini dolzarb muammoga aylantiradi. Shu bilan birga, axborot oqimi tezlashuvi tafakkur uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratadi. Tezkor bilim almashinuvi, global muloqot va turli madaniyatlar bilan tanishish tafakkurni moslashuvchan, ochiq va kreativ qiladi [11]. Muammo axborot tezligining o‘zida emas, balki uni idrok etish va boshqarish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganidadir.

Umuman olganda, axborot oqimi tezlashuvi inson tafakkuriga murakkab, ko‘p qatlamli va ambivalent ta’sir ko‘rsatadi. U bilish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq diqqat, xotira, tanqidiy fikrlash va ma’naviy barqarorlikka yangi sinovlar yaratadi. Ayniqsa, yoshlar tafakkuri ushbu jarayonlarning eng faol va eng sezgir subyekti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektning ijtimoiy o‘lchami jamiyatning barcha qatlamlariga chuqur ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisadir. U ijtimoiy jarayonlarni tezlashtiradi va optimallashtiradi, biroq shu bilan birga, yangi ijtimoiy risklar va mas’uliyatlarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois sun’iy intellektni jamiyat hayotiga integratsiya qilish jarayoni ijtimoiy adolat, ma’naviy qadriyatlar va insoniy agentlikni saqlab qolish tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim [10].

Sun’iy intellektning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi axloqiy mas’uliyat masalasini zamonaviy falsafa va ijtimoiy tafakkurning eng murakkab muammolaridan

biriga aylantirdi. Agar an'anaviy jamiyatda axloqiy qarorlar va ularning oqibatlari bevosita inson subyekti bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda qaror qabul qilish jarayonida sun'iy intellekt tizimlari ham faol ishtirok etmoqda. Natijada "kim javobgar" degan savol yangi mazmun kasb etmoqda.

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar kredit ajratish, tibbiy tashxis qo'yish, ishga qabul qilish, sud tizimida tavsiyalar berish, axborot tarqatish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda qo'llanilmoqda [9]. Bu holatda qaror texnik jihatdan algoritm tomonidan qabul qilinayotgandek ko'rinsa-da, uning ijtimoiy va axloqiy oqibatlari bevosita inson hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy mas'uliyatni faqat texnologik masala sifatida emas, balki ijtimoiy va ma'naviy muammo sifatida ko'rib chiqish zarur.

Axloqiy falsafada ushbu muammo ko'pincha axloqiy agentlik tushunchasi orqali izohlanadi. Sun'iy intellekt mustaqil ong va niyatga ega bo'lmaganligi sababli to'liq axloqiy subyekt sifatida qaralmaydi. Biroq u ishlab chiqargan natijalar axloqiy bahoni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mas'uliyat zanjiri insondan boshlanadi: algoritmni yaratgan mutaxassislar, undan foydalangan institutlar va qarorlarni tasdiqlagan ijtimoiy tizimlar bu mas'uliyatni bo'lishadi. Demak, sun'iy intellekt sharoitida axloqiy mas'uliyat tarqoq va ko'p bosqichli tus oladi.

Globallashuv sharoitida texnologik qarorlar tobora tezlashib, insonning ularni anglab yetish va axloqiy baholash imkoniyatlari qisqarib bormoqda. Bu holat axloqiy refleksiya va mas'uliyat hissining susayishiga olib kelishi mumkin. Texnologik jarayonlarning murakkablashuvi natijasida inson o'z qarorini "algoritm shunday dedi" degan asos bilan oqlashga moyil bo'lib qoladi [8]. Natijada axloqiy javobgarlik shaxsdan tizimga ko'chiriladi, bu esa jamiyatda mas'uliyatsizlikning yangi shakllarini yuzaga chiqaradi.

Sun'iy intellektning axloqiy muammolari yoshlar tarbiyasi kontekstida ayniqsa dolzarbdir. Yosh avlod sun'iy intellekt bilan bevosita muloqot qilayotgan, undan bilim oladigan va qarorlarida foydalanadigan asosiy ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Agar yoshlar sun'iy intellektni mutlaq xolis, xatosiz va mas'uliyatsiz tizim sifatida qabul qilsa, ularning axloqiy mustaqilligi va tanqidiy tafakkuri zaiflashadi. Shu bois tarbiya jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish bilan birga, axloqiy savodxonlik, texnologik mas'uliyat va insoniy qaror ustuvorligi tamoyillarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

G'arb axloqshunosligida sun'iy intellekt mas'uliyati ko'pincha "nazorat qilinadigan taraqqiyot" g'oyasi bilan bog'lanadi. Texnologik rivoj inson manfaatlariga xizmat qilishi, inson qadr-qimmati va erkinligini cheklamasligi kerak. Sun'iy intellekt inson qarorini almashtiruvchi emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lishi lozim. Aks holda, texnologik samaradorlik axloqiy mezonlardan ustun qo'yilgan jamiyatda ijtimoiy ishonch va ma'naviy barqarorlik izdan chiqadi.

Mahalliy ilmiy qarashlarda ham sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy mas'uliyat masalasi tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchilar texnologiyalarni joriy etishda milliy qadriyatlar, ma'naviy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni saqlash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, sun'iy intellektni jamiyat hayotiga integratsiya qilish faqat texnik tayyorgarlik bilan emas, balki axloqiy va tarbiyaviy strategiyalar bilan birga olib borilishi lozim.

Sun'iy intellekt va axloqiy mas'uliyat muammosi zamonaviy jamiyatning asosiy sinovlaridan biridir. Texnologiya qanchalik rivojlanmasin, axloqiy qaror va javobgarlik inson zimmasida qolishi kerak. Shu bois sun'iy intellektni boshqarish masalasi, avvalo, insoniy mas'uliyatni saqlab qolish va mustahkamlash masalasi sifatida qaralishi lozim [7]. Tarbiya jarayonida sun'iy intellekt ikki tomonlama rol o'ynaydi. Bir tomondan, u ta'limni individuallashtirish, bilimlarni moslashtirilgan shaklda yetkazish va tahliliy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, sun'iy intellektga haddan tashqari

tayanish mustaqil fikrlash, axloqiy mas’uliyat va ichki intellektual intizomning susayishiga olib kelishi mumkin.

Sun’iy intellekt fenomeni inson tafakkuri, jamiyat va axloqiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U inson tafakkurini kengaytiradi, biroq uni to‘liq almashtirmaydi; jamiyatni samaraliroq qiladi, biroq yangi xavflarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois sun’iy intellektni boshqarish masalasi, avvalo, ma’naviy va axloqiy boshqaruv masalasidir. Globallashuv zamonaviy jamiyat taraqqiyotining obyektiv va tarixiy jihatdan muqarrar jarayoni bo‘lib, u insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur singib bormoqda [4]. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy integratsiya yoki siyosiy yaqinlashuv bilan cheklanadi, balki inson tafakkuri, dunyoni idrok etish usullari, ijtimoiy ong va ma’naviy qadriyatlar tizimini ham tubdan qayta shakllantirmoqda. Natijada shaxsning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy mas’uliyati va o‘zini anglash jarayoni yangi sharoitlarda qayta talqin etilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, axborot oqimi tezlashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy kommunikativ muhit hamda inson tafakkuriga chuqur va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar bilim almashinuvi, global muloqot va axborotga tezkor kirish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ular bilan birga kognitiv yuklama, diqqatning bo‘linishi, yuzaki tafakkur va emotsional bosim kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, algoritmik boshqaruv va axborot filtrlari insonning tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda plyuralistik dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va axborot oqimi tezlashuvi faqat texnologik taraqqiyot mahsuli emas, balki insonning bilish jarayonlari, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini qayta shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Shu sababli zamonaviy jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni mustahkamlash va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar ongida ma’naviy barqarorlik, axloqiy refleksiya va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish raqamli davrning asosiy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 300 b.
4. Yusupov E. Falsafa. – Toshkent: Sharq, 2012. – 496 b.
5. To‘rayev B. Globallashuv va milliy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 224 b.
6. Xolmatov M. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 192 b.
7. Yusupov Sh. Axborot makoni va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 224 b.
8. Karimov N. Axborotlashgan jamiyat va ma’naviyat. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 208 b.
9. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – Москва: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
10. Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ, 2004. – 784 с.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.
12. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 353 p.

YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA URF-ODAT, MAROSIM VA MILLIY BAYRAMLARNING O'RNI

Boysunov Jonbek Xidirovich
Qarshi davlat universiteti, f.f.f.d., dotsent
boysunovjonbek@gmail.com
ORCID 0009-0009-7023-7197
UDK 394.2:37.044.4

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy tajribasi davomida shakllangan urf-odat, an'ana, marosim va milliy bayramlarning yosh avlod ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashdagi o'rni hamda tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil etiladi. Milliy qadriyatlarning yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularda Vatanga muhabbat, insonparvarlik, milliy g'urur va milliy o'zlikni anglash kabi fazilatlarni qaror toptirishdagi ahamiyati yoritiladi. Urf-odat va marosimlarning shakllanish manbalari, turli tarixiy davrlardagi rivojlanish xususiyatlari o'rganiladi; "Avesto" hamda so'g'diy, xitoy, arab, fors va turkiy yozma manbalardagi ma'lumotlarning ilmiy ahamiyati ochib beriladi. Ularning yoshlar ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Milliy an'analarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy tarbiya jarayoni bilan uyg'unlashtirish yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashning omili ekani ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosim, milliy bayram, ma'naviy tarbiya, yoshlar ma'naviyati, milliy o'zlik, ma'naviy meros.

THE ROLE OF TRADITIONS, RITUALS, AND NATIONAL HOLIDAYS IN DEVELOPING THE SPIRITUAL OUTLOOK OF YOUNG PEOPLE.

Abstract. This article analyses the role and educational potential of the customs, traditions, rituals and national holidays of the Uzbek people in the spiritual and moral development of the younger generation. It highlights the significance of national values in shaping young people's worldview. The origins and evolution of Uzbek customs and rituals across historical periods are examined in detail, and the scholarly value of evidence found in the Avesta and in Sogdian, Chinese, Arabic, Persian and Turkic written sources is shown. The author argues that preserving national traditions and integrating them with modern education strengthens the spiritual immunity of young people.

Key words: national values, customs, traditions, rituals, national holidays, spiritual education, youth spirituality, national identity, spiritual heritage.

Kirish. Har bir xalqning tarixiy qiyofasi, avvalo, uning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlari, marosimlari va bayramlarida o'z ifodasini topadi. Bunday qadriyatlar xalqning kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular orqali avlodlarning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, estetik didi, orzu-intilishlari va jamiyat haqidagi tasavvurlari keyingi avlodlarga yetkaziladi. Shu ma'noda, milliy urf-odat va marosimlar faqatgina tarixiy-madaniy hodisa bo'lib qolmay, balki shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo'ladi.

Globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi va turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida yosh avlodning milliy o'zligini anglashiga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi yoshlarning dunyoqarashi bir vaqtning o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'sirida shakllanmoqda. Shuning uchun ham milliy merosimizning tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, uni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbek xalqining urf-odat, marosim va bayramlarini o'rganish jarayonida ularning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki mazmuni va ramziy mohiyatini ham anglash muhimdir. Marosimlarda aytiladigan qo'shiqlar, laparlar, aytimlar, maqollar, rivoyatlar, she'riy parchalar va boshqa folklor namunalari xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu bois bunday an'analarni ilmiy tadqiq etish xalqning ma'naviy dunyosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini qaror toptirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida ham yoshlarning ma'naviy kamoloti, milliy qadriyatlarga sodiqligi va

zamonaviy bilimlarni egallashi mamlakat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida qayd etiladi [1].

Yosh shaxsning ma'naviy dunyosi shakllanadigan dastlabki va eng muhim muhit oiladir. Bola oilada hayotning dastlabki qoidalarini, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, salomlashish, mehmondo'stlik, nonni qadrlash, dasturxon odobi, qarindoshlik rishtalarini asrash kabi qadriyatlarni o'zlashtira boshlaydi. O'zbek oilalarida avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday an'analar yoshlarning xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning bolalik davrida egallagan ma'naviy qadriyatlari uning keyingi hayotidagi dunyoqarashi va xatti-harakatlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi psixologik tadqiqotlarda ham qayd etiladi [2]. Demak, oiladagi ma'naviy muhit, milliy tarbiya va an'anaviy qadriyatlarning yosh avlod ongiga singdirilishi kelgusida faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot doirasida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, urf-odat va marosimlarning tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy tarbiyaviy jarayondagi ahamiyatini aniqlashda tarixiy-etnografik va folklor materiallariga murojaat qilindi.

Natijalar va muhokama. O'zbek xalqining milliy madaniyatida inson hayotining turli bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab urf-odat va marosimlar mavjud. Farzandning dunyoga kelishi, uning voyaga yetishi, oila qurishi, mehnat faoliyati, jamiyatdagi mavqeyi va hayotining boshqa muhim bosqichlari turli marosimlar orqali nishonlangan. Beshik to'yi, ism qo'yish, tushov kesish, sunnat to'yi, sovchilik, nikoh, kelin salom, mehmondo'stlik, hashar, xalq sayillari va milliy bayramlar ana shunday an'anaviy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Ushbu urf-odatlarning har biri muayyan tarbiyaviy mazmunga ega. Masalan, beshik to'yida yangi tug'ilgan chaqaloqni oilaga qabul qilish bilan birga, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ezgu tilaklar bildirish va farzandning kelajagiga yaxshi niyat qilish kabi ma'naviy qadriyatlar namoyon bo'ladi. Hashar an'anasi esa hamjihatlik, o'zaro yordam, jamoaviy mas'uliyat va insonlar o'rtasidagi mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi uning milliy o'zligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli bunday merosni asrab-avaylash, ilmiy jihatdan o'rganish va kelajak avlodga yetkazish masalasi barqaror ma'naviy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq. Nomoddiy madaniy meros xalqning tarixiy xotirasini saqlash bilan birga, uning kelajakdagi ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu o'rinda "urf-odat", "an'ana", "marosim" va "bayram" tushunchalarining o'zaro munosabatini aniqlashtirish zarur. Mazkur tushunchalar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning ijtimoiy vazifasi va qo'llanish doirasi jihatidan farqli jihatlari mavjud. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda bu atamalar bir-biriga yaqin ma'noda ishlatilganini kuzatish mumkin. Biroq ularni ilmiy jihatdan farqlash milliy madaniyat hodisalarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

U. Qoraboyevning "O'zbek xalqi bayramlari" asarida an'ana va odat tushunchalarining mazmuni izohlangan. Muallifning qarashlariga ko'ra, an'ana tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy va tabiiy ehtiyojlar asosida shakllanib, avloddan avlodga o'tib keladigan hamda kishilarning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniy hodisadir. Odat yoki urf-odat esa insonlarning kundalik hayotiga singib ketgan, muntazam takrorlanadigan va jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini ifodalaydi [3].

An'ana ijtimoiy hayotning ko'plab jabhalarini qamrab oluvchi keng tushuncha bo'lsa, odat ko'proq insonning kundalik turmushi, xatti-harakati, muomala madaniyati va

oilaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Marosim esa inson hayotidagi muhim voqealarni muayyan tartib-qoidalar asosida nishonlashga qaratilgan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

B.Sarimsoqov marosimlarning kelib chiqishi va yashovchanligini xalqning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘laydi. Uning fikricha, marosimlarda ma’lum bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi belgilar mujassam bo‘ladi [4]. Demak, marosimlarni o‘rganish orqali xalqning muayyan tarixiy davrdagi turmush tarzi va dunyoqarashi haqida muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Urf-odat tushunchasi esa mazmun jihatidan ancha keng bo‘lib, kundalik udumlar, rasm-rusumlar, o‘zaro muomala shakllari, ayrim e’tiqodiy qarashlar va marosimlarni ham qamrab oladi. Marosim esa ma’lum voqea yoki hodisani jamoaviy tarzda nishonlashga qaratilgan, o‘zining ichki tartibi va ramziy ifoda shakllariga ega bo‘lgan hodisadir.

O‘zbek xalqining qadimiy ma’naviy merosini o‘rganishda “Avesto” alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yodgorlikda ajdodlarimizning axloqiy qarashlari, tabiatga munosabati, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Zardushtiylik ta’limotining asosiy tamoyili sifatida ilgari surilgan “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi insonning ichki dunyosi, so‘zi va amaliy faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi.

“Avesto”da tabiatni muhofaza qilish, suv, yer, havo va olovni qadrlash, atrof-muhitning tozaligini saqlashga doir qarashlar ham muhim o‘rin egallaydi. Yaylov va butazorlarni asrash, ekin maydonlari va bog‘larga zarar yetkazmaslik, suv manbalarini ifloslantirmaslik kabi qoidalar qadimgi ajdodlarimizda ekologik qarashlar muayyan darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Asarda suv havzalarini ifloslantirish, daraxtlarga zarar yetkazish va tabiatni muhofaza qilish qoidalarini buzishga nisbatan qat’iy choralar belgilanganligi haqida ma’lumotlar uchraydi [5].

Mazkur qarashlarning bugungi kun uchun ham ahamiyati katta. Hozirgi davrda ekologik muammolarning global miqyosda kuchayib borayotganini hisobga olsak, ajdodlarimizning tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga undovchi an’analarini qayta o‘rganish va ulardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish muhimdir. Ayniqsa, yoshlar ongida ekologik mas’uliyat va tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda tarixiy-ma’naviy merosdan foydalanish samarali natija berishi mumkin.

Ajdodlarimizning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirish tajribasi milliy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni anglash, suv va yer kabi tabiiy boyliklarni qadrlash, atrof-muhitni toza saqlashga odatlanish yoshlarning nafaqat ekologik madaniyatini, balki ma’naviy mas’uliyatini ham oshiradi.

Sharq xalqlarining taqvimiy marosimlari va bayramlari tarixini o‘rganishda Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari alohida manbaviy qiymatga ega. Ushbu asarda islomgacha bo‘lgan davrda Xorazm, So‘g‘d va Eron hududlarida yashagan xalqlarning taqvimlari, oy nomlari, bayramlari va marosimlari haqida muhim tarixiy-etnografik ma’lumotlar berilgan [6].

Beruniy tomonidan Navro‘z, Mehrjon, Sada, turli hosil bayramlari hamda ajdodlarni xotirlash bilan bog‘liq marosimlarga oid ma’lumotlarning qayd etilishi xalqimizning taqvimiy an’analarini tarixiy jihatdan tadqiq etish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Ushbu bayramlarda tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, mehnat jarayonlari, hosildorlik va insonning tabiat bilan munosabati o‘z ifodasini topgan.

Ayniqsa, Navro‘z xalqimizning eng qadimiy va keng tarqalgan bayramlaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiq. Sharqning ko‘plab tarixchi va mutafakkirlari ushbu bayram haqida turli ma’lumotlarni qoldirgan. Beruniy ma’lumotlarida Navro‘zning qadimiy an’analar bilan bog‘liqligi, uning yilning boshlanishi bilan munosabati hamda turli ijtimoiy guruhlar tomonidan nishonlanganligi haqida ma’lumotlar uchraydi.

“Navro‘znoma” asarida ham bayramning mazmuni va tarixiy xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan [7].

Navro‘zning muhim jihati shundaki, unda tabiatning yangilanishi, bahorning kirib kelishi, ezgu niyatlar, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi qadriyatlar mujassamlashadi. Shu bois ushbu bayram yosh avlod tarbiyasida ham katta ma’naviy imkoniyatlarga ega. Navro‘z tadbirlari orqali yoshlar milliy madaniyat, xalq ijodiyoti, tarixiy an’analar va tabiatga hurmat ruhida tarbiyalanishi mumkin.

Umuman, Beruniyning asari Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, e’tiqodlari, urf-odatlari va bayramlarini o‘rganish uchun muhim tarixiy-etnografik manbalardan biridir. Undagi ma’lumotlar o‘zbek xalqining taqvimiy marosimlari genezisi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining mavsumiy marosimlari ham milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular yil fasllari, dehqonchilik jarayonlari, tabiatdagi o‘zgarishlar va xalqning kundalik mehnat faoliyati bilan chambarchas bog‘langan. Tadqiqotchilar tomonidan mavsumiy marosimlar yilning fasllariga qarab turli guruhlarga ajratilgan.

Qish fasli bilan bog‘liq marosimlar tarkibiga gap-gashtaklar, birinchi qor yog‘ishi munosabati bilan o‘tkaziladigan udumlar hamda qishning o‘ziga xos tabiat hodisalari bilan bog‘liq marosimlarni kiritish mumkin.

Bahorgi marosimlar orasida Navro‘z, shoxmoylar, “Sust xotin”, “Loy tutish”, “Ish boshi”, “Urug‘ qadash”, “Birinchi shudgor”, “Lola sayli” va “Qizil gul” kabi an’analar mavjud bo‘lgan. Mazkur marosimlarning aksariyati tabiatning uyg‘onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi va hosildorlikka bo‘lgan umid bilan bog‘langan.

Yoz fasliga oid marosim va sayillar qatoriga qovun sayli, “Choy momo”, shamol bilan bog‘liq udumlar, hosilni yig‘ib olish jarayonlari bilan bog‘liq marosimlar va boshqa an’analarni kiritish mumkin. Kuz faslida esa “Mehrjon”, hosil yig‘imi bilan bog‘liq “Oblo baraka”, uzum sayli va boshqa mavsumiy marosimlar o‘tkazilgan.

Bu marosimlarning har biri xalqning tabiatga munosabati, mehnat madaniyati va jamoaviy hayotini aks ettirishi bilan birga, yosh avlodni hamkorlik, mehnatsevarlik, tabiatni qadrlash va jamoaga foydali bo‘lish ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

O‘zbek xalqining marosim va an’analarini folklorshunoslik hamda etnografiya nuqtayi nazaridan o‘rganishda M. Alaviya, T. Mirzayev, U. Qoraboyev, B. Sarimsoqov, O. Safarov, M. Jo‘rayev, S. Davlatov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, L.P. Potapov, O.A. Suxareva, P. Xobacheva, B.X. Kannisheva kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ham o‘zbek va Markaziy Osiyo xalqlarining marosim va an’analarini tadqiq etishda muhim manbalardan hisoblanadi. O‘zbek marosim folklorining qo‘shiq va aytimlarini to‘plash hamda nashr etishda M. Alaviya, O. Sobirov, X. Razzoqov, X. Safarov, M. Jo‘rayev, Sh. Turdimov, J. Eshonqulov, S. Yo‘ldosheva va boshqa olimlarning xizmatlarini alohida qayd etish mumkin.

Xalq an’analarining muhim qismi inson hayotining tug‘ilishdan boshlab voyaga yetishigacha bo‘lgan bosqichlari bilan bog‘liq marosimlarda namoyon bo‘ladi. Shulardan biri beshik marosimidir. Beshik to‘yi chaqaloqning oilaga kirib kelishini nishonlash, farzandning sog‘lom ulg‘ayishiga ezgu tilak bildirish va qarindoshlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi marosimlardan biridir.

Beshik marosimining tarkibida chaqaloq uchun beshik olib kelish, uni ilk marta beshikka belash, yaxshi niyatlar bildirish kabi udumlar mavjud. “Beshik” tushunchasining “belamoq” fe’li bilan bog‘liqligi, ya’ni bolani o‘rab, uni tinch va xavfsiz holatda parvarish qilish mazmunini anglatishi qayd etiladi [8].

An’anaviy o‘zbek beshigi xalqning ko‘p asrlik tajribasi asosida shakllangan maishiy-madaniy buyum sifatida ham e’tiborga loyiq. Uni tayyorlashda yog‘ochdan foydalanilishi, bolaning yotishi va tebratilishi uchun qulay shaklning yaratilishi, onaga

farzandini parvarish qilishda qulaylik beruvchi jihatlarning hisobga olinishi xalqning amaliy tajribasi va maishiy madaniyatidan dalolat beradi. Beshik bilan bog‘liq ayrim ramziy udumlarda esa xalqning ezgu niyatlari, farzandga bo‘lgan mehr-muhabbati va himoya haqidagi qadimiy tasavvurlari aks etadi [9].

Hozirgi davrda beshik to‘ylarining mazmuni va o‘tkazilish shakllarida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatilmoqda. An’anaviy beshik bilan bir qatorda zamonaviy belanchaklar, elektron moslamalar va boshqa vositalardan foydalanish holatlari uchramoqda. Bu jarayon bir tomondan texnologik taraqqiyotning kundalik hayotga kirib kelayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan milliy an’analar va zamonaviy turmush tarzi o‘rtasidagi munosabatni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Shuningdek, yoshlar bilan tashkil etiladigan ochiq muloqot va uchrashuvlarda oilaviy munosabatlar, o‘zaro hurmat, farzand tarbiyasi, muomala madaniyati va ma’naviy mas’uliyat masalalarini muhokama qilish muhimdir. Chunki yoshlarning oilaviy hayotga oid bilim va ko‘nikmalari faqat nazariy ma’lumotlar orqali emas, balki hayotiy tajriba va amaliy suhbatlar asosida ham shakllanadi.

“Ibratli oila” kabi ko‘rik-tanlovlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular jamiyatda ijobiy oilaviy tajribalarni ommalashtirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar orqali yoshlar oiladagi o‘zaro hurmat, mas’uliyat, mehr-oqibat va farzand tarbiyasiga e’tibor kabi fazilatlarni amaliy misollar asosida ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, bugungi oilaviy tarbiya jarayonida e’tibor talab qiladigan muammolardan biri moddiy farovonlik va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi muvozanat masalasidir. Ayrim hollarda ota-onalar farzandining kelajakdagi moddiy ta’minotiga katta e’tibor qaratib, uning ma’naviy ehtiyojlari, ruhiy kechinmalari, axloqiy tarbiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalarini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yishi mumkin.

Vaholanki, farzand uchun ota-onaning moddiy ko‘magi qanchalik muhim bo‘lmasin, uning ma’naviy tarbiyasi va hayotiy qadriyatlarini shakllantirish bundan kam ahamiyatga ega emas. Ota-ona farzandiga nafaqat moddiy imkoniyat, balki halollik, mehnatsevarlik, mas’uliyat, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik kabi axloqiy fazilatlarni ham meros sifatida qoldirishi lozim. Ana shunday tarbiya yoshlarning hayotda mustaqil va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari va milliy bayramlari yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ular orqali xalqimizning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, axloqiy qarashlari va avlodlar tajribasi yoshlar ongiga yetkaziladi. Ayniqsa, oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi asosida milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish samarali natijalarga olib keladi.

Urf-odat va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular yoshlarni milliy madaniyat bilan bog‘labgina qolmay, balki ularda insoniylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, hamjihatlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Milliy bayramlar esa ana shu qadriyatlarni ommaviy tarzda namoyon etish va yoshlar ongiga singdirishning samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli milliy urf-odat va an’analarni faqat o‘tmishdan qolgan meros sifatida emas, balki bugungi tarbiya jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan muhim ma’naviy-pedagogik vosita sifatida baholash lozim. Bunda an’analarni ko‘r-ko‘rona takrorlash emas, balki ularning ijobiy mazmunini anglash, zamonaviy hayot talablari bilan uyg‘unlashtirish va yoshlar tarbiyasiga mos ravishda qo‘llash muhimdir.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o‘rganish va yosh avlodga mazmunli tarzda yetkazish milliy o‘zlikni saqlashning muhim shartlaridan biridir. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini moddiy manfaatlar bilan bir qatorda e’tiborga olish, oilada sog‘lom ma’naviy muhit yaratish va

farzand tarbiyasida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Demak, urf-odat, marosim va milliy bayramlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ularni oila, mahalla va ta'lim tizimi faoliyati bilan uyg'unlashtirish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, milliy o'zligini anglashini kuchaytirish va jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 27-bet.
2. Vygotskiy L. S. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva, 1991. 38-bet.
3. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T., Sharq, - 2002. – 8-bet.
4. Sarimsoqov B. Marosim Folklori // O'zbek folklori, ocherklari. 1-tom. T., 1988. – 152.
5. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik. – 64-bet.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / tanlangan asarlar. – Toshkent: fan, 1968 T.1. – 233-252-betlar.
7. Rtveladze E.B. Navro'z baxt va farog'at bayrami // Moziydan sado. 2003. № (17). – 15-bet.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.1.A-D / Tahrir hayati: T: Mirzayev (rahbar) va boshqa.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -680 b.

EKOLOGIK QIYMATNI ASRASH – YASHIL IQTISODIYOT POYDEVORI

Salomova H.Yu.
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi. Falsafa” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori
h.y.salomova@buxdu.uz
ORCID 0009-0003-5061-8669
UDK 1:502/504

Annotatsiya. Maqolada ekologik qiymatning mohiyati va uning iqtisodiy qiymat bilan munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Tabiat borlig‘ida “foydali tur” va “foydasiz tur” degan tushunchalar mavjud emasligi asoslanadi. Ekologik qiymatli ekokomponent ekotizim biomahsuldorligi va biosferadagi funksiyalarning poydevori sifatida biosferaning hayot ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Ekologik qiymat biomahsuldorlik, biomassa, barqarorlik, ekologik valentlik, tolerantlik, ekologik muvozanatdagi rol va o‘z-o‘zini yangilash kabi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. O‘rmonlar, suv va boshqa ekokomponentlar misolida ekologik qiymat iqtisodiy qiymatdan yuqori ekani ko‘rsatiladi. Ekokomponentning ekologik qiymatini saqlash uni keyinchalik tiklashdan arzonroq ekani ta’kidlanadi. Ekologik qiymat mohiyat, iqtisodiy qiymat esa hodisa sifatida talqin etilib, uning yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot uchun ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ekologik qiymat, iqtisodiy qiymat, ekokomponent, biosfera, ekologik muvozanat, ekologik imkoniyat chegarasi, mohiyat va hodisa, barqaror taraqqiyot, yashil iqtisodiyot.

PRESERVING ECOLOGICAL VALUE – THE FOUNDATION OF A GREEN ECONOMY

Abstract. The article provides a philosophical analysis of the essence of ecological value and its relationship with economic value. It argues that nature does not divide species into “useful” and “useless”. An ecologically valuable ecocomponent underlies ecosystem bioproductivity and biospheric functions and determines vital indicators of the biosphere. Ecological value is characterized by bioproductivity, biomass, stability, ecological valence, tolerance, its role in ecological balance and self-renewal. Examples of forests and water show that ecological value exceeds economic value. Ecological value is interpreted as essence and economic value as phenomenon, and its importance for a green economy and sustainable development is substantiated.

Key words: ecological value, economic value, ecocomponent, biosphere, ecological balance, ecological capacity limit, essence and phenomenon, sustainable development, green economy.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolarni bartaraf etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining uzluksiz ekologik ta’lim borasidagi bir qator Farmon va Qarorlari, yoshlarni oiladan, bog‘cha, maktab, texnikum, oliy o‘quv yurtlaridagi talabalarga samarali va sifatli ilmlar berilishidagi jiddiy e’tibori diqqatga sazovordir. Ayniqsa yashil texnikumlarni har bir viloyatda ochilishi, ishlab chiqarish bilan atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatlarni uyg‘un olib borishdagi tadbirlari sog‘lom inson – sog‘lom tabiat mahsuli ekanligini hayotga joriy qilishdagi katta qadam bo‘ldi. O‘rta yoshlilarni ham zamonaviy ekologiya asoslarini o‘rganishga, ekologiya amaliyotlarda faol bo‘lishga da’vat etayotganligining o‘ziyoq sog‘lom tabiat borlig‘ini asrashga qaratilgan jiddiy e’tiboridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2026-yil 25 martdagi №PQ-110 Qarori, 2026 yil 1 maydan boshlab tabiatni muhofaza qilish sohasida alohida tashabbus ko‘rsatgan yoshlar hamda ekoa’lochi maktab o‘quvchilarini rag‘batlantirish maqsadida “Yosh ekolog” ko‘krak nishoni, maktab o‘quvchilari o‘rtasida III darajali “Yosh ekolog” ko‘krak nishoni, texnikum va oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida II darajali “Yosh ekolog” ko‘krak nishoni, xalqaro va mahalliy miqyosda yuqori natijalarga erishgan yoshlar o‘rtasida I darajali “Yosh ekolog” ko‘krak nishoni ta’sis etilganining o‘ziyoq, “Umumiy ekologiya” va “Ijtimoiy ekologiya” fanlari vositasida ekologik bilimlarni tizimli o‘qitilishini zaruriyat qilib qo‘ydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik qiymat bilan bog‘liq ilk falsafiy qarashlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xoja Yusuf Hamadoniy asarlarida bayon etilgan. Bugungi kunda mavzuning turli aspektlari qator mamlakat va xorij mutaxassislari tomonidan mufassal tahlil qilib berildi. Jumladan, A. Ergashev, I. Rudenko

va S.Davletovlarning “Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari” nomli asarida ekologik qiymatning mamlakat ekologik xavfsizligiga ta’siri, rus olimlari tomonidan nashr qilingan “Инженерная экология и экологический менеджмент” nomli asarida ekologik imkoniyat chegaralari, M.M.Gulomov “Umumiy ekologiya” nomli kitobida tabiat qonunlari haqida qimmatli mulohazalar ilgari surilgan. Shunga qaramasdan, ekologik qiymat bilan bog‘liq falsafiy g‘oyalar yaxlit tizimga keltirilganicha yo‘q.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda analiz va sintez, umumlashtirish va taqqoslash, dialektika va sinergetika metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Insoniyat o‘z manfaati yo‘lida tabiat, ekologik komponentlaro‘simlik, hayvonot olamiga, atrof-muhitga katta ziyon yetkazmoqda. Bu esa o‘z navbatida minglab turlarning yashash makoni yo‘qolib, ekologik nish qonuniga amal qilmaganligi tufayli turlarning katta ko‘lamini yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Biologik xilma-xillik har bir ekosistemaning muvozanatini saqlaydigan biologik mexanizm poydevoridir. Birgina turning yo‘qolishi ekosistema iyerarxiyasidagi noaniqliklarga, halokatli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy ekologiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni poydevori bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beradi, antropogen omillar mezoni bo‘lgan cheklovchi tabiiy-ekologik me’yorlar, har bir ekosistemaning imkoniyat chegaralari, ekologik komponentlarning ekologik qiymati haqidagi noyob bilimlarni taqdim etadi. Insoniyatni salomat va ekologik sog‘lom turmushining fundamental asoslari haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Polinator – gullanishni amalga oshiruvchi turlar populyatsiyasining pasayishi butun oziq-ovqat zanjiriga ta’sir qilishini amaliy faktlar orqali yoritib beradi.

Bugungi har bir pedagog, olim, professor talabalarga dars berishga intilayotgan mutaxassisdan yangicha shijoat, yangicha zamonaviy ilmlar bilan o‘zini boyitishni taqozo etmoqda. Har bir tabiat komponentlari xoh tirik, xoh jonsiz, xoh kam yoxud ko‘p bo‘lishidan, “birlamchi” yoki ikkilamchi” tabiat bo‘lagi bo‘lishidan qat’iy nazar, uch xil qiymatga ega bo‘ladi. Bular:

1) Iqtisodiy qiymat;
2) Ekologik qiymat;
3) Estetik qadr – qiymat.

Yaqin-yaqinlargacha ekokomponentlar biosferada cheksiz, bitmas – tuganmasdek, ularning ko‘lami hadsizdek bo‘lib ko‘rinar edi. Jamiyat taraqqiy etgan sari uning ehtiyoji ham ortadi, ekokomponentlarning o‘z-o‘zini qoplash ko‘lami bilan jamiyat ehtiyoji orasidagi mutanosiblikka putur yetdi. Ekologik komponentlar faqat miqdor o‘zgarishiga emas, balki sifat o‘zgarishiga ham duch keldi. Jamiyat bugungi kunga kelib toza suv va havoning tanqisligi, tuproq tarkibining buzilishi, tabiat zahiralarining kamayib ketishi muammolariga duch kelib qoldi.

Insoniyat tabiatidagi qiziq jihatlaridan biri shundaki, u o‘ta qimmat narxda olgan narsasini aziz deb biladi. Shu kunlarda toza ichimlik suvining tanqisligi sezilmoqda, demak, u qadrli, qimmatbaho bo‘lib bormoqda, chunki insoniyat ichimlik suv zahiralarining “Qizil chizig‘iga” kelib qolgan. Xo‘sh, qolgan ekokomponentlar-chi? Ular “Qizil chiziqdan” yiroqda-yu, ularni qo‘rqmay ishlataversa bo‘ladimi? Kaftimizdagi Yer kurrasiga diqqat bilan qarasak, ahvol tamoman boshqacha ekanligini ko‘ramiz. Ekokomponentlarning ko‘zga ko‘rinadigan qiymati – iqtisodiy qiymat bo‘lsa, ko‘zga tashlanmaydigan, ammo juda noyob qiymati – uning ekologik qiymatdir. Jamiyat ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ekokomponentlardan ba’zilarini ishlab chiqarish vositasiga aylantiradi. Iqtisodiy nuqtai – nazardan olganda, faqat mehnatga sarflangan narsagina qiymatga ega deb hisoblanadi. To‘g‘ri bu o‘sha narsaning iqtisodiy qiymatini bildiradi. Yerdan foydalanishda ham har bir mamlakatning o‘z qonun va qoidalari mavjud. Masalan, Daniya mamlakatida faqat “ko‘k daftarcha” egalarigagina yer berishadi, chunki “ko‘k daftarcha”ga ega bo‘lish uchun yer bilan ishlovchi inson tuproqqa oid barcha qonun-

qoidalarni bilishi, o‘qish orqali o‘zlashtirib olgan bo‘lishi shart. Shu kunlarda Yer kurrasida har daqiqada 20 gektar o‘rmon kesilmoqda. Bundan ming yil ilgari Yer sharining 47%ini o‘rmon qoplagan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich 27% ga teng bo‘lib qoldi. Havo karbonat angidrid gazini kislorodga aylantirib berishga qodir birdan-bir manba – daraxtlardir. Sayyoramizdagi yagona “o‘pka” - bu o‘rmonlar, o‘rmonning bu funksiyasini boshqa bir tur bajara oladimi? Ekokomponentlarning iqtisodiy qiymati inson mehnati tufayli yuzaga kelsa, ekologik qiymatini tabiatning o‘zi uzoq yillar mashaqqatli – “mehnati” tufayli yuzaga keltiradi. Tabiat in’omlarining ekologik qiymati nima?

Ekologik qiymat – ekokomponentlarning biomahsuldorligi, biomassasi, soni, maqbulligi, barqarorligi ekologik valentliligi, ekologik samaradorligi, tolerantligi (chidamlilik me’yori), optimalligi, limitrik me’yori, ekologik muvozanatdagi roli, o‘z-o‘zini yangilash, qoplash funksiyalari va boshqa bir qancha ekologik – energetik ko‘rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Ekologik qiymat o‘ziga “tabiiy sifat, ya’ni tabiiy hayot ko‘rsatkichlariga teng sifatni” singdirgan bo‘ladi. Ekologik qiymatli ekokomponentgina jamiyat uchun nihoyatda nodir, moddiy boylik sanaladiki, uning o‘rnini hech narsa qoplay olmaydi. Ekologik qiymati yuqori bo‘lgan ekokomponentlarning iqtisodiy qiymati yuqori bo‘ladi.

O‘tgan asrdagi olmoniyalik o‘rmonchi olim A.Rossmeslerning hozirgi zamondagi hamfikrlari, izdoshlari, ilmiy tadqiqotlar natijasida shuni aniqlaydilarki, 50 milliard markalik ekologik qiymatga ega bo‘lgan o‘rmonning yog‘och uchun kesib olingandan keyingi iqtisodiy qiymati 17 milliard markani tashkil etar ekan. Yana bir misol, Praga yaqinidagi o‘rmonning filtrlash xususiyati bir yilda 10 900 kronga baholangan. Yana bir misol, ekologo-energetik ko‘rsatkichlar bo‘yicha AQShda ustki shox-barglari bilan, barglar maydoni 50 m^2 bo‘lgan bitta daraxt bir yilda 128 $ doll.ga baholanadi, 4047 m^2 o‘rmon esa – 10360 $ ga baholanadi. Ekologik qiymatli ekokomponent bir vaqtning o‘zida faqat insonning emas, balki boshqa tirik mavjudotlarning ham biologik ehtiyojini qondiradi. Daraxtlar - karbonat angidridni kislorodga aylantirib beruvchi ekologik muvozanatni saqlovchi yagona, birdan-bir ekokomponent.

Qancha karbonat angidridni kislorodga aylantirib beradi? Daraxtlar biosfera miqyosidagi ekologik qiymati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, daraxtlargina fotosintez jarayonida daraxtlar quyosh nuri va karbonat angidrid – CO_2ni o‘zlashtirib, kislorod O_2 ishlab chiqaradi. Bitta daraxt bir yilga o‘rtacha 120 kilogramm kislorod ishlab chiqaradi. Bir insonning yil davomida zarur kislorod miqdorini (400 kg) 3–4 ta daraxt ishlab chiqaradi. Bir yil mobaynida bir daraxt o‘rtacha 22 kg karbonat angidridni yutib, umumbashariy isishning oldini oladi.

Ikkinchidan, tirik organizmlarga qulay muhitni yaratuvchi; ko‘pgina xilma-xil flora vakillarining yashash joyi (ekologik nish);

Uchinchidan, tabiiy havoni tozalovchidir, tozalabgina qolmay, balki havo haroratini me’yorlashtiradi. Daraxtlar tanasi, poyasi, barglari yordamida quyosh nurlarini ushlab qolib, jazirama yozda havo haroratini 8 °C dan 12 °C gacha pasaytira oladi (ba’zi daraxtlar 5–8 °C sovutadi), qishda shamollarni to‘sib, mikroiqlimni iliqroq saqlashi mumkin. Shovqin va changni bartaraf etadi.

To‘rtinchidan, daraxtlarning ildiz tizimi esa tuproqni eroziyadan himoya qiladi, yomg‘ir oqimini boshqarib, suv omborlari uchun tabiiy filtr rolida faoliyat ko‘rsatadi;

Beshinchidan, yashil hududlardagi ko‘p joyda yashovchi aholi ijtimoiy va ruhiy salomat bo‘ladi. Har bir insonning ijtimoiy va ruhiy salomatligi jamiyatning eng qimmatbaho moddiy va ma’naviy boyligidir. Eng asosiy daraxtlar ko‘p joyda yashaydigan insonlar stress holatidan tez vaqt ichida o‘z biologik-fiziologik holatlarini tiklay olishadi.

Shu bois, xalqimizda qadimdan shunday aqida bor: ”Birni kessang, o‘nni ek!” Ushbu qoidaga amal qilindimi? Yo‘q, albatta. Shu tufayli 2019 yil, 2020-2022, 2026 yillar issiq yil maqomini oldi. Atmosferadagi kislorod o‘zining tabiiy-ekologik me’yoridan

pastga manfiy tomonga o‘zgardi. Daraxtlarning tinimsiz kesib ketilishi tufayli havoga chiqarilib yuborilayotgan CO_2 karbonat angidrid yashil barglar orqali yutilib O_2 ga aylantirib berishning tabiiy funksiyasiga putur yetdi.

Xalqaro meteorologiya tashkiloti (XMT) 2020 yil eng issiq yillardan biri bo‘lganini ma’lum qildi. O‘rtacha global harorat 14,9 gradusni tashkil etdi, bu XIX asr oxiridagidan 1,2 gradusga ko‘proq.

Atmosferada karbonat angidridning (CO_2) konsentratsiyasini oshishi tufayli “bug‘li qobiqning” kuchayishiga sabab bo‘ladi, ya’ni bir yilda 25 mlrd [11, 196-b.] - 30 milliard tonnagacha (ba’zi ilmiy manbalarda karbonat angidridning bir yilda atmosferaga yuboriladigan miqdori 25 mlrd. tonna deb ta’kidlansa, boshqa bir ilmiy manbalarda 30 mlrd.tonna deb yoziladi) karbonat angidridning atmosferaga yuborilmoqda, aslida bu - atmosferadagi karbonat angidridning (CO_2) tabiiy-ekologik me’yori bir yilda 9 milliard tonnani tashkil etadi [13]. O‘ylab ko‘ring, o‘rmon hududlarining keskin kamayib borishi, ayniqsa bir yilda 200 ming km^2 hajmda tropik o‘rmonlarning kamayib ketishi; o‘rmonlarning bunday katta tezlik bilan yo‘qotilishi atmosferadagi faol kislorodni keskin kamayishiga olib keladi. Miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlarini vujudga keltiradi, zero Yer sayyorasi “o‘pkasi” sanalgan o‘rmonlar kamayib borgani uchun ham, daraxtlar CO_2 karbonat angidridni O_2 kislorodga aylantirib bera olmaydi. Natijada atmosferadagi CO_2 karbonat angidridni miqdori o‘z tabiiy-ekologik me’yoridan deyarli uch baravarga oshib, “bug‘li qobiq”ni paydo qiladi, umumiy harorat odatdagidan ancha oshib ketadi, “olam tartibliligi”ga putur yetadi. Demak bu ibora mag‘zida ham tabiat qonunlarini yotganini anglaymiz.

Bir yilda bir inson o‘rtacha 400 kg kislorodni atmosferadan nafas olish orqali oladi. 3 gektar o‘rmon atmosferaga 400 kilogramm kislorod ajratib beradi. Yer yuzidagi 69% biologik faol kislorodni o‘rmonlar beradi [2, 188-b.].

Bu misollarda ko‘rinib turibdiki, ekologik qiymat iqtisodiy qiymatdan bir necha baravar qimmatli. Demak, ichki xulosa sifatida yana shuni ta’kidlash mumkinki, o‘rmonning ekologik qiymati uning moddiy resurs tarzidagi iqtisodiy qiymatidan hamisha yuqoridir. Ekologik qiymatning iqtisodiy qiymatdan yuksak ekanligi hamma ekokomponentlar uchun taalluqlidir. 2004 yilning 10 dekabrida Afrika qit’asida yashovchi keniyalik 64 yoshli ayol – Vangari Maataiga 30 million daraxt o‘tqazgani uchun Nobel mukofoti topshirildi. Vangari Maatai zoolog olima va tabiat himoyachisi bo‘lib, u «Yashil kamar» (Green Belt Movement) harakatining yetakchisi sifatida o‘ttiz yil davomida Afrika yerlariga 30 milliondan ortiq daraxt o‘tqazgan. “Bu mukofot bir menga emas, balki mamlakatimdagi o‘rmonlarni yo‘qotishga qarshi bo‘lgan yuzlab odamlarga ham berilgan deb bilaman, dedi Vangari Maatai, - Dunyoda urushlar bo‘lib minglab odamlar halok bo‘lmoqda. Men ana shu xunrezliklarga qarama - qarshi ishlar qilayotganlar ko‘pligidan minnatdorman”.

Ekologik qiymat iste’molliligi, foydaliligi qancha ko‘p bo‘lsa, o‘shancha yuqori bo‘ladi. Suv zaxirasining kamayib ketishi bilan uning ekologik qiymati yanada yuqori bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ekologik-iqtisodchilar ikki yo‘nalish bo‘yicha ish olib borishlari zarur. Birinchidan, viloyatdagi barcha ekokomponentlarning ekologik qiymatini aniqlovchi ekolog-iqtisodchilar guruhi; ikkinchidan, viloyatdagi ekologik ofatlar, xatoliklari tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy talafotlarni aniq biladigan ekolog-iqtisodchilar guruhi. Ekologik qiymat haqida chuqurroq fikr olib borsak, shunday xulosaga kelish mumkinki, ekokomponentlarning sifatini yo‘qotib yubormaslik, uning asl sifatiga olib keltirishdan arzonroqdir; zaxiralarni chegarasiga yetkazmay, tejab-tergab sarflash yo‘qotib qo‘yishdan afzalroqdir. Ifloslangan suvni tozalash davlatimizga katta iqtisodiy zarar keltiradi, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring-a, 1 m^3 oqava suv 60 m^3 toza suvni ifloslaydi. Ishlab chiqarish korxonalarining keltiradigan iqtisodiy foydasi ekologik talafot zararidan ko‘ra past. Bunday davlatda iqtisodiy ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lishi mumkinmi?

Ko‘l baqasi ko‘ltapo‘shaklari bir mavsumda 100 mln. tonna o‘simlik massasini qimmatbaho “o‘g‘it”ga aylantirib beradi, ko‘l baqasining ekologik qiymati aynan shunda namoyon bo‘ladi. Insoniyat bunday ekologik qiymatga e’tibor bermaganligi uchun ham ekologik talafotlar katta iqtisodiy zararlarga olib keladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ekologik qiymat iqtisodiy qiymatga to‘g‘ri proporsionaldir, ekologik qiymat mohiyat bo‘lsa, iqtisodiy qiymat hodisadir. Ekologik qiymat pasayishi bilan iqtisodiy qiymat ham kamayadi. Masalan, biosferada o‘rmonlarning tugatilishi atmosferada kislorodning kamayishiga sabab bo‘ladi. Demak, o‘rmonlarning ekologik qiymati asralganda, biosfera uchun zarur bo‘lgan kislorod – abiotik komponent qiymati ham asralgan bo‘ladi. Bir samolyotning Yevropa bilan Amerika orasida qatnoviga 50-100 tonna kislorod sarflanadi. Bu kislorodni tiklash uchun esa 10000 gektar o‘rmon bir kecha-kunduz vaqt sarflab «ishlashi» zarur, aslida o‘rmonlar shafqatsizlik bilan yo‘qotilib yuborilmoqda. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot negizini eng avvalo ekologik qiymatga rioya qilish tashkil etishi, ishlab chiqarish ham xuddi shu asosda yo‘lga qo‘yilishi muvaffaqiyat omilidir. Toza suvning ham, ifloslangan suvning ham ekologik qiymati mavjud, ammo ular aslo teng emas. Ifloslangan suvning ekologik qiymati past bo‘ladi, ammo uning asl, tabiiy sifatiga keltirish uchun ko‘proq iqtisodiy mehnat, pul va vaqt sarflanadi. Ammo ekologik qiymati yuqori bo‘lgan suv bulardan, bunday xarajatlardan xoli bo‘ladi. Demak, jamiyat uchun suvni asl holicha, ekologik qiymati hosil bo‘lgan paytida asrash ko‘proq iqtisodiy foydali sanaladi. Biologiya fanlari doktori, professor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Ekologik xavfsizlik xalqaro fanlar akademiyasi akademigi Abduqodir Ergashevning “Asr muammolari: kecha, bugun, ertaga” nomli maqolasidagi: ”Butun dunyo odamlarni toza ichimlik suv bilan ta’minlash, ularning sanitariya va gigiyenasi uchun yiliga bor-yo‘g‘i 9 milliard AQSH dollari sarflanayotgan bo‘lsa, birgina Yevropada faqat sigareta ishlab chiqarishning o‘ziga 50 milliard, alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun 105 milliard va nihoyat qirg‘in qurollari ishlab chiqarish uchun 780-800 milliard dollar sarflanar ekan.” [12] Aslida butun dunyo odamlarini toza suvni ifloslashga haqlari ham yo‘q. Hech bo‘lmagan taqdirda qirg‘in qurollar, alkogolli ichimliklar, zaharli sigaretalar uchun sarflanayotgan mablag‘lar hisobiga butun dunyo miqyosidagi ekologik tangliklar oldini olishga sarflansa, dunyo – Yer sayyoramiz asrab qolinadi. Asosiysi ekologik komponentlarning ekologik qiymati asralgan bo‘ladi. Kanadada har bir gektar ekiladigan yerdan o‘rtacha 3 ming, Angliyada 5,5, Fransiyada 6,5, AQShda 7 ming, Yaponiyada 19,5 ming dollarlik foyda olinar ekan. Bu misollardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, yerning sifati, tabiiy, asl holati saqlansagina, yuqori bo‘lar ekan. Boshqacha so‘zlar bilan izohlasak, ekologik qiymati yuqori darajada saqlangan ekokomponent jamiyatga katta va ko‘p iqtisodiy foyda keltiradi. Ekologiya va taraqqiyot Xalqaro London universitetining katta ilmiy xodimi David Settertveyt fikriga ko‘ra, “Muammo sayyoramizda qancha kishi yashayotganiga emas, balki iste’mol miqdori, ko‘lami va mohiyatiga bog‘liq”. Uning yuqoridagi fikriga hamohang Hindiston donishmandi Maxatma Gandi bunday fikrni ancha oldin bildirgan: “dunyoda tabiat zahiralar yetarli, ular har bir insonning ehtiyojini qondirishga yetadi, ammo ochko‘zligini emas”. XX asr 80-yillarining oxiriga kelib, insonning biosferaga ko‘rsatayotgan yalpi ta’siri uning imkoniyatlar va o‘z-o‘zini boshqarish chegarasidan orta boshladi. Ehtiyojlarning ortib ketishi tabiiy biologik xilma-xillikning keskin qisqarishi hisobiga tabiiy ekotizim barqarorligini yo‘qolishi xavfiga olib keldi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2008 yilda atrof-muhitga insoniyat faoliyatidan – antropogen – kelgan zararlar hajmi 6,6 trillion dollarga teng bo‘lgan.

Sayyoramizda hayot mavjud bo‘lishi uchun muayyan miqdorda bosim, muayyan miqdorda harorat, muayyan miqdorda radioaktivlik, muayyan balandlikda tog‘lar, muayyan miqdorda botqoqliklar bo‘lishi shart. Chuchuk suvda yashovchi baliqlar uchun suvning vodorod ko‘rsatkichi (pH) 5dan 9 gacha bo‘lsa ular suvda o‘zlarini juda yaxshi

sezishadi.

Biosferaning imkoniyat chegaralari, undagi tabiat zahiralarining ko‘lami ham cheksiz emas. Toza ichimlik suvi ham, ko‘mir va oltin konlari ham, hosildor tuproqlarimiz ham o‘z ko‘lamiga ega. Biosferaning hayot ko‘rsatkichlari o‘z me’yoridan chiqmasa, albatta insoniyat yashab qola olishi mumkin. Oxirgi 200 yil ichida Yer yuzi aholisi 7 milliard kishidan ko‘proqqa oshdi. 1820 yilda sayyoramizda atigi 1 milliard kishi yashagan bo‘lsa,2026-yilga kelib 8,3 milliard kishi yashamoqda. Muammo insonlar ko‘payishi bilan emas, balki dunyo miqyosida ehtiyojlarning oshganligi, ekokomponentlarning ekologik me’yorlari, ekologik qiymatlarini inobatga olib iqtisodiyotni boshqarilmagani bilan bog‘liq.

Agar 1960 yilda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 1 yilda 1 kishiga 3300 l suv to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozir bu raqam 1250 litrni tashkil etadi, ya’ni bu raqam xavfli chiziqqa (1 inson uchun 1 yilda 1000 litr suvning to‘g‘ri kelishi sanitariya normasining eng pastki xavfli chizig‘ini ekanligini bildiradi) yetgan. “Eng oddiy hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, AQShda har yili aholining 2,6 millionga ortishi jahon tabiat zahiralariga kuchli bosim yetkazadi, unga nisbatan har yili Hindiston aholisining yangi 17 mln. kishiga ko‘payishi bu qadar jahon tabiiy zahiralariga og‘irlik qilmas edi”. Jahon miqyosida “sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi” ham ekologik hamjihatlilik umumbashariy ekologik talafotlar oldini olishning yagona yo‘li ekanligini ko‘rsatib berdi. Okean ifloslanishining oldini olish, ozon qobig‘ini asrash; atmosfera “dimiqishini” oldini olish; radioaktiv ifloslanishlar oldini olish; cho‘llashuvlar oldini olish va h.k. barcha ekologik fojialar oldi olishda jahon mamlakatlarining o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Har bir inson biosferaga yashashga haqli. Uning ijtimoiy-ruhiy ehtiyojlaridan tashqari tabiiy-biologik ehtiyojlari ham mavjud. Masalan, 50 kilogrammli insonning har bir kilogrammiga 30–40 ml suv bo‘lishi lozim, normal hayoti kechirishi uchun, demak 1 kunlik toza ichimlik suviga faqatgina iste’mol uchun mos keladi. Demak, 50 kg vaznga ega inson bir kunda 1,5-2,0 litr suv ichishi bu uning tabiiy-zaruriy ekologik me’yoridir.

Agar biz insonning tabiiy ne’matlarga bo‘lgan barcha komponentlarni xuddi shunday yozib chiqsak, biosferani qancha insonni boqa olishi kelib chiqadi. Ammo, biosferaning ham o‘z tabiiy imkoniyat chegaralari ham borki, uni “zo‘riqtirishimiz” aslo mumkin emas.

Xulosa.

1. Ekologik qiymatni yaratuvchisi – tabiat va uning komponentlari, ularning ming yillardagi evolyutsion «mehnat» natijasi bo‘lsa, mazkur ekokomponentning iqtisodiy qiymatini inson yaratadi;

2. Ekologik qiymat – bu ekokomponentning sifat ko‘rsatkichi, bahosi, hayotdagi qadr-qiymatidir;

3. Ekologik qiymat mohiyat, iqtisodiy qiymat esa hodisadir;

4. Har qanday ekologik komponentning ekologik qiymati uning iqtisodiy qiymatidan yuqori bo‘ladi;

5. Ekologik komponentning ekologik qiymati uning iqtisodiy qiymatiga to‘g‘ri proporsionaldir;

6. Ekologik komponentning ekologik qiymati biosfera ahamiyatiga molik bo‘lgan qiymatdir. Shu sababli ham, uning o‘rnini boshqa bir qiymatli ekokomponent bosa olmaydi;

7. Muayyan bir ekologik komponentning ekologik qiymati ikkinchi bir ekokomponentning qiymati bilan ham to‘g‘ri proporsionaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 2-нашри.- Т.: Фан, 1983. 546 б.

2. Банников А.Г., Вакулин А.А., Рустамов А.К. Основы экологии и охрана окружающей среды.- М.,Колос.1999. 303-с.

3. Инженерная экология и экологический менеджмент.– М.: Логос, 2003. 527 с.

4. Лосев А.В., Провадкин Г.Г. Социальная экология.-М., Владос, 1998. 312 с.

5. Саломова Ҳ.Ю. Ижтимоий экология.- Бухоро.: Durdona, 2026. 160 б.

6. Саломова Ҳ.Ю., Жумаева Н. Экологик имконият чегараси// Ҳаёт ва иқтисод, 1991, № 6, 47-51-б.

7. Тўхтаев А. Экология. Т.: Ўқитувчи, 1998. 192 б.

8. Федоров Е.К. Экологический кризис и социальный прогресс.- Л.: Гидрометеоиздат, 1977. 176 с.

9. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Коинот ва инсон ҳақида рисола.Тошкент: Movarounnahr, 2018. 416 б.

10. Холлиев И., Икромов А. Экология.- Т.: Меҳнат, 2001. 158 б.

11. Эргашев А., Руденко И., Давлетов С.(ва бошқалар). Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари.- Т.:Baktria press,2016. 300 б.

12. Эргашев А. Аср муаммолари: кеча, бугун, эртага.//Зарафшон, 2016, 18 июнь.

13. Salomova Kh. Yu., Kurbanov N.M. Indicators of Chemical Life of the Biosphere//Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences,2021, Volume 5, Issue 3. –P. 124-130.

“OILA” KONSEPTINING KONSEPTUAL MAYDON SIFATIDA SHAKLLANISHI SEMANTIK YADROSI VA PERIFERIK ELEMENTLARI

Shakirova Nodiraxon Murodjon qizi
Zahiriddin Muhammad Bobur
nomidagi Andijon davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
nodiraxonshakirova03@gmail.com
ORCID 0000-0001-9164-5063
UDK 81'37:81'23

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “oila” konsepti lingvokognitiv hamda lingvomadaniy yondashuvlar asosida o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi “oila” konseptining uning semantik yadrosi hamda periferik elementlarini aniqlashdan iborat. Lug‘aviy birliklar, frazeologizmlar, paremiologik birliklar va madaniy belgilar tahlil qilinib, konseptning tuzilishi yadro va periferiya modeli asosida o‘rganildi. Har ikkala tilda konsept yadrosini ota, ona, farzand, qarindoshlik, nikoh, uy va avlod kabi universal tushunchalar tashkil etadi, periferik qatlamlarda esa sezilarli madaniy tafovutlar kuzatiladi. O‘zbek tilida oila jamoaviylik, qarindoshlik rishtalari, hurmat, an’ana va avlodlar davomiyligi bilan, ingliz tilida esa mustaqillik, shaxsiy makon, individual mas’uliyat va yadro oila bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: konsept, konseptual maydon, “oila” konsepti, semantik yadro, periferik elementlar, lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tilshunoslik.

CONCEPTUAL FIELD STRUCTURE OF THE CONCEPT "FAMILY": CORE AND PERIPHERY ANALYSIS

Abstract. This article presents a comparative analysis of the concept of “family” in English and Uzbek based on linguocognitive and linguocultural approaches. The study aims to identify how the concept is formed as a conceptual field and to determine its semantic core and peripheral elements. In both languages the core consists of universal notions such as father, mother, child, kinship, marriage, home and generation, whereas the periphery shows significant cultural differences. In Uzbek the concept is associated with collectivism, kinship ties, respect, traditions and generational continuity; in English it is linked to independence, personal space, individual responsibility and the nuclear family.

Key words: concept, conceptual field, concept “family”, semantic core, peripheral elements, linguocognitive analysis, linguoculturology, comparative linguistics.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida konsept tushunchasi til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi. Konsept inson ongida shakllanadigan va madaniy, ijtimoiy hamda milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi murakkab kognitiv birlik hisoblanadi. Shunday konseptlardan biri “oila” konsepti bo‘lib, u har bir jamiyatda muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi va turli tillarda o‘ziga xos tarzda ifodalanadi.

“Oila” konsepti nafaqat universal xarakterga ega, balki har bir xalqning mentaliteti, urf-odati va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois uni turli tillarda, xususan, ingliz va o‘zbek tillarida solishtirma tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “oila” konseptining konseptual maydon sifatida shakllanishini o‘rganish hamda uning semantik yadrosi va periferik elementlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari ushbu konseptning tuzilishi va mazmuni turli madaniy muhitlarda qanday shakllanishini ochib berishga xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligida XX asrning so‘nggi choragida qaror topgan antropotsentrik paradigma til hodisalarini inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlar olami bilan uzviy aloqadorlikda tekshirishni tadqiqotning bosh maqsadiga aylantirdi. Til endilikda o‘z-o‘ziga yetarli yopiq tizim sifatida emas, balki millatning olamni idrok etish tarzini, asrlar mobaynida to‘plangan ma’naviy-amaliy tajribasini o‘zida muhrlagan serqirra hodisa tarzida talqin etilmoqda. V.Fon Gumboldtning tilni xalq ruhining bevosita voqelanishi deb bilgan qoidasi ushbu yondashuvning falsafiy zaminini hozirlagan bo‘lsa, kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya ana shu zamin ustida mustaqil ilmiy yo‘nalishlar maqomini oldi.

Tadqiqotimiz sarlavhasida qo‘llangan konseptosfera atamasi D.S. Lixachev tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, millat konseptlarining yaxlit majmuini, ularning o‘zaro bog‘lanish tarmog‘ini anglatadi. Oila konsepti yakka holda emas, balki nikoh, ota-ona, farzand, qarindoshlik, uy, ro‘zg‘or singari o‘zaro chirmashgan konseptlar halqasi bilan birga yashaydi; shu halqaning yaxlitligi bizga alohida konsept emas, konseptosfera haqida so‘z yuritish huquqini beradi. Binobarin, ushbu bo‘limda oila konseptosferasining o‘zak birligi tahlil markazida turadi, atrof birliklar esa unga munosabatda yoritiladi[2, 3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Har ikkala yo‘nalishning tayanch birligi bo‘lmish konsept tabiati xususidagi bahslar hozirga qadar tingani yo‘q. G‘arb kognitologiyasi konseptga, avvalo, bilimni tashkil etuvchi struktura sifatida qaraydi: Ch. Fillmor so‘z ma’nosini freym, ya’ni muayyan vaziyat haqidagi stereotip bilimlar tarmog‘i fonida izohlash lozimligini asoslagan, R. Lengaker esa har qanday semantik birlik faqat tegishli kognitiv domenlar zaminida idrok etilishini ko‘rsatib bergan. Bunday talqinda konsept individual tafakkur bilan jamoaviy tajriba tutashadigan nuqta sifatida namoyon bo‘ladi[4].

Rus tilshunosligida konsept nazariyasi lingvokulturologik yo‘sinda chuqurlashtirildi. Y.S. Kubryakova tahriri ostidagi lug‘atda konsept ong faoliyatining operativ birligi, xotira va mental leksikonda aks etgan olam manzarasining mazmuniy kvanti deb ta’riflanadi. Y.S. Stepanov uni madaniyatning inson ongidagi quyuq uyushmasi, madaniyat inson mental olamiga kirib boradigan bo‘g‘in deb biladi. V.I. Karasik lingvokulturologik konseptning uch qatlamini – tushunchaviy, obrazli va qadriyat komponentlarini farqlaydi; Z.D. Popova va I.A. Sternin esa konseptning maydon tuzilishini, ya’ni yadro va turli darajadagi periferiyalardan tashkil topishini isbotlab berdi. Mazkur ikki model ushbu tadqiqotning tayanch tahlil apparatini tashkil etadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillari materialida “Oila konseptining konseptual maydon sifatida shakllanish xususiyatlari, uning semantik yadrosi va periferik elementlarini aniqlash maqsadida kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning quyidagi metodlaridan unumli tarzda ishlatildi:

Komponent tahlil metodi (Componential analysis): Ushbu metod har ikkala tilda “oila”, “family” leksemalarining lug‘aviy ma’nolari (semalari) tahlil qilindi va konseptning eng barqaror, barcha uchun umumiy bo‘lgan semantik yadrosi ajratib olindi.

Konseptual va kognitiv tahlil metodi: Yuqorida aytib o‘tilgan tillardagi “oila” konseptiga oid paremiologik birliklar, jumladan, maqol va matallar, shuningdek, frazeologizmlarning lingvokulturologik tabiati o‘rganildi. Ushbu usul konsepning milliy madaniy bo‘yoqqa ega bo‘lgan periferik elementlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Qiyosiy – tipologik metod: Ingliz, rus va o‘zbek xalqlari dunyoning lisoniy manzarasidagi o‘xshash va farqli tomonlari, xususan, o‘zbek qadriyatlariga xos jamoaviylik va g‘arb madaniyatiga xos bo‘lgan individuallik belgilarining tilda ifodalanishini ochib berish uchun qo‘llandi.

Tadqiqotning materiallar bazasi sifatida o‘zbek va ingliz tillarining izohli, frazeologik hamda paremiologik lug‘atlari keltirilgan ma’lumotlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek lingvomadaniyatida “oila” konsepti muqaddas hamda jamiyatning fundamental ijtimoiy instituti sifatida talqin etiladi. Oila faqatgina ota-ona va farzandlar bilan cheklanib qolmay, balki qarindosh-urug‘chilikning kengroq tizimini ham o‘z ichiga qamrab oladi [6]. Bu o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan jamoaviylik (kollektivizm) hamda avlodlararo mas’uliyat tushunchalarini aks ettiradi. Til materiallarida “oila” konsepti ko‘plab maqol va matallarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Oila - kichik vatan” yoki “Otaning roziligi - Xodoning roziligi” kabi paremiologik birliklar oilaning ma’naviy va ahloqiy ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Oila fenomenining ijtimoiy-madaniy ahamiyati.Mazkur maqol va matallar til tizimi vositasida oilaning jamiyatdagi tarkibiy o‘rni, oilaviy qadriyatlar sotsiumi hamda

pedagogik-tarbiyaviy mas'uliyat funksiyalarini mustahkamlovchi muhim lingvomadaniy invariant bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi qarindoshlik leksikasining konseptual boyligi (amaki, tog‘a, xola, amma va b.) oilaviy-akrabolik munosabatlarning etnomadaniy jihatdan naqadar yuqori determinatsiyaga ega ekanligini yanada yaqqolroq namoyon etadi[7].

Xuddi shuningdek, o‘zbek tili diskursida paternal (ota tomondan) va maternal (ona tomondan) qarindoshlik aloqalari aniq differensiallashgan leksik birliklar orqali farqlanadi. Xususan, “amaki” va “amma” leksemalari paternal aka-uka va opa-singillarni nominatsiya qilsa, “tog‘a” va “xola” terminlari maternal guruhga nisbatan aktualizatsiya qilinadi. Bunday leksik-semantik tafovut har ikki tomondagi qarindoshlarning ijtimoiy statusi, funksional rollari hamda ierarxik maqomlaridagi farqlarni eksplikatsiya qiladi (kodlashtiradi). Binobarin, o‘zbek mentalitetida ota va ona tomondan bo‘lgan amaki, tog‘a, amma hamda xolalar individning ijtimoiylashuvi, unga mental yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va ma'naviy kamolotida faol ishtirok etuvchi “ikkilamchi ota-ona” statusida e'tirof etiladi. Bu holat o‘zbek jamiyatida kengaytirilgan oila (*extended family*) institutining institutsional barqarorligini hamda etnik qarindoshlik aloqalarining fundamental tizimga egaligini ko‘rsatadi[8, 9].

Ingliz tilshunosligida “oila” konsepti. Ingliz lingvomadaniyatida “oila” konsepti, asosan, nuklear oila (*nuclear family*) modeli doirasida interpretatsiya qilinadi. Ushbu modelda individning mustaqilligi va shaxsiy qarorlar qabul qilish erkinligi fundamental qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz jamiyatida oila, birinchi navbatda, hissiy yaqinlik hamda shaxsiy hayot bilan bog‘liq ijtimoiy birlik (mikrotizim) sifatida qaraladi. Oilaning jamiyatdagi muhim o‘rni ingliz frazeologizmlari (idiomalari) va matallarida o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Xususan, *“Blood is thicker than water”* (Qon suvdan quyuq) va *“Family comes first”* (Oila har narsadan ustun) kabi barqaror birikmalar oilaviy aloqalarning ustuvorligini (primarligini) aks ettiradi. Mazkur ifodalar oilaviy munosabatlarning emotsional-psixologik jihatlarini reprezentatsiya qiladi. Shu bilan birga, ingliz tilida qarindoshlik terminlarining umumlashtirilgan xarakterga egaligi (*uncle*-amaki/tog‘a, aunt-xola/amma, cousin-

xolavachcha/amakivachcha/ammavachcha/tog‘avachcha) ingliz madaniyatida oilaviy aloqalar nisbatan kengroq semantik mantiqda talqin etilishini ko‘rsatadi[10].

O‘tkazilgan qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilshunosligida “oila” konsepti kollektiv (jamoaviy) qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat hamda shajara (nasl) davomiyligi tushunchalari bilan assotsiatsiyalansa (uzviy bog‘lansa), ingliz tilshunosligida mazkur konsept ko‘proq individualizm va shaxsiy makon (*personal space*) tushunchalari bilan o‘zaro muvofiqlik (korrelyatsiya) hosil qiladi. Aniqlangan ushbu lingvomadaniy va semantik tafovutlar har ikki xalqning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy-iqtisodiy determinatsiyasi hamda etnomadaniy mentaliteti xususiyatlari bilan izohlanadi [11, 12].

Xulosa va takliflar. Qarindoshlik terminologiyasida ingliz tili yaqqol umumlashtiruvchi yo‘ldan borgan. Brother va sister leksemalari yosh belgisini farqlamaydi; uncle ham amakini, ham tog‘ani, aunt ham ammani, ham xolani qamraydi; cousin esa jinsni ham, ota yoki ona tomonini ham ko‘rsatmay, sakkiztagacha o‘zbek atamasiga muqobil keladi. Nikoh orqali qarindoshlarning butun boshli tizimi in-law formanti vositasida analitik yasaladi: mother-in-law, brother-in-law va hokazo. Terminologik zichlikning bu qadar pastligi tasodif emas: qarindoshlik munosabatlarining ijtimoiy ahamiyati qisqargan sari ularni nomlash ehtiyoji ham torayadi. Yadro oiladan tashqaridagi barcha qarindoshlarni yagona relatives yoki extended family yorlig‘i ostida jamlash mumkin bo‘lib qolgan.

Shu bilan birga, qon-qarindoshlik ingliz frazeologiyasida kuchli obrazli tayanchini saqlab qolgan. Blood is thicker than water (ingliz xalq maqoli) paremiyasi oilaviy rishtalarning boshqa har qanday aloqadan ustuvorligini QON quyuqligi obrazida

ifodalaydi; one's own flesh and blood (ingliz frazeologizmi) qarindoshni insonning jismonan davomi sifatida taqdim etadi; bad blood (ingliz frazeologizmi) esa nizoni qonning buzilishi tarzida talqin qiladi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, blue blood birikmasida qon obrazi tabaqaviy mazmun kasb etadi – nasl-nasab aristokratik imtiyoz belgisiga aylanadi. Qon metaforasining bunday ijtimoiy-tabaqaviy tarmog'i o'zbek jigar obrazida kuzatilmaydi: jigarim murojaati sof emotsional yaqinlikni bildiradi.

Umumlashtirib aytganda, ingliz lingvomadaniyatida oila konseptining xoslanishi makon-mulk-shaxsiy chegara o'qi bo'ylab kechadi. Konsept yadrosida his-tuyg'u markazi sifatidagi home turadi; uni mulkiy munosabatlar (meros, egalik, shartnoma) va shaxsiy avtonomiya (privacy) tasavvurlari o'rab oladi; qarindoshlik terminologiyasining umumlashuvi esa konseptual e'tiborning yadro oilaga jamlanganini tasdiqlaydi. J. Lakoff Amerika siyosiy diskursini tahlil qilar ekan, butun axloqiy dunyoqarash oila modellari – qattiqqo'l ota va g'amxo'r ota-ona modellari asosida qurilishini ko'rsatgan edi; bu kuzatuv oila konseptining inglizzabon olamda naqadar yuqori kognitiv maqomga ega ekanini yana bir karra dalillaydi.

O'zbek lingvomadaniyatida oila konsepti tubdan boshqa qadriyatlar muhitida shakllangan. Bu yerda xoslanishning bosh omili jamoaviy hayot tarzi bo'lib, oila yakka shaxs hududi emas, balki xonadon-mahalla-el silsilasining boshlang'ich bo'g'ini sifatida idrok etiladi. Oila tinch – yurt tinch (o'zbek xalq maqoli) paremiyasi ana shu silsilani eng ixcham shaklda ifodalaydi: xonadon osoyishtaligi butun jamiyat barqarorligining sharti darajasiga ko'tariladi. Qo'shnichilik munosabatlarining paremiologiyadagi salmog'i ham shundan: Yaxshi qo'shni – ota-ona, yomon qo'shni – boshga balo, Bir qizga yetti qo'shni – ota-ona (o'zbek xalq maqollari) kabi birliklar oila chegarasini qarindoshlikdan tashqariga, qo'shnichilik hududiga kengaytiradi – ingliz privacy tamoyiliga tik qarama-qarshi yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fillmore Ch.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.

2. Lakoff G. Moral Politics: How Liberals and Conservatives Think. – Chicago: The University of Chicago Press, 1996. – P. 65–107.

3. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – P. 147–154.

4. O'zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; mas'ul muharrir Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 342.

5. The Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003. – P. 29.

6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.:Прогресс, 1984. – С. 68–70.

7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 91–118.

8. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Изд-во МГУ, 1996. – С. 90.

9. N.M.Shakirova., Sh.B.Shokirov. Development of science: The concept of family in english and uzbek linguocultures: a comparative linguocultural. YANVAR 2026/1 Development of science Volume 6.

10. Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 1993. – Т. 52, № 1. – С. 3–9.

11. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007. – С. 60–64.

12. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – С. 43.

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA MUROJAAT NUTQIY ETIKETINING QIYOSIY TADQIQI

Shadmanova Nigora Irgashevna
Qarshi davlat texnika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
dotsenti v.b.
ORCID 0009-0005-9823-5696
UDK 81'27:811.161.1:811.512.133

Annotatsiya. Maqolada rus va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllari nutqiy etiket tizimining tarkibiy qismi sifatida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ikki tilning ijtimoiy-madaniy zaminida shakllangan murojaat formulalarini, ularning pragmatik xususiyatlarini hamda milliy mentalitet bilan bog‘liqligini yoritishga qaratilgan. Rasmiy va norasmiy muloqot vaziyatlarida qo‘llaniladigan murojaat vositalari: kasbiy unvonlar, qarindoshlik atamalari, olmoshlar orqali ifodalanuvchi hurmat kategoriyasi va yosh ierarxiyasiga asoslangan shakllar qiyoslanadi. Rus tilida murojaat tizimi grammatik vositalar («ты»/«вы») va lavozim nomlariga asoslangan rasmiy formulalar orqali shakllangani, o‘zbek tilida esa qarindoshlik terminlarining kengaytirilgan qo‘llanilishiga tayangan ko‘p pog‘onali tizim ustunlik qilishi aniqlanadi. Bu farqlar ikki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tuzilishi hamda oilaviy munosabatlar tizimidagi tafovutlar bilan izohlanadi.
Kalit so‘zlar: nutqiy etiket, murojaat shakllari, qarindoshlik atamalari, pragmalingvistika, madaniyatlararo muloqot, hurmat kategoriyasi, milliy mentalitet, sotsiolingvistika.

A COMPARATIVE STUDY OF ADDRESS SPEECH ETIQUETTE IN RUSSIAN AND UZBEK

Abstract. This article presents a comparative analysis of forms of address in Russian and Uzbek as an important component of the speech etiquette system. Address means used in formal and informal situations are compared: professional titles, kinship terms, the category of politeness expressed through pronouns and forms based on age hierarchy. The Russian system is formed mainly through grammatical means (the «ты»/«вы» distinction) and formal formulas tied to position, whereas the Uzbek system is dominated by a multi-layered structure relying on the extended use of kinship terms. These differences are explained by the collectivist and individualist worldviews of the two peoples.
Key words: speech etiquette, forms of address, kinship terms, pragmalinguistics, intercultural communication, category of politeness, national mentality, sociolinguistics.

Kirish. Nutqiy etiket har qanday tilning kommunikativ tizimida muhim o‘rin egallaydi, chunki u nafaqat til birliklari, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimini, milliy dunyoqarashini va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Murojaat shakllari nutqiy etiketning eng dinamik va ijtimoiy jihatdan sezgir qismlaridan biri hisoblanadi, chunki ular suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofa, hurmat darajasi, yosh va martaba farqlari kabi omillarni ifodalaydi. Rus va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning grammatik tuzilishi, leksik boyligi va nutqiy odob me’yorlari o‘zaro farqlanadi, biroq ikkala til ham asrlar davomida yonma-yon yashagan xalqlarning madaniy aloqalari natijasida bir-biriga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot tobora kengaymoqda va bunday sharoitda murojaat shakllarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi kommunikativ nosozliklarga, hatto madaniy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Rus tilida gapiruvchi va o‘zbek tilida gapiruvchi shaxslar o‘rtasidagi muloqotda murojaat formulalarining farqi ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi, bu esa tarjima amaliyoti va chet tili o‘qitish jarayonida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, ikki tildagi murojaat shakllarining qiyosiy tahlili nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Tadqiqotning maqsadi rus va o‘zbek tillaridagi murojaat nutqiy etiketining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning tipologik o‘xshashlik va farqlarini ko‘rsatish hamda bu farqlarning ijtimoiy madaniy sabablarini izohlashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda qiyosiy tipologik metod, tavsifiy metod hamda komponentli tahlil metodlaridan foydalanildi. Nutqiy etiket tushunchasi rus tilshunosligida N.I. Formanovskaya tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo‘lib, u nutqiy etiketni suhbat ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi barqaror formulalar tizimi sifatida ta’riflaydi [1]. Formanovskayaning

fikricha, murojaat formulalari nutqiy etiketning markaziy elementi bo‘lib, ular suhbatning boshlanishini ta’minlaydi va suhbatdoshning ijtimoiy holatini belgilaydi [1]. O‘zbek tilshunosligida esa nutqiy etiket masalalari A. Nurmonov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular o‘zbek murojaat tizimining qarindoshlik atamalari asosida shakllanganligini ta’kidlaydilar [2].

Rus tilidagi murojaat tizimi tarixiy jihatdan murakkab evolyutsiyani boshdan kechirgan. Sovet davrigacha “сударь”, “сударыня”, “господин” kabi ijtimoiy tabaqaviylikni aks ettiruvchi murojaatlar keng qo‘llanilgan, sovet davrida esa ular “товарищ” so‘zi bilan almashtirildi [3]. Sovet ittifoqi parchalanganidan so‘ng rus tilida universal murojaat shakli yo‘qolib, hozirgi kunda “мужчина”, “женщина” kabi neytral bo‘lmagan so‘zlar yoki ismning o‘zi bilan murojaat qilish amaliyoti kuzatiladi [3]. Bu holat rus tilshunoslari tomonidan “кризис обращения” atamasi bilan izohlanadi [4]. O‘zbek tilidagi murojaat tizimi esa boshqacha yo‘nalishda rivojlangan. O‘zbek madaniyatida qarindoshlik atamalari, xususan “aka”, “opa”, “uka”, “singil” kabi so‘zlar nafaqat qon-qarindoshlarga, balki begona kishilarga nisbatan ham qo‘llaniladi, bu esa o‘zbek jamiyatining kollektivistik xarakterini va yosh hurmati tamoyilini aks ettiradi [5]. Bundan tashqari, “domla”, “ustoz”, “hoji” kabi kasb yoki maqomga bog‘liq murojaatlar ham o‘zbek nutqiy etiketida muhim o‘rin tutadi [2]. Xorijiy tilshunoslikda murojaat masalasi Braun va Gilman tomonidan ilgari surilgan hokimiyat va birdamlik (solidarlik) nazariyasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchilar murojaat shakllarining tanlanishi suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy mavqe, tengsizlik yoki o‘zaro yaqinlik darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatganlar [6]. Ushbu nazariya keyinchalik ko‘plab tillarni qiyosiy o‘rganishda nazariy asos sifatida qo‘llanilgan [7].

Rus va o‘zbek tillarini qiyoslashda muhim farqlardan biri shundaki, rus tilida “ты” va “вы” olmoshlari orqali ifodalanuvchi rasmiylik darajasi mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida bu farq “sen” va “siz” olmoshlari orqali ifodalanadi, biroq o‘zbek tilida bunga qo‘shimcha ravishda qarindoshlik va yosh ierarxiyasiga asoslangan murakkab murojaat tizimi ham mavjud [8]. Bu farq ikki xalqning ijtimoiy tuzilishi va oilaviy munosabatlar tizimidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Chet el tilshunosligida bunday farqlar madaniy pragmatika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, murojaat shakllarining tanlanishi nafaqat grammatik, balki chuqur madaniy omillar bilan belgilanishi ta’kidlanadi [9].

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida to‘plangan materiallar asosida rus va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllari ikki asosiy guruhga ajratildi: rasmiy muloqotda qo‘llaniladigan murojaatlar va norasmiy muloqotda qo‘llaniladigan murojaatlar. Quyidagi 1-jadvalda ikki tildagi rasmiy murojaat vositalarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. Rus va o‘zbek tillarida rasmiy murojaat shakllarining qiyosiy tahlili

Vaziyat	**Rus tilidagi murojaat**	**O‘zbek tilidagi murojaat**	**Pragmatik xususiyat**
Rasmiy uchrashuv	“Уважаемый” + ism-sharif	Hurmatli + ism-sharif	Ikkala tilda ham hurmat semasi mavjud
Mansabga ko‘ra murojaat	“Господин директор”	Direktor aka yoki janob direktor	O‘zbek tilida qarindoshlik komponenti saqlanadi
Ta’lim sohasi	“Учитель, преподаватель”	Domla, muallim	O‘zbekchada kasb nomi hurmat ma’nosini kuchaytiradi
Yoshi katta notanish shaxs	Мужчина”, “женщина”	Aka, opa, ota, buvi	Rus tilida neytral emotsional bo‘yoq, o‘zbekchada iliqlik
Diniy maqom	“Батюшка”	Domla, hoji, shayx	Diniy murojaatlar ikki madaniyatda farqli tizimga ega

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rus tilida rasmiy murojaat asosan mansab yoki kasb nomiga “господин” yoki “уважаемый” so‘zlarini qo‘shish orqali shakllansa, o‘zbek tilida hatto rasmiy vaziyatlarda ham qarindoshlik atamalari (“aka”, “opa”) saqlanib qoladi. Bu holat o‘zbek jamiyatida ijtimoiy masofaning rus jamiyatiga qaraganda kamroq

rasmiylashtirilganligini, buning o‘rniga shaxslararo yaqinlik va hurmatning ustuvorligini ko‘rsatadi. Rus tilidagi “мужчина” va “женщина” kabi murojaatlar zamonaviy tilshunoslar tomonidan ko‘pincha salbiy yoki neytral bo‘lmagan konnotatsiyaga ega deb baholanadi, chunki bu so‘zlar shaxsni faqat jinsiy belgisi orqali atash, unga individual hurmat ko‘rsatmaslik sifatida idrok etiladi [4]. O‘zbek tilida esa yoshi kattalarga nisbatan qo‘llaniladigan “ota", “buvi” kabi murojaatlar aksincha yuqori hurmat va iliqlik ma’nosini ifodalaydi. Ikkinchi jadvalda ikki tildagi norasmiy va oilaviy muloqotda qo‘llaniladigan murojaat shakllari tahlil qilingan.

2 jadval. Rus va o‘zbek tillarida norasmiy murojaat shakllarining qiyosiy tahlili

Munosabat turi	**Rus tilidagi murojaat**	**O‘zbek tilidagi murojaat**	**Izoh**
Yaqin do‘stlar	“Ты” + ism, erkalash shakli	Sen + ism, kichraytma shakl	Ikkala tilda ham erkinlik va yaqinlik ifodalanadi
Katta yoshli qarindosh	“Бабушка”, дедушка”	Buvi, bobo, ota, ona	O‘zbek tilida ierarxiya yanada aniq ifodalangan
Kichik yoshdagi qarindosh	Faqat ism bilan murojaat	Ukajon, singlim, qizim	O‘zbek tilida affektiv qo‘shimchalar faol
Notanish tengdosh	“Девушка”, “молодой человек”	Uka, singil	O‘zbekchada qarindoshlik metaforasi kengaygan
Er-xotin o‘rtasida	Ism yoki erkalash shakli	Otasi, onasi (bola nomi orqali)	O‘zbekchada bolaga nisbatan murojaat orqali murojaat holati mavjud

Ushbu jadval shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida qarindoshlik terminlarining metaforik kengayishi rus tiliga qaraganda ancha faol jarayon hisoblanadi. Notanish yoshdosh yoki yosh jihatdan yaqin shaxslarga nisbatan “uka”, “singil” kabi so‘zlarning qo‘llanilishi o‘zbek jamiyatidagi kollektivistik va oilaparast dunyoqarashning nutqda aks etishidir. Rus tilida esa bunday vaziyatlarda “девушка”, “молодой человек” kabi neytral, qarindoshlikka aloqasi bo‘lmagan murojaatlar afzal ko‘riladi. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi “otasi”, “onasi” kabi bolaning nomi orqali er yoki xotinga murojaat qilish hodisasi rus tilida uchramaydi, bu esa o‘zbek madaniyatida ota-onalik maqomining nikoh munosabatlaridan ustunroq ijtimoiy qadriyat sifatida talqin etilishini ko‘rsatadi [5].

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, rus va o‘zbek tillaridagi murojaat tizimlari orasidagi asosiy farq ularning ijtimoiy tashkil etilish tamoyillariga borib taqaladi. Rus tili murojaat tizimida rasmiylik va norasmiylik o‘rtasidagi chegara asosan grammatik vosita, ya’ni “ты” va “вы” olmoshlari orqali belgilansa, o‘zbek tilida bu chegara leksik boy qarindoshlik tizimi orqali, ko‘p pog‘onali tarzda ifodalanadi. Bu farq tarjimonlar uchun jiddiy muammo tug‘diradi, chunki rus tilidagi neytral murojaatni o‘zbek tiliga tarjima qilishda mos ekvivalentni topish, yoki aksincha, o‘zbek tilidagi qarindoshlik semantikasiga boy murojaatni rus tiliga adekvat o‘girish katta pragmatik yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin [7]. Shuningdek, chet tili sifatida rus yoki o‘zbek tilini o‘rganayotgan talabalar uchun murojaat tizimidagi bunday farqlarni maxsus o‘quv materiallari orqali tushuntirish zarurligi aniqlandi, aks holda madaniyatlararo muloqotda nomaqbul vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin [9].

Rus va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllarini yanada chuqurroq tahlil qilganda, ularning ijtimoiy ierarxiyani ifodalash usullarida ham qiziqarli farqlar ko‘zga tashlanadi. Rus tilida ijtimoiy mavqe ko‘pincha kasbiy unvon yoki lavozim nomi orqali ochiq ifodalanadi, masalan, shifokorga murojaat qilinganda “doctor” yoki professorga murojaat qilinganda “professor” so‘zi ismning o‘rnini bosishi mumkin. O‘zbek tilida esa bunday holatda ham ko‘pincha “domla” yoki “aka” kabi umumiyroq, ammo iliqroq murojaat shakllari afzal ko‘riladi hatto suhbatdoshning aniq kasbiy maqomi ma’lum bo‘lsa ham. Bu farq ikki jamiyatning kasbiy ierarxiyaga munosabatidagi tafovutni ko‘rsatadi, chunki o‘zbek nutqiy madaniyatida shaxsning kasbiy maqomidan ko‘ra uning yoshi va ijtimoiy obro‘si ko‘pincha murojaat shaklini belgilashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ikki tilda ham murojaat shakllarining tanlanishi nutq vaziyatining rasmiyligiga qarab o‘zgaruvchan xarakterga ega, biroq bu o‘zgaruvchanlikning chegaralari farqlanadi. Rus tilida bir xil suhbatdoshga nisbatan vaziyatga qarab “ты” dan “вы” ga o‘tish, yoxud aksincha, nisbatan aniq ijtimoiy signal sifatida idrok etiladi va bunday o‘tish odatda munosabatning rasmiylashishi yoki norasmiylashishini bildiradi. O‘zbek tilida esa “sen” va “siz” o‘rtasidagi o‘tish ko‘pincha yosh farqi yoki qarindoshlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu o‘tish nisbatan barqaror va o‘zgarmas xususiyat kasb etadi, chunki yoshi kichik shaxs katta yoshli suhbatdoshga nisbatan deyarli har doim “siz” shaklini qo‘llaydi, vaziyatning rasmiyligidan qat’i nazar. Bu holat o‘zbek tilidagi hurmat kategoriyasining vaziyatga emas, balki ijtimoiy-yosh maqomga ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ikki tildagi murojaat tizimlarining zamonaviy tendensiyalarini qiyoslash ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. So‘nggi o‘n yilliklarda rus tilida universal, betaraf murojaat shaklining yo‘qligi muammosi jamiyat tomonidan faol muhokama qilinmoqda, bu esa turli ijtimoiy guruhlarning turlicha murojaat variantlarini qo‘llashiga olib kelmoqda. O‘zbek tilida esa bunday inqiroz kuzatilmaydi, chunki qarindoshlik terminlariga asoslangan murojaat tizimi barqaror va jamiyat tomonidan umumiy qabul qilingan holda saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, shaharlashuv jarayoni va yoshlar orasida notanish murojaat shakllarining paydo bo‘lishi, xususan, xorijiy tillardan o‘zlashgan murojaat elementlarining qo‘llanilishi o‘zbek nutqiy etiketining ham asta-sekin o‘zgarish jarayonida ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot rus va o‘zbek tillaridagi murojaat nutqiy etiketi o‘rtasida sezilarli tipologik farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Rus tilida murojaat tizimi asosan grammatik vositalar va ijtimoiy mavqega asoslangan rasmiy formulalar orqali shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu tizim qarindoshlik terminlarining kengaytirilgan qo‘llanilishi va yosh ierarxiyasiga asoslangan ko‘p pog‘onali murojaat shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Ikkala tilda ham murojaat shakllari suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa va hurmat darajasini ifodalashga xizmat qiladi, biroq bu maqsadga erishish vositalari milliy madaniyat va dunyoqarash asosida farqlanadi. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi va amaliyoti, chet tili o‘qitish metodikasi hamda madaniyatlararo muloqot nazariyasi sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda murojaat shakllarining zamonaviy raqamli muloqot, xususan ijtimoiy tarmoqlardagi yozma muloqot sharoitida qanday o‘zgarayotganini o‘rganish dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. - 159 с.

2. Нурмонов А. Ўзбек тилининг социолингвистик асослари. Тошкент: Фан, 2008. 212 б.

3. Гольдин В.Е. Речь и этикет. – М.: Просвещение, 1983. - 109 с.

4. Стернин И.А. Русский речевой этикет. – Воронеж: ВГУ, 1996. - 125 с.

5. Ражабов Н. Ўзбек мулоқот маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 184 б.

6. Brown R., Gilman A. The pronouns of power and solidarity // Style in Language. Cambridge: MIT Press, 1960. P. 253–276.

7. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. 502 p.

8. Юсупов У. Тилшунослик назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2007. 156 б.

9. Leech G. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983. 250 p.

10. Крысин Л.П. Русское слово, своё и чужое. – М.: Языки славянской культуры, 2004. - 888 с.

O‘ZBEK TARIXIY LISONIY MANZARASIDA FITONIMLARNING O‘RNI

Baynazarov Zokir
Samarqand davlat universiteti
PhD, dotsent)
zmbaynazarov81@gmail.com
ORCID 0000-0001-5874-4246

Annotatsiya. Maqolada fitonimlarning, ya’ni o‘simlik nomlarining olamning lisoniy manzarasi va konsept nazariyasi doirasida o‘zbek lingvomadaniyatidagi o‘rni diaxronik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Fitonimlar xalqning tabiat haqidagi bilimlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashini muhrlagan lisoniy-konseptual birliklar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning tayanch manbayi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari (XI asr) bo‘lib, undan ajratib olingan fitonimlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ma’lumotlari bilan qiyoslanadi. DLTda qayd etilgan ko‘pgina daraxt va meva nomlari, ularning ichki taksonomik tuzilishi hamda fitonim komponentli hikmatli iboralar minimal fonetik o‘zgarish bilan hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelgani aniqlandi. Bu “daraxt”, “meva” kabi fitonimik konseptlarning o‘zbek konseptosferasida kamida ming yillik barqaror yadro ekanini ishonchli isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: fitonim, olamning lisoniy manzarasi, konsept, lingvomadaniyatshunoslik, Devonu lug‘atit turk, O‘TIL, diaxronik tahlil, fitomorfik maqol.

THE ROLE OF PHYTONYMS IN THE HISTORICAL LINGUISTIC LANDSCAPE OF UZBEK

Abstract. This article analyses the place of phytonyms (plant names) in Uzbek linguoculture within the framework of the linguistic worldview. Phytonyms are treated as linguo-conceptual units encoding the people’s knowledge of nature, values and worldview. The foundational source is Mahmud Kashgari’s Devonu lug‘atit turk; the phytonyms extracted from it are compared with the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. Many tree and fruit names recorded in the DLT, their taxonomic structure and phytonym-based aphorisms have survived into modern Uzbek with minimal phonetic change. This proves that concepts such as “tree” and “fruit” form a stable core of the Uzbek conceptual sphere.

Key words: phytonym, linguistic worldview, concept, linguoculturology, Devonu lug‘atit turk, O‘TIL, diachronic analysis, phytomorphic proverb.

Kirish. ***Olamning lisoniy manzarasi va konsept tushunchalari.*** Har bir xalq borliqni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va bu idrok tilda muhrlanib qoladi. Tilshunoslikda bu hodisa “olamning lisoniy manzarasi” (OLM) atamasi bilan yuritiladi. Bu tushunchaning ilmiy ildizlari nemis olimi Vilgelm fon Gumboldtning til falsafasiga borib taqaladi. Gumboldt tilni xalq ruhining tashqi ko‘rinishi, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi organizm sifatida ta’riflagan va “*til obyektiv borliqni shunchaki nomlab qo‘ymaydi, balki uni ma’lum tarzda talqin ham qiladi*”, degan g‘oyani ilgari surgan [1]. XX asrda bu g‘oya Amerika etnolingvistikasida Edvard Sepir va Benjamin Uorf tomonidan rivojlantirilib, lingvistik nisbiylik nazariyasi (tilning tuzilishi so‘zlovchining dunyoqarashini shakllantiradi, degan ta’limot) sifatida shakllandi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalish kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya doirasida faol rivojlanmoqda. Sh.Safarov “Kognitiv tilshunoslik” nomli fundamental monografiyasida konseptni “*inson tafakkurining jamiyat kognitiv faoliyati natijasini namoyon qiladigan va aks ettirilayotgan narsa-buyum yoki hodisalar haqida keng qamrovli qomusiy axborot beradigan, nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega*” birlik sifatida ta’riflaydi [2:47-bet].

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli o‘rgangan yo‘nalish – lingvokulturologiya rus tilshunosi V.V. Vorobyov tomonidan alohida fan sifatida asoslangan. U lingvokulturologiyani “*til va madaniyat munosabatlari, aloqalarini tilning vazifalarida tekshiruvchi, bu jarayonni tizimli metodlar hamda madaniy qoidalarga ko‘ra birliklarning lisoniy va nolisoniy mundarijasiga jamlab, bir butun tizim sifatida aks ettiruvchi kompleks bilimlar majmui*”, deb ta’riflaydi, uning predmeti esa aynan “olamning lisoniy manzarasi”ni hosil qiluvchi barcha til birliklari ekanini ta’kidlaydi [3; 36-37-betlar]. O‘zbek tilshunosligida D.Xudoyberganova badiiy matn materialida kognitiv-diskursiv tahlil usullarini qo‘llab, konseptning matnda qanday voqelanishini ko‘rsatib bergan [4; 88-bet]. Bu nazariy qarashlarning barchasi umumiy bir xulosaga olib

keladi: *til birliklari, jumladan predmet nomlari, xalqning konseptual olamini, ya'ni uning tabiat, jamiyat va qadriyatlar haqidagi bilim tizimini ifodalovchi "konseptosfera"ning tarkibiy qismidir*.

Fitonimlarning OLM va lingvomadaniyatdagi o'rni. Yuqorida ta'kidlangan nazariy asosdan kelib chiqqan holda, fitonimlarni oddiy botanik atamalar sifatida emas, balki xalqning tabiat bilan munosabatini, xo'jalik tajribasini, diniy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan konseptual birliklar sifatida ko'rish lozim. Bu qarash yaqinda o'zbek tilshunosligida ham alohida tadqiqot predmetiga aylandi. N.O'ralovaning "Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi" nomli maqolasida to'g'ridan to'g'ri ta'kidlanishicha, "*olamning lisoniy manzarasi - bu til vositasida yaratilgan borliq haqidagi tasavvurlar tizimidir*" va "*fitonimlar xalqning tabiat haqidagi qarashlari, diniy va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim lingvistik birliklardir*" [5; 142-bet]. Xuddi shunga yaqin xulosani M.Ikromov ham e'tirof etadi. Uning fikricha, fitonimlarni o'rganish nafaqat onomastika, balki umuman tilshunoslik tizimi uchun ahamiyatli bo'lib, ayrim fitonimlar misolida ularning "olamning lisoniy manzarasida tutgan o'rni"ni ko'rsatish mumkin [6].

Demak, mavzuning dolzarbligi quyidagi uch omil bilan izohlanadi. Birinchidan, fitonimlar xalqning eng qadimgi va eng barqaror konseptlaridan biri bo'lgan "tabiat" konseptining tarkibiy qismi sifatida, xalq tafakkurining necha ming yillik taraqqiyot yo'lini o'zida saqlaydi. Ikkinchidan, fitonimlar orqali yasalgan maqol va iboralar (masalan, "Chinor chirimas, archa qurimas" kabi) shunchaki tasviriy vosita emas, balki xalqning axloqiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi konseptual metaforalardir, ular lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan alohida tadqiqotga muhtoj. Uchinchidan, fitonimlarning diaxronik taraqqiyotini, ya'ni ularning XI asr yozma yodgorligidan (Devonu lug'atit turk) hozirgi kungacha bo'lgan yo'lini kuzatish, o'zbek xalqining olamni lisoniy idrok etish tarzi qanchalik barqaror yoki o'zgaruvchan ekanini ko'rsatib beradi. Bu esa nafaqat tilshunoslik, balki milliy identifikatsiya va madaniy meros nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fitonimlar tadqiqi tarixi. O'zbek tilshunosligida fitonimlar, asosan, lingvistik, paremiologik va lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganilgan. N.Abdullayeva o'zbek, tojik va ingliz tillarida fitonimlar ishtirokidagi maqollarning qiyosiy tahlilini olib borgan bo'lsa [7], H.A.Jamolxonov o'zbek botanika terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixini nomzodlik dissertatsiyasida yoritgan [8]. Y.Eshonqulov esa meva nomlarining tarixiy-etimologik jihatlarini alohida tadqiq etgan [9]. Turk tilshunosligida bu yo'nalish ancha izchil rivojlangan: F.O'ztyurk "Qutadg'u bilig"dagi o'simlik nomlarini tahlil qilib, ularning ro'yxatini keltirgan [10; 201-208-betlar]. S.Bulut eski uyg'ur turkchasidagi fitonimlarni, xususan oziq-ovqat sifatida ishlatilgan o'simlik nomlarini batafsil tasnif qilgan [11; 562-588-betlar). M.E.Tug'luk turk tili va uning shevalarida rang nomlari asosida yasalgan fitonimlarni tahlil qilgan [12; 269-296-betlar), I.Uchar esa ikki alohida maqolasida organ nomlaridan [13] va hayvon nomlaridan [14] yasalgan fitonimlarni o'rgangan. N.Oturakchi "Devonu lug'atit turk"dagi botanik terminlarning qozoq va turk tilidagi ko'rinishlarini qiyoslagan [15], M.F.Alkayish esa Turkiya turkchasidagi bitki (o'simlik) nomlarini doktorlik dissertatsiyasida tizimli tasnif qilgan [16]. T.Baytopning "Turkcha bitki adlari sozlugu" lug'ati bu sohaning eng to'liq ma'lumotnomalaridan biri hisoblanadi [17].

Rus va jahon tilshunosligida V.B. Kolosovaning slavyan xalq botanikasi leksikasi va simvolikasiga bag'ishlangan ishlari, shuningdek farmakofitonimika va qiyosiy frazeologiya yo'nalishidagi tadqiqotlar alohida o'rin tutadi [18;19]. Bulardan tashqari, N.N.Mirjonov "Isiriq" dorivor o'simligi misolida bir muayyan fitonimning lingvistik tabiatini chuqur o'rgangan [20]. Shunga qaramay, shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati sinxron materialga, ya'ni hozirgi til holatiga tayangan.

Fitonimlarning qadimgi yozma manbalardan hozirgi tilgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot yo‘li, ularning konsept sifatidagi barqarorligi yoki o‘zgaruvchanligi alohida, izchil diaxronik tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur maqolaning maqsadi – yuqorida qayd etilgan bo‘shliqni to‘ldirish, ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi fitonimlarni tizimli ravishda yig‘ish, ularni mavzuiy guruhlarga ajratish va ichki nominatsion modellarini aniqlashdan, so‘ngra bu qadimgi qatlamni O‘TILdagi mos ma’lumotlar bilan qiyoslab, olamning lisoniy manzarasi va konsept nazariyasi nuqtayi nazaridan tarixiy davomiylik yoki o‘zgarish tendensiyalarini ko‘rsatib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: DLT matnidan fitonimlarni to‘liq ajratib olish va tasniflash; ularning ichki taksonomik (nav-tur darajasidagi) tuzilishini aniqlash; fitonim komponentli hikmatli iboralarni yig‘ish va ularning konseptual-metaforik mexanizmini yoritish; DLT materialini O‘TIL materiali bilan qiyoslab, “daraxt”, “meva” kabi fitonimik konseptlarning barqarorlik darajasini baholash. Umumiy tarixiy-lisoniy kontekstni to‘ldirish maqsadida Hatije Shirinning turk run bitiklari so‘z borligi statistikasiga oid ma’lumotlaridan [24] hamda Mushtariy Xolmuradovaning “Qutadg‘u bilig” leksikasi statistikasiga bag‘ishlangan tadqiqotidan olingan qisqa ma’lumotlar ham keltiriladi [25], biroq bu ikki manba tadqiqotning asosiy tayanch nuqtasi emas.

Metodlar. Tadqiqotning tayanch manbai Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari [21] bo‘lib, uning to‘liq matnidan fitonimik mazmun tashiydigan barcha lug‘aviy birliklar ajratib olindi. Har bir yozuv asl transkripsiyasi, talaffuzi va to‘liq izohi bilan birga qayd etildi, keyinchalik ularning har biri qayta tekshirilib, faktik to‘g‘riligi asl matn asosida tasdiqlandi. Ikkinchi bosqichda ajratilgan har bir DLT fitonimi uchun O‘TILdan [22] mos birliklar tanlab olindi va ikkalasi o‘zaro qiyoslandi. Bundan tashqari, DLTda uchramaydigan, biroq zamonaviy tilda faol qo‘llanadigan bir qator fitonimlar ham O‘TILdan qo‘shimcha material sifatida jalb etildi. Nazariy asos sifatida olamning lisoniy manzarasi, konsept va lingvokulturologiya nazariyalariga oid ilmiy adabiyotlar (Gumboldt, Vorobyov, Safarov, Xudoyberganova, O‘ralova, Ikromov) tahlil qilinib, ulardagi tayanch tushunchalar tahlilga tortildi. To‘plangan fitonimik material daraxtlar, meva turlari, don ekinlari va yovvoyi o‘t-o‘simliklar kabi mavzuiy guruhlarga, shuningdek, denotativ, taksonomik, konseptual va frazeologik funksiyalarga ko‘ra tasniflandi.

Natijalar. ***DLTdagi fitonimik tizimning umumiy tuzilishi va konseptual maqomi***. “Devonu lug‘atit turk”da “daraxt” tushunchasi *yığač* so‘zi bilan ifodalanadi, bu so‘z Mahmud Koshg‘ariy tomonidan alohida izohlangan: “*daraxt, üzüm yığačı* (uzum daraxti), *yağaq yığačı* (yong‘oq daraxti)” kabi birikmalarda ham qo‘llanadi. Muallif hatto so‘zning yozilishiga oid orfografik mulohaza ham bildiradi. Bu esa so‘zning DLT yaratilgan davridayoq naqadar keng qo‘llanuvchi, markaziy fitonimik atama bo‘lganidan dalolat beradi. Yuqorida keltirilgan konsept nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, *yığač* so‘zi shunchaki leksik birlik emas, balki “*daraxt*” konseptining yadrosi [2] 47-bet dagi ta’rifga ko‘ra “nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega” qomusiy axborot birligi) vazifasini bajaradi. U atrofida meva daraxtlari, yovvoyi daraxtlar, ularning qismlari (barg, ildiz, shox) kabi periferik ma’nolar guruhlanadi. *Yığač* so‘zi zamonaviy o‘zbek tilidagi *daraxt* so‘ziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri fonetik jihatdan mos kelmasa-da (O‘TILda daraxt - “*Tana qo‘yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik*”, deb ta’riflanadi), funksional-konseptual jihatdan xuddi shu generik o‘rinni egallaydi va bu, olamning lisoniy manzarasi nazariyasi nuqtayi nazaridan, konsept mazmunining vaqt o‘tishi bilan saqlanib qolishi, faqat uning tashqi lisoniy shakli (so‘z qobig‘i) o‘zgarishi hodisasidir.

DLT matnida quyidagi daraxt nomlari qayd etilgan:

DLTdagi shakli	Talaffuzi	Ma’nosi
sögüt	so‘gut	tol daraxti

qaδïŋ	qadiŋ	qayin daraxti
tawïlqu	tavilqu	qizil tol daraxti (tawïlğuč ham deyiladi)
teräk	terak	terak daraxti
čünük / šünük / čarun	chunuk/shunuk/charun	chinor daraxti (uch dialektal-fonetik variant)
artuč	artuch	ar'ar daraxti, qora archa
sük-sük/yïlğun/ bulğuna	suk-suk/yilg'un/bulg'una	yulg'un daraxti (uch sinonim shakl)
tït	tit	sanubar daraxti, tog'larda bitadi
čïndan	chindan	sandal daraxti
barğan	barg'an	mirta daraxtining mevasi
užmä	uzhma	tut daraxti

Chinor va *yulg'un* kabi daraxtlarning bir necha sinonim-dialektal shaklda qayd etilishi (masalan, chinor uchun uch xil shakl: *čünük, šünük, čarun*) DLTning turkiy qabilalar orasidagi til xilma-xilligini aks ettirish vazifasini yana bir bor tasdiqlaydi. Konseptual nuqtayi nazardan bu holat muhim. Bitta konsept ("*chinor*") bir necha lisoniy shaklga ega bo'lishi mumkin, biroq uning konseptual mazmuni (*yirik, sersoya, uzoq umr ko'ruvchi daraxt sifatidagi tasavvur*) barqaror qoladi.

DLTdagi mevali daraxtlar nomlarining rang asosidagi ichki taksonomiya. DLTda meva daraxtlari nomlanishida diqqatga sazovor bir ichki taksonomik model kuzatiladi. *Erük* so'zi "*shaftoli, o'rik, olxo'ri mevalarining umumiy nomi*" sifatida beriladi va bu uch mevaning bir-biridan "*biror sifati bilan*" farq qilishi ta'kidlanadi: *tülüg erük* – shaftoli, *sarïğ erük* (so'zma-so'z "sariq erük") - o'rik, *qara erük* ("qora erük") - olxo'ri. Bu rang belgisi asosidagi ichki taksonomik tasnif modeli bo'lib, u DLTda zoonimlar sohasida ham kuzatiladigan, rangga ko'ra ot nomlash (kashqa ot, boz ot kabi) an'anasi bilan to'g'ridan-to'g'ri uyg'unlashadi hamda M.E.Tug'lukning turk tilshunosligida aniqlagan rang asosidagi fitonim yasalishi modeliga [12; 269-296-betlar) tipologik jihatdan mos keladi. Boshqa meva daraxtlari orasida *alma* (olma, o'g'uzcha shakl; "turklar *almïla* deydilar", deb dialektal izoh bilan), *üzüm* (uzum) va *küli* (danagi bilan quritilgan o'rik, hozirgi o'rikqoqi) qayd etilgan.

DLTdagi don ekinlari va yovvoyi o't-o'simliklar tahlili. Don ekinlari orasida *tarïğ* so'zi alohida e'tiborga molik. Mahmud Koshg'ariy uni "*ko'pchilik turk qabilalarida bug'doy*", deb izohlaydi, biroq darhol muhim dialektal farqni ham qayd etadi. O'g'uzlar bu so'zni "*tariq*" ma'nosida qo'llashini va buni xato deb hisoblashini, chunki o'g'uzlar "*bug'doy*"ni *aşlıq* deb atashini ta'kidlaydi. Bu qayd DLTning o'zbek tili tarixi uchun qanchalik qimmatli dialektologik manba ekanini yana bir bor ko'rsatadi. *Arpa* so'zi o'zgarishsiz, hozirgi shaklda qayd etilgan. Yovvoyi o'simliklar qatoriga *qaramuq* ("*bug'doy va boshqa donlar orasida bo'ladigan begona o't*") va *aba başı* ("*tog'larda bodring shaklida o'suvchi, poyasi tikanli o't*") kiradi.

DLTdagi fitomorfik maqollar – birinchi konseptual metafora namunasi. DLT matnidagi eng qimmatli topilmalardan biri fitonimlar asosida qurilgan hikmatli ibora bo'lib, u matnda uch marta, uch xil bosh so'z ostida deyarli bir xil shaklda takrorlanadi. "*Sögüt söliŋä, qaδïn qasïŋa*" ("tol daraxtining ho'lligi va mayinligi tolning o'ziga yarashiq, qayin daraxtining qattiqligi uning o'ziga munosib"). DLT bu iborani izohlab, uni "*har narsa o'z ildiziga tortishi*"ga nisbatan piching sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu klassik konseptual metafora namunasi sanaladi. Manba domeni (*o'simlik olami, uning fizik xususiyatlari*) maqsad domeniga (*inson yoki narsaning ichki tabiati*) ko'chiriladi. Bu topilma shuni isbotlaydiki, fitonimlarning DLT davridayoq shunchaki denotativ atash vositasi emas, balki obrazli-metaforik fikrlash, ya'ni olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vosita bo'lgan.

Zamonaviy tasdiq va O'TILdagi davomiylik. DLTda qayd etilgan fitonimlarning aksariyati O'TILda minimal fonetik o'zgarish bilan saqlanib qolgan. *Archa* (O'TIL, 149-bet: "*Sarvdoshlar oilasiga mansub, doim yashil buta yoki daraxtlar turkumi*") so'zi DLTdagi *artuč* so'zining (t>ch fonetik o'zgarish bilan) to'g'ridan-to'g'ri davomidir. *Chinor* (O'TIL, 783-bet) DLTdagi *čünük/šünük/čarun* variantlarining birlashgan

zamonaviy shaklidir. *Terak*, *olma* va *uzum* so‘zlari esa deyarli o‘zgarishsiz saqlangan. Meva daraxtlaridan *gilos* (O‘TIL, 224-bet), *nok* va *nokzor* (O‘TIL, 388-389-betlar), *o‘rik* (O‘TIL, 434-bet), *shaftoli va shaftolizor* (O‘TIL, 567-bet), *pista va pistazor* (O‘TIL, 733-735-betlar) kabi so‘zlar DLTdagi *erük* guruhini yanada boyitib davom ettiradi. *Bodom* (O‘TIL, 514-bet) esa DLTda uchramaydi. Bu so‘z forscha o‘zlashma sifatida keyingi davrlarda tilga kirgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Poliz-sabzavot va don ekinlari sohasida ham xuddi shunday manzara kuzatiladi. DLTdagi *arpa* so‘zi O‘TILda o‘zgarishsiz qoladi, *tarïğ* esa hozirgi tilda *tariq* shaklida saqlanib, torroq ma’noga ega bo‘lib qolgan. Bulardan tashqari, O‘TILda *qovun* va *qovoqdoshlar* (245-bet), *qovoq* (244-bet), *karam* (755-bet), *kartoshka* (767-bet), *piyoz* (739-bet) va *no‘xat* (421-bet) kabi keyingi davrlarda tilga kirgan yoki DLT matnida alohida qayd etilmagan fitonimlar ham mavjud. Bu holat fitonimik konseptosferaning tarixiy taraqqiyot davomida sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘ralova [5; 143-144-betlar] ta’kidlagan fikrga mos keladi: *fitonimlar xalqning xo‘jalik faoliyati va tashqi dunyo bilan aloqalari kengaygan sari yangi konseptual mazmun bilan boyib boradi*.

Fitonimik atamalarda nav-tur taksonomiyasining tarixiy davomiyligi. DLTdagi erük guruhida kuzatilgan rang asosidagi ichki taksonomik model (*tülüg erük, sarïğ erük, qara erük*) O‘TILda ham xuddi shunday mantiq bilan davom etadi, faqat endi u alohida mustaqil so‘zlar orqali ifodalanadi. *Boboyi* (“Bir xil o‘rik navi”, O‘TIL, 512-bet), *boboshayxi* (“Kichik, dumaloq, oq etli yozgi qovun turlaridan biri”, O‘TIL, 512-bet), *dahbedi* (“Ertapishar qovun navi”, O‘TIL, 743-bet) va *handalak* (O‘TIL, 317-bet) qovun navlarini; *qandil* yoki *kandil* (“Olmaning kechpishar bir navi”, O‘TIL, 747-bet) esa olma navlarini bildiradi. Demak, rang, pishish muddati va shakl kabi ikkinchi darajali belgilar asosida bir turkum ichida yanada mayda taqsimlash usuli DLT davridan bugungi kungacha barqaror saqlanib kelayotgan nominatsion andoza hisoblanadi. Faqat uning ifodalanish shakli “birikma” holatidan “alohida so‘z” holatiga o‘tgan. Bu jarayon I.Ucharning inson organi va hayvon nomlaridan yasalgan fitonimlarga oid tadqiqotlarida aniqlangan [13; 14] umumturkiy nominatsion boyish jarayoni bilan bir qatorda turadi.

Yasalish modellari. DLT davrida fitonimlar asosida yasalgan derivatlar orasida *čečäkländi* (“daraxt gulladi”) va *yemišländi* (“daraxt meva qildi”) kabi fe’llar qayd etilgan bo‘lsa, O‘TILda bu unumdorlik yangi yo‘nalishda, asosan, ot yasalishida namoyon bo‘ladi. Eng unumdor model “-zor” qo‘shimchasi yordamida yasalgan joy otlaridir. *Archazor, olmazor, nokzor, pistazor, shaftolizor* kabi so‘zlar muayyan daraxt bilan band bo‘lgan yerni bildiradi. Bu model DLT matnida hali kuzatilmaydi. Demak, u nisbatan keyingi davr mahsuli bo‘lishi ehtimol. Ikkinchi model — qo‘shma so‘z yasalishi, ya’ni *makkajo‘xori, no‘xatgul, kartoshkagul, qovoqdoshlar* (oila nomi sifatida) shular jumlasidandir.

Fitomorfik maqollar lisoniy an’ananing ming yillik davomiyligi sanaladi. DLTdagi “*Sögüt söliŋä, qaδïn qasïŋa*” iborasi bilan bir xil mantiqiy modelga ega uchta maqol O‘TILda ham topildi:

Davr	Maqol	Mantiqiy model
XI asr	Sögüt söliŋä, qaδïn qasïŋa	Har narsaning o‘z tabiatiga xosligi
Hozirgi til	Chinor chirimas, archa qurimas	Daraxtning tabiiy mustahkamligi
Hozirgi til	Olmadan bodom bo‘lmas, tagi past odam bo‘lmas	Nasl-zot xosligi
Hozirgi til	Eman daraxtining egilgani – singani, Er yigitning uyalgani – o‘lgani.	Sinish – or-nomus metaforasi

Ushbu to‘rtta maqolning umumiy mantiqiy asosi bir xil bo‘lib, o‘simlikning tabiatan ega bo‘lgan xususiyati inson xarakteri yoki taqdiriga ko‘chiriladi. Bu manba domeni (o‘simlik olami) va maqsad domeni (inson xarakteri, ijtimoiy-axloqiy baho) orasidagi barqaror metaforik ko‘chish bo‘lib, DLTdan O‘TILgacha, ya’ni kamida ming yil

davomida, mantiqiy jihatdan o‘zgarmasdan saqlanib qolgan. Bu esa olamning lisoniy manzarasining eng barqaror qatlamlaridan biri konseptual metaforalar ekanini yana bir bor tasdiqlovchi dalildir.

Fitonimlar konsept sifatida konseptosfera tarkibidagi o‘rni. To‘plangan materialni konsept nazariyasi asosida umumlashtirsak, o‘zbek tilida “*daraxt*” bosh konsepti ostida bir necha kichik konseptual maydonlar shakllanganini ko‘rish mumkin. “*Mevali daraxt*” (olma, o‘rik, shaftoli, gilos, pista, bodom), “*yovvoyi/mahalliy daraxt*” (archa, chinor, terak, eman, cherkez) kabi. “Poliz-sabzavot” (qovun, qovoq, karam, kartoshka, piyoz) va “don ekini” (bug‘doy, arpa, javdar, makkajo‘xori) kabi holatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu konseptual maydonlarning har biri o‘z ichida yana nav-tur darajasidagi mayda bo‘linishlarga ega (*boboyi, boboshayxi, dahbedi, handalak* kabi). Bunday ko‘p bosqichli konseptual tuzilma S.Askoldov-Alekseyev tomonidan asos solingan va zamonaviy o‘zbek tilshunosligida Sh.Safarov tomonidan rivojlantirilgan konsept nazariyasiga [2] to‘liq mos keladi. Konsept bu - “*nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega” qomusiy bilim birligi sifatida, u shunchaki bitta so‘z emas, balki so‘zlar va ularning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topgan tarmoqlangan tizimdir*.

Faqat umumiy tarixiy fonni to‘ldirish maqsadida shuni qisqacha qayd etish o‘rinliki, H.Shirinning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, turk-run bitiklarida o‘simliklar toifasiga oid *çıntan* (sandal daraxti) va *ıgaç* (umumiy “*daraxt, yog‘och*” ma’nosidagi so‘z, DLTdagi *yığač* bilan bevosita bog‘liq) kabi 40 ga yaqin so‘zlar qayd etilgan [24]. Bu ko‘rsatkich hayvon nomlarining (94 marta) yonida juda kichik bo‘lib, run bitiklari davrida fitonimlarning ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lganini bildiradi. Shu kabi “Qutadg‘u bilig” statistikasiga oid tadqiqotida *čečäklik* (“gulzor”) va *köräk* (“yaproq, kurtak”) kabi fitonim sifatida alohida tilga olinadi. Bu ikki ma’lumot mazkur tadqiqotning asosiy predmeti bo‘lmagani sabab, ular faqat DLT va O‘TIL orasidagi qiyosiy chizmani kengroq tarixiy fonga joylashtirish uchun keltirildi.

Muhokama. Diaxronik yondashuv asosida olib borilgan bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining fitonimik tizimi XI asrdan bugungi kungacha bir tekis emas, balki notekis, ammo izchil taraqqiyot chizig‘iga ega. DLTda qayd etilgan yadro, ya’ni *sögüt/archa, čünük/chinor, teräk/terak, erük* kabilar hozirgi tilda ham saqlanib qolgan bo‘lsa, *bodom, pista, rayhon* kabi forscha-arabcha kelib chiqishga ega so‘zlar keyingi davrlarda qo‘shilgan. Bu manzara turk tilshunosligida O‘ztyurk tomonidan “Qutadg‘u bilig” materialida [10; 201-208-betlar], shuningdek Bulut tomonidan eski uyg‘ur turkchasi materialida [11; 562-588-betlar) kuzatilgan tendensiyalarga mos keladi. Ya’ni, fitonimik lug‘at boyligi tarixiy taraqqiyot davomida bosqichma-bosqich kengaygan, ammo markaziy, kundalik-landshaft ahamiyatga ega fitonimlar barqaror yadroni tashkil etib kelgan.

Olamning lisoniy manzarasi nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, bu natijalar muhim nazariy xulosaga olib keladi. Vilgelm fon Gumboldt ta’kidlaganidek, til obyektiv borliqni shunchaki nomlab qo‘ymaydi, balki uni ma’lum tarzda talqin ham qiladi [1]. DLTdan O‘TILgacha bo‘lgan davrda fitonimlarning talqin qilinish tarzi, ya’ni ularning rang, hosil muddati, tabiat xususiyatlari asosida taqsimlanishi, asosan, o‘zgarmagan holda qolgani, o‘zbek xalqining tabiatga munosabati va uni idrok etish tarzi tarixiy jihatdan barqaror ekanini ko‘rsatadi. Bu xulosa O‘ralovaning [5; 142-bet] “*olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to‘ldiradi, chuqurlashtiradi hamda har bir xalqning o‘ziga xos idrokini ifodalaydi*”, degan ta’rifiga to‘liq mos keladi. Fitonimlar orqali biz nafaqat o‘simlik dunyosi haqidagi ma’lumotni, balki o‘zbek xalqining necha ming yillik idrok tarzini ham kuzatishimiz mumkin.

Rang asosidagi ichki taksonomiya (DLTdagi *erük* guruhi va O‘TILdagi qovun-olma navlari)ning ming yillik davomiyligi alohida e’tiborga loyiq. Bu naqsh jahon etnobotanikasida Konklin va Kottak kabi olimlar tomonidan ta’riflangan “xalq

taksonomiyasi” modeliga mos keladi, unga ko‘ra turli madaniyatlar tabiat olamini ko‘p bosqichli, ichki jihatdan tarmoqlangan tasniflash tizimlari orqali idrok etadi. Bu esa o‘z navbatida, V.V.Vorobyov ta’riflagan lingvokulturologik yondashuvga [3; 36–37-betlar] to‘liq mos keladi. Ya’ni, *fitonimlar tizimi bu shunchaki lug‘at boyligi emas, balki til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani aks ettiruvchi “lingvokulturema”lar majmuidir*. Fitomorfik maqol an’anasining DLTdan O‘TILgacha saqlanib qolgani esa yanada chuqurroq xulosaga olib keladi. Bu shunchaki leksik saqlanish emas, balki o‘simlik olamini inson taqdiriga metafora sifatida qo‘llash konseptual mexanizmining o‘zi barqaror ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, natijalar M.Ikromov ta’kidlagan fikrni ham tasdiqlaydi: *fitonimlarning tilshunoslik tizimidagi o‘rni va ularni tadqiq etishning ahamiyati onomastika doirasidan chiqib, umumiy lisoniy manzara va milliy tafakkurni yoritishga xizmat qiladi* [6]. Xususan, “itkuchala” kabi hayvon nomidan yasalgan fitonim [14; 1-19-betlarda tasvirlangan modelga mos) shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida fitonimik va zoonimik konseptosferalar bir-biridan mutlaqo ajralgan holda emas, balki o‘zaro kesishgan holda mavjud. Bu esa olamning lisoniy manzarasi yaxlit, bir-biriga bog‘liq konseptual tizim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ***xulosalar***ga kelindi.

Olamning lisoniy manzarasi va konsept nazariyalari nuqtayi nazaridan qaraganda, fitonimlar shunchaki nominativ birlik emas, balki xalqning tabiat haqidagi bilimlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashini muhrlagan konseptual birliklardir. Bu qarash Gumboldt [1], Vorobyov [3; 36–37-betlar], Safarov [2] va O‘ralova [5] kabi olimlarning ishlarida nazariy asoslangan.

“Devonu lug‘atit turk” o‘zbek tilining fitonimik tizimi uchun eng qadimgi va boy yozma manba bo‘lib, unda yigirmadan ortiq mustaqil daraxt va meva nomi, shuningdek rang asosidagi ichki taksonomik model (erük guruhi) qayd etilgan. Undagi fitonimlarning aksariyati (*sögüt/archa, čünük/chinor, teräk/terak, erük/o‘rik-shaftoli-olxo‘ri* guruhi) minimal fonetik o‘zgarish bilan O‘TILda saqlanib qolgan, bu kamida ming yillik uzluksiz leksik va konseptual davomiylikni isbotlaydi. Rang va pishish muddati asosidagi ichki taksonomiya (DLT erük guruhi va O‘TILdagi qovun-olma navlari) bir xil kognitiv-nominatsion andozaga asoslanadi, bu andoza I.Ucharning [13; 14] turk tilshunosligida aniqlagan umumturkiy modellarga mos keladi.

DLTda topilgan “*Sögüt söliŋä, qaδïn qasïŋa*” fitomorfik maqoli O‘TILdagi “*Chinor chirimas, archa qurimas*”, “*Olmadan bodom bo‘lmas*” va “*Eman daraxtining egilgani – singani*” maqollari bilan bir xil mantiqiy strukturaga ega. Bu esa o‘simlik tabiati va inson xarakteri orasidagi metaforik model ming yil davomida o‘zgarmagani haqidagi eng kuchli dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумболдт В. Избранные труды по языкознанию. -Москва: Прогресс. 1984. -б.400.

2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006. -b.91.

3. Vorobyov V. Lingvokulturologiya (teoriya i metody). -Moskva: RUDN. 1997. -b. 36-37.

4. Xudoyberganova D. O‘tkir Hoshimov nasri tilining kognitiv-diskursiv xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti, (4), 2010. -b.83-91.

5. O‘ralova N. Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi. O‘zbekiston: til va madaniyat, 3(1), (2025. -b.142-148.

6. Ikromov M. T. Fitonim tushunchasi va uning lisoniy xususiyatlari. Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy axboroti. 2-son. 2024. -b.112-121.

7. Abdullayeva N. O‘zbek, tojik va ingliz tillarida o‘simlik konseptining strukturaviy va semantik xususiyatlari tahlili. [avtor.phd.diss.]. Termiz. 2023. -b.64.

8. Jamolxonov H. A. O‘zbek botanika terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixidan [Avtor. fill. fan. nomz. diss.]. Toshkent. (1969). -b.23.

9. Эшонкулов Й. Опыт историческо-этомологического анализаназваний плодов в узбекском языке [Filol. fan. nomz. diss. avto.]. Toshkent. 1977, -b. 23.

10. Öztürk F. Kutadgu Bilig‘de bitki adları. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 6(1), 2005. -b. 201-208.

11. Bulut S. Eski Uygur Türkçesinde Türkçe Bitki Adlandırmaları -1: Yiyecek-İçecek Olarak Kullanılan Bitkiler. TÜRÜK Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi, 6(12), 2018. -b. 562-588.

12. Tuğluk M. E. Türkiye Türkçesinde ve Türkiye Türkçesi Ağızlarında Renk Adlarıyla Oluşturulmuş Bitki Adları. Edebi Eleştiri Dergisi, 6(2), 2022. -b.269-296.

13. Uçar İ. Organ Adlarıyla Oluşturulmuş Bitki Adları. TÜBAR, Sayı XXXII, 2012. -b.285-306.

14. Uçar İ. Türkiye Türkçesinde Hayvan Adlarından Türetilmiş Bitki Adları. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 2(1), 2013. -b.1-19.

15. Oturakçı N. Divanü Lûgati’t-Türk’teki botanik terimlerinin Kazakça ve Türkçedeki görünümleri. Karadeniz Uluslararası Bilimsel Dergi. sy 13, Mart 2012, 2012. -b. 195-12, https://izlik.org/JA36UX65BG.

16. Alkayış M. F. Türkiye Türkçesinde Bitki Adları [Doktora tezi]. Erciyes Üniversitesi. 2007. -b. 432.

17. Baytop T. Türkçe Bitki Adları Sözlüğü. Ankara: TDK Yayınları. 2024. -b. 400.

18. V. B. Kolosova. Leksika i simvolika slavyanskoy narodnoy botaniki. Etnolingvisticheskiy aspekt. M.: Indrik, 2009. -b.352.

19. Etnobotanika: rasteniya v yazyke i kulture / Otv. qizil. V. B. Kolosova, A. B. Ippolitov. SPb.: Izd-vo «Nauka», 2010. -b.386.

20. Mirjonov N. N. “Isiriq” dorivor o‘simligi va uning lingvistik tabiati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-jild. Toshkent: 2022.

21. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘atit turk (Q. Sodiqov, tarj.). Toshkent. G’.G‘ulom nomidagi nashiriyot- matbaa ijodiy uyi. 2017. -b. 476.

22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-VI jildlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2022-2023.

23. Bulut S. Eski Uygur Türkçesinde Türkçe Bitki Adlandırmaları -1: Yiyecek-İçecek Olarak Kullanılan Bitkiler. TÜRÜK Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi, 6(12), 2018. -b. 562-588.

24. Şirin H. Ko‘k turk run bitiklarining so‘z varlığı [İstatistik Veriler]. Ankara: TDK Yayınları. 2020. -b.750

25. Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilig” leksikasining statistik tahlili va genetik asoslari. Oltin bitiglar, (4), 2019. -b.14-33.

FRANSUZ TILIDA MEMORIAL TURIZM OBYEKTI NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Mustofoqulov Farhod Xolmurod o‘g‘li
Samarqand davlat chet tillar instituti
Fransuz filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
farhodmustodoqulov@gmail.com
ORCID 0009-0004-6158-7463
UDK 811.133.1:81’373.21

Annotatsiya. Maqolada fransuz tilidagi memorial turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bunday nomlarning tarixiy xotira, milliy identitet hamda madaniy merosni saqlashdagi o‘rni bilan belgilanadi. Normandiya regionidagi memorial turizm obyektlari nomlari, jumladan D-Day hududlari, harbiy qabristonlar, memorial muzeylar va tarixiy joy nomlari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy, semantik, etimologik, tavsifiy va lingvokulturologik metodlardan foydalanildi. Nomlarning tarixiy shakllanishi, semantik tarkibi, madaniy funksiyasi hamda turistik diskursdagi o‘rni o‘rganildi. Natijalar memorial turizm obyektlari nomlari nafaqat geografik identifikator, balki kollektiv tarixiy xotira, madaniy kod va milliy identitetni saqlovchi lingvistik birlik ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalaridan memorial turizm, toponimika va madaniy merosni o‘rganishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: memorial turizm, lingvokulturologiya, memorial toponimlar, harbiy qabristonlar, Normandiya, D-Day, tarixiy xotira, madaniy identitet.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF MEMORIAL TOURISM OBJECT NAMES IN THE FRENCH LANGUAGE

Abstract. This article examines the linguocultural features of the names of memorial tourism sites in French. The relevance of the study is determined by the role of such names in preserving historical memory, national identity and cultural heritage. Names of sites related to the Second World War in Normandy, including D-Day sites, military cemeteries, memorial museums and historical place names, were analysed from a linguocultural perspective. Historical-comparative, semantic, etymological, descriptive and linguocultural methods were employed. The findings clearly show that they function not only as geographical identifiers but also as important linguistic units preserving collective memory, cultural codes and national identity.

Key words: memorial tourism, linguoculturology, memorial toponymy, military cemeteries, Normandy, D-Day, historical memory, cultural identity.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida turizm nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va lingvistik hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa memorial turizm obyektlari insoniyat tarixida muhim iz qoldirgan voqealarni eslatib turuvchi madaniy makon sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu obyektlarning nomlari esa tarixiy xotirani avloddan avlodga yetkazuvchi lingvistik vosita hisoblanadi.

Fransiya hududidagi memorial turizm obyektlari nomlari orasida Normandiya regioni alohida o‘rin tutadi. Bu hudud Ikkinchi jahon urushi, xususan 1944-yil 6-iyundagi *“Débarquement de Normandie-Normandiyaga desant tushurish operatsiyasi”* bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab memorial obyektlarga ega. *Omaha Beach, Utah Beach, Gold Beach, Juno Beach* va *Sword Beach* kabi nomlar bugungi kunda global tarixiy xotira elementiga aylangan.[6]

Turizm obyektlari nomlari muayyan xalqning tarixiy tafakkuri, madaniy identiteti va kollektiv xotirasini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli memorial turizm obyektlari nomlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fransuz toponimiyasi va memorial nomlash tizimi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. *Auguste Longnon* joy nomlarini tarixiy-madaniy axborot tashuvchisi sifatida baholab, turizm obyektlari nomlari xalq tarixining “tirik arxivi” ekanligini ta’kidlaydi.[1]

Albert Dauzat fransuz joy nomlarining etimologik qatlamlarini o‘rganib, toponimlarning shakllanishida tarixiy, etnik va geografik omillar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.[2]

René Lepelley Normandiya turizm obyektlari nomlarining o‘ziga xos fonetik va tarixiy xususiyatlarini tadqiq qilib, regiondagi viking va gallo-rim qatlamlarining kuchli ta’sirini ko‘rsatadi.[3]

David Crouch Normanlar tarixini yoritish orqali Normandiya regionining Yevropa tarixidagi o‘rnini ochib beradi. Muallif Normandiya tarixiy identitetining shakllanishida siyosiy va harbiy voqealar muhim rol o‘ynaganini qayd etadi.[4]

Normand lahjalari va regional identitet masalalari *“La sauvegarde des Parlers normands”* tadqiqotida ham ko‘rib chiqilgan. Unda normand tilining UNESCO tomonidan xavf ostidagi til sifatida baholanishi va uning tarixiy-madaniy ahamiyati ta’kidlanadi.[9]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot fransuz tilidagi memorial turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqotning nazariy asosini lingvokulturologiya, toponimika, memorial turizm va onomastikaga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida Normandiya regionidagi Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq memorial turizm obyektlari nomlari tanlab olindi.

Tadqiqot davomida *tarixiy-qiyosiy, semantik, etimologik, tavsifiy* va *lingvokulturologik* metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar memorial turizm obyektlari nomlarining tarixiy shakllanishi, semantik tarkibi, madaniy funksiyasi hamda kollektiv xotira bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.[10]

Tadqiqot materiali sifatida *“Omaha Beach”, “Utah Beach”, “Gold Beach”, “Juno Beach”, “Sword Beach”, “Pointe du Hoc”, “Mémorial de Caen”, “Arromanches-les-Bains”* kabi memorial obyektlar nomlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari memorial turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik va tarixiy-madaniy ahamiyatini yoritishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Memorial turizm obyektlari nomlari tarixiy xotirani shakllantiruvchi va kollektiv ongda saqlovchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Ayniqsa Normandiya regionidagi *D-Day* bilan bog‘liq memorial nomlar bugungi kunda nafaqat Fransiya, balki jahon tarixiy xotirasining tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu nomlar geografik obyektni belgilash bilan birga tarixiy voqealar, qahramonlik, urush fojiasi va kollektiv xotirani ham ifodalaydi.

“Omaha Beach” nomi memorial turizm diskursida eng mashhur tarixiy nomlardan biri hisoblanadi. Dastlab ushbu nom AQSh armiyasi tomonidan harbiy kod nom sifatida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik Ikkinchi jahon urushi tarixining ramziy belgilaridan biriga aylangan.[5] Bugungi kunda ushbu nom turistlarda tarixiy xotira va emotsional taassurot uyg‘otuvchi memorial birlik sifatida qabul qilinadi. *“Utah Beach”, “Gold Beach”, “Juno Beach” va “Sword Beach”* nomlari ham xuddi shunday tarixiy-semantik transformatsiyani boshdan kechirgan.[7]

Mazkur memorial nomlarning lingvokulturologik xususiyati shundaki, ular o‘zida bir vaqtning o‘zida geografik, tarixiy va madaniy ma’nolarni mujassamlashtiradi. Masalan, *“Sword Beach”* nomidagi *“sword”* komponenti jang, kuch va harbiy strategiya bilan bog‘liq ramziy ma’noni anglatadi. *“Gold Beach”* nomidagi *“gold”* elementi esa g‘alaba va tarixiy muvaffaqiyat konseptlarini assotsiativ tarzda ifodalaydi.

“Pointe du Hoc” memorial nomi esa Ikkinchi jahon urushi davridagi strategik harbiy nuqtalardan biri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu nom qahramonlik, jasorat va harbiy xotira timsoli sifatida xalqaro turistik diskursda faol qo‘llanadi. Ushbu memorial obyekt nomi turistlarda tarixiy identifikatsiya hissini shakllantiruvchi lingvistik vosita vazifasini bajaradi.[8]

“Mémorial de Caen” nomi memorial turizm obyektlari orasida alohida lingvokulturologik ahamiyatga ega. Ushbu nom nafaqat memorial muzeyni, balki tinchlik, urushga qarshi g‘oya va tarixiy xotira konsepsiyasini ham ifodalaydi. Memorial nom tarkibidagi *“mémorial”* komponentining o‘zi tarixiy eslash va kollektiv xotira

semantikasini kuchaytiradi.

“Arromanches-les-Bains” nomi esa bugungi kunda Mulberry portlari va Normandiya desanti bilan bog‘liq tarixiy-madaniy semantikani o‘zida mujassamlashtirgan memorial turizm obyektiga aylangan. Ushbu nom tarixiy voqealar bilan bevosita bog‘lanishi natijasida oddiy geografik nomdan memorial toponim darajasiga ko‘tarilgan.

Tahlillar memorial turizm obyektlari nomlari turistik kommunikatsiyada kuchli pragmatik funksiyani ham bajarishini ko‘rsatdi. Bunday nomlar turistlarda emotsional qiziqish uyg‘otadi, tarixiy voqealarni eslatadi hamda hududning madaniy identitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli memorial toponimlar zamonaviy turizm industriyasining muhim lingvomadaniy komponentlaridan biri hisoblanadi.[6]

Normandiya regionidagi memorial obyektlar nomlarida lotin, norman va ingliz til qatlamlarining tarixiy izlari ham saqlanib qolgan. Bu esa regionning ko‘p madaniyatli tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatadi hamda memorial nomlarning ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Quyidagi jadval memorial turizm obyekti nomlarining asosiy lingvokulturologik funksiyalarini ko‘rsatadi:

1-jadval. Turizm obyekti nomlarining asosiy lingvokulturologik funksiyalari.

Memorial turizm obyektlari	**Tarixiy asos**	**Lingvokulturologik funksiya**
Omaha Beach	*D-Day* desant tushirish operatsiyasi	Tarixiy xotira
Utah Beach	Harbiy operatsiya	Kollektiv identitet
Mémorial de Caen	Ikkinchi jahon urushi	Tinchlik konsepsiyasi
Pointe du Hoc	Harbiy strategik nuqta	Qahramonlik ramzi
Arromanches	Mulberry portlari	Tarixiy-madaniy meros

Manba: muallif tomonidan shakllantirildi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari fransuz tilidagi memorial turizm obyektlari nomlari nafaqat oddiy geografik identifikator, balki muhim lingvokulturologik birlik ekanligini ko‘rsatdi. Memorial toponimlar tarixiy voqealar, kollektiv xotira, milliy identitet va madaniy merosni saqlash hamda avlodlarga yetkazishda muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Ayniqsa Normandiya regionidagi *D-Day* bilan bog‘liq memorial obyektlar nomlari bugungi kunda xalqaro tarixiy xotira makonining tarkibiy qismiga aylangan.

Tadqiqot davomida *“Omaha Beach”, “Utah Beach”, “Gold Beach”, “Juno Beach”, “Sword Beach”, “Pointe du Hoc”, “Mémorial de Caen”* kabi memorial turizm obyektlari nomlari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu nomlar o‘zida tarixiy voqealar, harbiy strategiyalar, qahramonlik, kollektiv xotira va madaniy identitet elementlarini mujassamlashtirishi aniqlandi. Shu bilan birga memorial turizm obyektlari nomlari turizm diskursida kuchli emotsional va ramziy ta’sirga ega bo‘lgan lingvistik birlik sifatida faol qo‘llanilishi kuzatildi.

Tadqiqot memorial turizm obyektlari nomlari semantik jihatdan ko‘p qatlamli tuzilishga ega ekanligini ham ko‘rsatdi. Ularning tarkibida geografik, tarixiy, siyosiy, madaniy va ideologik ma’nolar birlashgan bo‘lib, bu holat memorial toponimlarni lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi. Normandiya hududidagi memorial nomlarda lotin, norman va ingliz til qatlamlarining tarixiy izlari saqlanib qolganligi regionning ko‘p madaniyatli tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Shuningdek,

memorial turizm obyektlari nomlari hududning turistik jozibadorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Chunki bunday nomlar turistlarda tarixiy qiziqish, emotsional taassurot va madaniy identifikatsiya hissini uyg‘otadi. Shu jihatdan memorial toponimlar turizm industriyasining madaniy komponenti sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

★ Memorial turizm obyektlari nomlarini lingvokulturologik va pragmatik jihatdan kompleks tadqiq etishni kengaytirish;

★ Fransiya regionlari, ayniqsa Normandiya memorial toponimlari asosida maxsus elektron toponimik baza yaratish;

★ Memorial turizm obyektlari nomlarini fransuz tilini o‘qitishda autentik lingvomadaniy material sifatida qo‘llash;

★ Memorial toponimlarni tarix, turizm va tilshunoslik fanlari integratsiyasi asosida o‘rganish;

★ Memorial turizm obyektlari nomlarining turistik diskursdagi emotsional va kommunikativ funksiyalarini alohida tadqiq qilish;

★ Fransuz memorial toponimlarini o‘zbek tilidagi memorial nomlash tizimi bilan qiyosiy jihatdan o‘rganish.

Xulosa qilib aytganda, memorial turizm obyektlari nomlari tarixiy xotira va madaniy identitetni saqlovchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish nafaqat fransuz toponimikasini chuqurroq o‘rganishga, balki tarix, madaniyat va turizm o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ochib berishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Longnon A. Les noms de lieu de la France. — Paris: Honoré Champion, 1920. — 465 p.
2. Dauzat A. Les noms de lieux. — Paris: Delagrave, 1947. — 278 p.
3. Lepelley R. Toponymie de la Normandie et romanisation du nord-ouest de l’ancienne Gaule. — Caen: Université de Caen, 1999. — 10 p.
4. Crouch D. The Normans: The History of a Dynasty. — London: Hambledon Continuum, 2007. — 378 p.
5. Anne E., Bouisset M. Histoire de la Normandie. — Paris: René Bodin, 1970. — 32 p.
6. Bauer L. De la diachronie à la synchronie : étude de la dénomination des voies de Cergy-Pontoise // Langage et société. — 2001. — № 96. — P. 9–27.
7. Pégorier A. Les noms de lieux en France. — Paris: Institut Géographique National, 2006. — 519 p.
8. Thémines J.-F., Caro P. Normandie sensible d’Armand Frémont // Géographie et cultures. — 2014. — № 89–90. — P. 77–91.
9. La sauvegarde des Parlers normands. — Région Normandie, 2023. — 8 p.
10. Mulon M. L’onomastique française. — Paris: Archives Nationales, 1987. — 417 p.

ANBAR OTIN MUXAMMASLARIDA AN'ANA VA IJODIY O'ZIGA XOSLIK

Novruzova Nozima Norqulovna
SamDU tayanch doktoranti
nozimanavruzova91@gmail.com
ORCID 0009-0009-4824-6513
UDK 891.709

Annotatsiya. Maqolada Qo'qon adabiy muhitining vakilalaridan biri Anbar otinning Uvaysiy g'azaliga bog'lagan taxmisi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor taxmisning salaf g'azali bilan g'oyaviy-mavzuiy munosabati, mazmuniy davomiyligi va Anbar otinning ijodiy yondashuviga qaratiladi. Uvaysiy g'azalida markaziy o'rin tutgan "adab" tushunchasining taxmisda qanday talqin va rivojlantirilgani bandlar kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Anbar otin g'azal mazmunini takrorlamasdan, uning asosiy g'oyasini o'zining axloqiy, ma'rifiy va ijtimoiy qarashlari bilan kengaytirishi aniqlanadi. Qo'shimcha misralar bilan Uvaysiy baytlari o'rtasidagi mazmuniy aloqalar ochib beriladi. Qiyosiy, matniy va poetik tahlil usullaridan foydalanilgan. Mazkur taxmis Uvaysiy g'azalining mazmuniy takrori emas, balki uning asosiy g'oyasini ijodiy davom ettirgan badiiy talqin namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Anbar otin, Uvaysiy, Qo'qon adabiy muhiti, muxammas, taxmis, mumtoz an'ana, adab, ijodiy o'ziga xoslik.

TRADITION AND CREATIVE ORIGINALITY IN ANBAR OTIN'S MUKHAMMASES

Abstract. This article analyses Anbar otin's takhmis composed on a ghazal by Uvaysiy, a prominent representative of the Kokand literary milieu. It focuses on the thematic and ideological relationship between the takhmis and the original ghazal and on Anbar otin's creative approach. The way the concept of adab, central to Uvaysiy's ghazal, is interpreted and developed in the takhmis is compared stanza by stanza. Anbar otin does not reproduce the content of the ghazal but expands its central idea through her own ethical, educational and social views. The takhmis is regarded as an artistic interpretation that continues the ghazal's central idea.

Key words: Anbar otin, Uvaysiy, Kokand literary milieu, mukhammas, takhmis, classical tradition, adab, creative originality.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida nazm shakllarining takomillashuvi va taraqqiyotida musammat va uning turlari alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, musammatning har bir bandi besh misradan iborat bo'lgan turi muxammasdir. Turkiy adabiyotshunoslikda muxammas haqidagi dastlabki nazariy qarashlar Shayx Ahmad Taroziyning "Funun-ul balog'a" asarida uchraydi. Qolaversa, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois", "Mufradot", Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtasar" Rashididdin Vatvot, Qays Roziy, Tabriziy, Atoulloh Husayniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. "G'iyos ul-lug'ot"da muxammasning lug'aviy ma'nosi "beshlik", "beshtalik" deb izohlangan. Vadud Mahmud "Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" nomli maqolasida muxammas janri haqida so'zlar ekan, "Muxammas... band-bandga ajralg'on va har qayusida bir-birovig'a aloqador, faqat ayri-ayri mavzular ishlataturg'on, ya'ni butun fikrlar berilib, tugatib bir-birovidagi robitani mahkam bog'lab borish uchun eng mukammal shakldir", - deb aytgan fikrlari nihoyatda ahamiyatli [4;90].

Mumtoz adabiyotimizda muxammas 2 xil usulda yaratilgan:

1. Mustaqil (tab'ixud) muxammaslar;
2. Taxmis muxammaslar [3;105].

Qo'qon adabiy muhitida muxammas yozishning har ikki turi ham ommalashgan. Bu davr ijodkorlari mustaqil muxammaslar bilan birga salaflari ijodiga chuqur qiziqish va hurmat bilan taxmislar bog'laganlar. Taxmislar yaratish "... shoirlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik va munosabatlarning kengayishiga, badiiy mahorat sohasidagi tajribalarni o'rganishga, ommalashtirishga... ta'sir ko'rsatgan" [3;105]. Tabiiyki, bir ijodkorga ergashib, unga taxmis bog'lash ijodkordan katta mahorat va tayyorgarlik talab qiladi. Chunki biror g'azalga muxammas bog'lash uchun shoir shu g'azal mavzusi bilan birga g'azal muallifining ijodi va, ayniqsa, uslubini ham chuqur o'rganishi, badiiy tafakkur va she'riy san'atlar yaratishda mahorat jihatdan u bilan tenglasha olish darajasida bo'lishi

lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Muxammas va taxmis janrining nazariy asoslari Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” hamda R. Orzibekovning “O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat” kabi tadqiqotlarida yoritilgan. Vadud Mahmud va Yo. Is’hoqovning muxammas hamda taxmisga oid qarashlari ham mazkur tadqiqot uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqotda Anbar otinning Uvaysiy g‘azaliga bog‘lagan taxmisi asosiy manba sifatida olinib, undagi g‘oyaviy-mavzuiy davomiylik va ijodiy o‘ziga xoslik **qiyosiy, matniy va poetik tahlil** usullari asosida o‘rganildi. Bunda Uvaysiy g‘azali bilan Anbar otin taxmisining mazmuni, obrazlar tizimi va badiiy ifoda xususiyatlari qiyoslandi.

Natijalar va muhokama. XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida muxammas va, xususan, taxmis bog‘lash an’anasi faol rivojlandi. Qo‘qon adabiy muhitidagi eng kuchli namunalarini esa G‘oziyning Fuzuliy g‘azallariga, Amiriyning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muhammaslarida, Uvaysiyning bir nechta muxammaslarida topish mumkin. Shu muhit vakilasi bo‘lgan shoira Anbar otin ham mumtoz adabiyotdagi ushbu an’anani davom ettirib, o‘zining badiiy-estetik qarashlarini muxammaslar orqali ifodalagan. Uning muxammaslari o‘zaro mushtarak jihatlar bilan birga, individual uslubi, dunyoqarashi va poetik mahoratini ham aks ettiradi.

Anbar otinning F. Husainova tomonidan tartib berilgan “She’rlar. Risola” to‘plamiga kiritilgan 5 muxammasning 4 tasi mustaqil, 1 tasi Uvaysiy g‘azaliga bog‘langan taxmis muxammasdir [1;58]. Bulardan 4 tasi radifli muxammaslar: “bukun”, “adab”, “qil”, “o‘lmag‘och”. Qolgan 1 ta mustaqil muxammas (“Ey shoira, qil qarindoshingg‘a nasihatingni…”) radifsiz muxammas sanaladi.

Mumtoz adabiyotimizda muxammasning shunday shakllari borki, ularni bir-biridan farqlash bu janr shakllarini puxta o‘rganishga yordam beradi. Jumladan, birinchi band oxiridagi bir yoki ikki misra keyingi bandlar so‘ngida tarje’ sifatida takrorlanib ham keladi. Bir misra tarje’ qilingan muxammaslarda qofiyalanish odatdagidek bo‘lsa, ikki misra tarje’ qilingan muxammaslarda qofiyalanish aaaaa, bbbaa, vvvaa... ko‘rinishida bo‘ladi. Shoira Anbar otin qizi Bibixonga olti banddan iborat muxammasda o‘z vasiyatini bayon qilar ekan, unda faqat so‘nggi misra tarje’ sanaladi:

Ey qizim, omoda bo‘lg‘il dunyodin ketgum bukun,
Holatim yetkuncha tildin holim bayon etkum bukun,
Bexabar qolma, g‘amimni bir-bir bayon etkum bukun,
Qo‘llarimdin jon chiqqancha o‘z gapim bitkum bukun,
Ko‘z yumib bu dunyodin, maqsudima yetkum bukun [1;58].

Muxammasning o‘ziga xos jihati uning vasiyatnoma xarakteridagi kompozitsion qurilishida namoyon bo‘ladi. Navbatdagi ikki band ham “Ey qizim” undalmasi bilan boshlanib, xitobat san’ati asosida qurilgan. Bu xitob orqali qiziga bevosita murojaat qilib, o‘zidan keyingi hayot bilan bog‘liq masalalarni, yaqinlari taqdirini hamda hayotiy tajribalarini bayon etadi. Muxammasda Mo‘min Xo‘ja, Usmon Xo‘ja, Akbar Xo‘ja kabi shaxslarning tilga olinishi esa asarning hayotiy-biografik qatlamini kuchaytiradi. Shu bilan birga, so‘nggi bandda “Anbar hidi” bilan bog‘liq obrazli ifodalar shoiraning o‘zidan keyin qoladigan ma’naviy iz haqidagi tasavvurini ifodalashga xizmat qiladi. Natijada asarda shaxsiy kechinma, oilaviy murojaat, vasiyat va hayotiy kuzatishlar o‘zaro uyg‘unlashadi:

Kelsa davron man go‘rimdin bergum Anbar hidini,
To zamon kelgunchalik yoshurgum Anbar hidini,
Har niholi reshasiga yuborgum Anbar hidini,
Har nobotot xokida yurguzgum Anbar hidini,
Ko‘z yumub bu dunyodin maqsudima yetkum bukun.

Bandlar yakunida takrorlanib keluvchi “Ko‘z yumub bu dunyodin maqsudima yetkum bukun” (tarje’) misrasi esa asarning mazmuniy markazini tashkil etadi va

shoiraning kechinmalari hamda ruhiy holatini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Bukun” radifi vaqtning muayyan va so‘nggi fursat sifatida idrok etilishini kuchaytirib, shoiraning aytishi kerak bo‘lgan gaplarini ayni shu fursatda bayon etishga intilayotganini ta’kidlaydi. Bu asarning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda mavhum falsafiy mulohazalardan ko‘ra **konkret hayotiy holatlar** ko‘proq o‘rin oladi. Unda **shaxsiy hayot tajribasi, oilaviy munosabatlar va kelajak avlodga murojaat** birlashgan.

Ma’lumki, “muxammas – ta’sir va ilhom samarasi. Har qanday shoir boshqa bir ijodkorning o‘zida kuchli taassurot qoldirgan, fikrlarini uyg‘otgan, tuyg‘ularini junbishga keltirgan g‘azaliga muxammas bog‘lab, undagi fikrni rivojlantiradi va to‘ldiradi. Natijada ikki muallifning fikru tuyg‘ulari o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. Ayni jihatdan muxammasni hamohang ko‘ngillar sadosi deyish mumkin” [7. 61-66]. Anbar otin Uvaysiyning **"adab" radifli g‘azali**ga taxmis bog‘lar ekan, g‘azalni shunchaki takrorlamaydi, balki har bandda g‘oyani o‘z qarashlari bilan kengaytiradi. “Taxmis bog‘lash shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyan g‘azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, sinfiy va estetik nuqtayi nazarlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli – har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro‘yobga chiqarish vositasi bo‘lishi mumkin” [5;127]. Shunday ekan shoira Anbar otin ham o‘z dunyoqarashi va jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib Uvaysiyning aynan shu g‘azalini tanlagani bejiz emas.

Ey dil, bukun ilkingga ol, shoh etkan ehsondur adab,
Tuhfa bo‘lur ko‘rsang oni, loyiqki jondur adab [2;61].

Uvaysiyda adab, avvalo, insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti bilan bog‘liq holda talqin qilinsa, Anbar Otin ushbu tushunchaning ijtimoiy mazmunini yanada kengaytiradi. 1-bandning markaziy g‘oyasi — adab insonning komillik mezoni ekanidir. Ikkala shoira ham adabni eng oliy ma’naviy fazilat sifatida ulug‘laydi. Uvaysiy adabni shohning ehsoniga tenglashtirsa, Anbar otin uni jamiyatni obod qiluvchi nur sifatida talqin qiladi va g‘oyani ijtimoiylashtiradi:

El aro jonbaxsh ham xurshidi tobondur adab,
Shahraro elga farog‘atlik gulistondur adab,
Odamning yuzida bir nuri imondur adab [1;60].

Anbar otin adabni “xalq hayotiga jon bag‘ishlovchi”, “shaharni gulistonga aylantiruvchi”, “inson yuzidagi imon nuri” sifatida tasvirlaydi. Uvaysiy esa ko‘proq shaxsning ichki kamoloti nuqtayi nazaridan fikr yuritadi. Uning nazarida adab — inson qo‘lga kiritishi lozim bo‘lgan bebaho ne’mat sanaladi. Anbar otin Uvaysiy g‘oyasini kengaytirib, unga **ijtimoiy-ma’rifiy mazmun** qo‘shgan. Anbar otinning uch misrasi 4–5-misralarga olib kiruvchi mantiqiy zamin vazifasini bajaradi.

Dil agar sof ersa, oni deydilar jonon ko‘ngil,
O‘ylog‘on har narsani aylar ajab darmon ko‘ngil,
Avvalida o‘ylamay, oxirida armon ko‘ngil.

Vaslda bo‘lsang beadab, fahm aylagil, nodon ko‘ngil,
Ko‘rsang agar ul shohni, shami shabistondur adab.

Band inson qalbi, tafakkur va odobning o‘zaro bog‘liqligiga bag‘ishlangan. Har ikki shoira ham ko‘ngil tarbiyasini asosiy masala deb biladi. Anbar otin inson psixologiyasini chuqurroq ochadi. U pok qalbni ulug‘laydi, o‘ylamay ish qilish pushaymonlik keltirishini aytadi. Uvaysiy esa nodon ko‘ngilni fahmga chaqiradi hamda adabni visolga eltuvchi vosita sifatida ko‘rsatadi.

6-bandda **g‘azal va taxmis o‘rtasidagi g‘oyaviy uyg‘unlik eng aniq ko‘rinadi.** Uvaysiy “adab”ni insonni murodga yetkazuvchi fazilat sifatida xulosalasa, Anbar Otin shu xulosaga olib boruvchi “roh” (yo‘l), “dargoh” (murojaat qilinayotgan oliy maqom), “ostona” (yaqinlashish va tavoze’) kabi birliklar vositasida kengaytiradi. Ayniqsa, “Ey Anbar otin, past ketmagil…” tarzidagi murojaat orqali shoira salaf tomonidan ilgari

surilgan axloqiy mezonni o‘ziga nisbatan ham tatbiq etadi. Shu jihatdan mazkur bandni Uvaysiy g‘oyasining mazmuniy davom ettirilishi va Anbar Otinning unga shaxsiy-didaktik munosabat bildirishining namunasi sifatida baholash mumkin:

Yursang aning har rohiga, tut boadab domonini,
Kirsang aning dargohiga, o‘psang ajab domonini,
Ey Anbar otin, past ketmagil, hargiz tilab domonini,
Kuysan boshing ostona, tutsang tilab domonini,
Tutsang murodingdan umid, Vaysiy, farovondur adab.

“Muxammas tuyg‘ular orqali shoirning yurak, ruh bilan so‘zlashuvi, o‘quvchiga olam, borliq, tiriklik haqidagi hayotiy xulosalarini bir qadar mukammal va ta’sirchan yetkazadigan ma’naviy ko‘prikdir. Muxammas tafakkur mahsuli o‘laroq qalbda hosil bo‘ladigan ruhoniy zavq hosilasi, desak ham aslo xató bo‘lmaydi” [6;29]. Zero, shoira Anbar otinning Uvaysiy g‘azaliga bog‘lab yozgan taxmisi ham o‘z davrining murakkab ijtimoiy-ma’naviy sharoitida odob-axloq masalalarini ilgari suruvchi, insonning ma’naviy qiyofasini belgilovchi mezonlarni targ‘ib etuvchi badiiy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Anbar otinning “bukun” radifli mustaqil muxammasida shaxsiy hayot tajribasi, oilaviy munosabat va vasiyat mazmuni uyg‘unlashgan. Asarning bandlari yakunida takrorlanuvchi tarje’ misrasi kompozitsion yaxlitlikni ta’minlab, shoiraning ruhiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur muxammas shoiraning hayotiy tajribani bevosita badiiy ifodalashga asoslangan individual poetik yondashuvini namoyon etadi.

Shoira taxmisda Uvaysiy g‘azalining asosiy g‘oyasiga sodiq qolgan holda, uni takrorlash bilan cheklanmaydi. Har bir bandning dastlabki uch misrasida g‘azalda ilgari surilgan fikrning sabablarini, ijtimoiy ahamiyatini yoki axloqiy mazmunini kengroq yoritadi. Natijada Uvaysiyda ko‘proq **individual axloq va ruhiy komillik** masalasi yetakchi bo‘lsa, Anbar otinda bu g‘oya **ijtimoiy-ma’rifiy, tarbiyaviy va didaktik** yo‘nalishda rivojlantiriladi. Shoira adabni faqat shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat ravnaqi, ilm-ma’rifat, nutq madaniyati va insoniy munosabatlarning asosiy mezoni sifatida talqin etadi. Shu jihatdan mazkur taxmis Uvaysiy g‘azalining mazmunini takrorlamaydi, balki uni yangi davr ma’naviy ehtiyojlari va Anbar otinning dunyoqarashi asosida **ijodiy rivojlantirgan** asar sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анбар Отин. Шеърлар рисола. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 110 б.

2. Увайсий. Девон. Нашрга тайёрловчи Қаюмов А., Иброҳимова Э. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – 293 б.

3. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. –230.

4. Вадуд Маҳмуд.Танланган асарлар. Т.: Маънавият, 2007. –160 b.

5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 226 b.

6. Asqarov D. Amiriy va muxammasnavislik an’anasi. – T.: Tafakkur, 2025. –160.

7. Qobilova Z. Amiriyning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2018. №1. - B. 61-66

8. N. Jumaxo‘ja, Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. T., Noshir, 2019. – 432 b.

9. Қодирова М. XX аср ўзбек шоиралари ижодида инсон ва халқ тақдири. – Т.: Фан, 1977. – 184 б.

10. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 416 бет.

IN XIGYONNING “TILSIM VA YOLG‘ON” ROMANIDA SINTETIZM MASALASI

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Koreyashunoslik oliy maktabi erkin tadqiqotchisi
e-mail:feruza.abdullayeva.1997@mail.ru
ORCID 0009-0006-6572-8942
UDK 821.531:82-31

Annotatsiya. In Xigyonning “Tilsim va yolg‘on” romanida mif, afsona, eposga xos motiv va syujetlar qayta idrok etilgan, voqelik yangicha talqin qilingan. Romanda koreys xalqi madaniy tasavvurlari va e’tiqodi bilan bog‘liq shomonlik, buddaviylik, xalq og‘zaki ijodi, g‘arb, rus va yapon adabiyoti hamda mumtoz koreys romani asoschisi Kim Manjun va avtobiografik romanlar muallifi Pak Vanso ijodiga xos xususiyatlar sintezi kuzatiladi. Muallif roman matniga xalq afsonalari va miflarini kiritish orqali ulardagi axloqiy-tarbiyaviy masalalarga nazar tashlaydi. Bu afsonalarda adibaning ma’naviy-estetik qarashlari gavdalanadi. Pxesol adabiyotidagi hikoyalar syujetiga asoslangan yangi hikoyalarning kiritilishi asar qahramonlarining tabiatini, ichki olamini hamda ikki oila o‘rtasidagi ziddiyat mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: sintetizm, aka, uka, afsona, mif, shomonlik, buddaviylik, pxesol.

THE ISSUE OF SYNTHETISM IN IN HYGYON’S NOVEL " SECRETS AND LIES "

Abstract. In In Hygyon’s novel “Secrets and Lies”, motifs and plots characteristic of myth, legend and epic are reinterpreted and reality is given a new reading. The novel synthesizes features drawn from shamanism, Buddhism and folk oral tradition, from Western, Russian and Japanese literature and art, and from the work of Kim Man-jung, founder of the classical Korean novel, and Pak Wanso, author of autobiographical novels. By incorporating folk legends and myths, the author takes a deeper look at the moral and educational issues they embody. New stories based on plots of paeseol literature reveal the characters’ nature and inner worlds.
Key words: synthetism, elder brother, younger brother, legend, myth, shamanism, Buddhism, paeseol.

Kirish (Introduction). Tarixiy voqelikni kitobxon yodiga qayta solgan muallif, mumtoz davr koreys nasri, xususan, romanchilikda mavjud g‘ayritabiiy hodisalarga diqqatni qaratadi. Zero, “*...roman eposdan farqli tarzda, ideal o‘tmishni qayta so‘zlab berishga emas, alohida inson qismati orqali zamon va makonni ko‘rsatish, poetik tahlil va tadqiq etishga asoslanadi*” [7, B. 55]. Jumladan, romanda nomi K. harfi bilan berilgan qishloqda og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan “To‘rt aka-ukalar haqida afsona” keltiriladi. Afsonada keltirilgan voqealar Koryo sulolasining Inchjon qirolligi davrida sodir bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Afsona mahalliy uyezdga yangi amaldor kelishi bilan boshlanadi. Roman syujetiga yangi amaldor oldiga shu yerda anchadan beri istiqomat qilib kelayotgan qariya obrazining kiritilishi tasodif emas. Qariya obrazida afsonaning asl mazmun-mohiyati anglashiladi. Tashrif orqali muallif qariyaning hayotini uning monologi orqali berishga muvaffaq bo‘ladi:

“*Men bu yerdan taxminan o‘n li masofada joylashgan bozor hududidagi kichik mehmonxona egasiman. Qirq yoshga qadar befarzand o‘tdim, ammo, qarilik chog‘imda kimningdir inoyati bilan to‘rt o‘g‘il farzandlik bo‘ldim. Men ularni oxirgi nafasim yetgunga qadar voyaga yetkazdim, parvarish qildim, ovqatlantirdim, bunga Osmon va Zamin guvohdir. O‘g‘illarim juda ham serg‘ayrat va ko‘rkam yigitlar bo‘lib ulg‘ayishdi, ko‘zlarimni quvonch ko‘z yoshlari bir zum ham tark etmasdi. Men qachonlardir shunday bo‘lishi mumkinligini hatto, xayolimga ham keltirmagan edim! Ular birin-ketin noma’lum kasallik sabab omonatlarini topshirishdi, bor-yo‘g‘i bir necha kun ichida tirik jondan arvohga aylanishdi. Qanday qilib bu dunyoda bir odamning boshiga shuncha ko‘rgulik tushishi mumkin? Osmon xudosidan yuborilgan bundan ortiq jazo bormi? Atrofimni qorong‘ulik qoplab oldi, qalbim azobga to‘ldi, faqat o‘lim haqida o‘ylayman, mana shunday achchiq qismat sabab dono boshqaruvchiga murojaat qilaman*” [12, B. 12].

Koreys xalqi uchun ideal qahramonlardan biri – aka-ukalar obraziga zamonaviy

qiyofani singdira olgan yozuvchining maqsadi inson va jamiyat munosabatlarida kishilar ongining qanchalik tubanlashganini ko‘rsatishdir. Mahalliy uyezdga kelgan yangi amaldor – adolatli boshqaruvchi sifatida maydonga chiqadi. Amaldor buyrug‘iga ko‘ra, shaharni to‘rt tomondan qo‘riqlab turgan darvozalar nazorati kuchaytiriladi. Mumtoz davr koreys romanida kuzatilganidek, syujet chizig‘iga tashqi kuchlar ta’siri kiritiladi. Bu o‘rinda tashqi kuch – tong otishidan oldin nazoratga olingan darvozadan ko‘rinish bergan g‘ayrioddiy, qaddi-qomati kelishgan inson sifatida beriladi. Uyezd amaldori unga tavoze bilan ta’zim bajo keltirdi, so‘ng hurmat-ehtirom bilan so‘radi:

“*Siz, o‘zga olam vakili, gunohkorlarni jazolash uchun tashrif buyurgansiz. Ammo, nega, baxtsiz odamlarni o‘zingiz bilan birga olib ketmoqdasiz?”*

“*Gaplaringiz o‘rinli. Qariyaning uyi oldida choh qazishga buyruq bering*” [12, B. 12].

Ko‘rsatilgan joyda qazish ishlari amalga oshirildi, odamlar ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan manzaradan cho‘chib tushishdi. Qazilgan joyda suv pishqirib oqar, suv yuziga esa yigirma yil oldin o‘ldirilgan yosh to‘rt yigitning jasadi suzib chiqqan edi. Bir vaqtlar mehmonxonada to‘xtab o‘tish uchun tashrif buyurgan bu yigitlarni qariya avval tunagan, so‘ng o‘ldirib, jasadlarini suvga tashlab yuborgan edi. O‘zga olam vakilining so‘nggi so‘zi oradan qancha asr vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, K. qishlog‘i yoshlarini qo‘rquvga duchor qilardi:

“*Qotilni jazolash uchun ketma-ket dunyoga kelgan qariyaning to‘rtta o‘g‘li – o‘ldirilgan insonlarning arvohlaridir, mana qasos olish vaqti keldi*” [12, B. 12–13]

Romanda bu afsonaning keltirilishi, o‘zga olam vakilining so‘ng so‘zi kitobxonga hayajonli ta’sir ko‘rsatadi. Keltirilgan afsonaning roman voqealariga ta’siri kitobxonni qiziqtirmay qo‘ymaydi. Ma’lum bo‘ladiki, adiba romanida an’anaviy qolip – tashqi kuchlar, o‘zga olam vakilining yordami ko‘zga tashlanadi. Tipologik yaqinlik, ya’ni sintezga ko‘ra, azaliy diniy-falsafiy ta’limot tafakkuri yetakchilik qilmoqda.

Afsonada qariya uyining oldida qazilgan choh – K. qishlog‘ida suv ombori tarzida beriladi: “*Quyosh botgandan so‘ng quyi qishloq aholisi tashrif buyurishga qo‘rqadigan bu suv ombori otasi qurgan firma oldida joylashgan bulib, qurilish ishlari vaqtida baxtsiz hodisa sabab u yerga yosh ishchi yigit cho‘kib ketgan edi*” [12, B. 40]. Qishloqda bu suv ombori haqida turli mish-mishlar bilan birga, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuruvchi afsonalar ham ko‘p edi. Avval otasi, so‘ng buvasidan erta ajragan to‘ng‘ich amakining yolg‘iz Myonson ismli qizi ham shu yerga cho‘kib ketgan. Bu suv ombori bilan bog‘liq mish-mishlarga ko‘ra, kimdir qiz cho‘kib ketgan kechasi uning bir yosh yigit bilan iliq suhbat qurib o‘tgani, bu o‘sha cho‘kib ketgan yigit ekanligi, boshqa bir mish-mishga ko‘ra esa, shu kecha kimdir suv ombori tomonidan kelayotgan ayolning yig‘i tovushini eshitgani haqida gapirishgan. Ammo, vaqt o‘tgan sari, bu mish-mishlar aholini qiziqtirmay qo‘ydi.

Muallif Yonchjunning xotiralarida bir umrga muhrlanib qolgan suv ombori qariga cho‘kib ketgan Myonson haqidagi o‘ylarni eslatib o‘tadi. Bu xotiralar har doim suv detalida beriladi. Jumladan, “*...u vannaga o‘tirdi. Tanasini issiq suv qoplab olgan lahzada u beixtiyor ko‘zlarini yumdi hamda butun badani titrayotganini his qildi. Tirsaklarini vannaning ikki tomoniga osiltirib olgancha, jurnalni varaqladi, birdan uning nigohi qon supachasiga qaratildi. Quyuq sochlarga birin-ketin suvdan hosil bo‘lgan mayda sharchalar yopishardi hamda bu chakalakzordan o‘tib, yuqoriga ko‘tarilardi. Suvga botib turgan tanasi biroz holsiz tuyuldi, sochlari atrofiga to‘plangan sharchalar mayin chayqalardi. Bu uning ko‘z o‘ngida suvga cho‘kayotgan insonni yodga soldi. K. qishlog‘ini tark etgandan so‘ng u umuman dengizda suzmadi, chunki ko‘z oldidan suvga cho‘kayotgan odam qiyofasi ketmas edi. Har safar suvga qarasa, biroz ko‘kargan yuzlar, suv o‘tlariga o‘xshash sochlar bilan to‘silgan ko‘zlar unga tikilib qarab turardi*” [12, B. 146].

Muallif qahramon xotiralariga sirli tus berish, ba’zan imo-ishoralar, ba’zan sahna ortida ahamiyatsiz taassurot uyg‘otadigan oiladagi oddiy munosabatlarda zamonaviy

koreys romanchiligida yangi uslubiy yo‘nalishni ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan afsonada yosh yigitlar umriga qariya zomin bo‘lgan bo‘lsa, muallif qizning o‘zini suv omboriga tashlashiga amaki ayolining ko‘rsatgan tazyiqlarini roman syujetiga mohirona joylashtira olgan. Myonson iqtidorli qiz bo‘lib, juda ham nozik, kamgap edi. Amakining ayoli uni oilada ortiqcha og‘iz deb hisoblaydi. Qizning tabiatiga xos soddalik, ishonuvchanlik uning shaharga ammasining oldiga borganida yanada bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Yozuvchining K. qishlog‘i yoshlarini xat tashuvchi otga qiyoslashi ham shunda ko‘rinadi. Qishloqdan ketganlar ichida shahardan ortga qaytgan barmoq bilan sanarli yoshlardan biri Myonson bo‘lib, u zavodda uzoq vaqt ishlay olmadi. Otasi va buvasi o‘limidan so‘ng o‘qishni davom ettirishga moddiy imkoni bo‘lmagan Myonson maktabda olgan bilimi bilan chegaralanib qolgan edi. Biror sohani mukammal o‘rganish uchun o‘qishga imkoni yo‘q qizning raqqosalik iqtidori ham nihoyasiga yetdi. U yashash uchun zavodda ishlashga majbur edi. Ko‘rinadiki, romanda qishloq va shahar xronotopi yetakchilik qiladi.

Roman sarlavhasiga olib chiqilgan tilsim, uning roman voqealari borishida fosh bo‘lishi – roman tugunining sabablariga asos bo‘ladi. Yozuvchining mahorati, romandagi asosiy voqealar bayonini u bo‘lib o‘tadigan makonda aniq ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Koryo davridan kelayotgan bu afsona zamirida yashirin mazmun romanga kiritilgan K. qishlog‘ining tarixi, uning o‘tmishini, ajdodlar xatosini yodga soladi. Boshqa hududdan kelgan mehmonlar – yosh yigitlar umriga zomin bo‘lgan qariyaning xatosi sabab, qishloqqa qarg‘ish tekkanga o‘xshaydi. Shu bilan birga qishloq yoshlarining omadsizligi, tolesizligi ham xuddi afsonada sodir bo‘lgan voqealarga borib taqaladi. Buni qadimiy kitoblarda keltirilgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Manbalarda keltirilishicha, “*Chiroyli otlarning tasviri juda ham aniq ko‘rinib turadi, ajdarhoning esa sakkiz qanoti qayrilgan. Otlar ko‘p, ammo, ajdarho obrazini ko‘rish mushkul. Ustiga-ustak, uyezd kichkina bo‘lishi bilan birga, tog‘lari ham ko‘rimsiz*” [12, B. 11].

To‘rt tomoni ko‘rimsiz, pastak tog‘lar bilan o‘ralgan qishloqqa hech qachon ajdarho tashrif buyurmagan, shu sababli bu yerda faqat xat tashuvchi otlar dunyoga kelgan. Xat tashuvchi otlar – mazkur qishloq yoshlari obrazi. Yoshlar bu yerni tark etishganidan so‘ng, qaytib kelishni, hatto, qishloqdoshlarini yo‘qlab qo‘yishni ham istamaydilar. Ammo, ularning orasida o‘zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha olmayapganlar ham topiladi. Jumladan, Myonson obrazi bunga misol bo‘la oladi. Muallif qishloq yoshlarini ko‘zlari yoshga to‘la, ilojsiz xat tashuvchi otlarga qiyoslashi bejizga emas. Bu yerda milliy qahramonlar dunyoga kelmagan, kelmaydi ham. Inson ko‘ziga qishloq xuddi tashlandiq joy kabi ko‘rinadi. Pastak tog‘lar tasvirida yozuvchi yoshlarning o‘zlari tug‘ilib o‘sgan qishloqqa munosabatini yoritadi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Keltirilgan afsona roman kompozitsiyasining yaxlitligiga biroz putur yetkazgandek taassurot uyg‘otadi: “*Aslida, chinakam roman kundalik turmush ikir-chikirlari bilan qanoat tuyishi mumkin emas. Bunda u o‘zining ijtimoiy zalvori, ya’ni millat fikriy-hissiy qamrovini belgilash missiyasidan mahrum bo‘ladi*” [7, B. 34]. Shunday ekan, muallif koreys xalqining haqiqiy turmush tarzini haqqoniy bera olgan. Roman bosh qahramonlarining oila va jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatish, milliy o‘zlikni anglash mohiyatining ildizlarini moziydan turib ko‘rsata olgan adibani bugungi kundagi qondoshlarning o‘zaro munosabatlari, milliy qadriyat masalalari tashvishga soladi.

Romanning “Marhamatsiz bahor” bobida muallif sayohatchilar nigohi orqali mazkur qishloqqa nazar tashlaydi. Bu yerdan o‘tayogan sayohatchilarga mazkur maskan tashlandiq, yashash uchun noqulay, mahalliy aholisi g‘ururlanib ko‘rsatishiga arzugulik tabiati ham yo‘qdek taassurot uyg‘otadi: “*Yozda qurg‘oqchilik avj olsa-da, qishda haddan tashqari ko‘p qor yog‘adi – bunday muhitda xo‘jalik ishlari ham rivojlanmaydi*” [12, B. 7].

Yozuvchining muddaosi roman bosh qahramonlari aka-ukalarning ajdodlari qayerda makon tutishgan, degan savolga oydinlik kiritish ekanligi anglashiladi. Oila ajdodlaridan biri – Yorim 1700 yili o‘z oilasi bilan tinch va osuda hududni izlab, darbadar kezib yurib, mana shu K. qishlog‘ida qo‘nim topadi. Mana shu yerda u yangi avlod asoschisi bo‘lib qoldi. 1930 yili uning avlodi Chon Sonil oilasida to‘rtinchi o‘g‘il farzand dunyoga keldi.

Chon Sonil obrazida muallif 1930-1960-yillar oralig‘ida yashagan koreys xalqining umumlashma siymosini chizadi, murakkab taqdir egasi sabab oila boshiga kelgan kulfatlarni tasvirlaydi. U millatparvar sifatida vatan ozodligi uchun harakatlarda faol ishtirok etadi, shu sababli deyarli 2 yil umrini qamoqda o‘tkazadi. 1945 yillar vatan ozodlikka erishgach, xalq uni uyezd boshqaruvchisi etib sayladi. Ammo, mahalliy “sotqin” sabab u bu lavozimdan chetlashtirildi. Chon Sonilning to‘ng‘ich o‘g‘li ilmga tashna yoshlardan edi, ammo, kutilmaganda kasal bo‘ldi hamda olamdan o‘tdi. Oila boshiga ketma-ket yog‘ilayotgan fojialarda ularga azaldan raqib hisoblangan Chxve oilasi ekanligi ko‘rsatiladi. Roman syujetiga kiritilgan real voqealik bilan bog‘liq muammolar o‘tmishga nazar solishga, ajdodlar merosini o‘rganishga undaydi.

Romanda oila raqibi sifatida kiritilgan Chxve obrazi afsonada tilga olingan qariya obrazi prototipi hisoblanadi. Ammo, u afsonadagi qariya kabi o‘zining qora niyatlarini birdaniga amalga oshirmaydi. Uning Chon Sonil oilasini butunlay yo‘q qilishga qaratilgan xatti-harakatlari butun roman syujeti zamiriga singdirilgan. Chxve ajdodi Kvanxe qirolligi davrida uni mamlakatning janubiy hududlarini o‘rganish, ma’lumotlar olib kelish uchun jo‘natgan. Ammo, tasodifan, K. qishlog‘iga kelib qolgan Chxve ajdodi, shu yerda qo‘nim topgan. Oradan yillar o‘tib, Chxve shajarasi, ularning qilmishlari haqida mish-mishlar tarqaldi. Bu mish-mishlar Chon Sonil oilasi tomonidan ko‘p marotaba tilga olindi. Shu kundan e’tiboran ikki oila o‘rtasida dushmanlik yuzaga keldi. Muallif ikki oila shajarasini keltirib o‘tish orqali nasablar o‘rtasida yuzaga kelgan dushmanlik sabablarini ko‘rsatadi. Har ikki oila o‘zlari tug‘ilib o‘sgan maskanga nisbatan muhabbat hissini tuymaydi. Roman voqealari *tarix – mohiyat-oqibat* asosiga qurilgan bo‘lib, har bir davr o‘z haqiqati haqida so‘zlaydi.

Roman voqealarining *tarixi* ikki avlod vakillarining shajarasiga borib taqaladi. Ma’lumki, o‘rta asrlar koreys jamiyatida pxesol adabiyoti keng tarqalgan. Pxesol adabiyoti to‘plovchilari o‘z kitoblariga ma’lum bir hudud, uning geografik joylashuvidan tortib, adabiyot namunalari bilan birga hududning mashhur insonlari haqida ocherklarni ham kiritganlar. Chon Sonil oilasining kutubxonasida “Bayonlar va K. qishlog‘ining adabiy mehnatlari” risolasi mavjud. Risolada keltirilishicha, Chon Sonilning katta buvasi Chon Ikchjun (1819-1870) tomonidan “Simsan hikoyalari to‘plami” jamlangan: “*Bu yerda K. qishlog‘i aholisi tomonidan yozilgan kitoblarning deyarli barchasining nomlari keltirilgan. Shuningdek, qishloqqa tegishli barcha qaydlar keltirib o‘tilgan*” [12, B. 138].

Muallif pxesol to‘plovchilariga xos ravishda ish ko‘radi: kitobda mazkur davr mualliflarining nasl-nasabi, tug‘ilgan va olamdan o‘tgan sanasi, to‘rt-besh qatorda qisqa bayon, so‘ng muallif qalamiga mansub barcha asarlar ketma-ketlikda beriladi. Har bir ijodkorga tegishli she’rlar, kitoblarga sharhlar, xitoy yozuvi tartibiga amal qilib yozilmagan ocherklar, peyzaj, epigraflar, qurbonlik vaqtida o‘qilgan duolar, marosim matnlari, maqol, matallar, uy tomining bo‘g‘otiga yoziladigan qaydlar, o‘tgan insonlarning namunali xulq-atvorlari, faoliyati, xotiralar va h.k.

Muallif kitobxon e’tiborini kitobga kiritilgan ism-shariflarga qaratadi: Chxve Kinyon, Chxve Sangi, Yu Chonxvan, Chxve Inson, Chxve Insik, Chon Isop, Chxve Chxun, Cho Ixvan va h.k. Ismi-shariflari keltirib o‘tilganlarning barchasi avval to‘plangan “Simsan hikoyalari to‘plami”dan munosib o‘rin egallash bilan birga Chxve Byondo – Chxve ajdodi obro‘yini tiklash uchun “Sondanni oqlash” bo‘limini kiritganlar. “Simsan hikoyalari to‘plami”da Chon Sonilning katta buvasi og‘ir, bosiq, vazmin hamda

konfusiychilik tamoyillariga to‘liq amal qiluvchi shaxs sifatida kiritilgan. Ammo, katta buvaning raqiblari – jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealar, ijtimoiy hodisalar bo‘yicha qarama-qarshi fikrli Chxve Byondoning izdoshlari Chon Ikchjunning mualliflik huquqlariga nisbatan hurmatsizlik ko‘rsatdilar. Ustiga-ustak, ular muallif avlodiga tegishli bir shaxsning ijtimoiy tartiblarga ochiq-oydin qarshi chiqqanligi, ammo, unga nisbatan tegishli chora ko‘rilmaganligi, uning mazkur hududdan qochib ketganligi haqida ma’lumotlarni kiritganlar.

Roman voqealari *mohiyati* esa Chon oilasining bunga nisbatan bildirgan e’tirozida ko‘zga tashlanadi. Roman syujetiga kiritilgan tarixiy voqealar o‘rta asrlar koreys jamiyatida o‘ng va chap qanot vakillari o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatni yodga soladi. Chon oilasi obro‘sini to‘kishga muvaffaq bo‘lgan Chxve Byondoning izdoshlari to‘qigan yolg‘on safsata sabab Chon Inchjun kasallikka chalindi hamda olamdan o‘tdi. O‘z vaqtida kitobga kiritilgan bu safsataning yolg‘onligi isbotlanmadi. Shu sababli Chon Inchjuk qolgan umrini afsus va nadomatda o‘tkazdi. Chxve Byondo avlodi yetkazgan zarar va yolg‘onlarni oshkor etish Chon Sonil zimmasiga tushdi.

Har ikki avlod vakillarining tashlandiq, huvillagan, ammo, tinch joyda qo‘nim topishi bejizga emas. Romanda K. qishlog‘i orqali Chon Sonil oilasi, uning to‘rt o‘g‘li taqdiri, kichik o‘g‘ilning ikki farzandi – aka-ukalar qismati tasvirlangan bo‘lsa, Chxve oilasining dushmanlik harakatlari butun roman syujetiga singdirib yuborilgan. To‘rt tomoni pastak tog‘lar bilan o‘ralgan, tog‘lar ham xuddi yalang‘och, quyosh taftidan qizargan holda turishi – qishloqning qarg‘ish tekkan hudud ekanligini ko‘rsatadi. Ammo, qishloq boshqa hududlarni bog‘lab turuvchi markaziy nuqta bo‘lganligi sababli, bu yerni aylanib o‘tishning iloji yo‘q. Roman avvalida keltirilgan afsonadagi uyezd – K. qishlog‘i ekanligi anglashiladi.

Chon Sonilning vujudidagi qasos zurriyodlari – to‘rt o‘g‘ilning qismatiga tushdi. U o‘g‘illarining buvasi kabi iqtidorli bo‘lishi, adabiyotga mehr qo‘yishi, yaxshi adabiyotshunos sifatida tarixiy traktatga tuzatishlar kiritishini istadi. Bu umidlar puchga chiqdi, bu sarobga aylangan istak to‘ng‘ich o‘g‘ilning bevaqt olamdan o‘tishiga sabab bo‘ldi, aslida uni o‘z joniga qasd qilishga majbur qilgan edilar. Qolgan farzandlarining ilmga intilmasligi, zamon bilan hamnafas tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan harakatlari sabab Chon Sonilning hafsalasi pir bo‘ldi. Ammo, kichik o‘g‘ilning ikki farzandi – Yonchjun va Yonu soviy boshlagan, qorong‘ulik qa’riga ko‘milgan qasos o‘tini qayta alanga oldirdi.

Romandagi *oqibat* Chon Sonil va Chxve avlodlari o‘rtasida yuzaga kelgan dushmanlik munosabatlari kichik o‘g‘il Chonukning T. shahriga kelishida yanada chuqurlashtiriladi. Chxve oilasining yolg‘iz qizi boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi kasbini egalladi. Ikki avlod o‘rtasidagi ziddiyat, shuningdek, Chonuk o‘z oilasi hamda ikki o‘g‘il farzandi bo‘lishiga qaramay, Chxve oilasining yolg‘iz qiziga yashirin nigoh tashlab yurgan, qalb amriga qarshi bora olmagan. Tasodif ularni T. shahrida uchrashtirdi. Chonukning Chxve oilasiga nisbatan qonida jo‘sh urayotgan azaliy adovat qizning ma’suma, mehrli qarashlari oldida taslim bo‘ldi. Chonuk muhabbatsiz tutqin hayotga qarshi, aqlga bo‘ysunmagan, qalb amri oldida bosh egdi. Mana shu lavhadan boshlab romanning tilsimi – tugun yuzaga keladi. Ikki avlod o‘rtasidagi chigal, jumboqli rishtalar chuqurlashdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yozuvchi roman syujetiga kiritilgan har bir voqeaning kelib chiqishi sabablarini tashqaridan axtarmaydi, balki, qahramonlar yashab turgan muhitdan, uning ehtiyojlaridan kelib chiqib ko‘rsatadi. In Xigyonning badiiy mahorati shundaki, u o‘zi yaratgan aka-ukalar obraziga, ularning xatti-harakatlariga yon bosmaydi, ularni qoralamaydi, oqlamaydi ham. U yaratgan obrazlar o‘zgarayotgan ijtimoy-ma’naviy hayotda o‘z o‘rnini topishga, yaxshi yashashga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари (рус тилидан У. Жўрақулов таржимаси). – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 280 б.

2. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Фан ва технология, 2006. – 164 б.

3. Мирвалиев С. Роман ва замон. –Т.: Фан, 1983. – 56 б.

4. Иванова В.И. Новая проза Кореи. – М., Наука. 1987. – 298 с.

5. Ко Ен Чоль. Литература Кореи. – Казань. 2021. – 332 с.

6. Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. д-ри дисс. – Т,. 2012. – 257 б.

7. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Тошкент.: “Nurafshon business”. 2021. – 336 б.

8. Murodova D.B. Pak Vanso romanlarida millat muammosining badiiy talqini. Filol. fanl. b-cha fals. d-ri. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent. 2023. –150 b.

9. Ёқубов И. Роман фаол жанр сифатида // Илм сарчашмалари (УрДУ), 2001. – №1. – Б. 38-40.

10. Ёқубов И. Романий тафаккур ва услуб жилоси // Илм сарчашмалари (УрДУ), 2004. – №5. – Б. 37-38.

11. Ёқубов И. Ўзбек романининг маънавий-руҳий асослари // Шарқ юлдузи, 2011. – №4. – Б. 109-119.

12. 은희경. 비밀과 거짓말.

ERNEST XEMINGUEY IJODIDA REALIZM VA ROMANTIZM SINTEZI

Imamova Gulrux Latifovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Science ID: MBX-0426-0145
imamovagulrux@gmail.com
ORCID 0009-0004-2270-0005
UDK 821.111(73).09

Annotatsiya. Maqolada Ernest Xeminguey badiiy uslubining estetik xususiyatlari realizm va romantizmning o‘zaro uyg‘unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslikda yozuvchi ijodi ko‘pincha realizm yoki modernizm doirasida talqin qilinib, romantik-falsafiy qatlam mustaqil tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan. Tadqiqot muammosi tashqi soddalik va ichki murakkablikning bitta matnda qanday birlashishini aniqlashdan iborat. Qiyosiy-tipologik, struktural-semiotik va germenevtik usullar qo‘llangan; empirik baza sifatida besh asar va ikki hikoya tanlangan. “Aysberg nazariyasi”, lakonizm, qisqa dialog, detalning semantik yuklamasi va subtekstning ikki qatlamni bog‘lashdagi vazifasi tizimlashtirilgan. Xeminguey matnida realistik tasvir tashqi shakl, romantik-falsafiy mazmun esa ichki semantik energiya vazifasini bajaradi. Muallif “ko‘rinadigan realizm va yashirin romantizm” modelini ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar: Ernest Xeminguey, realizm, romantizm, badiiy uslub, “aysberg nazariyasi”, subtekst, “yo‘qotilgan avlod”, psixologik realizm, lakonizm.

THE SYNTHESIS OF REALISM AND ROMANTICISM IN ERNEST HEMINGWAY’S WORKS

Abstract. The article analyses the aesthetic features of Ernest Hemingway’s literary style in terms of the interaction between realism and romanticism. Scholarship usually interprets the writer within realism or modernism, while the romantic and philosophical layer of his texts remains insufficiently studied. The research problem is to identify how external simplicity and internal complexity are combined within a single text. Comparative-typological, structural-semiotic and hermeneutic methods are applied to five major works and two short stories. Realistic depiction functions as the external form, romantic and philosophical meaning as internal semantic energy. A model of “visible realism and hidden romanticism” is thus proposed.

Key words: Ernest Hemingway, realism, romanticism, literary style, Iceberg Theory, subtext, Lost Generation, psychological realism, laconic narration.

Kirish. XX asr jahon adabiyotida Ernest Xeminguey o‘ziga xos badiiy uslub va estetik qarashlarga ega ijodkor sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlarida hayotiy voqelikning aniq, ixcham va ortiqcha bezaklardan xoli tasviri inson ruhiyatining murakkab jarayonlari, ma’naviy tanlov va mavjudlik muammolari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli Xeminguey ijodini faqat realizm yoki faqat modernizm doirasida talqin qilish uning badiiy olamining ko‘p qatlamli tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi.

Yozuvchi uslubining o‘ziga xosligi tashqi soddalik bilan ichki murakkablik, obyektiv tasvir bilan yashirin subyektiv ma’no, konkret detal bilan umumlashgan falsafiy mazmun o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladi.

Uning dastlabki hikoyalaridan boshlab urush, yolg‘izlik, yo‘qotish, qo‘rquv, muhabbat va insonning o‘z qadr-qimmatini saqlab qolish muammolari yetakchi mavzulardan biriga aylandi. “Yo‘qotilgan avlod” tushunchasi bilan bog‘liq ruhiy begonalashuv Xeminguey qahramonlarining tashqi sokinligi va ichki iztiroblari o‘rtasidagi ziddiyatda yaqqol ko‘rinadi.

Tadqiqot muammosi quyidagicha belgilanadi: Xeminguey matnidagi realistik aniqlik va romantik-falsafiy umumlashma bir-birini istisno etuvchi ikki tamoyil emas, balki yagona estetik tizimning ikki qatlami sifatida qanday ishlaydi? Mavzuning tanlanishiga asos — mazkur savolga tizimli javob beruvchi maxsus tadqiqotning o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud emasligi.

Tadqiqotning maqsadi — Xeminguey badiiy uslubidagi realizm va romantizm sintezining mexanizmini aniqlash. Maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi: yozuvchi uslubidagi realistik tasvir vositalarini ajratish; romantik-falsafiy qatlamning matndagi ko‘rinishlarini belgilash; ikki qatlamni bog‘lovchi uslubiy vositalarni tizimlashtirish; “ko‘rinadigan realizm — yashirin romantizm” modelini asoslash.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati XX asr Amerika prozasini tahlil qilishning nazariy asosini kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa oliy ta’lim muassasalarida “Jahon adabiyoti” va “Adabiyot nazariyasi” fanlari bo‘yicha o‘quv materiallarini boyitish imkoniyati bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xeminguey ijodi jahon adabiyotshunosligida yetmish yildan ortiq vaqt davomida o‘rganib kelinmoqda. K. Beykerning tadqiqotida yozuvchi uslubi badiiy mahorat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi va ixchamlik tamoyili tasodifiy hodisa emas, balki ongli estetik tanlov sifatida izohlanadi [1, 4-b].

F. Yang tadqiqotida qahramonlarning ruhiy holati urush jarohati tushunchasi orqali izohlanadi [12, 31-bet]]. Bu yondashuv Xeminguey psixologizmini biografik omil bilan bog‘laydi, ammo matnning uslubiy tizimini ikkinchi darajali masala sifatida qoldiradi. Natijada uslub tahlili biografiya tahliliga bo‘ysundiriladi.

J. Benson tahriridagi to‘plam va P. Smitning qo‘llanmasi yozuvchi hikoyalarini matn darajasida — detal, dialog va kompozitsiya jihatidan tahlil qiladi [2, 11-bet]. Ushbu ishlarda subtekst hodisasi batafsil o‘rganilgan. Biroq tahlil asosan hikoya janri doirasi bilan cheklangan va yirik asarlarga tizimli tarzda ko‘chirilmagan.

Rus adabiyotshunosligida I. Kashkin Xeminguey prozasini realizm doirasida talqin qilgan va yozuvchining lakonizmini ijtimoiy voqelikni aks ettirish usuli sifatida baholagan [14, 91-bet]. B. Gilenson esa yozuvchini “yo‘qotilgan avlod” adabiyoti kontekstida ko‘rib chiqadi [13, 74-bet]. Har ikki yondashuvda ham romantik qatlam mustaqil tahlil obyekti sifatida ajratilmaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida M. Xolbekovning ishlarida XX asr modern adabiyoti manzarasi umumiy tarzda yoritilgan va Xeminguey uslubi shu kontekstda tilga olinadi [15, 91-bet]. Yozuvchi asarlarining o‘zbek tilidagi tarjimalari mavjud bo‘lsa-da, ularning uslubiy tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar soni chegaralangan.

Adabiyotlar tahlili quyidagi bo‘shliqni ko‘rsatadi: mavjud tadqiqotlarda realizm va romantizm ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi yoki ulardan biri yetakchi tamoyil deb qaraladi. Ikki tamoyilning bitta matn ichida qanday mexanizm asosida birlashishi masalasi ochiq qolgan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan [11, 5-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat tahliliga asoslanadi va matn tahlili strategiyasidan foydalanadi. Empirik baza sifatida yozuvchining besh yirik asari — “Chol va dengiz”, “Alvido, qurol”, “Bong kimga chalinmoqda”, “Va, quyosh chiqaveradi”, “Bizning davrimizda” — hamda “Big Two-Hearted River” va “Yengilmagan” hikoyalari tanlandi.

Manbalarni tanlash uch mezon asosida amalga oshirildi: asarda urush yoki sinov vaziyatining mavjudligi; qahramonning axloqiy tanlov oldida turishi; matnda tabiat tasvirining semantik vazifa bajarishi. Ushbu mezonlarga javob bermagan asarlar tahlil doirasidan chiqarildi.

Tahlil uch usul asosida olib borildi. Qiyosiy-tipologik usul realistik va romantik unsurlarni asarlar kesimida solishtirish uchun qo‘llanildi. Struktural-semiotik usul detal, dialog va tabiat tasvirining belgi sifatidagi vazifasini aniqlash imkonini berdi. Germenevtik usul esa subtekst va aytilmagan ma’nolarni talqin qilishga xizmat qildi.

Tahlil to‘rt bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda matnlardan realistik tasvir birliklari — kasbiy harakat, makon, vaqt va predmet tavsifi — ajratildi. Ikkinchi bosqichda qahramonning axloqiy tanlovi bilan bog‘liq epizodlar belgilandi. Uchinchi bosqichda har bir birlikning matndagi ikkinchi ma’nosi germenevtik tahlil orqali aniqlandi. To‘rtinchi bosqichda olingan natijalar jadvallar shaklida tizimlashtirildi.

Tadqiqot etikasi talablariga muvofiq barcha manbalar asl matn bo‘yicha keltirildi, tarjima matnlaridan foydalanilganda asl nusxa bilan qiyoslandi. Tadqiqotda inson

ishtirokchilari jalb qilinmagan, shu sababli qo‘shimcha ruxsatnoma talab etilmadi.

Natijalar va muhokama. Xeminguey badiiy uslubining muhim belgilaridan biri realistik aniqlikdir. Yozuvchi voqealarni ortiqcha dramatizatsiya qilmaydi, kundalik hayot tafsilotlari, kasbiy faoliyat, makon va vaqtni konkret detallar orqali ifodalaydi. Baliq ovlash, ov qilish yoki urushdagi harakatlar tasvirida texnik aniqlik va izchillik kuzatiladi. Bunday usul voqealarning ishonchliligini oshirib, matnga hujjatli tus beradi.

Shu bilan birga, Xeminguey realizmi faqat tashqi voqelikni qayd etish bilan cheklanmaydi. Qahramonlarning ruhiy holati ko‘pincha bevosita izohlanmaydi, balki xatti-harakat, jimlik, qisqa dialog va predmetlar orqali bilvosita ifodalanadi.

“Big Two-Hearted River” hikoyasi bunga yorqin misoldir. Asarda urushdan qaytgan qahramonning ruhiy jarohati ochiq tarzda izohlanmasa-da, uning xatti-harakatlari, tabiat qo‘ynidagi yolg‘izligi va kundalik mashg‘ulotlarga berilishi ichki iztirobni anglatadi. Urush so‘zining bevosita tilga olinmasligi mazmunni kamaytirmaydi; aksincha, o‘quvchini matn ortidagi ma’noni izlashga undaydi.

Yozuvchining “aysberg nazariyasi” aynan shu uslubiy tamoyilni tushuntirishga xizmat qiladi [4, 101-bet]. Matnda bevosita ko‘rsatilgan voqealar, predmetlar va dialoglar mazmunning faqat ko‘rinadigan qismini tashkil etadi; asosiy hissiy va falsafiy yuk esa aytilmagan ma’nolar, sukut va subtekst orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli Xeminguey matnida har bir detal funksional va semantik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari uslubiy vositalarning ikki qatlamdagi vazifasini ajratish imkonini berdi. Ular 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Xeminguey uslubidagi vositalarning realistik va romantik qatlamdagi vazifasi

Uslubiy vosita	Realistik vazifasi	Romantik-falsafiy vazifasi	Asar misoli
Konkret detal	Voqelikni aniq qayd etish	Ramziy ma’no tashuvchi belgiga aylanish	“Chol va dengiz” — dengiz
Qisqa dialog	Nutqning tabiiyligini ta’minlash	Aytilmagan ziddiyatni ochish	“Va, quyosh chiqaveradi”
Sukut va subtekst	Ortiqcha izohdan voz kechish	Hissiy yukni o‘quvchiga o‘tkazish	“Big Two-Hearted River”
Kasbiy harakat tasviri	Hujjatli ishonchlilik berish	Sinov va qarshilik ramzini yaratish	“Yengilmagan”
Tabiat tasviri	Makon va vaqtni belgilash	Qahramon ruhiyatini ochish	“Alvido, qurol”

Manba: muallif ishlanmasi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, har bir uslubiy vosita bir vaqtning o‘zida ikki vazifani bajaradi. Tashqi jihatdan oddiy predmet yoki harakat muayyan ramziy ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan, “Chol va dengiz” qissasidagi baliq ovlash oddiy tirikchilik jarayoni sifatida tasvirlansa-da, u insonning hayot sinovlari qarshisidagi kurashini anglatadi; dengiz esa taqdir, tabiat va inson mavjudligining murakkab maydoni sifatida talqin qilinishi mumkin [5, 213-bet].

Xeminguey ijodidagi romantik tendensiyalar, avvalo, insonning ichki yuksakligi va ma’naviy qarshilik kuchida namoyon bo‘ladi. Uning qahramonlari ko‘pincha tashqi jihatdan mag‘lubiyatga uchraydi, biroq ichki jihatdan o‘zligini saqlab qoladi. “Chol va dengiz” qissasidagi Santyago obrazi ana shu konsepsiyaning yorqin namunasidir [7, 282-bet]. Uning jismoniy kuchi susayadi, mehnati kutilgan natijani bermaydi, biroq qahramon kurashdan voz kechmaydi.

Shunday qilib, tashqi mag‘lubiyat ichki g‘alabaga aylanadi. Bu holat insonning qadr-qimmati natija bilan emas, sinov qarshisidagi munosabati bilan belgilanadi degan falsafiy xulosani yuzaga chiqaradi. Aynan shu nuqtada realistik voqea romantik mazmun kasb etadi.

“Yengilmagan” hikoyasidagi matador obrazi ham shu g‘oyani davom ettiradi. Qarilik va jismoniy zaiflikka qaramay, qahramon o‘z faoliyatini davom ettirishga intiladi. Uning kurashi faqat kasbiy faoliyat uchun emas, balki o‘zining insoniy qadrini saqlab

qolish uchun olib boriladi.

Xeminguey qahramonlarining bunday xususiyati “kod qahramoni” tushunchasi bilan izohlanishi mumkin: tashqi dunyo beqaror bo‘lsa ham, qahramon o‘zining ichki axloqiy mezonlariga sodiq qoladi. Dadillik, halollik, sabr, o‘zini tuta bilish va mag‘lubiyatni munosib qabul qilish uning ma’naviy kodeksini tashkil etadi. Ushbu kodeks yozuvchi tomonidan bevosita e’lon qilinmaydi, balki qahramon xatti-harakatlaridan kelib chiqadi.

“Va, quyosh chiqaveradi” romanida “yo‘qotilgan avlod” ruhiyati Jeyk Barns obrazi orqali ifodalanadi [8, 73-bet]. Urushdan keyingi avlod vakillari tashqi tomondan hayot kechirayotgan bo‘lsalar-da, ichki jihatdan ma’naviy bo‘shliq va begonalashuvni boshdan kechiradi. Biroq Xeminguey bu holatni balandparvoz izohlar bilan emas, kundalik hayot, dialoglar va qahramonlarning xatti-harakatlari orqali ko‘rsatadi.

“Alvido, qurol” va “Bong kimga chalinmoqda” asarlarida urush mavzusi insoniy burch, muhabbat va ma’naviy tanlov muammolari bilan bog‘lanadi [3, 5-bet]. “Bong kimga chalinmoqda” romanidagi Robert Jordan obrazi shaxsiy hayot va ijtimoiy burch o‘rtasidagi murakkab tanlov oldida qoladi. Shu tariqa, urushning real manzarasi ortida inson hayotining mazmuni, burch va fidoyilik haqidagi falsafiy savollar turadi.

Xeminguey ijodida tabiat tasviri ham realizm va romantizm o‘rtasidagi bog‘lovchi vositalardan biridir. Tabiat aniq va konkret tasvirlanadi, biroq u oddiy fon vazifasini bajarmaydi. Daryo, dengiz, tog‘ yoki o‘rmon qahramonning ruhiy holatini ochuvchi semantik belgiga aylanadi.

Yozuvchi uslubining yana bir muhim jihati — dialoglarning qisqaligi va tashqi soddaligidir. Qahramonlar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini bevosita ifodalamaydi. Oddiy suhbatlar ostida murakkab munosabatlar, yashirin konfliktlar va aytilmagan fikrlar mavjud bo‘ladi.

Tahlil natijalari asarlar kesimida umumlashtirilganda, ikki qatlamning nisbati barqaror tarzda takrorlanishi aniqlandi. Ushbu nisbat 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

“Ko‘rinadigan realizm — yashirin romantizm” modelining asarlar kesimidagi namoyon bo‘lishi

Asar	Ko‘rinadigan qatlam (voqea)	Yashirin qatlam (ma’no)
“Chol va dengiz”	Baliq ovlash va o‘ljani yo‘qotish	Sinov qarshisida insoniy qadr-qimmatni saqlash
“Va, quyosh chiqaveradi”	Sayohat, suhbat, kundalik hayot	Avlodning ma’naviy bo‘shlig‘i va o‘zlikni izlash
“Alvido, qurol”	Urush va chekinish tasviri	Muhabbat va yo‘qotishning muqarrarligi
“Bong kimga chalinmoqda”	Harbiy topshiriqni bajarish	Shaxsiy tanlov va ijtimoiy burch ziddiyati
“Big Two-Hearted River”	Baliq ovi va lager qurish	Urush jarohatini bosib o‘tishga urinish

Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadval ma’lumotlari Xeminguey ijodidagi realizm va romantizmni bir-biriga qarama-qarshi estetik hodisalar sifatida emas, balki yagona badiiy tizimning ikki qatlami sifatida ko‘rish imkonini beradi. Realizm tashqi voqelikni, aniq detalni, konkret harakatni va hayotiy muhitni beradi; romantik-falsafiy qatlam esa ushbu voqelik ortidagi ma’no, insoniy ideal, ichki erkinlik va ma’naviy qarshilikni ochib beradi.

Shu nuqtayi nazardan, “ko‘rinadigan realizm — yashirin romantizm” modeli Xeminguey badiiy uslubining konseptual xususiyati sifatida taklif etiladi. Modelning mohiyati shundaki, yozuvchi voqelikni maksimal darajada sodda va aniq tasvirlagan sari uning ichki falsafiy mazmuni kuchayadi. Agar matnda barcha his-tuyg‘ular va g‘oyalar bevosita izohlansa, o‘quvchining interpretativ faoliyati cheklanar edi [6, 93-bet].

Xeminguey esa sukunat, detal, qisqa dialog va subtekst orqali o‘quvchini badiiy ma’noni yaratish jarayoniga jalb qiladi. Demak, uning realizmi romantik mazmunni

yashiruvchi tashqi shakl, romantik qatlam esa realistik tasvirning ichki semantik energiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu sintez ayniqsa mag‘lubiyat va g‘alaba dialektikasida yaqqol ko‘rinadi. Santyago, Jeyk Barns, Robert Jordan va boshqa qahramonlar taqdirida ushbu tamoyil turli shakllarda takrorlanadi. Ularning kurashi individual hayotiy vaziyatdan umumiy insoniy tajriba darajasiga ko‘tariladi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ernest Xeminguey badiiy uslubining o‘ziga xosligi realizm va romantizmning dialektik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi tashqi voqelikni aniq, ixcham va obyektiv tasvirlash orqali realistik qatlamni yaratadi. Biroq ushbu soddalik ostida insonning ruhiy kechinmalari, ma’naviy tanlovi, yolg‘izligi, burchi va mavjudlik muammolari yashiringan.

Tadqiqot boshida qo‘yilgan savol o‘z javobini topdi: ikki tamoyilni birlashtiruvchi mexanizm vazifasini “aysberg nazariyasi” bajaradi. Uslubiy vositalarning ikki qatlamdagi vazifasi 1-jadvalda, modelning asarlar kesimidagi namoyon bo‘lishi 2-jadvalda tizimlashtirildi.

Xeminguey qahramonlari ko‘pincha tashqi sharoitga ko‘ra mag‘lub bo‘lsa-da, ichki jihatdan yengilmaydi. Ularning qadr-qimmati kurashni davom ettirish, o‘z axloqiy mezonlariga sodiq qolish va insoniyligini saqlash orqali namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Ernest Xeminguey ijodini “ko‘rinadigan realizm — yashirin romantizm” modeli asosida talqin qilish uning badiiy metodining asosiy xususiyatlarini yaxlit holda anglash imkonini beradi. Realizm uning asarlarida voqelikning tashqi shaklini belgilasa, romantizm ushbu voqelikning ichki falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining “Jahon adabiyoti” fani doirasida Xeminguey ijodini o‘rganishda “ko‘rinadigan realizm — yashirin romantizm” modelini amaliy tahlil vositasi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

2. Yozuvchi hikoyalarining o‘zbek tilidagi tarjimalarini subtekstning saqlanishi mezoni bo‘yicha qayta baholash tavsiya etiladi.

3. Keyingi tadqiqotlarda mazkur model o‘zbek prozasidagi lakonik uslub, xususan Abdulla Qahhor hikoyalari bilan qiyosiy tarzda o‘rganilishi mumkin.

4. Adabiyot nazariyasi kurslarida subtekst tushunchasini nazariy ta’rif bilan emas, matn ustida ishlash mashg‘ulotlari orqali o‘qitish samaraliroq natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, C. (1952). Hemingway: The writer as artist. Princeton University Press. (322 pp.)
2. Benson, J. J. (Ed.). (1990). New critical approaches to the short stories of Ernest Hemingway. Duke University Press. (≈530 pp.)
3. Hemingway, E. (1929). A farewell to arms. Charles Scribner’s Sons. (355 pp.)
4. Hemingway, E. (1932). Death in the afternoon. Charles Scribner’s Sons. (517 pp.)
5. Hemingway, E. (1940). For whom the bell tolls. Charles Scribner’s Sons. (471 pp.)
6. Hemingway, E. (1925). In our time. Boni & Liveright. (214 pp.)
7. Hemingway, E. (1952). The old man and the sea. Charles Scribner’s Sons. (140 pp.)
8. Hemingway, E. (1926). The sun also rises. Charles Scribner’s Sons. (247 pp.)
9. Hemingway, E. (1937). To have and have not. Charles Scribner’s Sons. (262 pp.)
10. Meyers, J. (1985). Hemingway: A biography. Harper & Row. (644 pp.)
11. Smith, P. (1989). A reader’s guide to the short stories of Ernest Hemingway. G.K. Hall. (407 pp.)
12. Young, P. (1966). Ernest Hemingway: A reconsideration. Pennsylvania State University Press. (297 pp.)
13. Гиленсон, Б. А. (2003). История литературы США. Academia. (стр 433).

SOME ASPECTS OF TRANSLATION IN POETRY: THE CASE OF ROBERT FROST'S POEMS

Maftuna Tohirovna Hamdamova
1st-Year Master's Degree Student,
Karshi State University
maftunahamdamova1994@gmail.com
ORCID 0009-0006-7420-0656
UDK 820(73)-1(021)

Abstract. Poetry translation is one of the most complex fields of translation studies because it involves the transfer of linguistic form, aesthetic value, and cultural meaning. This study examines figurative language in selected poems by Robert Frost and explores the challenges of translating poetic meaning across languages and cultures. Using a qualitative descriptive method, the research identifies symbolism, repetition, metaphor, personification, paradox, simile, and hyperbole as major stylistic devices. The findings show that symbolism and repetition are the most frequently used elements in Frost's poetry. The study emphasizes preserving semantic meaning, artistic effect, emotional impact, and cultural significance in poetry translation.

Key words: poetry translation, figurative language, Robert Frost, symbolism, repetition, metaphor, stylistic devices, literary translation.

SHE'RIYATDA TARJIMANING AYRIM JIHATLARI: ROBERT FROST SHE'RLARI MISOLIDA

Annotatsiya. She'r tarjimasi tarjimashunoslikning eng murakkab sohalaridan biri bo'lib, u til shakli, estetik qiymat va madaniy ma'noni bir tildan boshqasiga o'tkazishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot Robert Frostning tanlangan she'rlaridagi badiiy tasvir vositalarini tahlil qiladi hamda she'riy ma'noni turli til va madaniyatlarda tarjima qilish muammolarini o'rganadi. Sifatiy-tavsifiy usul asosida ramziylik, takror, metafora, jonlantirish, paradoks, o'xshatish va mubolag'a asosiy uslubiy vositalar sifatida aniqlandi. Natijalar Robert Frost she'riyatida ramziylik va takror eng ko'p qo'llanilishini ko'rsatdi. Tadqiqot she'r tarjimasida ma'no, badiiy ta'sir, hissiy ta'sirchanlik va madaniy ahamiyatni saqlash muhimligini alohida ta'kidlaydi. Samarali she'r tarjimasi tarjimondan lingvistik kompetensiya, madaniy xabardorlik va adabiy sezgirlikni talab etadi.

Kalit so'zlar: she'r tarjimasi, badiiy tasvir vositalari, Robert Frost, ramziylik, takror, metafora, uslubiy vositalar, badiiy tarjima.

Introduction. Translation serves as a bridge between languages and cultures, enabling literary works to reach wider audiences and gain international recognition [1]. Among various literary genres, poetry remains one of the most difficult forms to translate because it combines linguistic, aesthetic, cultural, and emotional elements within a highly condensed structure [2]. Unlike prose, poetry relies heavily on rhythm, sound patterns, imagery, symbolism, and figurative language, all of which contribute to its artistic value.

The translation of poetry has long attracted the attention of scholars in translation studies. Many researchers argue that poetic translation should not be limited to the transfer of lexical meaning but should also preserve the artistic and emotional impact of the original text [3]. Consequently, translators face the challenge of balancing semantic accuracy with stylistic and cultural equivalence.

Among American poets, Robert Frost occupies a significant place due to his distinctive poetic style and symbolic use of natural imagery [4]. Although his language appears simple and accessible, his poems often contain complex philosophical ideas and multiple layers of meaning. Frost's works such as The Road Not Taken, Fire and Ice, Mending Wall, and Stopping by Woods on a Snowy Evening continue to attract literary scholars because of their universal themes and symbolic depth [5].

This study aims to analyze the figurative language used in selected poems by Robert Frost and to examine the challenges associated with translating these stylistic devices into other languages. Particular attention is paid to symbolism, metaphor, repetition, personification, paradox, simile, and hyperbole.

Literature Review. Poetry translation has been discussed extensively in translation theory. According to Newmark, literary translation differs from other forms of

translation because it requires attention to both meaning and artistic expression [2]. Baker emphasizes that translators must consider linguistic and cultural factors when transferring literary texts from one language into another [1].

Bassnett argues that poetry translation involves the recreation of the source text rather than simple linguistic substitution [6]. Similarly, Lefevere notes that poetry translators often adapt formal and stylistic features to achieve equivalent effects in the target language [7].

Figurative language plays a central role in poetic discourse. Leech defines figurative language as the use of linguistic expressions whose meanings extend beyond literal interpretation [8]. Metaphors, symbols, similes, and personification contribute significantly to the aesthetic quality of poetry and often present challenges for translators.

Several scholars have examined Robert Frost's poetic style. Thompson identifies symbolism as one of the dominant characteristics of Frost's poetry [9]. Parini notes that Frost frequently employs rural landscapes and natural objects as symbols representing broader human experiences [10]. Previous studies suggest that understanding symbolic meaning is essential for accurate interpretation and translation of Frost's works.

Materials and Methods. This study employs a qualitative descriptive research design. The corpus consists of nine selected poems written by Robert Frost, including The Road Not Taken, Fire and Ice, Mending Wall, Stopping by Woods on a Snowy Evening, Birches, After Apple-Picking, Acquainted with the Night, Nothing Gold Can Stay, and Desert Places.

Data collection was conducted through close textual reading and identification of figurative language. The selected examples were classified according to their stylistic categories, including symbolism, metaphor, repetition, personification, paradox, simile, and hyperbole. The analysis focused on both literary interpretation and translation implications.

Results and Discussion.

1. Symbolism in Frost's Poetry

The analysis indicates that symbolism is the most dominant stylistic device in Frost's poems. In The Road Not Taken, the two roads symbolize life choices and decision-making processes [5]. Although the poem appears to describe a traveler in a forest, the symbolic meaning extends to human experiences and personal responsibility.

From a translation perspective, preserving symbolic meaning is essential. A literal translation may successfully reproduce the lexical meaning of the road but fail to communicate its philosophical implications.

2. Repetition as a Stylistic Device

Repetition frequently occurs in Frost's poetry and contributes to thematic emphasis. In Stopping by Woods on a Snowy Evening, the repeated line "And miles to go before I sleep" reinforces the speaker's obligations and responsibilities [4].

Translators must preserve both semantic meaning and rhythmic effect when dealing with repetition. Omitting repeated structures may weaken the emotional impact of the poem.

3. Metaphor and Personification

Frost frequently employs metaphorical language to express abstract concepts through concrete images. In Fire and Ice, fire symbolizes desire while ice represents hatred and emotional coldness [5].

Personification is also evident in many poems where natural elements appear to possess human characteristics. Such examples require careful translation because personification may function differently across cultures.

4. Paradox and Philosophical Meaning

Paradox is another important feature of Frost's poetry. In Mending Wall, the

statement “Good fences make good neighbors” presents a paradoxical idea concerning social relationships and boundaries [10].

Translators must interpret underlying meanings before attempting translation. Failure to recognize paradoxical structures may lead to inaccurate or oversimplified renderings.

Conclusion. The study demonstrates that figurative language constitutes a central component of Robert Frost’s poetic style. Symbolism and repetition emerge as the most frequently used stylistic devices, while metaphor, personification, and paradox contribute significantly to thematic complexity. These features present substantial challenges for translators because poetic meaning often extends beyond literal language. Effective poetry translation therefore requires linguistic competence, cultural awareness, literary sensitivity, and interpretive skills. Future research may compare different translations of Frost’s poems and evaluate the effectiveness of various translation strategies.

References

1. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2018. - 370 bet.
2. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988. - 292 bet.
3. Nida, E. *Language, Culture and Translating.* Shanghai Foreign Language Education Press, 2001. - 223 bet.
4. Robert Frost. *Collected Poems, Prose and Plays*. Library of America, 1995. - 992 bet.
5. Robert Frost. *Selected Poems*. Various Editions. - 250 bet.
6. Susan Bassnett. *Translation Studies.* Routledge, 2014. -192 bet.
7. André Lefevere. *Translating Literature.* Modern Language Association, 1992. – 162 bet.
8. Geoffrey Leech. *A Linguistic Guide to English Poetry*. Longman, 1969. -248 bet.
9. Lawrance Thompson. *Robert Frost: The Early Years*. Holt, Rinehart and Winston, 1966. – 596 bet.
10. Jay Parini. *Robert Frost: A Life*. Henry Holt, 1999. – 560 bet.
11. Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*. Cengage Learning, 2015. – 418 bet.
12. Venuti, L. *The Translator’s Invisibility*. Routledge, 2017. – 336 bet.
13. Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford University Press, 1965. -103 bet.
14. Holmes, J. S. *Translated! Papers on Literary Translation and Translation Studies*. Rodopi, 1988. – 208 bet.
15. Munday, J. *Introducing Translation Studies*. Routledge, 2022. -324 bet.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA VAQT KONSEPTI TALQINI

Ernazarova Gulnoza Xamrayevna
F.f.d., prof. Qarshi davlat universiteti
gulnoza.ernazarova8181@mail.ru
ORCID 0009-0007-9970-1868
UDK 821.512,133-1(043.3)

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov she'riyatida vaqt konseptining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etiladi. Vaqt lirik qahramon tafakkurida falsafiy fikrlarni ifodalash vazifasini o'taydi. Shoir inson umri, hayotning qadri va abadiyat haqidagi mushohadalarini vaqt tushunchasi orqali badiiy namoyon qiladi. Shoirning vaqt haqidagi she'rlarida G'afur G'ulom an'analari davom ettirilgani barobarida, o'ziga xos ijodiy qarashlar asosida yangilangani ilmiy asosda yoritiladi. Vaqt konseptining semantik qirralari, uning inson umrining o'tkinchiligi, hayot qadri, taqdir va abadiyat kabi tushunchalarni ifodalashdagi badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Vaqt haqidagi mushohadalarning ironiya va yumor bilan uyg'un holda ifodalanishi hamda falsafiy umumlashmalarga aylanish jarayoni tadqiq etiladi. Tahlil shoir ijodining mazmuniy-falsafiy qatlamlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: vaqt, konsept, mushohada, meditativlik, falsafiylik, obraz, lirik qahramon, an'ana va novatorlik, yumor.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF TIME IN ERKIN VOHIDOV'S POETRY

Abstract. This article examines the philosophical interpretation of the concept of time in Erkin Vohidov's poetry. Time serves to express the philosophical reflections of the lyrical hero. Through this concept the poet conveys his thoughts on human life, the value of life and eternity. The article shows that his poems about time continue the traditions of G'afur G'ulom while renewing them through an individual artistic vision. The semantic aspects of the concept and its role in expressing the transience of life, fate and eternity are analysed. The study examines how reflections on time are combined with irony and transformed into generalizations.

Key words: time, concept, reflection, meditativeness, philosophicality, image, lyrical hero, tradition and innovation, humor.

Kirish. She'riyat – inson qalbini larzaga keltiruvchi, tuyg'ularini tarbiyalovchi vosita hisoblanadi. Yigirmanchi asr she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri o'z ovozi va uslubi bilan kitobxonlar qalbini zabt eta olgan iste'dodli ijodkor Erkin Vohidovdir. Shoir poetik tafakkurida vaqt nafaqat voqealar kechadigan makon va davrni anglatuvchi tushuncha, balki insonning o'zligini anglashi, hayot mazmunini idrok etishi va mavjudlik mohiyati haqida fikr yuritishiga undaydigan falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnda muayyan tushunchalarning milliy, estetik va falsafiy mazmun kasb etishi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijodkor poetik tafakkurida shakllangan konseptlarni o'rganish uning badiiy olamini yaxlit anglash imkonini beradi. Xususan, vaqt konseptining tadqiqi shoirning inson, hayot, taqdir va abadiyat haqidagi qarashlarini tizimli ravishda ochib berish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni yoritishda tarixiy-qiyosiy, struktural-semantik va biografik usullardan foydalanildi. Erkin Vohidov she'riyatida vaqt turli ma'no qirralarida namoyon bo'ladi: u bir tomondan inson umrining o'tkinchiligini ifodalasa, ikkinchi tomondan xotira va tarixni saqlovchi ma'naviy mezon sifatida talqin etiladi. Ayrim hollarda vaqt lirik qahramonning o'z hayoti va o'tgan umriga nazar tashlashiga, kechmishni bugun bilan qiyoslashiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarda vaqt tushunchasi oddiy xronologik kategoriya doirasidan chiqib, insonning mavjudligi va ma'naviy dunyosi bilan bog'liq falsafiy mazmun kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Erkin Vohidov she'riyatida vaqt konseptining shakllanishi va uning falsafiy mazmun kasb etish jarayonini o'rganish shoirning individual poetik tafakkuri xususiyatlarini ochish bilan bir qatorda, o'zbek lirikasida inson va vaqt munosabatining badiiy talqinini anglash uchun ham muhimdir.

Shoirning vaqt haqida uchta she'ri bor. Bu she'rning shakli shamoyili, mavzu doirasiga ko'ra G'.G'ulom an'analariga o'xshab ketishi dastlabki qarashdayoq seziladi.

Chunki XX asar she'riyatida vaqt falsafasini G'.G'ulom kabi chuqur, hayot hodisotlari bilan uyg'un lirik talqin qilgan ikkinchi bir shoirni topish qiyin. A.Rasulov shoirning ilk ijod boshlagan davrlarda, 1962-yildayoq G'.G'ulom an'analariga muhabbat bilan qaraganini "Go'zallik" she'ri misolida yaxshi asoslab bergan: "Erkin Vohidov go'zallikni, birinchidan, keng miqyosda – olam va odam bog'liqligida oladi. Shoir olamning go'zallashuvi, odamning ulug'lashuvi "tinmayin to'kilgan ter" samarasi ekanligini bildiradi. Bir qarasangiz, E.Vohidov G'.G'ulom fikrini tasdiqlayapti. Bir qarasangiz, she'rdagi olam va odam bog'liqligi masalasi "go'zallik"ning ildizi chuqurligini ko'rsatadi" [6.242].

Shoirning vaqt haqidagi uch she'rida ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin. Bu she'rlarning biri "Bosh tebratar soat kafgiri", ikkinchisi "Inson va fursat", uchinchisi "Kun o'tganda" deb nomlanadi. Bu she'rlar o'zining sarlavhalanishidanoq G'.G'ulom she'rlarini eslatadi. Chunki "soat kafgiri", "fursat", "soat zanjiri", "yugurik vaqt" singari so'z va birikmalar bizga dastlab G'.G'ulom she'riyati orqali tanish. Qolaversa, A. Rasulov ta'kidlaganidek, she'rning 60-yillarning boshi (1964)da yozilganini nazarda tutsak, E.Vohidov she'riyatidagi ilk falsafiy-meditativ talqinlarning vujudga kelishida G'.G'ulom an'analari aniq seziladi. Professor A.Rasulov bu jihatni nozik anglab, alohida ta'kidlaydi: "Cho'lpon, G'afur G'ulom, Erkin Vohidovning she'r bitishida vorisiylik, milliy an'ana ko'rinadi" [6.242].

Adabiyotshunos B.Karimovning ta'kidlashicha: "Erkin Vohidov she'riyati mayin, latif, latofatli, ko'rkli, nim tabassumli, ba'zida latofatli teran she'riyat" [9.89]. Mana shu ikki yirik olimning fikrlarini chog'ishtiradigan bo'lsak, E.Vohidov she'riyatidagi an'ana va novatorlik xususiyatlari yaqqol ko'rinadi. Ya'nikim, bir qarasangiz E.Vohidov she'rlarida Cho'lpon, G'.G'ulom she'riyatiga xos jiddiy, mushohadaviy falsafa, boshqa tomonda jindek ironiya, yumor bilan yo'g'rilgan lirik ohanglar uyg'unlashib ketganiga shohid bo'lamiz. Bu jihat shoirning lirik-meditativ jihatdan mustahkam an'analarga aylanib bo'lgan she'riyat mezonlariga yangilik qo'sha olganidan dalolat beradi. Vaqt haqidagi uch she'rda bunday holatlar aniq bilinadi.

Vaqt haqidagi birinchi she'rda "soat kafgiri"ning bosh tebratib turishi dastlab soatning odamzotga munosabati nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Go'yo soatning ishlash maromi, soat millarining aylanishi vaqt qadrini bilmaydigan odamga achinish hassini ifodalaydi. O'tayotgan vaqtga beparvo odamlardan ranjish alomati seziladi. Keyingi bandda esa estafeta tayoqchasini shoirning o'zi qo'lga oladi. O'quvchiga qarata ochiqdan ochiq "Shoshil, odam, o'tmoqdadir on..." deb murojaat qiladi. Ammo she'rning oxirgi satrida vaqt qadrini bilmaydigan g'ofil odamlarga nisbatan kuchli ironiya yuzaga balqib chiqadi. Unda vaqt va inson umri, g'aflat va pushaymonlik, o'lim va hayot falsafasi birgina ironik ta'kid orqali yetkazib beriladi: "Har narsaning bo'lar oxiri, Bosh tebratib qolma so'ng, inson..."[1.54] Bunday paralellashtirilgan ironik ta'kid shoir meditativ munshohadakorligining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchi she'r xuddi birinchi she'rning tadrijiy davomiga o'xshaydi. Shoir bu she'rida vaqt bilan kurashayotgan inson holatini "nim tabassum" bilan tasvirlaydi. Vaqtni qo'liga bog'lab olgan inson, soatga zanjir bog'lab tosh osgan inson, uni soatlar, minutlar, soniyalarga bo'lgan inson haqida gapirib, tarixiy taraqqiyot va bu o'tgan vaqt mobaynida insonning vaqtga munosabatini meditativ mushohada qiladi. Ammo vaqt insonga sira bo'ysunmaydi. Uni qo'lidan chiqib ketaveradi. Kurashlar samarasiz kechadi. Alaloqibat inson vaqtni jilovlashning yo'lini topadi:

Nihoyat, biz fursatni quvib,
Qamchi soldik g'ayrat otiga.
U har qancha yelib, yugurib
Yetolmadi inson zotiga... [1.54]

Lekin qanchalar g'ayrat qilmasin inson vaqtni bo'yinsundira olmaydi. Vaqt baribir

vaqtligini qilaveradi. “O‘n ikki shohli” vaqt daraxtining gullashi, yashil tusga kirishi, sarg‘ayib yaproq to‘kishi insonga bog‘liq emas:

O‘n ikki shoxli daraxt
To‘kdi yana yaprog‘in.
Shamol uchirib keti
Kalendarning varog‘in... [1.55]

Shoir uchinchi she’r xulosasida yana vaqt haqidagi birinchi va ikkinchi she’rlaridagi xulosaga qaytadi. Vaqt insonga bo‘yinsunmas ekan, inson uning izmida yurmasligi, vaqt odimlari aro o‘z ulushini olib qolishi lozim. Undan unumli foydalanishi shart:

O‘tgan kundan she’r qoldi,
Ko‘k bo‘yi xirmon qoldi.
Birovga olam quvonch,
Birovga armon qoldi... [1.55]

Shoirning ushbu she’ri o‘tgan kun haqida. Uning o‘tgan kundan olgan ulushi mana shu she’r. Ikkinchi satrda kelgan osmon baravar qog‘oz xirmoni tashbehi shoirning bu she’r ustida tinmay ishlagani, ter to‘kkani, vaqtdan o‘z ulushini olib qolishga ulgurganidan dalolat beradi. Shuning uchun shoir o‘tgan kundan ham, o‘zidan ham minnatdor. Chunki o‘tgan kun shoirga “olam quvonch” bag‘ishladi. Go‘zal bir she’r taqdim etdi. Fursatni tuta olmaganlar, o‘tgan kunni g‘aflatda o‘tkazganlar esa armonda qoldilar. Zotan, o‘tgan kun qaytib kelmaydi. Mana shunday meditativ mushohada vaqt haqidagi E.Vohidov she’rlarining asosini tashkil etadi, desak xato bo‘lmaydi.

Professor Umarali Normatov E.Vohidov she’riyati shunchaki o‘y-tuyg‘ular mahsuli emas, balki ijtimoiy hayot, milliy dard bilan yo‘g‘rilgan bir she’riyat ekanini alohida ta’kidlaydi. Har bir she’rida zamon noqisliklari bilan bog‘liq qochirimlar, quyma satrlar mavjudligiga, bu jihat shoirning ijtimoiy hayot bilan doimo hamqadam, hamkor bo‘lganiga dalil ekanini alohida ta’kidlaydi: “Erkin Vohidov ijodiy faoliyatini jamoat ishlari bilan qo‘shib olib bordi” [4.136].

Haqiqatdan ham, davrining uyg‘oq shoirlari ijodida ijtimoiy dard qorishmagan she’rning bo‘lishi mumkin emas. Zero, shoir o‘z zamonasining barometri. U imkon topsa-topmasa davr muammolarilari haqida yozishga majbur. O‘z tashbeh va metaforalari, qochirim va kinoyalarida ifodalash orqali zamonasining og‘riqli muammolarini yozib qoldirishga burchlidir. Ijtimoiy dard, she’r sathiga ijtimoiy “men”ning qalqib chiqishi meditativ lirikaning muhim qirralaridan biri bo‘lib, E.Vohidovning har bir she’rida bu jihat yetakchilik qiladi. Jumladan, shoirning “Qo‘lingni pardalar qilding...” sarlavhali she’ri sarlavhasiga ko‘ra ishqiy she’rga o‘xshab ketadi. Ammo o‘quvchi bunday latif sarlavhaga chalg‘ib ketmasligi kerak. Chunki she’rning “ich”i tamomila boshqa mazmunni ifodalaydi.

Yor yuzini bir ko‘rmoqqa zor,
Faryod qilib o‘tdi ustozlar.
Zamon o‘zga endi, o‘zga yor,
Na parda bor, na ishva-nozlar.
Mumtoz shoir qaytsa tirilib,
O‘zga baytlar aytib ketardi.
Qo‘lni yuzga pardalar qilib,
Zamoniga qaytib ketardi. [1.653]

She’rda bugun bilan o‘tmish she’r etikasi va estetikasi nuqtayi nazaridan qiyoslangan. Mumtoz shoirlarimiz o‘z g‘azallarida Yor visolini kuylab o‘tganlar. Shu visolga erishish umidi bilan g‘am-qayg‘u ohanglari ufurib turgan baytlar bitganlar. Lirik “men” iqroriga ko‘ra endi “zamon” va “yor” o‘zga. Zamon tezlashgan, ijtimoiylashgan va siyosiylashgan. Endilikda mumtoz shoirlarimiz kuylagan qadriyatlar, etik va estetik ideal

o‘zgargan. Mumtoz shoirlarimiz “Yor” deganda yaratgan Allohni, dard deganda oxirat dardini, hijron deganda tug‘ilishni emas, o‘limni tushungan bo‘lsalar, shoir zamoniga kelib ideallar o‘zgargan. Yorning qamrov ko‘lami toraygan. “Yor” obrazi samodan enib yerga tushgan. Yerlashgani sayin o‘z yuksakligi, jozibasi, soz-u sehrini yo‘qotgan. Endi “yor” deb yozgan shoir hijron dardidan o‘rtanmaydi. Ko‘zlaridan qonli yoshlar to‘kmaydi. Yorda esa na noz, na istig‘no qolgan. Eng yomoni, yor tushunchasi ustidagi hayo pardasi ko‘tarilgan. Albatta, bu sof ijtimoiy illat. Uning ko‘lami kundan kun kengayib boradi. Endi bu illatning oldini olish mumkin emas. Shu jamiyat a’zosi bo‘lgan shoir, lirik “men” mana shunday real holat oldida ojiz. Qo‘lidan hech nima kelmayotganidan g‘amda.

Xo‘sh, nima qilmoq kerak? Bu boshi berk ko‘chadan qanday chiqib ketish mumkin? Mana shu savollarga javob topmoq uchun boshlangan she’rning o‘zi ham shoirni boshi berk ko‘chaga olib kiradi. Lirik qahramon yechimlar ichra yechim izlaydi. Nihoyat, uni o‘zining xos tabiatidan, ichki imkoniyatlaridan, erkinona kinoya uslubi, “nim tabassum”idan topadi. She’rning ikkinchi bayti ulkan ma’naviy-ijtimoiy muammoning erkinona latif yechimiga tomon olib boradi. Agar mumtoz shoir qayta tirilgudek bo‘lsa, u ham xuddi E.Vohidovga o‘xshab ijtimoiy muammolarda so‘z ochardi. Hajviy-satirik baytlar aytib ketardi. O‘z ajdodlarining yalang‘och dunyosini ko‘rmaslik uchun, tirilganiga pushaymon qilar, tezda ortiga, ya’ni qabriga tinchgina kirib ketgan bo‘lardi. Ifodalangan mazmundagi yechim shundaki, shoir kinoya bilan bayon etayotgan ajdodlar holati ma’nan tubanlashayotgan avlodlarga saboq bo‘lishi lozim. Zotan, ajdodlaridan ta’na, dashnom eshitmoq avlodlar noqisligidan dalolatdir.

Ustoz adabiyotshunos, ma’lum ma’noda vohidovshunos atalishga-da haqli she’rshunosimiz U.Normatovning quyidagi fikrlari yuqoridagi xulosalarimizning haqligiga yaqqol dalildir: “Erkin Vohidovni ko‘plar birinchi galda “Tong nafasi”, “Yoshlik devoni”dagi rubobiy taronalar, “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Yaxshidir achchiq haqiqat” kabi to‘plamlaridan joy olgan o‘tkir fuqarolik tuyg‘usi bilan to‘lib-toshgan ijtimoiy she’rlar, chuqur dramatizm, teran falsafiy o‘y-mushohadalar bilan yo‘g‘rilgan “Nido”, “Ruhlar isyoni” dostonlari muallifi sifatida biladilar. Ayni paytda shoir hajv, yumor bobida ham benazir ijodkordir. XX asr ikkinchi yarmi milliy she’riy hajvchiligimizda hech qaysi shoir Erkinchalik “ko‘b va xo‘b” yozgan emas” [4.162].

Xulosa. Erkin Vohidov she’riyatida vaqt o‘z ichiga badiiy-falsafiy qarashlarni olgan holda aks etadi. Shoir G‘.G‘ulom an’analariga muhabbat bilan yondashadi va shu an’anani davom ettirib, uning ma’noviy qirralarini yangilab, boyitib tasvirlaydi. Vaqt qadri, umrning o‘tkinchiligi, inson har bir lahzasidan go‘zallikni izlab yashamog‘i lozimligi haqidagi qarashlarini ayni shu vaqt obrazi orqali namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 653.
2. Жўрақулов У. Асл ўзанлар сари.
3. Мўминова Г. Комета. Шеърлар – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2019. – Б. 380.
4. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2015. – 304 б.
5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 136.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
7. Расулов А. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 242.
8. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулом, 2018. – 504 б.
9. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 546 б.
10. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2016. – Б. 89.
11. Лотман Ю. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Л.: Просвещение, 1972. – 272 с.
12. Мустақиллик даври адабиёти. – Т.: НМИУ, 2006. – 287 б.

ASSOTSIATIV TILSHUNOSLIKNING NAZARIY POYDEVORI VA ILMIY TADQIQ MASALALARI

Niyazova Dilbar Xoltemirovna
Qarshi davlat universiteti professori

Annotatsiya. Maqolada antropotsentrik tilshunoslikning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan assotsiativ tilshunoslikning shakllanishi, nazariy asoslari, tadqiq obyekti, maqsad va vazifalari yoritilgan. Assotsiativ tilshunoslikning falsafiy va psixologik assotsianizm hamda psixolingvistika bilan aloqasi, assotsiatsiya tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi va tilshunoslikda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Lisoniy assotsiatsiyalarning inson lisoniy ongi, xotirasi, tafakkuri, hayotiy tajribasi va milliy-madaniy qarashlari bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Assotsiativ tajriba, assotsiativ maydon, assotsiativ lug‘at va assotsiativ portret tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda ularning til tadqiqidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Assotsiativ-somatik portretni tadqiq etish masalasi ham e’tiborga olinib, somatizmlarning milliy lisoniy ong va lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashdagi imkoniyatlari asoslangan. Assotsiativ tilshunoslikning zamonaviy muammolari va istiqbolli tadqiq yo‘nalishlari belgilangan.

Kalit so‘zlar: antropotsentrik tilshunoslik, assotsiativ tilshunoslik, lisoniy assotsiatsiya, assotsiativ tajriba, assotsiativ maydon, lisoniy ong, assotsiativ lug‘at, assotsiativ-somatik portret.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND RESEARCH ISSUES OF ASSOCIATIVE LINGUISTICS

Abstract. This article examines the formation, theoretical foundations, research object and aims of associative linguistics as an important branch of anthropocentric linguistics. It analyses its relationship with philosophical and psychological associationism and psycholinguistics, and the development of the concept of association in linguistic studies. Particular attention is paid to the connection of linguistic associations with linguistic consciousness, memory, cognition, life experience and national-cultural perceptions. The essence and research significance of associative experiments, associative fields, associative dictionaries and associative portraits are discussed. Current problems and promising future research directions of associative linguistics are identified, including digital associative databases and national associative corpora.

Key words: anthropocentric linguistics, associative linguistics, linguistic association, associative experiment, associative field, linguistic consciousness, associative dictionary, associative-somatic portrait.

Kirish. O‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab dunyoda tilni inson omili bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishga asoslangan antropotsentrik tilshunoslik jadal rivojlana boshlandi. Natijada til tadqiqining ko‘lami grammatika, semantika, uslubiyat doirasidan tashqariga chiqib, tilning undan foydalanuvchi inson, jamiyat, madaniyat bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan xususiyatlari tadqiq qilina boshlandi. Shu asosda til nafaqat o‘zaro aloqa-munosabatdagi lisoniy biliklar tizimi, balki insonning olamni idrok etishi, tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiyati, madaniyati, jinsi, yoshi, kasbi kabi shaxsiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilina boshlandi. Assotsiativ tilshunoslik mana shunday yo‘nalishlardan biri bo‘lib, o‘tgan asrning oxirida antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida maydonga kirib keldi.

Ma’lumki, assotsiativ tilshunoslikning nazariy poydevori falsafiy hamda psixologik assotsianizm g‘oyalariga borib taqaladi. Mazkur yo‘nalishning shakllanishida, ayniqsa, assotsiativ psixologiyada ishlab chiqilgan nazariy qarashlar, assotsiatsiya qonunlari muhim o‘rin tutgan.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida assotsiativ tilshunoslik psixologiya hamda tilshunoslik chorrahasida yuzaga kelgan psixolingvistika doirasida shakllanib, keyinchalik mustaqil yo‘nalish sifatida rivojlana boshladi. Psixolingvistlar til birliklarining inson ongida saqlanishi hamda nutqiy faoliyatda faollashuvi mexanizmlarini o‘rganishda assotsiatsiya qonunlariga tayanishdi. Ular leksik birliklarning inson ongida alohida holda emas, balki assotsiativ bog‘langan holatda saqlanishi va muayyan nutqiy vaziyatda ushbu assotsiativ aloqa doirasida voqelanishini asoslab berishdi. Bu qarashlar keyinchalik assotsiativ tilshunoslikning nazariy va metodologik asosini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi.

Psixolingvistika amaliyotiga assotsiativ tajriba metodining kirib kelishi bilan til birliklarining o‘zaro assotsiativ aloqasi, inson ongida saqlanishi, xotirasida tiklanishi masalasi eksprimental usulda o‘rganila boshlandi. Assotsiativ tajriba metodi inson lisoniy

ongining tuzilishi, leksik birliklarning assotsiativ bog‘lanish qonuniyatlari, nutqiy faoliyatda voqelanish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida assotsiativ tilshunoslik psixolingvistika tarkibidan butkul ajralib chiqdi. Rus tilshunosi Yu.Karaulovning bayon qilishicha, bu davrda rus tilining ko‘p jildli assotsiativ tezaurusi[1] tuzildi, mazkur lug‘at assotsiativ tilshunoslikning nazariy asosini shakllantirish hamda uning bazasida assotsiativ verbal tarmoq va assotsiativ grammatikaning yaratilishiga turtki berdi[2]. Shuningdek, ushbu davrda ingliz tili assotsiativ lug‘ati va tezaurusini yaratish bo‘yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, L.Postman, G.Keppel tahriri ostida nashr etilgan “Norms of Word Association” *lug‘ati ingliz tilining assotsiativ me’yorlari to‘plami hisoblanadi. G.R.Kiss, S.Armstrong, R.Milroy tomonidan yaratilgan “*The Associative Thesaurus of English*” lug‘at esa tezaurus xarakterida bo‘lib, til birliklari orasidagi assotsiativ aloqa tarmoq shaklida ketma-ket berilgan leksikografik manba sanaladi[3]. Mazkur lug‘atlar ham* XX asrning 70-80-yillarini assotsiativ tilshunoslik shakllanishining yakuniy bosqichi sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Yu.N.Karaulov bu davrni nafaqat assotsiativ yo‘nalish shakllanishining yakuniy bosqichi, balki assotsiativ tilshunoslikning yuzaga kelish davri sifatida ham tavsifladi[4].

Shunday qilib, assotsiativ tilshunoslik psixolingvistika yo‘nalishi negizida yuzaga keldi. D.Lutfullayevaning ta’kidlashicha, “XX asrning 80-yillari oxiridan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davr psixolingvistikada assotsiativ yo‘nalish shakllanishining yakunlovchi bosqichi va assotsiativ tilshunoslikning yuzaga kelish davri sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda assotsiativ tilshunoslik psixolingvistikaning alohida tarmog‘i sifatida mustaqil rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Assotsiativ tilshunoslik o‘rganish obyekti va tadqiq metodiga egaligi, maqsad, vazifalarining aniq qo‘yilganligi, assotsiativ leksikografiya, leksikologiya, grammatika kabi bo‘limlarni qamrab olishi, bu yo‘nalishda hatto turli tillarga oid keng hajmli assotsiativ lug‘atlarning yaratilganligi uning mustaqil fan tarmog‘i sifatida rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi”[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda assotsiativ tilshunoslikning nazariy va metodologik asoslarini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, semantik hamda psixolingvistik metodlardan foydalanildi. Lisoniy assotsiatsiyalarning shakllanishi va namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashda assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ birliklarning o‘zaro munosabatlarini ochib berishda assotsiativ tahlil usuliga tayanildi. Shuningdek, assotsiativ lug‘atlar va ilmiy manbalarni o‘rganish orqali nazariy umumlashtirish va xulosalash usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama. Assotsiativ tilshunoslik nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lsa-da, uning tadqiq obyektlari va vazifalari keng qamrovlidir. Mazkur yo‘nalishning asosiy maqsadi tilning assotsiativlik xususiyatini ochib berish, inson lisoniy ongida yuz beradigan assotsiativ bog‘lanishlar, ularning tabiati, shakllanish qonuniyatlari hamda tilda voqelanishi masalasini yoritishdan iborat.

Tilning assotsiativlik belgisi til birliklarining inson ongida boshqa birliklar bilan assotsiativ munosabatga kirisha olish xususiyatini anglatadi. Mazkur xususiyat asosida muayyan til birligi semantik, formal, fonetik-akustik, uslubiy, derivatsion, pragmatik belgilari asosida o‘ziga o‘xshash bo‘lgan boshqa birligini inson xotirasida tiklay oladi. Shuningdek, til birligi anglatgan predmetlar, voqea-hodisalar o‘rtasidagi yaqinlik, o‘xshashlik, sabab-oqibat, makon-zamon, qism-butun kabi munosabatlar ham bir predmet nomining boshqa predmet yoki voqea-hodisa nomini inson xotirasida jonlanishiga turtki beradi. Anglashiladiki, assotsiativlik tilga xos shunday xususiyatki, u insonning hayotiy tajribasi davomida egallagan bilimlari, tasavvurlariga tayangan holda til birliklarining o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi. Mazkur bog‘lanish turli semantik-kognitiv munosabatlar asosida yuzaga kelib, inson lisoniy ongida turli assotsiativ maydonlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan assotsiativlik til birliklarining muhim xususiyati bo‘lib, inson

ongida shakllangan olamning lisoniy obrazi, u haqidagi bilimlari, tasavvurlari tizimini aniqlashga imkon beradi.

Yana bir jihat, assotsiativ birliklarda til egalarining dunyoqarashi, ruhiyati, madaniyati, qiziqishlari, yoshi, jinsi kabi shaxsiy xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Assotsiativ birliklarining ushbu xususiyati inson ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalar orqali ochib beriladi.

Tilning assotsiativlik xususiyati til birliklari orqali voqelanishi sababli *lisoniy assotsiatsiyalar* (ayrim manbalarda *verbal assotsiatsiyalar[6]*) deb nomlanadi. Lingvistik assotsiatsiya til birligi ifodalagan obyekt bo‘yicha inson ongida shakllangan bilimlar, tasavvurlar, madaniy qadriyatlar, baholashlar hamda hayotiy tajriba asosida yuzaga keladigan hamda verbal assotsiatsiyalar orqali ifodalanadigan lingvopsixologik hodisadir.

Tilning assotsiativlik xususiyati haqidagi qarashlar assotsiativ tilshunoslikka, garchi psixolingvistika orqali kirib kelgan bo‘lsa-da, uning nazariy poydevori falsafa hamda psixologiyaga borib taqaladi.

Ma’lumki, ilmiy manbalarda assotsiatsiya haqidagi dastlabki qarashlar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel asarlarida bayon etilgan. Garchi ushbu faylasuflar asarlarida *assotsiatsiya* termini qo‘llanmagan bo‘lsa-da, ular inson ongida bir-biriga o‘xshash, qarama-qarshi, yondosh g‘oyalar o‘zaro bog‘lanishi haqida fikr yuritishgan. Mutafakkirlarning mazkur qarashlari keyinchalik falsafa va psixologiyada klassik assotsianizm nazariyasining shakllanishi hamda rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Yunon faylasuflarining g‘oyalar assotsiatsiyasi haqidagi qarashlari XVII-XVIII asrlarda psixologik assotsianizmning shakllanishiga turtki berdi. Bu davrda psixologik assotsianizm inson ongi faoliyatiga tushuntirish beruvchi fundamental nazariya sifatida qaror topdi. I.N.Vlasenkovaning xulosasiga ko‘ra, assotsiativ psixologiya rivojlanishining birinchi bosqichi miloddan avvalgi IV asrdan XVIII asr boshlarigacha bo‘lgan davr bilan belgilanadi, aynan shu davrda “assotsiatsiya” terimini ilmiy muomalaga kirib kelgan[7].

Qator manbalarda “assotsiatsiya” teriminining fanga kirib kelishi hamda psixologik assotsianizmning shakllanishi XVII oxiri va XVIII asr boshlarida faoliyat yuritgan ingliz faylasufi J.Lokk nomi bilan bog‘lanadi. J.Lokk qadimgi yunon faylasuflarining qarashlarini rivojlantirib, fanga “g‘oyalar assotsiatsiyasi” tushunchasini olib kirgan. J.Lokk 1700-yilda yozgan “Associationism in the Philosophy of Mind” (“Inson aqli to‘g‘risida tajriba”) asarida ilk bor *assotsiatsiya* terminini qo‘llagan. Mutafakkirning talqiniga ko‘ra, assotsiatsiya – bu noto‘g‘ri, ya’ni g‘oyalar o‘rtasidagi tabiiy munosabatga mos kelmaydigan bog‘lanishdir. U mohiyatiga ko‘ra bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan g‘oyalarning ayrim kishilar ongida shu qadar birikib ketishi, ularni bir-biridan ajratish juda qiyin kechishi, doimo bir-biriga hamroh bo‘lishi va bunday g‘oyalardan biri ongda paydo bo‘lishi bilan unga bog‘langan ikkinchi g‘oya ham darhol yuzaga chiqishi haqida fikr yuritgan[8]. J.Lokk g‘oyalarning o‘zaro tabiiy va notabiiy tarzda bog‘lanishini farqlagan. Ammo, asosan, notabiiy assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi haqida ma’lumot bergan. Bu tipdagi assotsiatsiyalarni 3 turga ajratgan: ongli ravishda hosil qilingan ixtiyoriy assotsiatsiyalar, tasodifan yuzaga kelgan va odat tufayli ongda mustahkamlangan assotsiatsiyalar hamda ehtiroslar ta’sirida shakllanadigan assotsiatsiyalar[9].

J.Lokkning g‘oyalar assotsiatsiyasi haqidagi mazkur qarashlari keyingi davr faylasuflari va psixologilar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, J.Berkli, D.Gartli, T.Braun, J.Mill, J.S.Mill, A.Ben, G.Spenser inson ongi, tafakkuri, bilish jarayoni, ruhiyati, irodasi, asab tizimini o‘rganishda assotsiatsiya qonunlariga tayandilar[10]. Natijada XVIII-XIX asrlarda assotsianizm psixologiyaning yetakchi yo‘nalishiga aylandi hamda inson ongi va tafakkuri faoliyatiga izoh beruvchi, bilimlarining hosil bo‘lishi va ongida saqlanishi mexanizmlarini ochib beruvchi ta’limot sifatida talqin qilindi.

Shunisi xarakterliki, ayrim tadqiqotchilar J.Lokkning g‘oyalar assotsiatsiyasi haqidagi qarashlarini e’tirof etsalar-da, psixologik assotsionizmning shakllanishi fanga *assotsiatsiya* terminining kirib kelganligi bilan bog‘liq emasligi, assotsiatsiya haqidagi qarashlar ancha ilgariroq R.Dekart, T.Gobbs, V.Spinozaning falsafiy qarashlarida o‘z aksini topganligi, aynan shu mutafakkirlar qarashlar assotsianizm nazariyasining shakllanishiga metodologik asos bo‘lganligini qayd etishadi. Jumladan, A.V.Xitrovning fikricha, “1700-yilda Jon Lokk o‘zining “Inson aqli to‘g‘risidagi tajriba” asarining to‘rtinchi nashri ikkinchi qismiga “G‘oyalar assotsiatsiyasi haqida” nomli bobni kiritdi. Keyinchalik ushbu termin J.Lokdan D.Yum va D.Gartli tomonidan o‘zlashtirildi, vaqt o‘tgach, keng doiradagi boshqa olimlar tomonidan ham qo‘llanila boshlandi. Biroq assotsionizmning psixologyaning alohida yo‘nalishi sifatida shakllanishi bu terminning paydo bo‘lishi bilan emas, balki XVII asardayoq R.Dekart, T.Gobbs, V.Spinoza falsafasida uchraydigan ushbu mental hodisani tavsiflash va izohlashga qaratilgan urinishlar bilan bog‘liq edi”[11].

XIX asr o‘rtasi XX asr boshlariga kelib, falsafiy assotsianizm g‘oyalari shu qadar keng yoyildiki, barcha fanlarda, jumladan, tibbiyot, siyosat, ahloq, tarbiya, adabiyot masalalari yechimida ham unga murojaat qilindi. Ammo “XIX asr o‘rtasi XX asr boshlariga kelib assotsianizm g‘oyalari tanazzulga yuz tutdi. Natijada olamda yuz bergan barcha hodisalar asosida assotsiatsiya g‘oyalari yotmasligi, jumladan, psixologik assotsiatsiya qonuniyatlarini fizik jarayonlarga tatbiq etib bo‘lmasligi ayon bo‘ldi”[12]. XX asrning boshlariga kelib assotsianizm yo‘nalishi butunlay barham topdi, uning g‘oyalari psixologiyaning turli tarmoqlarida o‘rganila boshlandi. Olimlar assotsiatsiya qonuni barcha fanlar muammolarini hal eta olmasligini anglab yetishdi[13].

Psixologik yondashuvda falsafadan farqli tarzda inson ruhiyatida kechadigan psixik jarayonlar o‘rtasidagi assotsiativ aloqalarni tahlil qilishda assotsiatsiya qonunlariga murojaat qilindi. Tilshunoslikda esa assotsiatsiya qonunlari til birliklari munosabatidan qidirildi.

Til birliklari o‘rtasidagi assotsiativ munosabatlar ham insonning voqelik haqidagi bilim va tasavvurlariga tayanadi. Ammo bu bilim va tasavvurlar falsafiy va psixologik assotsionizmdagi kabi mavhum g‘oyalar assotsiatsiyasi tarzida emas, balki muayyan til birliklari orqali voqelanadi. Shu jihatdan bunday assotsiatsiyalar lisoniy assotsiatsiyalar bo‘lib, inson ongidagi assotsiativ aloqalarning tildagi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

XIX asr oxirlarida tilda kuzatiladigan assotsiatsiya qonunlari ilk bor V.fon Humboldt asarlarida sharhlandi. U tilni inson tafakkuri va milliy ruhining ifodasi sifatida talqin qilib, inson ongida bir-biriga mos keluvchi fikrlar yuzaga kelishi sababli, kishilarning bir-birini tushunishi ro‘y berishini ta’kidladi[14].

Til birliklarining assotsiativlik xususiyati XX asr boshlarida F. de Sossyur tomonidan ham e’tirof etilgan. Ammo u paradigmatik va assotsiativ munosabatni bir hodisa sifatida tushungan[15]. Keyinchalik N.V.Krushevskiy, A.A.Potebnya, M.M.Pokrovskiy ishlarida til birliklari orasidagi assotsiativ munosabat mohiyati ochib berildi[16]. Xususan, N.V.Krushevskiy so‘zlarning o‘xshashlik belgisi hamda yondoshlik xususiyati asosida assotsiativ aloqaga kirishini ko‘rsatdi[17]. M.M.Pokrovskiy esa so‘zlar shakli va mazmunidagi o‘xshashlik asosida umumiy assotsiativ guruhlarga birlashishini bayon qildi[18].

Tilshunoslikda lisoniy assosatsiyalarni o‘rganish dastlab badiiy matnlar tahlili asosida amalga oshirildi. Fanga assotsitaiv tajriba metodi kirib kelgach, assotsiativ birliklar til egalari ustida o‘tkaziladigan tajriba asosida aniqlanib, tahlil qilina boshlandi. Tildagi assotsiatsiya hodisasini tajriba asosida aniqlash dastlab G.Kent, A.Rozanov, J.Diz, J.Miller, Ch.Koferlar[19]ning tadqiqolarida amalga oshirildi. Keyinchalik boshqa tilshunoslar ham assotsiatsiyalarni o‘rganishda ushbu metodni qo‘llay boshlashdi.

Xulosa. Assotsiativ tilshunoslikning shakllanishida falsafiy va psixologik assotsionizm g‘oyalari muhim o‘rin tutdi. Falsafiy assotsionizmda inson ongida hosil bo‘lgan bir-biriga o‘xshash, yaqin g‘oya va tasavvurlarning o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlari asoslangan bo‘lsa, psixologik assotsionizmda inson tasavvurlari va g‘oyalarining bir-biri bilan bog‘lanish mexanizmlari va inson ruhiyatida namoyon bo‘lishi xususiyatlari yoritildi. Keyinchalik assotsiatsiya qonuniyatlari psixolingvistikada lisoniy ong, tafakkur va til o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda yanada rivojlantirildi. Falsafiy, psixologik assotsionizm hamda psixolingvistikada assotsiatsiya hodisasi bo‘yicha erishilgan yutuqlar assotsiativ tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishida nazariy asos vazifasini o‘tadi.

Assotsiativ tilshunoslikda til birliklari o‘rtasidagi assotsiativ munosabat, muayyan til birligi turtkisi asosida inson ongida hosil bo‘ladigan assotsiativ reaksiyalar, ularning leksik-semantik, paradigmatik, sintagmatik, pragmatik, lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganila boshlandi. Bunda lisoniy assotsiatsiyalarga insonning tashqi olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, inson, uning xatti-harakatlari haqidagi bilimlari va tasavvurlari, hayotiy tajribasi, taassurotlari asosida shakllangan qarashlarining verbal ifodasi sifatida qaraladi. Shu jihadan lisoniy assotsiatsiyalar til birliklarining nafaqat leksik-semantik, grammatik, funksional-uslubiy xususiyatlarini, balki bu birliklarning milliy-madaniy, ijtimoiy belgilari, inson lisoniy ongidagi o‘rni, matn hosil qilishdagi roli kabilarni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Assotsiativ tilshunoslikning asosiy maqsadi assotsiativ tajribalar yoki matnning assotsiativ tahlili asosida aniqlangan lisoniy assotsiatsiyalarning mohiyatini ochib berish, lingvistik tabiatiga tavsif berish, yuzaga kelish omillarini aniqlash, shuningdek, insonning olam haqidagi bilimlari hamda tasavvurlarining verbal ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Assotsiativ tilshunoslikda, shuningdek, insonnning lisoniy ongi, lisoniy xotirasi hamda leksik zaxirasining tarkibi hamda nutqiy faoliyatda yuzaga chiqshi masalasi ham o‘rganiladi. Ushbu masalalar tadqiqi inson ongida til birliklari qanday saqlanishi va faollashuvini aniqlash imkonini yaratadi.

Assotsiativ tilshunoslikning tadqiq obyektlaridan yana biri assotsiativ lug‘atlardir. Assotsiativ lug‘atlar jamoaviy assotsiativ tajriba natijalari asosida yaratiladigan maxsus leksikografik mana bo‘lib, muayyan til birligi bo‘yicha insonda hosil bo‘ladigan assotsiativ reaksiyalar majmuyini qamrab oladi. Bunday lug‘atlarda turtki so‘z va unga nisbatan hosil bo‘lgan javob reaksiyalari, ularning chastotasi hamda o‘zaro assotsiativ aloqasi aks etadi. Assotsiativ lug‘at maqolalari so‘zning assotsiativ ma’nolari, paradigmatik, sintagmatik aloqalari, milliy-madaniy, kognitiv, pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, assotsiativ lug‘atlar tilda kechayotgan o‘zgarishlarni, muayyan davr kishilarining lisoniy ongi, leksik zaxirasi, milliy-madaniy qarashlari, olam haqidagi bilim va tasavvurlarini aks ettirishiga ko‘ra nazariy va amaliy xarakterdagi tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Assotsiativ tilshunoslikning keyingi yillarda yuzaga kelgan dolzarb muammolaridan biri til egalari ongida shakllangan muayyan obyektning assotsiativ potretini tiklash hamda lingvistik xususiyatlarini ochib berish masalasidir. Ushbu muammo inson ongidan o‘rin olgan muayyan obyekt obrazini lisoniy assotsiatsiyalar yordamida tiklash hamda assotsiativ verbal portretini aniqlashga qaratilgan. Assotsiativ portret muayyan obyektning til egalari ongidan shakllangan obrazini ushbu obyekt haqidagi bilim va tasavvurlari, hayotiy tajribasida yuzaga kelgan qarashlari asosida tasvirlovchi lisoniy ifodadir. Assotsiativ portret obyektning inson ongidagi obraz-qiyofasini aks ettirish bilan chegaralanmaydi, balki uning mazkur obyektga nisbatan shakllangan bilimlari, tasavvurlari, bahosi, milliy-madaniy qarashlarini o‘rganishda ham

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan assotsiativ portret inson shaxsiga xos xususiyatlarni o‘rganishda ham ishonchli manba sanaladi.

Ma’lum bo‘ladiki, assotsiativ tilshunoslikning tadqiq obyekti keng bo‘lib, til birliklarining assotsiativ munosabati, assotsiativ birliklarning nutq (matn) yaratishdagi roli; insonning assotsiativ tafakkuri, lisoniy ongi va xotirasi, leksik zaxirasi; assotsiativ tajriba metodlari, assotsiativ maydon nazariyasi, assotsiativ lug‘atlarning yaratilishi, shuningdek, muayyan obyektning assotsiativ potretini shakllantirish kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu yo‘nalishda til nafaqat o‘zaro aloqa-munosabatda bo‘lgan birliklar tizimi sifatida, balki inson ongi, bilimi, tasavvurlari, milliy-madaniy qarashlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan mental hodisa sifatida ham tadqiq etilmoqda. Bunday yondashuvda til birliklarining assotsiativ ma’nolari, milliy-madaniy, etnik mazmuni, ijtimoiy, pragmatik, kognitiv, genderologik xususiyatlari ham aniqlanadi. Shu jihatdan bugungi kunda assotsiativ tilshunoslik jadal rivojlanayotgan, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biriga aylandi. Zero, “tashqi olamning tilda aks etishi, bunda assotsiativ tafakkurning o‘rni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, assotsiativ bog‘lanishi asosida guruhlarga birlashuvi, eng kichik jumladan tortib yirik matnlarni hosil qilishdagi o‘rni kabi masalalar tahlili tilga assotsiativ yondashuvni taqozo etadi”[20].

Assotsiativ tilshunoslik antropotsentrik tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlaridan til tadqiqida assotsiativ tajriba materiallariga tayanilishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy tilshunoslikda tildagi assotsiativ bog‘langan birliklarni aniqlashda, asosan, assotsiativ tajriba metodidan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, muayyan matnning assotsiativ xususiyatlarini yoritishda matnni assotsiativ tahlil qilish metodi qo‘llanmoqda.

Bugungi kunda assotsiativ tilshunoslikda hali yechimini topmagan qator muammolar mavjud. Jumladan, turli millat vakillariga xos lisoniy assotsiatsiyalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash, ijtimoiylik tabiatini ochib berish, gender xususiyatlarini yoritish; assotsiatsiyalarni raqamli bazalarga jamlash, turli yosh va guruhlarga xos hamda hududiy farqlanuvchi assotsiatsiyalar bazasini shakllantirish, turli tillarning milliy assotsiativ korpuslarini yaratish, assotsiativ ma’lumotlarni tahlil qilishning elektron dasturlarini ishlab chiqish, mavjud assotsiativ lug‘atlarni takomillashtirish, shuningdek, til korpuslari asosida assotsiativ aspektdagi tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish sohaning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Mana shu masalalar qatorida muayyan obyekt, xususan, millatlar, kishilar, turli kasb egalari, hayvonlar, qushlar, tabiat hodisalari, shaharlar va boshqa obyektlarning inson ongida shakllangan assotsiativ portretini tiklash hamda lisoniy assotsiatsiyalar vositasida tasvirini yaratish muhim ilmiy muammolardan biridir. Assotsiativ tilshunoslikda turli til birliklarining assotsiativ xususiyatlari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, inson tanasi a’zolarini anglatuvchi leksikaning assotsiativ xususiyatlari, kishilarning assotsiativ-somatik portretini hosil qilishdagi roli yetarlicha o‘rganilmagan. Ayniqsa, o‘zbek tili egalari lisoniy assotsiatsiyalarida millat kishilarining assotsiativ-somatik portreti milliy modeli alohida tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan. Mazkur muammolarni tadqiq etish milliy lisoniy ongning o‘zga xos xususiyatlarini ochib berishga, turli xalqlar ongida shakllangan o‘xshash va farqli tasavvurlarni qiyoslash orqali lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Zero, somatizmlar millatning lingvomadaniy kodlarini aks ettiruvchi birliklar bo‘lib, inson ongida juda boy assotsiativ maydonlarni hosil qiladi. Bunday assotsiatsiyalar maydoni nafaqat muayyan tilning xususiyatlarini, balki xalqning lisoniy ongi, tafakkuri, madaniyatini ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Словарь ассоциативных норм русского языка / Под ред. А.А. Леонтьева. – М., 1977. – 192 с.

2. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2. – М., URSS. 2010. – 328 с.

3. Postman L., Keppel G. (eds.). Norms of Word Association. – New York and London: Academic Press, 1970. – 943 p.; Kiss G.R., Armstrong C., Milroy R. The Associative Thesaurus of English. Edinburgh: Univ. of Edinb., MRC Speech and Communication Unit, 1972. – 1539 p.; Словарь ассоциативных норм русского языка / Под ред. А.А. Леонтьева. – М., 1977. – 192 с.

4. Караулов Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2. – М., URSS. 2010. – 328 с.

5. Луфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: “MERIYUS”, 2017. – Б. 124.

6. Овчинникова И.Г. Текстообразующая роль вербальных ассоциативных структур: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1986 б. – 23 с.; Мартинович Г. А. Вербальные ассоциации и организация лексикона человека // Филологические науки. – М., 1989. – № 3. – С. 39-45; Караулов Ю.Н. Активная грамматика и ассоциативно-вербальная сеть. – М.: ИРЯ РАН, 1999; Швецова В.М. Основные направления в изучении вербализованных ассоциаций в лингвистике // Актуальні проблеми філології. – Івано-Франківськ, 2013. – С. 73-76.

7. Власенкова И.Н. Принцип ассоциации в психодиагностических исследованиях XIX-XXI веков // https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-assotsiatsii-v-psihodiagnosticheskih-issledovaniyah-hih-hhi-vekov

8. Ждан А.Н. История психологии. От Античности до наших дней // http://www.psychol-ok.ru

9. Большая психологическая энциклопедия: http://psychology. academic.ru; Понятие «ассоциация» в психологии. Вербальные ассоциации. Ассоциативный эксперимент // http://studbooks.net/1703067/psihologiya/ ponyatie _assotsiatsiya_psihologii_verbalnye_assotsiatsii_assotsiativnyy_ eksperiment; Локк Ж. Опыт о человеческом разумении. В 4-х томах. (Перевод с анг. А.Н.Савина). – М.: Мысль, 1985. - С. 450-459.

10. Большая психологическая энциклопедия: http://psychology. academic.ru

11. Хитров А.В. Лоренс Стерн и британский ассоцианизм XVIII в. // Вопросы философии. – м.: Наука, 2008. - №1. – С. 133. (– С. 132-141)

12. Лутфуллаева Д., Аҳмедова А. Ассоциация термини ва унинг тилшунослик фанига кириб келиши // Theory and analytical aspects of recent research International scientific-online conference Part 1, Issue 5: May 31st 2022. – P. 445. (– P. 444-448)

13. Луфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: “MERIYUS”, 2017. – 140 б.

14. Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента: http: //www. textology.ru/article.aspx?aId=90

15. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 155.

16. Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883. – 148 с.; Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959. – 145 с.; Потебня А.А. Мысли и язык. // Сборник трудов. – М.: Лабиринт, 1999. – 330 с.

17. Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883. – С.68-69.

18. Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959. – С.18.

19. Kent G.H., Rosanoff A.J. A Study of Association in Insanity // American Journal of Insanity. 1910, - N 67. – P.37- 96; Miller G.A. Language and communication / N. Y., 1951. – 298 p.; Cofer Ch. N. Associative Commonality and Rated Similarity of Certain Words from Haagen’s List // Psychological Reports, 1957. V. 3. – P. 603- 606.

20. Луфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: “MERIYUS”, 2017. – Б. 6-7.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA ABDULQODIR NOQIS HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI

Usmonova Mohidil Laziz qizi
Qarshi davlat universiteti 1-kurs magistranti
mohidilusmonova365@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Kattaqo‘rg‘on adabiy maktabining yetuk namoyandasi bo‘lgan, biroq ijodi juda kam tadqiq etilgan Noqis Kattaqo‘rg‘oniy shaxsiyati va lirik merosining adabiyotshunoslikda o‘rganilganlik darajasi atroflicha tadqiq qilinadi. O‘zbek adabiyotshunosligi bilan bir qatorda, jahonda, xususan, turk adabiyotshunosligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlilga tortiladi va ulardagi fikrlarga munosabat bildiriladi. XX asrda yaratilgan “Tazkirat ush-shuaro”, “Tazkirai Qayyumiy” singari tazkiralardagi Noqis hayoti va ijodiga doir fikrlar qiyoslanadi hamda umumiy xulosalar chiqariladi. O‘sha davrda yaratilgan va Noqis she’riyatidan namunalar keltirilgan bayozlar haqida so‘z yuritilib, Tojikiston Fanlar akademiyasida saqlanayotgan “Bayozi Noqis” qo‘lyozmasiga alohida e’tibor qaratiladi. Shoir she’riyatidagi an’ana va izdoshlik masalalari o‘rganilib, Noqis lirikasidan tegishli misollar ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, tazkira, bayoz, qo‘lyozma, lirik meros, izdoshlik, g‘azal, muxammas.

THE STUDY OF ABDULKADIR NAKIS’S LIFE AND WORK IN LITERARY SCHOLARSHIP

Abstract. This article examines the extent to which the personality and lyrical heritage of Nakis Kattakurganiy, a leading but little-studied figure of the Kattakurgan literary school, have been investigated in literary scholarship. It analyses research conducted in Uzbek literary studies and abroad, and offers critical reflections on the views presented. Passages on Nakis’s life and works in twentieth-century tazkiras such as “Tazkirat ush-shuaro” and “Tazkirai Qayyumiy” are compared and general conclusions are drawn. Bayoz anthologies of the period containing samples of his poetry are discussed, with special attention to the manuscript “Bayozi Nakis” preserved at the Academy of Sciences of Tajikistan.

Key words: literary milieu, tazkira, bayaz, manuscript, lyrical heritage, followership, ghazal, mukhammas.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yurtimizda Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi mavjud bo‘lgan. Bu davr o‘zining nafaqat keskin siyosiy-ijtimoiy holati, balki madaniy-ma’naviy hayoti bilan tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. “Madaniy-ma’naviy hayot xonliklardagi siyosiy-ijtimoiy ahvolga qarab turli notekisliklar bilan davom etdi. Ayniqsa, Xivada, Buxoroda, Samarqandda bir qancha madrasa, xonaqohlar qurildi, turli hududlarda o‘nlab shoirlar, tarixchilar, xattotlar, tazkiranavislar, tarjimonlar yashab, faoliyat ko‘rsatdilar. Qo‘qon va Xivada saroy adabiy markazlari vujudga keldi” [5-228]. Ayni shu davrda bir-biridan farqlanuvchi, o‘ziga xos ijodiy an’analarga va uslubga ega bo‘lgan bir nechta yirik adabiy muhitlar vujudga keldi. Xususan, Qo‘qon adabiy muhiti (Amiriy, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy), Xiva adabiy muhiti (Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy), Buxoro adabiy muhiti (Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy) vakillari yaratgan nasriy va she’riy asarlar adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Bu yirik adabiyot maktablari ham, o‘z navbatida, kichik adabiy guruhlarga bo‘lingan. Jumladan, Buxoro amirligi negizida Samarqandda vujudga kelgan Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti shular jumlasidan. Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti vakillari bo‘lgan Noqis (Abduqodir Noqis), Nojiy (Qori Muhammadrasul Zubaydulloxo‘ja o‘g‘li), va Xolis (Sharof Qobulov) lirik merosi va she’riyatidagi uslub hamda g‘oyaviy yo‘nalishlar boshqa adabiy muhit vakillari ijodidan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, Noqis (asl ismi Abdulqodir Muhammadshokir o‘g‘li) she’riyati o‘zining xalqchilligi va badiiy jihatdan mukammalligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. Biroq shoir shaxsiyati va ijodiga oid juda kam ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular ham o‘sha davrda yaratilgan ayrim tazkiralarda uchraydi. Adabiyotshunosligimizda esa Noqis ijodi juda kam tadqiq qilingan. Shunday bo‘lsa-da, ijodkor tug‘ilgan yili, joyi, ta’limi va she’rlaridan ayrim namunalar bizgacha ishonchli manbalardan yetib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni bajarishda tarixiy, qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tizimlilik asosida mavzu xronologik ketma-ketlikda yoritildi.

Natija va muhokama. Dastlab, Buxorodagi “Naqibxo‘ja” madrasasida o‘qigan shoir tahsilni Buxorodagi “Ko‘kaldosh” madrasasida davom ettiradi. Buxorolik olim va shoir Ne’matullo Muhtaram o‘zining “Tazkirat ush-shuaro” asarida Noqis haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Noqis – taxallusi, olimi nek niyat, xarakteri fozil va komil iste’dod egasi, obro‘li so‘z ustasi, so‘z san’atkorlari orasida e’tiborli shaxs. Xoja mullam Abdulqodir Kattaqo‘rg‘onlikdir. Uning she’rlari xalq orasida mashhur. Darslik kitoblarini o‘qib tugatgach, Samarqand muftiysi mulla Burxonning xizmatiga kirgan, keyin esa o‘zining buyuk amallariga mashg‘ul bo‘lgan” [10]. Bundan tashqari, XX asrda Po‘latjon Domullo Qayyumov tomonidan tuzilgan 3 jildlik “Tazkirai Qayyumiy” asarining 2-jildida ham Noqis nomi zikr etiladi: “Bu shoir Kattaqo‘rg‘on shahridan bo‘lib, Buxoroda tahsil etmish olimlardandur. Boshda mudarris bo‘lub ekan, so‘ng‘ra dorulqazo muftiysi bo‘lub xizmat etmishdur. G‘oyat fozil va axloqi hamida sohibi munavvar ul fikr ulamolar jumlasidandur. Nomi Domullo Abdulqodir bo‘lub, 1927-yilda 67 yoshinda Kattaqo‘rg‘onda vafot etmishdur” [3-331]. Taskirada Noqisning “Xajringda dard-u g‘am bila hasratda dog‘man ” muxammasi keltirilgan.

Abdulqodir Noqis mumtoz adabiyot an’analarini munosib davom ettirgan holda bir qancha shoirlar g‘azallariga naziralar bitadi. Ayniqsa, shoir she’riyatida Navoiyga izdoshlik yaqqol sezilib turadi. Bu o‘sha davr uchun odatiy holga aylangan edi, sababi XIX-XX asrda yashab ijod etgan shoirlarning deyarli hammasi Navoiy ijodidan ilhomlanib, uning g‘azallariga tazmin bog‘lashgan. Quyida Noqisning Navoiyning “Xat” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasini keltiramiz:

Labing ganji nihoni uzra pech urmishmu ajdar xat,
Va yo ishq ahlini toroj etarg‘a yozdi lashkar xat,
Nazokatlar berib davri ruxingda atri anbar xat,
Yuzung yonidakim bosh chekti har yondin muattar xat,
Gul uzra mushkdin kilki qazo qilmish muharrar xat. [1-297]

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tashabbusi bilan tayyorlangan “Asrlar nidosi ” antalogiyasida Abdulqodir Noqis hayoti va ijodi haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi: “…U XIX asrning 80-yillaridayoq iste’dodli shoir sifatida shuhrat topdi. Noqisning g‘azallari “Armug‘oni Xislat”, “Bayozi Mahdiy”, “Vasilai jonon”, “Bayozi Jo‘rabek” nomli bosma va qo‘lyozma bayozlarga kiritilgan. Noqisning ana’naviy “Layli va Majnun” syujeti asosida doston yozganligi haqida ma’lumot bo‘lsa-da, bu asar hanuzgacha topilmagan. Bizgacha Noqisning 6000 misraga yaqin poetik asarlari yetib kelgan” [1-294]. Antologiyada Noqisning “Sizmusiz?”, “Xijil” radifli ga’zallari hamda “Dog‘man” radifli muxammasi keltiriladi. Quyidagi parchalardan biz Noqisning ta’bi nazmi nozik shoir bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mehr mohing, ohu chashming, gul jamolingdin xijil,
To‘ti nutqingdin xijil, bulbul maqolingdin xijil.
(“Xijil” radifli g‘azalidan)

Dahr aro, ey nozanin, xo‘blar sarosi sizmusiz,
Yo magar oyinai olamnamosi sizmusiz? [1-295]
(Sizmusiz? radifli g‘azalidan)

Shuningdek, mazkur to‘plamda qayd etilishicha, Noqis Mirarab madrasasida ham o‘qigan. Mirarab madrasasi mudarrisi mulla Burhoniddin Samarqandiy Noqisning ustozi sifatida unga diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga hamda shoirning iste’dodini shakllantirishga katta yordam bergan. Bu borada Noqis ham ustozini e’tirof etgan holda, unga bag‘ishlab tojik tilida “Marsiya baroi vafoti ustozano Mavlono Burhoniddin Samarqandiy muftiyi Mirarab” she’rini yozadi [10]. Yuqoridagi ma’lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Abdulqodir Noqis o‘z davrining eng yetakchi ilm dargohlari bo‘lgan Naqibxon, Ko‘kaldosh va Mirarab madrasalarida tahsil olgan. Shu sababdan ham

shoir yaxshi olim, iste'dodli va fazilatli so‘z ustasi, adabiyot olamida obro‘li va yetuk ijodkor bo‘lib yetishdi.

O‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘plab mumtoz shoirlar qatorida Abdulqodir Noqis hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha ham bir qancha muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu borada taniqli adabiyotshunos olim, akademik Vohid Abdullayevning xizmatlari alohida e'tirofga loyiq. Vohid Abdullayev adabiyotshunosligimizda Noqis ijodini o‘rganishni boshlab berdi. Olim Navoiyga bag‘ishlangan dissertatsiya, monografiya va maqolalarida Noqisni Kattaqo‘rg‘ondagi Navoiy izdoshlaridan biri sifatida tilga oladi: “ Navoiyga izdoshlik qilgan Kattaqo‘rg‘on, Jizzax kabi yirik shaharlarda adabiyot muxlislarining davralari maydonga keldi. XIX asrda shoirlardan … Kattaqo‘rg‘onda Shavqiy, Ochilmurod Miriy, Abduqodir Noqis, Dabiriy kabi shoirlar yetishib chiqqan” [2:20]. Vohid Abdullayev Noqisni Alisher Navoiy ijodidan ilhomlanib ijod etgan va uning g‘azallariga tazmin, muxammas bog‘lagan shoir ekanligini manbalar asosida tadqiq etadi.

Rahmonqul Orzibekov o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmasida Noqisni faqatgina XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘onda ijod etgan shoirlardan biri sifatida tilga oladi, shuningdek, Noqisning shoir Shavqiy qabrtoshiga yozdirgan vasfiy marsiya ruhidagi misralari va ta'rix she'rlari borligi haqida ma'lumot beradi [5-233].

Filolog olim Isomiddin Salohiddinov Noqis ijodini o‘rganish bo‘yicha sezilarli ishlar olib bordi. Jumladan, olim o‘zining “Noqis Kattaqo‘rg‘oniy va uning ijod yo‘li” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoirning bayozlarda mavjud she'rlarini bir joyga to‘plagan holda, ularni mavzu jihatdan tavsiflaydi va ulardagi izdoshlik an'analari, poetik mahorat kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. “Olim Isomiddin Salohiddinov shoirning 207 ta she'rini zamondoshlari bayozlari tarkibidan topishga muvaffaq bo‘ladi. Shulardan 48 tasi (17 muxammas, 26 g‘azal, 3 ruboiy, 1 masnaviy va 1 musaddas) o‘zbek tilida, 157 tasi (41 muxammas, 99 g‘azal, 8 tarix, 3 musaddas, 2 qit'a, 1 tarjiband, 1 maktub, 1 ruboiy, 1 barfiy) tojik tilida, qolgan ikki she'ri esa shir-u shakar shaklida bitilgan. O‘zbekcha she'rlari 1215 misrani, tojikcha she'rlari esa 3435 misrani, jami bo‘lib she'riyati 4682 misrani tashkil etadi” [9]. Biroq biz bu statistikani aniq deb ayta olmaymiz. Sababi, haligacha adabiyotshunosligimizda shoirning “Devoni Noqis' devoni hamda Tojikiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institute qo‘lyozmalar fondida 1005 raqam bilan saqlanayotgan “Bayozi Noqis” asari to‘liq o‘rganilmagan. Agar yuqoridagi manbalar ham to‘liq tadqiq etilsa, Noqis adabiy merosining hajmi oshishi ,shubhasiz, albatta.

Dunyo sharqshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, rus turkolog olimlari: Bertels, Bartold, Semenov, Krashnichovning Markaziy Osiyo, xususan, o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida Noqis faqatgina XIX asrda Buxoro amirligida yashagan shoir sifatida tilga olib ketiladi. Biroq ijodkor lirikasidan hech qanday misollar keltirilmaydi. Turk sharqshunoslari esa Noqisning bayozlar tarkibiga kirgan she'rlariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, doktor Recai Qiziltunch tomonidan yozilgan “Chig‘atoy adabiyotida antologiya an'anasi sifatida bayozchilik” kitobining bir qancha o‘rinlarida Noqis nomi tilga olinadi. Jumladan: “Bayoz an'analarining muhim bir tarmog‘i bo‘lgan dastxat qo‘lyozmalar Tojikistonda ham mavjud. Bugungi kunda mamlakat poytaxti Dushanbe shahridagi Firdavsiy nomidagi kutubxonada 13-raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozma “Bayozi Noqis”dir. Bu asarning asosiy muallifi Noqis ismli kotibga tegishli deb taxmin qilinadi. Biroq asarning turli sahifalarida boshqa mualliflarning qalamiga mansub matnlar ham bor. Bu matnlarning bir qismi Noqisning hayotligida, bir qismi esa uning vafotidan keyin qayd etilgan” [4-142]. Keltirilgan ma'lumot Noqis adabiy merosini aniqlash bo‘yicha juda muhim ahamiyatga ega. Sababi, shoirning Tojikistonda 2 ta bayozi bo‘lishi mumkin. O‘zbek adabiyotshunosligida faqatgina ularning bittasi, ya'ni Tojikiston

Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 1005 raqam bilan saqlanayotgan “Bayozi Noqis” asari ma’lum edi. Recai Qiziltunch bergan ma’lumotga qaraganda, Dushanbedagi Firdavsiy kutubxonasida ham yana bir Noqisga tegishli asar bo‘lishi mumkin. Biroq unda boshqa shoirlar ijodidan ham namunalar borligi ushbu asarning Buxoroda yaratilgan bayozlardan biri bo‘lib, unda Noqis she’rlaridan nisbatan ko‘proq kiritilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu bo‘yicha, fikrimizcha, kelajakda jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilishi kerak.

Recai Qiziltunch muallifi noma’lum, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tuzilgan “Majmuayi ash’or” tazkirasida Pisandiy, Roziy Hisoriy, Hiloliy, Hayo, Oshiq va Sa’diy kabi shoirlar qatorida Noqisni ham tilga oladi hamda uning fors va turkiy tilda turli janrlarda she’rlar yozganligini ta’kidlaydi. Bu bayoz Qo‘qon qog‘oziga nasta’liq xatida yozilgan [4-212]. Bu bayoz katta ehtimol bilan Fazliy Namangoniy qalamiga mansub bo‘lishi mumkin. Ammo olim Fazliy Namangoniy asari yuqorida nomi keltirilgan tazkiraga asos bo‘lib xizmat qilgan deb ta’kidlab o‘tadi [4-234]. Biroq bu ma’lumot to‘g‘ri emas deb hisoblaymiz. Sababi, manbalarda keltirilishicha: “Fazliy “Majmuai shoiron” («Shoirlar majmuasi”, 1821) tazkirasini tuzgan. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she’riy yo‘l bilan yaratilgan mazkur tazkirada 19-asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma’lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud”[7]. Ko‘rinadiki, Fazliyning ushbu tazkirasi 1821-yilda, ya’ni XIX asr boshida yaratilgan va ,asosan, Qo‘qon xonligida faoliyat yuritgan shoirlar nomi tilga olingan. Noqis esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijod etgan. Fikrimizcha Recai Qiziltunch Mirsiddiq Hashmat tomonidan tuzilgan “Tazkirat ush-shuaro” asarini nazarda tutyapti. “Buxoro amiri Abdulahadxonning ukasi, Said Mir Muhammad Siddiq Hashmat tuzgan “Tazkirat ush-shuaro” nomli tazkirada amirlikda yashab, ijod qilgan 60 dan ortiq shoir, ularning taxallusi, tarjimayi holi, mashhur she’rlari haqida so‘z boradi”. Ushbu tazkira XIX asr oxiri va XX asr boshida Buxoro, Samarqand va Toshkentda yashab ijod qilgan shoir va olimlarga bag‘ishlanadi” [6:183].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunosligimizda Abdulqodir Muhammadshokir o‘g‘li Noqis hayoti va ijodi to‘liq tadqiq etilmagan. Shoir ijodiga bag‘ishlangan kam sonli manbalargina bo‘lib, mavjudlari ham ijodkorning sanoqli she’rlaridan tashkil topgan, xolos. Ammo ularning poetik xususiyatlariga to‘xtalinmaydi. Asosan, o‘tgan asrning 60-yillarida yaratilgan adabiyotlarda Noqis she’rlari davr mafkurasi va siyosiy nuqtayi nazardan sharhlanadi. Bu esa ularni qayta ko‘rib chiqish zarurati borligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Asrlar nidosi” (antologiya): – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. 294-296 b.

2. Rahmatova D. “Vohid Abdullayev ilmiy faoliyatining adabiyotshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni” dissertatsiya avtoreferati (Phd), Samarqand-2024. 20b.

3. Po‘latjon Domillo Qayyumov: Taskirai Qayyumiy. – Toshkent: 1998. 331-332b.

4. Recai Qiziltunch. Chig‘atoy adabiyotida antologiya an’anasi sifatida bayozchilik, Fenomen nashriyoti-2015. 142b.

5. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. (o‘quv qo‘llanma), Toshkent-2006. 228-233b.

6. Qorayev Sh. Buxoro amiri Sayyid Abdulahadning Mirzachorbog‘ saroyidagi adabiy kechalari // “Ma’rifatli jamiyat: mazmun va mohiyat, ijtimoiy-falsafiy aspekti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 183b.

7. Fazliy (XVIII-XIX asr)

8. Noqis tarjimai holi. G‘azallari va Navoiy g‘azalliga muxammas.

9. https://share.google/tQjKNVzn3Yf9Le2F4

IDIOSTIL KATEGORIYASI VA UNING POETIK SINTAKSIS TAHLILIDAGI O‘RNI

Shodmonova D.E.
Qarshi davlat universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
dildor shodmonova@mail.ru
ORCID 0009-0004-5428-7040

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnning muhim lingvopoetik kategoriyalaridan biri bo‘lgan idiostilning nazariy mohiyati hamda uning poetik sintaksis vositasida namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etiladi. Idiostil muallifga xos leksik birliklar majmui sifatida emas, balki til birliklarini tanlash, joylashtirish, takrorlash va funksional aktuallashtirishning individual-estetik tizimi sifatida talqin qilinadi. Individual uslub, idiolekt va idiostil tushunchalarining o‘zaro munosabati yoritilib, sintaktik parallelizm, anafora, epifora, takror, inversiya, ellipsis, ritorik so‘roq va gradatsiyaning badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qisqa va kengaytirilgan sintaktik konstruksiyalarning ritm, emotsional holat va mazmunni shakllantirishdagi roli ham aniqlanadi. Natijada idiostilni sintaktik parametrlar asosida o‘rganishning amaliy modeli taklif etiladi. Model muallif uslubini aniq baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: idiostil, individual uslub, idiolekt, poetik sintaksis, lingvopoetika, badiiy matn, sintaktik parallelizm, takror, inversiya.

THE CATEGORY OF IDIOSTYLE AND ITS ROLE IN THE ANALYSIS OF POETIC SYNTAX

Abstract. This article examines the theoretical essence of idiostyle as a linguopoetic category and its role in poetic syntax analysis. Idiostyle is interpreted not merely as an author’s lexical preferences, but as an individual-aesthetic system of selecting, organizing, repeating and functionally actualizing linguistic units. The relationship between individual style, idiolect and idiostyle is discussed. Syntactic parallelism, anaphora, epiphora, repetition, inversion, ellipsis, rhetorical questions and gradation are analysed in terms of their expressive functions. The role of short and extended syntactic constructions in shaping rhythm, emotion and meaning is also identified. A practical model for analysing idiostyle through syntactic parameters is proposed.

Key words: idiostyle, individual style, idiolect, poetic syntax, linguopoetics, literary text, syntactic parallelism, repetition, inversion.

Kirish. Badiiy matn tilini tadqiq etishda muallifning individual nutqiy xususiyatlarini aniqlash alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki badiiy asar umumxalq tilining tayyor birliklaridan tashkil topgan bo‘lsa-da, ularning tanlanishi, o‘zaro birikishi, matn tarkibida joylashishi va yangi estetik vazifa bilan qo‘llanishi ijodkorning individual poetik tafakkuri bilan bog‘liq. Shu ma’noda badiiy matnni faqat tilning umumiy me’yorlari asosida tahlil qilish muallif uslubining o‘ziga xosligini to‘liq ochib bera olmaydi.

Individual uslub masalasi lingvistik tadqiqotlarda uzoq tarixga ega. V.V. Vinogradov individual uslubni yozuvchining badiiy maqsadiga muvofiq ravishda til vositalarini individual-estetik tanlash, anglash va joylashtirish tizimi sifatida talqin qiladi.[1,85.] Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ijodkor uslubini alohida so‘z yoki grammatik shakl bilan emas, balki turli til birliklarining matn ichidagi tizimli munosabati bilan izohlash mumkin.

Keyingi tadqiqotlarda “idiostil” atamasi individual uslubning lingvistik jihatlarini yanada aniqroq ifodalash uchun qo‘llanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda idiostil muallifning matnlarda namoyon bo‘ladigan lingvokognitiv va estetik xususiyatlari bilan bog‘liq tizim sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, idiolekt va idiostilni aynanlashtirmaslik, ularning funksional chegaralarini belgilash zarurligi ham ta’kidlanadi.[2]

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish, unda til birliklarining poetik aktuallashuvi va badiiy-estetik vazifalarini aniqlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. M. Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasi bo‘yicha ishlari mazkur yo‘nalishning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirishga xizmat qilgan.[3]

Poetik sintaksis esa ushbu masalani muallifning gap qurish usuli, sintaktik

figuralardan foydalanish darajasi, ritm va intonatsiyani tashkil etish usullari orqali chuqurlashtirish imkonini beradi. So‘nggi tadqiqotlarda poetik sintaksis badiiy matnda qo‘llangan sintaktik vositalarning ifodalilik va estetik funksiyasini tizimli o‘rganadigan yo‘nalish sifatida ko‘rsatilmoqda.[4, 328.]

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi idiostil kategoriyasining nazariy mazmunini aniqlash hamda poetik sintaksis vositalarining muallif individual uslubini shakllantirish va namoyon etishdagi rolini asoslashdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun idiostil, individual uslub va idiolekt tushunchalarining o‘zaro munosabatini aniqlash, idiostilning lingvopoetik mohiyatini yoritish, poetik sintaksis vositalarini tizimlashtirish va ularning badiiy-estetik funksiyalarini belgilash vazifalari qo‘yildi. Shuningdek, sintaktik birliklarning muallif idiostilini shakllantirishdagi rolini aniqlash hamda idiostilni poetik-sintaktik mezonlar asosida tadqiq etish modelini ishlab chiqish ko‘zda tutildi.

Shundan kelib chiqib, maqolaning asosiy muammosi idiostilning poetik sintaksisda qanday namoyon bo‘lishi va sintaktik birliklarning muallif individual uslubini aniqlashdagi diagnostik imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda lingvopoetik, tavsifiy, kontekstual, qiyosiy-tipologik va funksional-semantik metodlardan foydalanildi. Badiiy matndagi sintaktik birliklar ularning faqat grammatik shakliga ko‘ra emas, balki matndagi vazifasi, takrorlanish darajasi, semantik yuklamasi, ritmik xususiyati va boshqa birliklar bilan munosabati asosida tahlil qilindi.

Bunda muhim metodologik tamoyil shundan iboratki, idiostilni bitta sintaktik hodisa asosida aniqlash mumkin emas. Muayyan sintaktik vositaning bir marta qo‘llanishi hali muallifga xos uslubiy belgi bo‘la olmaydi. Idiostilni aniqlash uchun muayyan vositaning muntazamligi, funksional barqarorligi va boshqa badiiy vositalar bilan tizimli aloqasi hisobga olinishi kerak.

Muhokama va natija.

Idiostil tushunchasining lingvistik mohiyati

“Idiostil” tushunchasi “individual uslub” tushunchasi bilan semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda u muallif nutqining o‘ziga xosligini tizimli ravishda o‘rganishga xizmat qiluvchi termin sifatida shakllangan. Idiostilni ijodkorning til vositalaridan foydalanishida takroran kuzatiladigan individual tanlov va tashkil etish tamoyillari majmui sifatida belgilash mumkin.

Bu yerda ikki jihat muhim:

Birinchidan, idiostil umumxalq tilidan tashqarida mavjud bo‘lgan alohida “muallif tili” emas.

Ikkinchidan, idiostil umumiy til birliklarining ijodkor tomonidan muayyan estetik maqsad asosida tanlanishi va tashkil qilinishi natijasida yuzaga keladi.

V.V. Vinogradov individual uslubning dinamik xarakterini alohida ta’kidlaydi: yozuvchi ijodida uslub vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, turli janrlarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. [1, 49.] Bu fikr idiostilni statik “belgilar ro‘yxati” sifatida emas, balki rivojlanib boruvchi tizim sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy idiostil tadqiqotlarida esa muallifning individual konseptual tizimi, dunyoni idrok etish modeli va qadriyatlar tizimi ham muhim omillar sifatida qaraladi. Demak, idiostilning shakliy ko‘rsatkichi bilan uning mazmuniy-kognitiv asosi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud.

Idiostilni to‘g‘ri tushunish uchun unga yaqin uch tushunchani, ya’ni idiostil, idiolekt va individual uslubni farqlash zarur.

Idiolekt – shaxsning tilni individual qo‘llash xususiyatlari bilan bog‘liq hodisa.

Individual uslub – ijodkorning badiiy-estetik maqsadga muvofiq til vositalarini

tanlashi va tashkil etishidagi o‘ziga xoslik.

Idiostil esa mazkur individual xususiyatlarning badiiy matnda tizimli, funksional va estetik jihatdan namoyon bo‘lishini ifodalovchi kategoriya sifatida qaralishi mumkin. Shu sababli yozuvchining kundalik nutqidagi individual xususiyatlar bilan uning badiiy asarlarida shakllangan idiostilini aynanlashtirish to‘g‘ri emas. Badiiy idiostil ijodkorning estetik niyati, janr, mavzu, obrazlar tizimi va kompozitsiya bilan o‘zaro aloqada shakllanadi.

Poetik sintaksis badiiy matnda sintaktik birliklarning estetik, ekspressiv va kompozitsion imkoniyatlarini o‘rganadi. Bunda gapning faqat grammatik tuzilishi emas, uning badiiy mazmunni shakllantirishdagi roli ham muhimdir.

Masalan, bir xil mazmun turli sintaktik shakllarda berilganda turlicha estetik taassurot hosil qiladi. Abdulla Oripov she’riyatidan keltirilgan misollar bilan izohlaymiz.

Bu joylarga nega keldim men,
Qiziqmasam unut chiroyga,
Nechun kelib boshim egdim men
Hasratlarim ko‘milgan joyga

Oddiy nasriy sintaksisda birinchi misradagi bu fikr *“Men bu joylarga nega keldim?”* tarzida berilishi mumkin edi. So‘z tartibining poetik maqsadda o‘zgartirilishi “*nega keldim men*” birikmasiga kuchliroq urg‘u beradi. Bu yerda inversiya bir necha vazifani bajaradi, ya’ni men so‘zini sintaktik va semantik jihatdan ajratib ko‘rsatadi, misraning ritmik tuzilishini ta’minlaydi hamda savolning oddiy axborot mazmunidan ko‘ra uning ruhiy, iztirobli xususiyatini kuchaytiradi. Xuddi shu hodisa uchinchi misrada ham takrorlanadi. Birinchi va uchunchi misralardagi inversiya tasodifiy emas, balki sintaktik parallelizm hosil qiluvchi vositadir.

Parallelizm ikki yoki undan ortiq sintaktik konstruksiyaning o‘xshash model asosida tuzilishidir. Birinchi va uchunchi misralarning qurilishi bir biriga yaqin. Har ikki misrada sababni anglatadigan so‘roq komponent – *“nega”, “nechun”* mavjud, *“men”* olmoshi gap oxirida kelyapti. Fe’llar: *“keldim” – “egdim”* markaziy o‘rinda bo‘lib, gaplarning sintaktik qurilishi bir–biriga parallel. Demak, sintaktik shakl mazmunning emotsional talqiniga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Poetik sintaksisni o‘rganishning asosiy qiymati ham ana shunda: u shakl va mazmunning badiiy matndagi uzviyligini ochib beradi.

Sintaktik takror – idiostilning muhim ko‘rsatkichidir. Takror poetik sintaksisning eng faol vositalaridan biridir. Takror orqali muallif ma’lum so‘z yoki sintaktik konstruksiyaga mazmuniy urg‘u beradi, ritm yaratadi va hissiy holatni kuchaytiradi.

Abdulla Oripov ijodidan quyidagi misolni olaylik:

Achinmayman, sizga, o‘ylarim,
Achinmayman, sizga, uzun tun.
Achinmayman, chunki otashga –
Oq yo‘l berar odatda uchqun!

“Achinmayman, sizga” konstruksiyasining takroran qo‘llanishi uch xil vazifani bajargan: birinchidan, she’rning mazmuniy markazini belgilagan, ikkinchidan ritmik yaxlitlikni ta’minlagan; uchinchidan esa lirik kechinmaning uzluksizligi va davomiyligini kuchaytirgan.

Agar muayyan ijodkorning ko‘plab asarlarida shu kabi sintaktik takrorlar muntazam uchrasa, ularni uning idiostilini tavsiflovchi ko‘rsatkich sifatida o‘rganish mumkin.

Shu o‘rinda muhim metodik masala mavjud: takrorning mavjudligi emas, balki uning qanday tashkil etilgani va qanday funksional vazifa bajarayotgani idiostil uchun muhimdir.

Poetik matnda sintaktik qurilmalarning tanlanishi va ularning muayyan tartibda

takrorlanishi ijodkorning individual uslubini, ya'ni idiostilini namoyon etuvchi muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shoirning bir xil sintaktik model, takroriy konstruksiya yoki muayyan gap qurilishidan muntazam foydalanishi nafaqat she'rning ohangdorligini ta'minlaydi, balki lirik qahramonning ruhiy holati, kechinmalari va ichki ziddiyatlarini ifodalashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan poetik sintaksisni o'rganish jarayonida takrorning shakliy ko'rinishi bilan bir qatorda, uning matndagi semantik, ekspressiv va ritmik vazifalarini ham hisobga olish muhimdir.

Anafora poetik sintaksisning faol qo'llanadigan vositalaridan biri bo'lib, sintaktik birliklar yoki misralar boshida bir xil so'z, so'z birikmasi yoxud konstruksiyaning takrorlanishi orqali yuzaga keladi. Epifora esa, aksincha, sintaktik birliklarning oxirida bir xil komponentning takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Har ikkala hodisa ham she'riy nutqning kompozitsion yaxlitligini kuchaytirish, muayyan mazmuniy markazni ajratib ko'rsatish va lirik kechinmaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq takrorning mavjudligi o'z-o'zidan uni ijodkor idiostilining belgisi sifatida baholash uchun yetarli emas. Buning uchun takrorlanayotgan birlikning tabiati, uning matn tarkibida uchrash chastotasi, misra yoki gapning qaysi pozitsiyasida kelishi, qanday semantik yukka ega ekani va ritmik vazifasi kompleks tarzda tahlil qilinishi lozim.

Masalan, quyidagi misralarda:

Qaydasan qalbimni tirnagan so'roq,
Qaydasan, ilhom baxsh aylagan onlar?
Qaydasan, men seni unutgim kelmas,
Umr yo'llarimning totli damlari?

"Qaydasan" birliklarining misralar boshida ketma-ket takrorlanishi anaforik konstruksiyani yuzaga keltirgan. Mazkur takror she'rning asosiy mazmuniy markazini aynan shu birlik atrofida birlashtiradi. "Qaydasan" shaklining takrorlanishi tashqi jihatdan oddiy so'roq mazmunini ifodalagandek ko'rinsa-da, kontekstda u lirik qahramonning sog'inch, izlash, armon va ichki ehtiyoj kabi ruhiy holatlarini mujassamlashtiradi. Birinchi misrada "qaydasan" so'rog'i "qalbimni tirnagan so'roq" birikmasi bilan bog'lanib, ruhiy bezovtalikni ifodalasa, keyingi misralarda uning semantik doirasi kengayib, ilhom, xotira va umrning shirin damlarini izlash ma'nolarini qamrab oladi. Demak, takrorlanayotgan birlik har bir misrada bir xil shaklda kelgani bilan, uning mazmuni kontekstga qarab rivojlanib boradi.

Epifora esa takrorning qarama-qarshi pozitsion ko'rinishi bo'lib, sintaktik birliklar, misralar yoki gaplarning yakuniy qismida bir xil so'z, birikma yoki konstruksiyaning takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Epiforada takrorning asosiy ta'sir kuchi sintaktik birlikning oxirgi pozitsiyasiga jamlanadi. Natijada takrorlanayotgan komponent misra yoki gapning mazmuniy yakunini belgilaydi, fikrni ta'kidlaydi va she'riy nutqda o'ziga xos intonatsion tugallik hosil qiladi. Ayniqsa, hissiy jihatdan kuchli so'z yoki iboraning misralar oxirida qayta-qayta kelishi lirik kechinmaning davomiyligi, qaytariluvchanligi yoki ichki kuchlanishini ifodalashga yordam beradi.

Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.

Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ridan keltirilgan parchada "sening" leksemasining misralar oxirida takrorlanishi epiforaning yorqin namunasi hisoblanadi. Epifora sintaktik jihatdan misralarning yakuniy pozitsiyasida joylashib, ta'kid, intonatsion tugallik, ritmik yaxlitlik va emotsional-ekspressivlikni ta'minlagan. Takrorlanuvchi "sening" komponenti "koshonang" va "peshonang" birliklarini semantik jihatdan birlashtirib, tasvirning markaziy obyektini alohida ta'kidlaydi.

Epifora *"asrlarning silsilasi", "boqiy", "ulug' bashar", "mangu", "yorug'"* kabi

yuqori poetik bo‘yoqdor birliklar bilan birgalikda qo‘llanib, tasvirlanayotgan obrazning abadiyligi, ulug‘ligi va umuminsoniy ahamiyatini kuchaytiradi. Shu jihatdan epifora ijodkor idiostilida takroriy shakl emas, balki milliy-tarixiy mazmunni emotsional va ritmik jihatdan kuchaytiruvchi poetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Epiforaning idiostilni aniqlashdagi ahamiyati shundaki, u shoirning mazmunni yakuniy nuqtaga jamlash usulini ko‘rsatadi. Misralar oxirida bir xil birlikning takrorlanishi orqali ijodkor muayyan tushuncha, obraz yoki hissiy holatni ta’kidlab boradi. Bunda takrorlanayotgan birlik oddiy grammatik komponent vazifasidan chiqib, matnning semantik tayanchiga aylanishi mumkin. Masalan, biror so‘zning har bir misra oxirida takrorlanishi uning lug‘aviy ma’nosini saqlab qolish bilan birga, kontekst ta’sirida yangi emotsional va ramziy ma’nolar bilan boyishiga olib keladi. Shu tariqa epifora ijodkorning so‘zga poetik yuk berish usulini ham namoyon etadi.

Inversiya va muallifning sintaktik tanlovi

Inversiya gap bo‘laklarining odatiy joylashuvini o‘zgartirish orqali muayyan komponentni ta’kidlash imkonini beradi.

Poetik nutqda inversiyaning vazifasi yanada kengayadi. Inversiya ijodkorning individual uslubini, ya’ni idiostilini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda faqat inversiyaning mavjudligini qayd etish emas, balki muallif nima sababdan aynan shu sintaktik tartibni tanlaganini aniqlash lozim. Agar ijodkor muayyan gap qurilishlarini muntazam ravishda o‘zgartirib, ulardan semantik urg‘u, ritm yoki hissiy ta’sir yaratishda foydalansa, bunday sintaktik tanlov uning individual poetik uslubini belgilovchi vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shunday qilib, inversiya poetik sintaksisda mazmun, ohang, ritm va ekspressivlikni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Uning badiiy qiymati gap bo‘laklarining oddiy o‘rin almashishida emas, balki shu o‘zgarish natijasida yuzaga keladigan qo‘shimcha ma’no va hissiy ta’sirda namoyon bo‘ladi. Shu sababli inversiyani tahlil qilishda uning grammatik qurilishi bilan bir qatorda, semantik, ritmik va uslubiy vazifalarini ham hisobga olish muhimdir.

Masalan:

Shamol tun bo‘yi shovulladi o‘rniga:

Shovulladi tun bo‘yi shamol

shaklining tanlanishi sintaktik jihatdan mumkin bo‘lgan boshqa variantdan ekspressivligi bilan farqlanadi. Abdulla Oripov ana shu 8 misradan iborat sher’rini tahlil qilamiz:

Shovulladi tun bo‘yi shamol
Qaldiroqlar ko‘chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
“Yana keldi, do‘stginam, bahor”.
Shovulladi tun bo‘yi shamol
Qorliklarda o‘chdi izimiz.
Shivirlading yonimda xushhol:
“Mangu birmiz, do‘stim, ikkimiz.

She’rda kesimning gap boshiga chiqarilishi harakatni mazmuniy markazga olib chiqsa, “shamol” so‘zining misra oxirida kelishi semantik urg‘u va ritmik yaxlitlikni kuchaytiradi. Misraning takrorlanishi esa she’r qismlarini bog‘lab, kompozitsion yaxlitlik hosil qiladi.

“Qaldiroqlar ko‘chdi larzakor” va “Shivirlading yonimda xushhol” misralarida ham kesimning faol pozitsiyasi harakat va tovush obrazini kuchaytiradi. “Shovulladi”, “ko‘chdi”, “shivirlading” fe’llari orqali kuchli tabiat manzarasidan insoniy yaqinlik va ichki kechinmaga o‘tiladi.

“Qorliklarda o‘chdi izimiz” misrasida “o‘chdi” kesimining oldinga chiqarilishi

hodisani ta’kidlaydi, “izimiz”ning misra oxirida kelishi esa xotira va umumiy taqdir mazmunini kuchaytiradi. “Mangu birmiz, do‘stim, ikkimiz” misrasida “ikkimiz” so‘zi yakuniy pozitsiyada kelib, ikki inson o‘rtasidagi mustahkam rishtani ifodalaydi. “Do‘stginam”, “do‘stim” murojaatlari esa lirik nutqqa samimiylik va hissiylik baxsh etadi.

Umuman, she’rda uyg‘unlashib, mazmun, ritm va hissiy ta’sirni kuchaytirgan. Inversiyaning qo‘llanishi Abdulla Oripov idiostiliga xos poetik sintaksisning muhim belgilaridan biri bo‘lib, u harakatni ta’kidlash, semantik markazni belgilash va she’riy ritmni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ritorik so‘roq

Ritorik so‘roq badiiy nutqda javob olish maqsadida emas, balki hissiy yoki mantiqiy urg‘uni kuchaytirish uchun qo‘llanadi. Masalan:

Faqat visolingni kuylasam derdim,
Ne qilib qo‘yding sen, bevafo dildor.
Ne qilib qo‘yding sen?! Alvido demak
Nahot, shuncha oson sevgan ko‘ngilga?!

Bu gaplarning kommunikativ mazmuni oddiy savoldan farq qiladi. Ular lirik qahramonning ichki holatini ifodalaydi. O‘quvchini fikrlashga undash va muayyan mazmuniy nuqtaga e’tibor qaratish uchun xizmat qiladi.

Ritorik so‘roqning idiostilga aloqadorligini aniqlashda uning boshqa sintaktik vositalar bilan birikishi ham muhim. Masalan, ritorik so‘roq anafora yoki takror bilan birgalikda kelganda emotsional ekspressivlik yanada kuchayishi mumkin.

Ushbu parchada **“***Ne qilib qo‘yding sen?”* konstruksiyasining takrorlanishi ritorik so‘roqning mazmuniy markazini hosil qilib, lirik qahramonning ayriliqdan kelib chiqqan iztirobini kuchaytirgan. Takror matnga ritmik va psixologik yaxlitlik bergan.

“Ne qilib qo‘yding sen?!” shaklida so‘roq va undov belgilarining birikishi hissiy zo‘riqishni yanada oshiradi. *“Bevafo dildor”* murojaatida *“bevafo”* va *“dildor”* so‘zlarining mazmuniy qarama-qarshiligi qahramonning muhabbat va ranjish holatini ifodalaydi.

“Nahot, shuncha oson sevgan ko‘ngilga?!” konstruksiyasi esa ishonchsizlik va norozilikni bildiradi. *“Nahot”* yuklamasi savolning ekspressivligini kuchaytirib, ayriliqning qabul qilib bo‘lmasligini ta’kidlaydi.

Aytish mumkinki, ritorik so‘roq, takror, murojaat va undovning uyg‘un qo‘llanishi lirik kechinmaning kuchini oshirgan. Shu jihatdan ritorik so‘roq ijodkorning individual sintaktik tanlovi va idiostilini namoyon etuvchi muhim poetik vosita hisoblanadi.Shu jihatdan ritorik so‘roq ijodkorning individual sintaktik tanlovini namoyon etuvchi va uning idiostilini belgilashga xizmat qiluvchi poetik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Gradatsiya va sintaktik dinamika

Gradatsiya mazmunning bosqichma-bosqich kuchayishi yoki susayishini ifodalaydi. Masalan:

Shamol uvillaydi,
Qop, bo‘ron toshib,
Tepalik to‘shiga o‘zni uradi.

Ushbu parchada gradatsiya mazmun va harakatning bosqichma-bosqich kuchayishi orqali yuzaga kelgan. *“Uvillaydi → toshib → o‘zni uradi***”** fe’l shakllari harakatning oddiy holatdan tobora kuchli va keskin holatga o‘tishini ifodalaydi. Ya’ni shamolning uvillashidan bo‘ronning toshib, tepalikka o‘zini urishigacha bo‘lgan jarayon kuchayib boruvchi gradatsiyani hosil qiladi.

Sintaktik jihatdan qisqa, ketma-ket konstruksiyalarning qo‘llanishi sintaktik dinamikani kuchaytirib, she’rga tezkor ritm va harakatlilik beradi. Gradatsiya va sintaktik dinamikaning uyg‘unligi tabiat manzarasidagi kuchli dramatizmni ochib, ijodkorning

dinamik va obrazli tasvirga asoslangan idiostilini namoyon etadi. Gradatsiya muallifning fikrni statik tarzda emas, balki jarayon sifatida berish uslubini namoyon qilishi mumkin. Shuning uchun bunday qurilmalarni idiostil tahlilida semantik-sintaktik dinamika nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiq.

Qisqa va keng sintaktik konstruksiyalar

Muallif idiostilini aniqlashda gaplarning o‘rtacha uzunligi ham muhim parametr bo‘lishi mumkin. Qisqa gaplar ko‘pincha dinamizm, keskinlik, dialogiklik yoki ichki ruhiy zo‘riqishni ifodalashga xizmat qiladi. Keng va murakkab konstruksiyalar esa fikrning izchil rivoji, tasvirning batafsilligi yoki murakkab psixologik holatlarni berishda faol ishlatilishi mumkin.

Biroq bu yerda ham qat’iy formula qo‘llash mumkin emas. Bir xil sintaktik shakl turli mualliflarda turlicha estetik vazifani bajarishi mumkin. Shuning uchun statistik ko‘rsatkich funksional-kontekstual tahlil bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Idiostilni poetik-sintaktik tahlil qilish modeli

Tadqiqot natijasida idiostilni poetik sintaksis asosida tahlil qilish uchun quyidagi ketma-ketlikni taklif etish mumkin:

Bosqich	Tahlil obyekti	Asosiy savol
1	Sintaktik birlik	Qaysi konstruksiya ishlatilgan?
2	Chastota	U qanchalik muntazam takrorlanadi?
3	Pozitsiya	Konstruksiya matnning qaysi qismida keladi?
4	Funksiya	U qanday badiiy vazifa bajarmoqda?
5	Semantika	Qaysi ma’no yoki hissiy holatni kuchaytiradi?
6	Ritm	Qanday ritmik ta’sir hosil qiladi?
7	Komplekslik	Boshqa sintaktik vositalar bilan qanday bog‘langan?
8	Idiostil	Ushbu xususiyat muallifning umumiy uslubida qanday o‘rin tutadi?

Poetik sintaksisga bag‘ishlangan yangi tadqiqotlarda esa sintaktik figuralarning badiiy matnning ifodaliligi va estetik ta’sirchanligini shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanmoqda.[5] Demak, idiostilni poetik sintaksisdan ajratib o‘rganish muallif uslubining muhim mexanizmlarini nazardan chetda qoldirishi mumkin.

Xulosa. Idiostil badiiy ijodkorning til vositalaridan foydalanishidagi individual-estetik tizimni ifodalovchi murakkab lingvopoetik kategoriya hisoblanadi. U alohida leksik birlik yoki grammatik shakl bilan cheklanmaydi, balki til birliklarining tanlanishi, kombinatsiyasi, takrorlanishi va matn tarkibida funksional aktuallashuvi orqali yuzaga keladi.

Poetik sintaksis idiostilni o‘rganishning muhim va samarali yo‘nalishlaridan biridir. Chunki sintaktik qurilish muallifning fikrni tashkil etish usuli, ritmik qarashlari, emotsional ifoda strategiyasi va badiiy-estetik maqsadini namoyon etadi.

Takror, anafora, epifora, sintaktik parallelizm, inversiya, ellipsis, ritorik so‘roq va gradatsiya kabi vositalar poetik matnning mazmuniy va estetik tuzilishida faol qatnashadi. Ularning idiostilga aloqadorligini aniqlash uchun esa faqat mavjudlik mezoni yetarli emas. Chastota, funksional barqarorlik, kontekstual vazifa va boshqa sintaktik vositalar bilan tizimli aloqadorlik birgalikda hisobga olinishi kerak.

Shunday qilib, idiostilni poetik sintaksis asosida o‘rganish “muallif qanday vositadan foydalangan?” degan savoldan tashqari, “u vositani nega aynan shu shaklda

tanlagan, qanday tizimda qo‘llagan va badiiy mazmunning qaysi qatlamini shakllantirgan?” degan savollarga javob berishni talab qiladi.

Bunday yondashuv badiiy matnni formal grammatik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki shakl, mazmun, ritm, emotsiya va muallif konsepsiyasi birlashgan yaxlit estetik tizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1959. – 654 с. Djvu Online

2. Xuramova D.R., Akhmedova F.A. Idiolect and Idiostyle. Linguistic Outlines of Learning // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Vol. 2, No. 2. – P. 695–699. Innovative Academy

3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

4. Qodirbayeva U. Poetik sintaksis birliklari va ularning o‘ziga xosliklari // O‘zMU XABARLARI. – 2024. – J. 1, № 1.6.1. DOI: 10.69617

5. Абдупаттоев М. Идиостил – муаллифнинг нутқий ўзига хослиги // O‘zbek va tojik adabiyotida zullisonaynlik an’anasi. – 2024. – Vol. 1, No. 1. TeePublic

6. Sydorenko I. The Notion of Idiostyle in Linguistic Studies of Literary Texts // Advanced Linguistics. – 2018. – No. 1. DOI: 10.20535/2617–5339.2018.1.148751. al.fl.kpi.ua

7. Povoroznyuk V.M. Огляд теоретичних підходів до трактування поняття «ідіостиль» // Наукові записки Національного університету «Острозька академія». – 2016. – Вип. 62. – С. 275–278. eprints.oa.edu.ua

8. Rahmonova Z. Alisher Navoiy g‘azallarida poetik sintaksis hodisasi (professor Bahodir Sarimsoqov tadqiqotlari asosida) // Uzbekistan: Language and Culture. – 2025. – Vol. 1, No. 1. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2025.1/TWIL9940. uzlc.tsuull.uz

9. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 248 b.

10. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 136 b.

11. Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.

13. Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. – Москва: Просвещение, 1990.

14. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.

15. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.

NAMANGAN VILOYATI OYKONIMIYASINING RAQAMLI TADQIQI: KORPUS TUZISH TAJRIBASI VA STRUKTUR-SEMANTIK TAHLIL

Ne'matova Yulduz
Qarshi davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
yulduznematova7@gmail.com
UDK 81'373.21 (575.122)

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati oykonimiyasini raqamli usulda tadqiq etishning dastlabki tajribasi bayon etiladi. Viloyatning 11 ta tumani, 8 ta shahri va 115 ta shaharchasi nomlaridan iborat 134 ta yozuvli (123 ta takrorlanmas birlik) korpus tuzildi va unda toponimik indikatorlarni avtomatik ajratish, semantik-motivatsion tasniflash hamda imloviy variativlikni aniqlash bosqichlari o'tkazildi. Nomlarning 35,8 foizi (44 ta) toponimik indikatorga ega, ular orasida «obod» va «qo'rg'on» (9 tadan) yetakchilik qiladi. Avtomatik ajratishdagi bir soxta va bir o'tkazib yuborilgan holat imlo normalizatsiyasi zarurligini ko'rsatdi. Birliklarning 57,7 foizigina ishonchli semantik tasnif ostiga olindi, qolgani etimologik tekshiruvni talab qiladi. Bu oykonimik bazani izohli lug'atlar bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oykonimiya, toponimik indikator, Namangan viloyati, raqamli gumanitar fanlar, korpus, imlo normalizatsiyasi, semantik tasnif, onomastika.

A DIGITAL STUDY OF THE OIKONYMY OF NAMANGAN REGION: CORPUS BUILDING AND STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS

Abstract. The article reports a first attempt at a digital study of the oikonymy of Namangan region. A corpus of 134 records (123 unique units) was compiled from the names of the region's 11 districts, 8 cities and 115 urban-type settlements and analysed in three stages: automatic extraction of toponymic indicators, semantic-motivational classification and an audit of orthographic variation. 35.8% of the units (44 names) carry an identifiable toponymic indicator, with *obod* and *qo'rg'on* (9 each) leading. String matching produced one false positive and one false negative, showing the need for orthographic normalization. Only 57.7% of the corpus was classified semantically.

Key words: oikonymy, toponymic indicator, Namangan region, digital humanities, corpus, orthographic normalization, semantic classification, onomastics.

KIRISH. Joy nomlari xalqning tarixi, tili va madaniyatini o'zida saqlagan lisoniy-madaniy yodgorlik sifatida o'zbek tilshunosligida uzoq yillardan beri muntazam o'rganib kelinadi. X. Hasanovning geografik terminlar va O'rta Osiyo joy nomlari tarixiga bag'ishlangan ishlari [11,12], Z. Do'simov va X. Egamovning izohli lug'ati [2], T. Nafasovning O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati [4], S. Qorayevning viloyatlar toponimlariga oid tadqiqoti hamda "Toponimika" darsligi [8,9] bu sohaning klassik manbalari hisoblanadi. Keyingi yillarda Y. Ahmadaliyevning toponimika va geografik terminshunoslikka doir ishlari [7] an'anani davom ettirdi.

Farg'ona vodiysi oykonimiyasi bo'yicha so'nggi tadqiqotlar orasida M. N. Xabibullayevaning Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlari nomlariga bag'ishlangan maqolasi [13] alohida diqqatga sazovor: unda har bir tuman va shahar nomi etimologik, geografik va tarixiy jihatdan izchil tahlil qilingan. Namangan viloyati materiali esa D. A. Islomovaning toponimik indikatorlarga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotida [3] keng jalb etilgan. Muallif toponimik indikatorlarni makro- va mikro ko'lamlarga ajratib, oykonimik (*qishloq, mahalla, shahar, shaharcha, qo'rg'on, chek*), gidronimik (*ariq, ko'l, soy, quduq, buloq, daryo*), oronimik (*tog', tepa, dovon, bel, qoya, dara*), urbanonimik, xoronimik, nekronimik va ekklezionimik indikatorlar tizimini ishlab chiqqan, ularning semiotik, informatsion, differensiatsion va derivatsion vazifalarini ko'rsatgan. Tadqiqotda Namangan viloyatiga oid *Sang* va *Mashad* qishloqlari, *Oqtosh* shaharchasi, *Chortoqsoy, Kosonsoy* gidronimlari, *Tolmozor* (Chortoq tumani) kabi misollar tahlil etilgan. Y. Ne'matovaning maqolasi [5] esa viloyat hududidagi joy nomlarining saroy urug'i nomi bilan bog'liq qatlamini ochib bergan.

Sanab o'tilgan ishlarning ilmiy qiymati yuksak bo'lsa-da, ularning barchasi, qayd etish adolatdan bo'lur ediki, ayrim nom yoki nomlar guruhini alohida-alohida izohlashga qaratilgan sifat tahlili doirasida qoladi. Oykonimlarni yaxlit to'plam sifatida — miqdoriy taqsimot, indikatorlar chastotasi, tasnif qamrovi va imloviy bir xillik jihatidan — o'lchash amaliyoti o'zbek onomastikasida hali shakllanmagan.

Jahon onomastikasida bu yo‘nalish allaqachon shakllangan. X. Mochsenbaxer nomlarni korpus lingvistikasi vositasida, ya’ni katta matn majmuidagi real qo‘llanish ma’lumotlari asosida tadqiq etishni asoslagan; tarixiy gazetterlarni semantik belgilash va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) bilan bog‘lash bo‘yicha tajriba to‘plangan; korpus ma’lumotlarini geoaxborot tizimlari orqali fazoviy tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilgan [14]. O‘zbek tilshunosligida esa milliy korpus tuzish ishlari jadallashib, uning matn bazasi, texnik arxitekturasi va onomastik birliklarni alohida qatlam sifatida ajratish imkoniyati muhokama etilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — Namangan viloyati oykonimlarining cheklangan, ammo to‘liq hisobga olingan korpusini tuzish va unda raqamli tahlilning dastlabki tajribasini o‘tkazish orqali quyidagi savollarga javob berishdir: (1) viloyat oykonimiyasida qaysi toponimik indikatorlar qanchalik mahsuldor; (2) oddiy avtomatik qidiruv usuli o‘zbek oykonimlarini qay darajada to‘g‘ri ajratadi va qanday xatolarga yo‘l qo‘yadi; (3) korpusdagi nomlarning qancha qismi mavjud bilimlar asosida ishonchli semantik tasnif ostiga olinadi va qanchasi lug‘at darajasidagi qo‘shimcha tekshiruvni talab etadi.

MATERIAL VA METODLAR. Tadqiqot materiali sifatida Namangan viloyatining ma’muriy-hududiy birliklari nomlari olindi. Korpusga uch turdagi nom kiritildi: tuman nomlari (11 ta), shahar nomlari (8 ta: Namangan, *Chust, Chortoq, Kosonsoy, Haqqulobod, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on*) va shaharchalar nomlari (11 ta tuman kesimida jami 115 ta). Umumiy hajm — 134 ta yozuv; takrorlanuvchi nomlar bir birlik sifatida hisoblanganda korpus 123 ta takrorlanmas oykonimdan iborat bo‘ladi.

Korpus chegaralari alohida izohni talab qiladi. Birinchidan, unga qishloq fuqarolari yig‘inlari nomlari kiritilmagan: manba ro‘yxatlarida har bir tumanda 8–11 tadan qishloq fuqarolari yig‘ini borligi qayd etilgan, ammo ularning nomlari ko‘rsatilmagan. Demak, tuzilgan korpus viloyat oykonimiyasining faqat shahar tipidagi aholi turar joylari qatlamini qamrab oladi va to‘liq emas. Ikkinchidan, Namangan shahri tarkibidagi Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari viloyat tumanlari qatoriga qo‘shilmadi, zero Yangi Namangan tumani 2021 yilda aynan shahar tarkibida tashkil etilgan [16]. Uchinchidan, manba ro‘yxatlari ikkilamchi xarakterga ega bo‘lib, geografik obyektlar nomlarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydigan qonunchilik hujjatlari[17] asosida yuritiladigan rasmiy ma’muriy-hududiy spravochnik bilan qiyosiy tekshiruvni talab etadi; maqolada keltirilgan barcha miqdoriy ko‘rsatkichlar shu cheklov doirasida baholanishi lozim.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda toponimik indikatorlar oddiy satr mosligi (naive substring matching) usuli bilan avtomatik ajratildi: D. A. Islomova ajratgan indikatorlar ro‘yxatidan [3] kelib chiqib, *“qo‘rg‘on”, “obod”, “kent”, “tepa”, “buloq”, “soy”, “kon”, “qishloq”, “kappa”, “saroy”, “ko‘l”, “ariq”, “mozor”, “shahar”, “ko‘cha”, “yo‘l”, “ovul”, “iston”* birliklari izlandi. Ikkinchi “bosqichda imlo variantlari hisobga olindi (masalan, *“qo‘rg‘on”* indikatori uchun *“qurg‘on”* shakli ham). Uchinchi bosqichda natijalar qo‘lda ekspertiza qilinib, soxta mosliklar chiqarib tashlandi. Shundan so‘ng korpus yettita semantik-motivatsion guruh bo‘yicha tasnif etildi hamda nomlarning imloviy va struktur variativligi o‘lchandi.

NATIJALAR. 1. Toponimik indikatorlarning mahsuldorligi. Tahlil natijasida korpusdagi 123 ta nomdan 44 tasi (35,8%) aniq toponimik indikatorga ega ekani ma’lum bo‘ldi. Indikatorlarning chastota bo‘yicha taqsimoti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Namangan viloyati oykonimiyasidagi toponimik indikatorlar chastotasi va avtomatik ajratish usullarining qiyosi

Indikator	Oddiy qidiruv	Norma-lizatsiya b-n	Ekspert tekshiruvi	Oykonimlar
qo‘rg‘on	8	9	9	To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on,

Indikator	Oddiy qidiruv	Norma-lizatsiya b-n	Ekspert tekshiruvi	Oykonimlar
				Yangiqo‘rg‘on, Qoraqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, SHo‘rqo‘rg‘on, Pastki Peshqo‘rg‘on, Yuqori Peshqo‘rg‘on, Qurg‘onobod
obod	9	9	9	Haqqulobod, Xalqobod, Yangi Xo‘jaobod, Xo‘jaobod, Yangiobod, Bekobod, Fayziobod, Mehnatobod, Qurg‘onobod
kent	4	4	4	Zarkent, Navkent, Qoracha sho‘rkent, Xo‘ja sho‘rkent
tepa	4	4	4	Sarimsoqtepa, Gurtepa, Uchtepa, Yumaloqtepa
kon	3	3	2	Oltinkon, Yettikon (Koroskon — soxta moslik, chiqarildi)
buloq	2	2	2	Toshbuloq, Mingbuloq
soy	2	2	2	Kosonsoy, Uyg‘ursoy
kapa	2	2	2	Jiydakapa, Norinkapa
saroy	2	2	2	Saroy, G‘urumsaroy
qishloq / ko‘l / ariq / mozor / shahar / ko‘cha / yo‘l / ovul / iston	1+1+1+1+1+1+1+1+1	—	—	Yorqishloq, Baliqli ko‘l, Ora ariq, Mozorko‘xna, Yangi shahar, Chust ko‘cha, Yangiyo‘l, Madyarovul, Sangiston
JAMI (takrorlanmas nomlar)	45 (36,6%)	46	44 (35,8%)	—

Jadvaldan ko‘rinadiki, viloyat oykonimiyasida ikki indikator — “obod” (9 ta) va “qo‘rg‘on” (9 ta) — bir xil darajada yetakchilik qiladi; ular barcha indikatorli nomlarning qariyb 41 foizini tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarni “kent” va “tepa” (4 tadan) egallaydi, qolgan indikatorlar esa 1–2 tadan nomda uchraydi.

2. Avtomatik ajratishning aniqligi. Oddiy satr mosligi usuli ikki turdagi xatoga yo‘l qo‘ydi. Birinchisi — soxta moslik (false positive): Koroskon oykonimi tarkibidagi “kon” bo‘g‘ini “kon” indikatori deb noto‘g‘ri ajratildi, holbuki u mustaqil indikator emas, balki nom o‘zagining bir qismidir. Ikkinchisi — o‘tkazib yuborish (false negative): Qurg‘onobod oykonimidagi “qo‘rg‘on” indikatori “qurg‘on” shaklida yozilgani sababli birinchi bosqichda umuman topilmadi va faqat imlo normalizatsiyasidan keyin aniqlandi. Shunday qilib, 123 birlikdan iborat kichik korpusda ham oddiy avtomatik usul bittadan aniqlik (precision) va to‘liqlik (recall) xatosini berdi; bu holat ko‘p minglik korpusda mutanosib ravishda ko‘payishi tabiiydir.

3. Semantik-motivatsion tasnif. Korpus nomlarining mazmuniy asosi bo‘yicha yettita guruh ajratildi (2-jadval). Tasnifda faqat mavjud ilmiy adabiyot va umumqabul qilingan leksik ma’noga tayanilgan holatlar hisobga olindi; shubhali hollar “shartli” deb belgilandi.

2-jadval. Korpusning semantik-motivatsion guruhlari

Guruh	Soni	Misollar
I. Urug‘-qabila va etnonim asosli (shartli)	9	Saroy, G‘urumsaroy, Katagon, Olchin, Kichiqqurama, Uyg‘ur, Uyg‘ursoy, Madyarovul, Qorayantoq

Guruh	Soni	Misollar
II. Antroponim (kishi nomi, unvon, laqab) asosli	11	Haqqulobod, Alixon, Qorapolvon, Xo‘jaobod, Yangi Xo‘jaobod, Xo‘ja sho‘rkent, Ququmboy, Salmon, Xazratishox, To‘raqo‘rg‘on, Boyog‘on
III. Tabiiy-geografik belgi (relyef, tuproq, suv)	18	Toshbuloq, Mingbuloq, Oqtosh, Kichik toshloq, Sarimsoqtepa, Gurtepa, Uchtepa, Yumaloqtepa, Baliqli ko‘l, Ora ariq, Qizil qiyoq, SHo‘ra, SHo‘rqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Qorateri, Kosonsoy, Marg‘uzar, Ko‘kyor
IV. Fitonim va zoonim asosli	6	Uchyog‘och, Jiydakapa, Olmos, Yorqishloq, Buramatut, Qorayantoq
V. Qadimiy shahar-qal’a, qurilish obyekti	12	Axsi, Qoraqo‘rg‘on, Pastki va Yuqori Peshqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Qurg‘onobod, Zarkent, Navkent, Sangiston, Rovot, Mozorko‘xna
VI. Sovet davri va mafkuraviy-ideologik nomlar	10	Madaniyat, Mehnatobod, Birlashgan, G‘ayrat, O‘zgarish, Yangiyo‘l, Navbahor, Ozod, Mirishkor, Ziyokor
VII. Mustaqillik davri nomlari	6	Istiqlol, Xalqobod, Bog‘ishamol, Fayziobod, Yangiobod, O‘nhayot
JAMI tasnif ostiga olingan	71 (57,7%)	—
Tasnifi aniqlanmagan	52 (42,3%)	Namangan, Chust, Pop, Chortoq, Norin, Uychi, Koson, Chodak, Varzik, Sang, Nanay, Iskavot, Shahand, So‘ku, Muhum, Karkidon, Karnon va b.

Ko‘rinadiki, korpusning atigi 57,7 foizigina mavjud bilimlar doirasida ishonchli tasnif etildi. Qolgan 52 ta nom (42,3%) — jumladan, viloyatning eng qadimiy va eng yirik aholi punktlari nomlari ham — etimologik jihatdan ochiq qoldi va izohli lug‘atlar darajasidagi maxsus tekshiruvni talab qiladi.

4. Takroriy nomlar va so‘z yasalish modellari. Korpusda 11 ta nom takrorlanadi. Ularning to‘qqiztasi tuman va uning markazi nomining mos kelishi (*Chust, Chortoq, Kosonsoy, Pop, Uychi, Uchqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Namangan*) bilan izohlanadi. Ikki holat esa haqiqiy omonimiyani ko‘rsatadi: *Axsi* nomi ham *Uychi*, ham *To‘raqo‘rg‘on* tumanida, *Navbahor* nomi esa ham *Pop*, ham Namangan tumanida qayd etilgan. So‘z yasalish va nomlash modellari jihatidan quyidagi mahsuldor guruhlar ajralib turadi: “yangi” komponenti bilan yasalgan 5 ta nom (*Yangiqo‘rg‘on, Yangi Xo‘jaobod, Yangiobod, Yangiyo‘l, Yangi shahar*), “qora” komponentli 5 ta nom (*Qoraqo‘rg‘on, Qorapolvon, Qorateri, Qorayantoq, Qoracha Sho‘rkent*), son bildiruvchi so‘zlardan yasalgan 8 ta nom (*Uchqo‘rg‘on, Uchtepa, Uchyog‘och, Yettikon, Mingbuloq, Chortoq, Chorkesar, Chorkesar-2*) hamda qarama-qarshi joylashuvni bildiruvchi «pastki/yuqori» juftliklari (*Pastki Peshqo‘rg‘on — Yuqori Peshqo‘rg‘on, Pastki cho‘ja*).

5. Imloviy va struktur variativlik. Korpusdagi 123 nomning 111 tasi qo‘shma (bir so‘z) holda, 12 tasi esa ajratib yozilgan. Ayni bir yasalish modeli turlicha rasmiylashtirilgani alohida e’tiborga molik: *Yangiobod* qo‘shma, *Yangi shahar* esa ajratib; *Kichiqqurama* qo‘shma, *Kichik toshloq* esa ajratib yozilgan. Shuningdek, *Qurg‘onobod* va *Qoraqo‘rg‘o*n nomlarida bir xil o‘zak ikki xil imloda aks etgan. Bundan tashqari, korpusda raqamli komponentli nom *(Chorkesar-2)* ham mavjud bo‘lib, u ma’lumotlar bazasida alohida qoida bilan qayta ishlanishni talab etadi.

MUHOKAMA. Olingan natijalarni, avvalo, mavjud ilmiy adabiyot bilan qiyoslash lozim. D. A. Islomova “qo‘rg‘on” birligini oykonimik indikatorlar qatoriga kiritgan [3:80-84] va bizning korpus bu nazariy ajratmani miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi: “qo‘rg‘on” viloyatning 11 ta tumanidan uchtasining (*To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on*) nomi tarkibida, jami to‘qqizta oykonimda uchraydi. Bu — Namangan

viloyati oykonimiyasining eng mahsuldor modellaridan biri bo‘lib, mintaqaning qal’a-qo‘rg‘on tipidagi qadimiy manzilgohlar zonasi ekanini lisoniy jihatdan ko‘rsatadi. Xuddi shu tadqiqotda “buloq” indikatorli 71 ta oykonim respublika miqyosida aniqlangani qayd etilgan; bizning viloyat korpusida esa bu indikator faqat ikki nomda (*Toshbuloq, Mingbuloq*) uchraydi, ya’ni Namangan oykonimiyasi uchun u yetakchi model emas. Bunday qiyos milliy va mintaqaviy darajadagi mahsuldorlikning farqlanishini ko‘rsatadi. Mintaqaviy farqlanish masalasi boshqa viloyatlar materialida ham kuzatilgan: S. O‘. Pardayeva Surxondaryo viloyati oykonimlarining shakllanishida hududning tabiiy-geografik va xo‘jalik sharoitlari hal qiluvchi omil bo‘lganini ta’kidlaydi [6:348]. Namangan materiali bu kuzatuvni to‘ldiradi — bu yerda yetakchi omil sug‘orma dehqonchilik *(“obod”)* bilan bir qatorda mudofaa-manzilgoh an’anasi *(“qo‘rg‘on”)* ham ekani miqdoriy jihatdan ko‘rinadi.

Ikkinchidan, Y. Ne’matova Namangan viloyatida saroy urug‘i nomi bilan bog‘liq joy nomlari qatlami mavjudligini asoslagan edi[5:107]. Tuzilgan korpus bu xulosani mustaqil ravishda tasdiqlaydi — unda *Saroy* (To‘raqo‘rg‘on tumani) va *G‘urumsaroy* (Pop tumani) oykonimlari qayd etilgan — hamda uni kengaytiradi: korpusda katagon, olchin, qurama, uyg‘ur kabi o‘zbek urug‘-qabila nomlari bilan bog‘lanishi ehtimoli yuqori bo‘lgan *Katagon, Olchin, Kichiqqurama, Uyg‘ur, Uyg‘ursoy* nomlari ham mavjud. Demak, urug‘-qabila qatlami viloyat shahar tipidagi aholi punktlari nomlarining kamida 7,3 foizini (9 ta nom) tashkil etadi. Bu guruh shartli deb belgilangan va har bir nom bo‘yicha maxsus etimologik tasdiq talab etiladi, lekin uning tizimli mavjudligi korpus miqyosida aniq ko‘rinadi.

Uchinchidan, tahlil oykonimiyaning xronologik qatlamlanishini yaxlit holda ko‘rsatdi. Sovet davriga xos mafkuraviy-mehnat semantikali nomlar (*Madaniyat, Mehnatobod, Birlashgan, G‘ayrat, O‘zgarish, Yangiyo‘l, Ozod, Mirishkor, Ziyokor, Navbahor*) va mustaqillik davri nomlari (*Istiqlol, Xalqobod, Bog‘ishamol, Fayziobod, Yangiobod, O‘nhayot*) birgalikda 16 ta nom, ya’ni korpusning 13 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Ayrim nomlarni alohida ko‘rib chiqishda bu qatlam shunchaki «yangi nomlar» bo‘lib tuyuladi; korpus miqyosida esa u XX–XXI asrlardagi ma’muriy nomlash siyosatining lisoniy izi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu — alohida nom darajasida ko‘rinmaydigan, faqat to‘plam darajasida o‘lchanadigan hodisalarni aniqlash — raqamli yondashuvning an’anaviy tavsifiy usulga nisbatan asosiy ustunligidir.

To‘rtinchidan, metodologik natijalar amaliy ahamiyatga ega. Bir tomondan, Qurg‘onobod misoli o‘zbek toponimlarini kompyuter vositasida qayta ishlashda imlo normalizatsiyasi majburiy bosqich ekanini ko‘rsatdi: bir o‘zakning “qo‘rg‘on” va “qurg‘on” shaklida yozilishi avtomatik qidiruvni chalg‘itadi. Ikkinchi tomondan, Koroskon misoli sof satr mosligiga asoslangan ajratish indikator bo‘lmagan bo‘g‘inlarni ham “topib” olishini ko‘rsatdi, ya’ni morfologik tahlilsiz avtomatlashtirish yetarli emas. Bu xulosa o‘zbek tili milliy korpusida onomastik birliklarni alohida metama’lumot qatlami sifatida ajratish haqidagi taklif [24] bilan bevosita bog‘lanadi: oykonimlar uchun alohida teg tizimi va imlo variantlari lug‘ati zarur.

Beshinchidan, korpusning 42,3 foizi semantik tasnif ostiga olinmagani — salbiy natija emas, balki miqdoriy dalildir. U oykonimik ma’lumotlar bazasini T. Nafasov[4], S. Qorayev[9] va Z. Do‘simov, X. Egamov[2] lug‘atlari bilan havolali tarzda bog‘lash zaruratini aniq raqamda ifodalaydi: taxminan har ikki nomdan biri uchun izoh manbadan olinishi kerak bo‘ladi. Xabibullayeva Andijon viloyati materialida har bir nomni alohida etimologik izohlash yo‘lidan borgan; bizning natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday izohlash mehnati korpus miqyosida qo‘lda bajarilishi mushkul va aynan shu sababli lug‘atlarni raqamlashtirib, baza bilan bog‘lash zarur. Ikki yondashuv — sifat etimologiyasi va miqdoriy korpus tahlili — bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi.

Tadqiqotning cheklovlarini ham ochiq qayd etish lozim. Korpus ikkilamchi

manbaga tayanadi va rasmiy ro‘yxat bilan solishtirilmagan; qishloq fuqarolari yig‘inlari nomlari qamrab olinmagani sababli u viloyat oykonimiyasining faqat bir qatlamini aks ettiradi; semantik tasnif muallif tomonidan shartli ravishda amalga oshirilgan va mustaqil ekspertiza qilinmagan. Shu bois yuqoridagi foiz ko‘rsatkichlari yakuniy haqiqat emas, balki keyingi, to‘liq korpus asosidagi tadqiqot uchun qiyos nuqtasi sifatida qabul qilinishi kerak.

XULOSA. Namangan viloyatining 123 ta takrorlanmas oykonimidan iborat korpusda o‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, viloyat oykonimiyasida “obod” va “qo‘rg‘on” indikatorlari (9 tadan) eng mahsuldor bo‘lib, ular mintaqaning sug‘orma dehqonchilik va qal’a-qo‘rg‘on tipidagi tarixiy manzilgohlar bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Ikkinchidan, korpusning 35,8 foizigina aniq toponimik indikatorga ega, ya’ni nomlarning ko‘pchiligi indikatorsiz o‘zaklardan iborat. Uchinchidan, urug‘-qabila qatlami (9 nom), antroponimik qatlam (11 nom) va XX–XXI asr ma’muriy nomlash siyosati qatlami (16 nom) korpus miqyosida aniq ajralib turadi. To‘rtinchidan, oddiy avtomatik qidiruv usuli hatto kichik korpusda ham aniqlik va to‘liqlik xatolarini beradi, binobarin, o‘zbek oykonimlarini raqamli qayta ishlashda imlo normalizatsiyasi va morfologik tahlil zarur. Beshinchidan, korpusning 42,3 foizi etimologik jihatdan ochiq qolgani oykonimik bazani izohli lug‘atlar bilan bog‘lash zaruratini miqdoriy asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмадалиев Ю. Топонимика ва географик терминшунослик. — Фарғона, 2018.–В.132.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977.–В.160.
3. Исломова Д. А. Топонимик индикаторларнинг лексик-семантик ва функционал тадқиқи: филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. 10.00.11. — Наманган: Наманган давлат университети, 2026. –В.161
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1988. –В. 290.
5. Неъматова Ё. Сарой уруғи номи билан боғлиқ жой номлари хусусида (Наманган вилояти мисолида) // ҚарДУ хабарлари. Ижтимоий-гуманитар фанлар. — Қарши, 2026. — 1(1)-сон. — Б. 107.
6. Пардаева С. Ў. Сурхондарё вилояти ойконимларининг айрим географик хусусиятлари // Academic Research in Educational Sciences. — 2022. — Жилд 3, №5. 348-353-b.
7. Примова М. Ҳ. Ўзбек тили миллий корпуси тузилиши: асосий компонентлар ва ахборот турлари // «Компьютер лингвистикаси: муаммолар, ечим, истиқболлар» V Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. — Навоий, 2025. — Жилд 1, №1. 207-211-b.
8. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –В 240
9. Қораев С. Топонимика. — Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. –В. 320.
10. Ўзбекистон Республикасининг «Географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Қонуни // lex.uz маълумотлар базаси.
11. Ҳасанов Ҳ. Географик терминлар луғати. — Т.: Фан, 1964. –В.73
12. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. — Т.: Фан, 1965. –В.80.
13. Хабибуллаева М. Н. Андижон вилояти маъмурий туманлари ва маъмурий марказларининг топонимик таҳлили // Scientific Journal of Fergana State University. Махсус сон. — 2024. — Vol. 30, iss. 1. — Б. 272–279. DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss1_2t/a48.
14. Motschenbacher H. Corpus Linguistic Onomastics: A Plea for a Corpus-Based Investigation of Names // Names: A Journal of Onomastics. — 2020. — Vol. 68, No. 2. — P. 88–103.
15. Semantic Historical Gazetteers and Related NLP and Corpus Linguistics Applications // International Journal of Humanities and Arts Computing. — 2017. –P.1-6.
16. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021-йил 19-апрелдаги 873-IV-сон қарори «Наманган вилоятининг Наманган шаҳри таркибида Янги Наманган туманини ташкил этиш тўғрисида».
17. Ўзбекистон Республикасининг «Географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Қонуни // lex.uz маълумотлар базаси.

GULJAMOL ASQAROVA LIRIKASIDA AYOL RUHIYATINING BADIIY-ESTETIK TALQINI

Usmonov Sherzod Panjiyevich
Qarshi davlat universiteti, Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
usherzod140@gmail.com
ORCID 0009-0006-4194-9580
UDK 894:375:416.3(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos vakili Guljamol Asqarova lirikasida ayol ruhiyatining badiiy-estetik talqini tadqiq etiladi. Shoira ijodida ayol qalbining muhabbat, sog‘inch, iztirob, sabr, umid, oriyat va ma’naviy izlanish kabi nozik ruhiy holatlari qanday poetik vositalar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. “O‘tinch” she’ri misolida lirik qahramon ruhiyatining ramz, metafora, tashbeh, antiteza, poetik detal va murojaat kabi badiiy vositalar yordamida ochilishi yoritiladi. She’rda “gul – kul”, “nur – zulmat”, “muhabbat – munofiqlik”, “qafas – ozod ruh” kabi poetik oppozitsiyalarning ayol ruhiyatidagi ichki ziddiyatlarni ifodalashdagi estetik funksiyasi ochib beriladi. Natijada shoira lirikasida lirik psixologizmning o‘ziga xos ko‘rinishlari va ularning badiiy qiymati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, ayol ruhiyati, lirik qahramon, lirik psixologizm, poetik tafakkur, metafora, ramz, antiteza, poetik detal.

ARTISTIC AND AESTHETIC INTERPRETATION OF THE FEMALE PSYCHE IN THE LYRICS OF GULJAMOL ASQAROVA

Abstract. The article examines the artistic and aesthetic interpretation of the female psyche in the lyrics of Guljamol Asqarova, a representative of modern Uzbek poetry. It analyses the poetic means through which the poet expresses such emotional states as love, longing, suffering, patience, hope, dignity and spiritual search. In the poem “O‘tinch”, the lyrical heroine’s psyche is revealed through symbol, metaphor, simile, antithesis, poetic detail and address. The aesthetic function of poetic oppositions such as “flower – ash”, “light – darkness”, “love – hypocrisy” and “cage – free spirit” in expressing the inner conflicts of the female psyche is also revealed.

Key words: Uzbek poetry, female psyche, lyrical heroine, lyrical psychologism, poetic thinking, metaphor, symbol, antithesis, poetic detail.

Kirish. Adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti badiiy adabiyotda inson ruhiyatini anglash va tasvirlash imkoniyatlarining tobora kengayib borishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu ma’noda ayol ruhiyatining poetik talqini zamonaviy o‘zbek she’riyatining muhim estetik hodisalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayol qalbidagi nozik kechinmalar, ichki ziddiyatlar, muhabbat, hijron, sog‘inch, iztirob, sabr va umid kabi ruhiy holatlarning badiiy ifodasi faqatgina hissiy tasvir doirasida qolmay, ijodkorning inson, hayot va taqdir haqidagi falsafiy-estetik qarashlarini ham mujassamlashtiradi. Shu jihatdan ayol ruhiyatining she’riy tasviri badiiy tafakkurning o‘ziga xos namoyon bo‘lish shakli sifatida baholanishi lozim.

Guljamol Asqarova lirikasining o‘ziga xosligi ham, avvalo, ayol qalbini tashqi voqelikning oddiy aks-sadosi sifatida emas, balki murakkab ruhiy-falsafiy jarayon sifatida tasvirlashida ko‘rinadi. Shoira poetik tafakkurida ayol obrazi faqatgina muhabbat yoki hijron kechinmalarining subyekti emas. U o‘z ruhiy olami, ichki qarama-qarshiliklari, ma’naviy izlanishlari va hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lgan mustaqil lirik subyekt darajasiga ko‘tariladi. Natijada ayol qalbi she’riy matnda tasvir obyekti bo‘lishdan tashqari, borliqni idrok etish va unga munosabat bildirishning poetik vositasiga aylanadi.Shoiraning badiiy tafakkurida ruhiyat va voqelik o‘rtasidagi munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Tashqi hodisa lirik qahramon qalbidan o‘tganidan keyingina poetik mazmun kasb etadi. Demak, Guljamol Asqarova she’riyatida voqelikning o‘zi emas, balki voqelikning ayol ruhiyatida qanday aks etishi muhim estetik mezonga aylanadi. Shu sababli shoira lirikasidagi sog‘inch oddiy ayriliq holati, hijron shunchaki visoldan uzoqlik, muhabbat esa faqatgina shaxsiy tuyg‘u sifatida talqin qilinmaydi. Ularning har biri inson mavjudligi, tanlov, sadoqat, sabr va ma’naviy bardoshlilik kabi umumiy falsafiy tushunchalar bilan bog‘lanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Guljamol Asqarovaning ayol ruhiyati tasvirlangan she'rlari badiiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida she'rlardagi muhabbat, ichki kechinmalar va ruhiy iztiroblarning ifodalanishiga e'tibor qaratildi. Tahlil davomida metafora, ramz, tashbeh va qarama-qarshi obrazlarning qo'llanishi o'rganildi. Shuningdek, lirik qahramonning ruhiy holati va hissiy o'zgarishlari bandma-band tahlil qilinib, shoira poetik mahoratining o'ziga xos jihatlari yoritildi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek adabiyotshunosligida ayol ruhiyati va poetik psixologizm masalalari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Naim Karimov kabi adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarida zamonaviy o'zbek she'riyatida ruhiy kechinmalar va poetik tafakkur uyg'unligiga alohida e'tibor qaratganlar.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy lirikaning asosiy xususiyatlaridan biri insonning tashqi faoliyatidan ko'ra uning ichki olami, ruhiy kechinmalari va borliqqa subyektiv munosabatining poetik ifodalanishidir. H. Umurov lirikani "shoir qalbida yuz beradigan kechinma, shu kechinma uyg'otgan tuyg'ularni so'z orqali voqe qilish san'ati" sifatida izohlaydi [1.204]. Shu nuqtayi nazardan, Guljamol Asqarovaning "O'tinch" she'rida ham voqeabandlikdan ko'ra lirik subyektning ichki ruhiy harakati yetakchilik qiladi. Lirik qahramonning Tangriga murojaati, taqdiridan xavotiri, vijdon va oriyat haqidagi mushohadalari she'rning asosiy psixologik qatlamini tashkil etadi. Demak, "she'rda tashqi hodisa emas, ruhiy kechinmaning poetik harakati syujet-kompozitsion asos vazifasini bajaradi" [1.250].

Guljamol Asqarova lirikasida ham badiiy tafakkurning mazkur xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoira ijodida ayol obrazi muayyan ijtimoiy vazifalar doirasidagi obraz emas, balki o'z taqdiri, ruhiy olami, axloqiy mezonlari va borliq haqidagi tasavvurlarini anglashga intiluvchi murakkab lirik subyekt sifatida shakllanadi. Binobarin, lirik qahramonning ichki kechinmalari shoiraning individual poetik tafakkuri orqali umumlashma ma'naviy mazmun kasb etadi.

Bu xususiyat, ayniqsa, "O'tinch" she'rida yorqin namoyon bo'ladi. She'rning poetik mohiyatini belgilovchi asosiy tamoyil — ayolning ichki ruhiy holatini iltijo, ramz, metafora va poetik detal orqali ifodalashdir. "O'tinch" sarlavhasining o'ziyoq lirik qahramonning ruhiy holatini belgilaydi. Unda ayolning Yaratganga yuzlanishi, o'z taqdiri va ma'naviy mavjudligi haqida mushohada yuritishi mujassamlashgan.

Tangrim, meni yashnat gullar ichinda,
Qaqnusdek paydo qil kullar ichinda.
Ruhimu jismimni guliston ayla,
Nilufardek yashnat ko'llar ichinda.

Misralari bilan boshlanadi. Ushbu poetik murojaatda lirik qahramonning ikki qutbli ruhiy holati namoyon bo'ladi. Bir tomonda "gullar" — hayot, go'zallik, umid va yangilanish ramzi; ikkinchi tomonda "kul" — iztirob, yemirilish va ruhiy sinov timsolidir. Natijada "gul – kul" antitezasi vujudga kelib, ayol ruhiyatidagi ichki ziddiyatni obrazli ravishda ifodalaydi. Ayniqsa, "Qaqnus" obrazi she'rning mifopoetik qatlamini chuqurlashtiradi. Qaqnusning kuldan qayta paydo bo'lishi haqidagi mifologik tasavvur bu o'rinda ruhiy tiklanish metaforasiga aylangan. Lirik qahramon o'zini kul ichida qolgan mavjudot sifatida emas, balki sinovlardan so'ng qayta tug'ilishga qodir ruhiy kuch sohibi sifatida tasavvur qiladi. Demak, "mifologik timsol individual psixologik mazmunni ifodalash vositasiga aylangan" [2.71].

Bu yerda "Tangrim" murojaati lirik qahramonning ichki olamini ilohiylik bilan bog'laydi. "Yashnat" fe'li oddiy hayot kechirish emas, balki ruhiy uyg'onish, ma'naviy go'zallik va ijodiy barq urish ma'nolarini ifodalaydi. "Gullar" esa tashqi tabiat manzarasi bo'libgina qolmay, ayol qalbining go'zalligi, muhabbat va umidning ramziga aylanadi. "Gul" va "kul" so'zlari fonetik jihatdan yaqin bo'lsa-da, semantik jihatdan keskin zid. Gul

— yashash, go‘zallik, yangilanish timsoli bo‘lsa, kul — yemirilish, iztirob va yakunning belgisi. Shoira ana shu ikki qutb orasida inson ruhining qayta tug‘ilish jarayonini tasvirlaydi. Qaqnus obrazi esa bu poetik konsepsiyaning markaziy ramzidir. Qaqnusning kuldan qayta paydo bo‘lishi lirik “men”ning ruhiy sinovlardan keyingi yangilanishini anglatadi.Badiiy tafakkuri ruh va jismning yaxlitligi tamoyiliga asoslanadi. Lirik qahramon faqat tashqi hayotining emas, balki ichki dunyosining ham “guliston”ga aylanishini istaydi. “Guliston” metaforasi shu sababli oddiy go‘zallik emas, ruhiy komillik va ichki uyg‘unlik makoni sifatida namoyon bo‘ladi.Nilufar suv bag‘rida ochiladigan gul sifatida murakkab poetik ma’no kasb etadi: u tashqi muhitning og‘irligiga qaramay, go‘zallikni yuzaga chiqaradigan mavjudlik timsolidir. Shu jihatdan nilufar obrazi ayol ruhiyatining sabr, poklik, noziklik va hayotga intilish kabi jihatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Misralarida ruh va jismning yaxlitligi masalasi ko‘tariladi. “Guliston” va “nilufar” obrazlari lirik qahramonning ruhiy-estetik idealini ifodalaydi. Bu yerda tabiat obrazlari peyzaj vazifasini bajarishdan ko‘ra inson ruhiyatining poetik ekvivalentiga aylanadi. “Tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi bunday uyg‘unlik zamonaviy she’riyatdagi psixologik tasvirning muhim ko‘rinishlaridan biridir” [3.89].

Shoira ayol ruhiyatining nozik qatlamlarini bevosita psixologik izohlar orqali emas, balki poetik detal vositasida ochadi:

Zariflik berdingki, umrim o‘tmoqda
Ko‘zi nam, kiprigi ho‘llar ichinda.
Iltimos, qog‘ozdek g‘ijimlanmasin,
taqdir xatim qaro qo‘llar ichinda.
Xudoyo, xor qilma aziz umrimni,
Munofiq bandalar, qullar ichinda.
O‘tinchim, yashatma, yasholmam axir
Oriyu vijdoni sillar ichinda.
Chegachi bandangman, malika qilding,
Ko‘ngliyu ko‘zgusi chillar ichinda.
Oshiqlar dilidan qafas yasab ber,
Mangu yashay oshiq dillar ichinda.

Tangrim, meni yashnat gullar ichinda.

She’rning poetik konsepsiyasida “gul” oddiy tabiat obrazi emas, balki hayot, go‘zallik, poklik, ilohiy marhamat va ruhiy yangilanish ramzidir. Unga qarama-qarshi qo‘yilgan “qaro qo‘llar”, “munofiq bandalar”, “qafas” singari obrazlar esa lirik qahramon ruhiyatiga tahdid soluvchi ma’naviy muhitni anglatadi. Shu tariqa she’rda gul va kul, nur va zulmat, muhabbat va munofiqlik, erkinlik va qafas kabi poetik oppozitsiyalar shakllanadi.Lirik qahramon o‘z taqdirini oddiy hayotiy hodisa sifatida emas, Tangri bilan ruhiy muloqot orqali anglaydi. “Xudoyo”, “Tangrim”, “O‘tinchim” kabi murojaatlar she’rning intonatsion asosini tashkil etib, uni munojot ruhidagi lirika darajasiga ko‘taradi. Bunda ayol ruhiyati ojizlik bilangina emas, balki o‘z qadrini, oriyatini, vijdonini va muhabbatga bo‘lgan ehtiyojini anglagan ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.She’rning yakunidagi “Tangrim, meni yashnat gullar ichinda” misrasi butun matnning semantik kalitidir. Dastlabki iztirob, taqdir xavotiri va ma’naviy begonalashuv oxir-oqibat yashash, yangilanish va muhabbat orqali ruhiy najot topish istagi bilan yakunlanadi. Demak, she’rning ichki poetik harakati iztirobdan umidga, ojizlikdan ruhiy yuksalishga, vaqtinchalik hayotdan ma’naviy abadiyatga tomon yo‘naladi.Shu jihatdan she’rni ayol ruhiyatining ilohiy-irfoniy talqini, taqdir va shaxs munosabati, muhabbatning ruhiy najotkorlik funksiyasi hamda fitomorfik “gul” metaforasi asosida qurilgan munojot-lirika namunasi sifatida baholash mumkin.

“Ko‘zi nam”, “kiprigi ho‘l” kabi poetik detallar lirik qahramonning iztirobini

bevosita ifodalamasdan, uning tashqi belgisi orqali anglatadi. “Ruhiy holat fiziologik detalga ko‘chiriladi. Bunday usul lirik psixologizmning ixcham, ammo ta’sirchan ko‘rinishi bo‘lib, o‘quvchini qahramon ruhiyatini bevosita his etishga undaydi” [4.143].She’rning eng muhim metaforik qatlamlaridan biri “taqdir xati” obrazida namoyon bo‘ladi:Bu misralarda abstrakt “taqdir” tushunchasi konkret poetik obrazga aylantiriladi. “Taqdir xati” metaforasi inson umrini yozuvga qiyoslaydi. “Qog‘ozdek g‘ijimlanmoq” esa inson taqdirining ezilishi, qadrsizlanishi va ruhiy deformatsiyasini ifodalaydi. “Badiiy metaforaning bunday xususiyati abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar vositasida idrok etish imkonini beradi” [5.89].“Qaro qo‘llar” obrazi esa salbiy semantik maydonni yuzaga keltiradi. Bu birliklar inson taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlarning poetik ramziga aylangan. Natijada “taqdir xati – qog‘oz – qaro qo‘llar” obrazlar tizimi shakllanib, insonning o‘z taqdiri ustidan to‘liq hukmron emasligi haqidagi falsafiy mazmun yuzaga keladi.“Munofiq bandalar” birikmasi orqali lirik qahramonning shaxsiy iztirobi ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. Demak, ayol ruhiyati bu yerda faqat intim kechinma sifatida emas, balki atrofdagi ma’naviy muhitni baholovchi estetik pozitsiya sifatida namoyon bo‘ladi.

“Lirik qahramon uchun hayotning mazmuni oriyat va vijdon bilan belgilanadi. Shuning uchun vijdonsiz va ma’naviy tuban muhitda yashash ruhiy jihatdan imkonsiz holat sifatida talqin qilinadi. Bu o‘rinda ayol obrazi ma’naviy-axloqiy mezonlarga ega bo‘lgan faol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi” [6.143]. “Qafas” obrazi an’anaviy poetik semantikada tutqunlik va cheklanish ramzi bo‘lsa-da, mazkur kontekstda yangi ma’no kasb etadi. Lirik qahramon “qafas”ni oshiqlar dilidan yasashni istaydi.

Xulosa. “O‘tinch” she’rida Guljamol Asqarova ayol ruhiyatini bevosita bayon etishdan ko‘ra, uni ramz, metafora, poetik detal, antiteza va takror kabi badiiy vositalar orqali ochadi. “Gul – kul”, “Qaqnus – kul”, “malika – chillar”, “qafas – ozod ruh” kabi semantik qarama-qarshiliklar lirik qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlarni badiiylashtiradi.

Shu jihatdan shoiraning badiiy tafakkurida ayol obrazi tashqi voqelikning passiv kuzatuvchisi emas, balki borliqni anglovchi, baholovchi va unga o‘zining ma’naviy munosabatini bildiruvchi faol estetik subyekt sifatida shakllanadi. Uning Tangriga qilgan “o‘tinch”i oddiy iltijo emas, balki insonning ma’naviy poklik, vijdon, muhabbat va ruhiy daxlsizlik haqidagi falsafiy e’tiqodining poetik ifodasidir.Demak, “O‘tinch” she’ri Guljamol Asqarova lirikasida ayol ruhiyatining individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini uyg‘unlashtirgan muhim poetik hodisadir. Unda shaxsiy iztirob badiiy obrazlar vositasida umumlashib, insonning ma’naviy najot, go‘zallik, muhabbat va abadiylikka intilishi haqidagi falsafiy mushohadaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 199 b.

2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. –242 b.

3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 162 b.

4. Rahmonov N. Ruhiyat va badiiyat. – Toshkent: Fan, 2005. – 208 b

5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 232 b

6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.

7. Асқарова Г. Дил фасли: шеърлар.– Тошкент.: “Чўлпон” Нашриёти, 1998. - 23 б

8. Asqarova G. Oshiqlar tumori. – Toshkent: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. - 84 б

9. Asqarova G.Uyg‘otuvchi alla – Toshkent: “Sharq” 2007. – 112 b.

10. Asqarova G. Erkalik imtiyozi. – Toshkent: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2012. – 380 b.

11. Г. Асқарова Турналар йўли: шеърлар. — Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. - 32 б

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA PEYZAJNING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI

Shukurova Mehriniso Po‘latovna
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
mehrinisoshukurovaqirolicha76@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek nasrining yirik vakili Shukur Xolmirzayev nasrida peyzajning badiiy-estetik funksiyalari tadqiq etiladi. Adib hikoyalarida tabiat tasvirlarining qahramonlar ruhiyati, ichki kechinmalari va dunyoqarashini ochib berishdagi o‘rni fenomenologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Yozuvchining “Cho‘loq turna”, “Zov ostida adashuv”, “Bandi burgut”, “Xorazm, jonginam”, “Ko‘k dengiz” kabi hikoyalarida peyzajning g‘oyaviy-kompozitsion, ramziy hamda falsafiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, Boysun vohasi tabiati bilan bog‘liq tasvirlarning adib badiiy tafakkuridagi o‘rni va ekologik muammolar, xususan, Orol fojiasining badiiy talqini tahlil etiladi. Natijada Shukur Xolmirzayev nasrida peyzaj inson va tabiat uyg‘unligini ifodalovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asoslab beriladi. Bu adib uslubini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: nasr, peyzaj, badiiy-estetik funksiya, tabiat tasviri, fenomenologik tahlil, inson va tabiat munosabati, ekologik muammolar, Orol fojiasi, poetika.

THE ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION OF LANDSCAPE IN SHUKUR XOLMIRZAYEV’S PROSE

Abstract. The article studies the artistic and aesthetic functions of landscape in Shukur Xolmirzayev’s prose. The role of images of nature in revealing the psyche, inner experiences and worldview of the characters is analysed on the basis of a phenomenological approach. Its ideological-compositional, symbolic and philosophical functions are examined in the stories “Cho‘loq turna”, “Zov ostida adashuv”, “Bandi burgut”, “Xorazm, jonginam” and “Ko‘k dengiz”. Images of the Boysun oasis and the artistic interpretation of ecological problems, in particular the Aral Sea tragedy, are analysed. Landscape is shown to be an important poetic means of expressing the harmony of man and nature.

Key words: prose, landscape, artistic-aesthetic function, depiction of nature, phenomenological analysis, man and nature, ecological problems, Aral Sea tragedy, poetics.

Kirish. Shukur Xolmirzayev o‘zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida inson va tabiat munosabatlari alohida o‘rin tutadi. Adib asarlarida tabiat oddiy tasvir vositasi emas, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Boysun vohasi tabiati bilan bog‘liq peyzajlar yozuvchi ijodining poetik asosini tashkil etadi.Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat munosabatlarining badiiy-estetik talqinini o‘rganish, peyzajning g‘oyaviy-kompozitsion funksiyalarini aniqlash hamda ekologik muammolarning badiiy ifodasini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlar tahlili. Maqolada fenomenologik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod asosida muallifning individual tajribasi, bolalik xotiralari va tabiat haqidagi tasavvurlari badiiy matnda qanday aks etgani o‘rganildi. Shuningdek: badiiy-tahliliy metod; qiyosiy-tipologik metod; poetik tahlil usuli; interpretatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayevning “Cho‘loq turna”, “Zov ostida adashuv”, “Bandi burgut”, “Xorazm, jonginam”, “Ko‘k dengiz” kabi hikoyalari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shukur Xolmirzayev ijodining asosiy mavzularidan biri inson va tabiat munosabati masalasidir. Yozuvchining bu masalaga yondashish uslubi o‘zi yashagan geografik hudud, uning tabiati bilan bevosita bog‘liq. Shuni hisobga olgan holda adib hikoyalaridagi inson va tabiat munosabatlarini tahlil qilish uchun fenomenologik metod samaralidir. Bunday tahlilda ijodkorning ichki dunyosi va borliq o‘rtasidagi farq olib tashlanadi, shaxsning individual dunyosi tashqi subyektga, xususan, hayvon obrazlariga ko‘chib, voqelik qahramon idrok qilganidek tekshiriladi. Muallifning hayotni tushunishdagi dastlabki tajribasi badiiy ijod uchun boshlang‘ich nuqtaga aylanadi. Ayniqsa, tabiatni qay tarzda qabul qilish va tasvirlash masalasida. Rus adabiyotshunosi Kolobayevning fikricha, “subyektiv, xususiy, shaxsiy, individual sfera” asarning tuzilishi, uni hikoya qilish shakli, uslub, leytmotivlar va peyzaj poetikasi orqali namoyon bo‘ladi”[1.132]. Fenomenologlar ushbu metodning asosiy tamoyili tashqi va ichki dunyo

o‘rtasidagi qarama-qarshilikni inkor qilish, idrokni individual tajribaga yo‘naltirish, e’tiborni shaxsning ichki dunyosi tasviriga qaratish deb atadilar. Muallif tabiatni, olamni, koinot tushunchasini qanday qabul qilgan va qay shaklda qayta tasvirlagan? Asardagi ifoda orqali nima demoqchi? Roman Ingardenning “asar – bu tana, tana kiyinib tirik mavjudotga yoki organizmga aylanadi”[2.446], degan fikriga tayanadigan bo‘lsak, badiiy ijod hodisasiga faqat bir tomonlama yondashmaslik kerak. Fenomenologik metod badiiy ijod hodisasiga yangicha yondashuv bo‘lib, uning o‘ziga xosligi idrok etuvchi subyektning tasavvuri, hissiyoti, psixofizik xususiyatlari mohiyatida yotadi. Qabul qilish hodisasi o‘quvchi, tomoshabin, tinglovchining birgalikdagi jarayonidir.

Bolalik xotiralari, o‘zi yashagan davr, sharoit, turmush tarzi, qadim millat an’analari, tabiat manzaralari, momolaridan eshitgan dono xalqning afsonalari ijodkorning bitmas-tuganmas ijod manbaidir. Shukur Xolmirzayev bolaligidan tabiatga, hayvonot olamiga mehri bo‘lakcha bo‘lganini o‘zining xotiralarida, qolaversa, singlisi Ra’no Erkayevaning “Armon” nomli kitobida keltirilgan biografik ma’lumotlardan bilib olish mumkin. Bunday xotiralar muallif ongidagi bitmas-tuganmas fenomenlar bo‘lib, bu xotiralarni badiiy jihatdan qayta ishlab “Cho‘loq turna”, “Zov ostida adashuv”, “Bandi burgut”, “O‘zbekning soddasi”, “O‘zbek bobo”, “Ozodlik”, “Jarga uchgan odam”, “Xorazm, jonginam”, “Ko‘k dengiz” hikoyalariga g‘oyaviy asos qilib oladi. Hikoyalarda keltirilgan tabiat tasvirlari bolalik xotirasida qolgan dasht manzaralari, o‘rkach-o‘rkach qir-adirlar, dashtliklarning hayot tarzi, Boysun tog‘lari, tog‘liklarning xarakteri bilan bog‘liq g‘ayrioddiy, kamdankam bo‘ladigan hodisalardir.

Natijalar va muhokama. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida imkon qadar inson va tabiat munosabati muammosining barcha jihatlariga e’tibor qaratilgan.

Adib peyzaj ustasi. Chunki u ayni tasvirlarning guvohi, yoshligi o‘sha manzaralar ichida o‘tgan. Ijodkor borliqni o‘zi yashagan hudud tabiati orqali o‘zlashtirgan. “Shunday o‘tirishlarning birida havo aynib qoldi: qop-qora, xunuk uvada bulutlar tepamizni bir zumda qoplab oldi-da, xudoning qudrati bilan, tuxumdek-tuxumdek do‘l yog‘a ketdi”[3.5.]; “O‘qtin-o‘qtin qurvaqalarning og‘ziga suv olib g‘arg‘ara qilganday sayrashlari eshitiladi: bahor-da”[4.429.]; “O‘yiq” deganda suv urib ketgan chuqurlikni ham, yer qariga to‘g‘ri tushgan yerni ham tushunish mumkin. Ammo bizda “O‘yiq” deganda, avvalambor, shahar tugab, ya’ni shahar chegarasidan birdaniga uzilib, pastlikda qolgan va ufqqacha cho‘zilgan ajabtovur vayronazorga o‘xshash maskanni tushunishadi. Bu shunday xarobazorki, qaysidir asrlarda yaxlit tovatoshlardan qurilgan uylarning tomlari yo‘g‘-u, qalin-qalin devorlari qolganday. Bu devorlar ham go‘yoki vaqt o‘tishi bilan tors-tors yorilib, uzun-uzun ustunlari so‘ppayib turadi. Ana shu so‘ppaymalarning ayrimlari xuddi yerdan o‘sib chiqqan cho‘qqiga o‘xshaydi”[5.470.]. Adibning, ayniqsa, tog‘ manzaralari bilan bog‘liq tasvirlari juda ajoyib. Muallif asarlarida peyzaj muhim g‘oyaviy kompozitsion rol o‘ynaydi. Chunki yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan o‘zining tabiatga munosabatini ifodalaydi. Peyzajning ko‘plab na’munalari “Zov ostida adashuv” hikoyasida ham keltiriladi. Muallif ayni hikoyani boshidan o‘tkazgan voqea asosida yozganini aytib o‘tadi. Tog‘liklarga xos tabiatni “Tanholik” hikoyasida Lev Tolstoy tilidan o‘zgacha hurmat bilan tasvirlaydi. Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev asarlarini ko‘p uchraydigan joy nomlari, o‘xshash manzaralar, folklor na’munalari, Boysun tog‘lari va Surxon vohasi kabi umumiylik birlashtirib turishini anglash qiyin emas.

Adib ijodining boshida yozgan asarlarining aksariyati inson va tabiat o‘rtasidagi azaliy munosabatlarga bag‘ishlanib, asosan, inson-tabiat, inson-hayvonot bog‘liqligi va ayni paytda o‘zaro konfliktlari to‘g‘risida edi. Ijodkorning bu mavzularda yozgan hikoyalari o‘quvchilar e’tiboriga tushgan. Bunga sabab, mavzuning qiziqarliligi hamda tasvirning tabiiyligidir. Qolaversa, bu ijodkor yashagan geagrafik joy bilan bog‘liq. Shukur Xolmirzayev o‘z tarjimai holi va bir qancha suhbatlarida bolaligi Boysun tog‘lari,

yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar (ularni mahalliy aholi “dasht” deb atagan)da o‘tgani, bu o‘lkalarning tabiati-yu o‘simligi, hayvonot olamini yaxshi bilganini aytib o‘tadi. Tasvirlarning tabiiyligini shu omil ta’minlagan. Adib ijodi mohiyati haqida fikr bildirar ekan Sh.Doniyorova shunday yozadi: “Qishloq tabiati, unda ulg‘aygan inson, bu insonning tabiatdan uzoqlashib shaharga kelishi va yana qishloqqa, tabiatga, birga o‘sgan do‘stlariga intilishi Sh.Xolmirzayev hikoyalarida hayot va inson tasvirining asosiy syujet o‘zaklarini tashkil etadi”[6.16.].

Shukur Xolmirzayev ijodida tabiat, uning qahramon tasavvuridagi aksi, obrazlarning ongida yagona haqiqatga aylangan o‘ziga xos xususiyatlari bor. Hikoyadagi tabiat tasviri dramalashtirilgan, ichki dinamikaga ega, mikrokompozitsiyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda yozuvchi tabiat manzaralarini chizishda sxematizmdan voz kechgan. Har qaysi tasvir o‘z-o‘zicha noyob. Muhimi, alohida ma’no-mazmunli yukni tashiydi. Bundan tashqari, peyzaj elementlari personajlar uchun tayanch obrazlar vazifasini ham bajarib keladiki, bu ularning ruhiy dunyosini badiiy shaklda aks ettirish imkonini beradi. Peyzaj asarda muallif g‘oyalarining tayanch nuqtasi yoki markazi sifatida uning dunyo va inson shaxsiga nisbatan falsafiy qarashlarini o‘zida jamlagan holda yanada ramziy, ko‘p ma’noli funksiyalarni bajarib keladi. Adib xotiralaridan birida Usmon Azimning “Boysun haqida g‘amgin ballada” asari o‘ziga bag‘ishlanganini aytib, shoirning quyidagi gapini eslab o‘tadi: “Boysunning daralarini, ko‘katlarini, tog‘larini, archalarini, o‘ngirlarini sevish mumkin ekanligini siz yoza boshlaganingizdan keyin his qilgan edik”[7.5.]. Demak, adib kitobxonlar uchun Boysun va uning tabiati, odamlari obrazini olib kirdi. Adibning o‘zi esa: “Harqalay, mening yurtim Surxondaryo edi. Ko‘z ochib ko‘rgan dunyom Boysun tog‘lari bo‘ldi. Men, asosan, shular haqida yozdim”, – deya aytib o‘tadi. Yozuvchi uchun vatan – Boysun, tog‘lar, qishlog‘i, tabiati, mehnatkash odamlari. Bu odamlarni texnika taraqqiyoti buzib ulgurmagani uchun ijodkor zavq bilan sevib qalamga oladi. Chunki o‘sha qaharamonlarning zamin bilan uzviy bog‘liq ekanligi haqidagi o‘ylari ijodkor shuuriga juda yaqin.

Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi inson va tabiat munosabatida Surxon elining qadimiy xalqi baqtriyaliklar davridan to bugungacha yetib kelgan hayot tarzi, ularning turmushida tabiatning tutgan o‘rni va unga nisbatan o‘zgacha mehr bilan qarashi sezilib turadi. Muallif Boysun tog‘ini, tabiati go‘zalligini yoki injiqliklarini ta’riflashdan charchamaydi. Ijodining dastlabki davrlaridagi peyzaj, aynan, Boysun o‘lkasiga tegishli. Lekin keyingi asarlarida ijodiy tajriba o‘sgani sabab bu tasvirlar butun o‘lka tabiati muammolari – Orol fojiasi, paxta ekilishi va kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanish natijasida yerlarning sho‘rlanishi, tuproqning unumsizlashishi, Amudaryoning sayozlashuviga ko‘chadi. “Xorazm, jonginam”, “Ko‘k dengiz” hikoyalarida tabiatni inson faoliyatining qurboni sifatida tasvirlab, ushbu vaziyatlarning kelib chiqish tarixini yoritadi, inson faoliyatining atrof-muhitga ta’siriga baho beradi. Ichki kechinmalari, hissiyotlarini qahramon xarakteriga singdirib, dengizning bugungi ahvolidan iztirob chekadi. “Manzara yaxshi, lekin yonimizda bir xavfli tepalik bor, uning bir yoni kuyib ketgan – o‘t o‘smas edi. Tepalikning u yog‘ida dahshatli bir ko‘l yastanib yotibdi. Qadimda Ko‘k ko‘l deyilgan, hozir esa Qora ko‘l deyishadi. Tog‘ etagidagi kimyo zavodidan chiqqan oqava-yuvindi suvlar qo‘yib yuborilgan: ko‘lda suv emas, eritilgan qora mum bordek yaltirab yotadi. Qaysidir yili yog‘in ko‘p bo‘lib ko‘l toshganda, bir ariq suv oqib chiqqanu haligi yonbag‘irdan pastga engan. O‘shaning o‘rnidan giyoh unmas edi: kuyib ketgan-da!”[8.440.]. Keltirilgan ushbu parchada, aynan qaysi ko‘l yoki qaysi dengiz haqida gap ketayotgani ochiqlanmaydi. Muallif uchun bu masalani konkretlashtirishning keragi ham yo‘q. Sababi, bu kabi falokatlar har birimizning atrofimizda bor. Ko‘l qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar insoniyat uchun obihayot, tiriklik ramzi. Har qaysi kitobxon istaganicha tasavvur qilishi mumkin. Biroq asarni o‘qish jarayonida mavzu Orol bilan, uning fojiasi bilan bog‘lanadiki masala bugungi avlodga ham taalluqlidir. Adabiyotshunos olima

G.Imomova dissertatsiyasida hikoya tahliliga to‘xtalib, unda bir nechata ulkan muammolar aks etganini aytib o‘tadi. “Bular: a) sun’iy internatsionalizmga ruju qilish; b) o‘tmish urf-odatlari hamda qadriyatlarini oyoq-osti qilish; v) atrof-muhitni ifloslantirish; g) bizning mintaqamiz uchun metiriologik qalqon vazifasini o‘tagan Orol dengizi falokat yoqasiga olib borishi kabi masalalardan iborat”[9.126.].

“Shukur Xolmirzayevning asarlarida hali hamma narsa atroflicha aks ettirilmagan bo‘lishi mumkin, ba’zan avtor naturalistik tasvirlardan ham qutila olmagan bo‘lishi mumkin. Lekin voqealarni tasvirlashdan topgan yo‘li, prinsiplari kishini quvontiradi”, – deya fikr bildirgandi adabiyotshunos M.Qo‘shjonov[10.357.]. Muallif qahramonning cheksiz qayg‘usini tasvirlashga urinadi. Bu jarayonda ijodkorning o‘zi qahramon bilan bitta vujudga aylanadi. Ba’zan hissiyot tizginini boshqarolmay, qaysidir qahramon tomoniga o‘tib olganini sezmay qoladi. Asar xotimasi Orol bilan bog‘lanadi. Chunki qahramon halovatini ko‘k ko‘ldan topolmagach, olisdagi Orolga borishga qaror qiladi. Quriyogan, baliqlari kamayib ketgan dengizning harnechuk tirik ekani, hali yashayotgani unga so‘nggi umid edi.

Muallifning “Xorazm, jonginam” va “Ko‘k dengiz” hikoyalari o‘rtasida g‘oyaviy jihatdan o‘xshashlik bor. Tabiatga yetkazilayotgan zarar hamda vatan, ona yurt mavzulari qalamga olingan. Faqat qahramonlarning biri Oltoy farzandi, ikkinchisi Xorazm farzandi. Hikoyada Xorazm tasviri quyidagi jumlalar bilan boshlanadi: “Xorazmga tuz yog‘ila boshladi. Har kvadrat metriga falon kilo. Devorlar zax tepgandek shishib, uvalanib to‘kilishga boshladi. Madrasalar, qal’alar ham shu ahvolda. Havoning ham mazasi qochdi. Bularning bosh sababi, albatta, Orolda… Ha-ha, buni hamma biladi. Qoraqalpoqda ahvol biznikidan ham yomon. Turkmanistonning ko‘p joylaridayam. Buxoroda ham…” “Paxtadan ham putur ketdi. Yer, ekiladigan yer kasal, dabdalasi chiqqan, bangi. Ximikatni shimiyverib, narkaman bo‘lib qolgan… Eng yomoni – Orolning halokati…”[11.392.]. Asarning boshlanishiyoq o‘quvchini mushohada qilishga undaydi. Chunki muammo boshqa qit’ada emas, atrofimizda. Uni ko‘rib, ta’sirini his qilib turibmiz.

Faktlarga yuzlanadigan bo‘lsak, dengizning quriy boshlashi 60-yillarga to‘g‘ri keladi. Keyinroq bu jarayon kuchayadi. O‘sha paytda odamlar dengizning ahvolidan xabardor emasmidi? To atrofga tuz yog‘ilib, suvi sezilarli darajada tortilib ketmagunicha bilishmadimi? Yo‘q. Ahvolni butun mamlakat bilardi. Siyosiy tuzum sabab xalq jim edi. Ko‘z o‘ngida quriyotgan dengizni ko‘rgan odamning ichi achishadi, albatta. Chunki u shunchaki suv manbai emas, qadim xalqning o‘tmishi, ming yillar davomida shakllangan turmush tarzining ajralmas bo‘lagi. Orol millat uchun geografik halokatdan ko‘ra, ma’naviy fojiadir. Keyingi misolda yozuvchi achchiq fikrlarini davom ettiradi. “Amuniyam suvi kamayib qolgan, uniyam kelajagi…”, “Endi, Xorazmning taqdiri kimni yig‘latmaydi: shunday qadimiy, ulug‘ o‘lkaning boshida ajal sharpasi aylanib turgan bo‘lsa! Baribir farzandlari kuyar ekan-da”. Inson faqat ota-onaga emas, yurtga, tuproqqa farzand. Keltirilgan misollar orqali muallif ongida tabiat, ona tuproq fenomenlari qay tarzda mavjud bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bolalik xotiralariga cheksiz hayrat, ulug‘vorlik bergan, abadiy gullab turadiganday ko‘ringan tabiat ko‘z oldida so‘layotgan bo‘lsa qaysi ijodkor jim tura oladi? Muallif Orol fojiasi orqali Boysunining yo‘qolib borayotgan kiyik, ayiqlari, shifobaxsh giyohlarining ham taqdiridan kuyunadi. Bu boyliklarni yo‘q qilayotgan insonlar obrazini muallif turli hikoyalarida tasvirlab o‘tadi.

Xulosa: Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat munosabatlari badiiy-estetik tafakkurning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Yozuvchi tabiatni oddiy fon yoki voqealar kechadigan makon sifatida emas, balki inson ruhiyati, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini ochib beruvchi faol badiiy unsur sifatida tasvirlaydi. Fenomenologik yondashuv asosida olib borilgan tahlillar adib asarlaridagi peyzaj tasvirlari muallifning shaxsiy hayotiy tajribasi, bolalik xotiralari hamda Boysun vohasining tabiiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqladi.Tahlil qilingan hikoyalarda tabiat

obrazlari qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va hayotiy pozitsiyasini ifodalashda muhim poetik vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, yozuvchi insonning tabiatga munosabatini axloqiy-me'yoriy mezon sifatida talqin qilib, ekologik muammolar, xususan Orol fojiasi, yerlarning sho'rlanishi va atrof-muhitning ifloslanishi masalalarini badiiy umumlashtirish darajasiga ko'taradi.

Shukur Xolmirzayev nasrida peyzajning faqat tasviriy emas, balki falsafiy, ramziy va g'oyaviy-kompozitsion funksiyalarga ham ega ekanligini ko'rsatdi. Natijada adib hikoyalarida inson va tabiat uyg'unligi milliy qadriyatlar, vatan tuyg'usi hamda ekologik ong bilan uzviy bog'langan holda yoritilishi aniqlandi. Bu esa Shukur Xolmirzayev ijodining zamonaviy ekologik va antropologik talqinlar uchun ham dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar ro 'yhati:

1. Колобаева. От временного к вечному: Феноменологический роман в русской литературе XX века. Вопроси литературы. – М.: 1989, № 3.

2. Бечков. Лексикон ноклассики. Художественно-эстетическая культура XX века. Российская политическая энциклопедия. – Москва, 2003. – Б.446.

3. Xolmirzayev Sh. Bandi burgut. Saylanma III jild. – T.: Sharq, 2006. – B.5.

4. Xolmirzayev Sh. Xorun Ar-Rashid. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2006. – B.429.

5. Xolmirzayev Sh. Kuzda bahor havosi. Saylanma III jild. – T.: Sharq, 2006. – B.470.

6. Дониёрова Шоира. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги. Фил.фан.ном.дисс. – Б.16-17.

7. Тошбоев О. Мен Бойсунни куйлайман ҳамон. Абадий замондош. – Т: Ғафур Ғулом, 2018. – Б.5.

8. Xolmirzayev Sh. Ko'k dengiz. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2020. – B.440.

9. Imomova G. O'zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik konsepsiyasi. Fil.fan.dok.diss. – Qarshi; 2022. – B. 126.

10. Қўшжонов М. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – Б.357.

11. Холмирзаев Ш. Хоразм, жонгинам. Танланган асарлар. – Т: Шарқ, 2020. – Б.392.

FITRAT SHE'RIYATI TALQINIDA IJTIMOIY-TARIXIY VA BADIIY-ESTETIK MEZONLAR MUNOSABATI

Kenjayev To'lqin
QarshiDU filologiya fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, f.f.f.d. (PhD)
tolqin.kenjayev@mail.ru
ORCID 0009-0007-8465-1562
UDK 821.512.133-1.09

Annotatsiya. Maqolada Fitrat she'riyatini talqin qilishda ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik mezonlarning o'zaro munosabati o'rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida shoirning uch asari, T. Kenjayev dissertatsiyasi hamda fitratshunoslikka oid ilmiy manbalar tanlandi. Qiyosiy-germenevtik va poetik tahlil yordamida murojaat, takror, obraz, kompozitsiya hamda tarixiy kontekstning ma'no yaratishdagi vazifalari aniqlandi. Natijalar ijtimoiy mazmunning poetik shakl orqali yuzaga chiqishini, ishqiy obrazlarning milliy-ramziy talqini esa qo'shimcha dalillashni talab qilishini ko'rsatdi. Asarning mansubligi, yaratilish sanasi va nashr xususiyatlarini tekshirish talqinning zarur sharti sifatida asoslandi. Muallif niyati, lirik subyekt va o'quvchi idroki farqlanib, tarixiy izohni matniy dalil bilan uyg'unlashtirishga asoslangan tahlil tartibi taklif etildi. Natijalar tanlangan asarlar doirasida ehtiyotkorlik bilan umumlashtirildi.

Kalit so'zlar: Fitrat, fitratshunoslik, tarixiylik, poetika, germenevtika, lirik subyekt, ramziy talqin, kompozitsiya, retseptiv estetika.

THE RELATIONSHIP BETWEEN SOCIOHISTORICAL AND LITERARY AESTHETIC CRITERIA IN THE INTERPRETATION OF FITRAT'S POETRY

Abstract. This article examines sociohistorical and literary aesthetic criteria in interpreting Fitrat's poetry. Its materials comprise three poems, Kenjayev's dissertation, and scholarly studies of Fitrat. Comparative hermeneutic and poetic analysis identifies the functions of address, repetition, imagery, composition, and historical context in constructing meaning. Findings show that social meaning emerges through poetic form, whereas national symbolic readings of love imagery require additional evidence. Verifying attribution, composition dates, and publication features is therefore essential. Authorial intention, lyric speaker, and reader response are distinguished. The proposed procedure integrates historical explanation with textual evidence and limits generalization to the selected works examined in detail.

Key words: Fitrat, Fitrat studies, historicity, poetics, hermeneutics, lyric subject, symbolic interpretation, composition, reception aesthetics.

Kirish. Fitrat she'riyatining ilmiy talqini adabiy merosga munosabatning o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq. T. Kenjayev dissertatsiyasida shoir nazmini milliy istiqlol konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganish qayta baholashning muhim yo'nalishi sifatida ajratiladi. Tadqiqotchi avvalgi mafkuraviy ayblovlar o'rniga milliy ozodlik, ma'rifat va tarixiy xotira masalalarining qo'yilishini talqin mezonlaridagi o'zgarish bilan izohlaydi [1.47–53]. Biroq bahoning ijobiylashuvi o'z-o'zidan poetik tahlilning to'liqligini anglatmaydi. Ijtimoiy g'oyaning aniqlanishi bilan uning qanday badiiy shaklda ifodalangani alohida tekshirilishi kerak.

Muammo ijtimoiy mazmun bilan badiiy shaklni qarama-qarshi qo'yishda emas, ularning talqindagi vazifasini aniqlashdadir. Tarixiy yondashuv she'rning davr bilan aloqasini tushuntiradi; poetik tahlil esa shu aloqaning obraz, ohang va kompozitsiyada qanday vujudga kelganini ochadi. Ushbu ikki bosqichdan biri chetlab o'tilsa, matn tarixiy voqeaga ilova yoki tarixdan uzilgan shakliy qurilma sifatida o'qilishi mumkin. Maqolaning maqsadi tanlangan namunalar orqali mazkur mezonlarning bir-birini to'ldirish imkoniyatlari va umumlashtirish chegaralarini belgilashdan iborat.

Asosiy tadqiqot savoli quyidagicha qo'yildi: Fitrat she'riyatidagi milliy-ijtimoiy mazmunni izohlash qaysi poetik belgilar bilan asoslanadi va qaysi o'rinlarda bunday izoh muqobil ma'nolarni toraytiradi? Maqolaning tahliliy hissasi tayyor baholarni takrorlashdan ko'ra, tarixiy da'voni matniy dalil va qarshi talqin bilan tekshirish tartibini tanlangan materialda qo'llashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kenjayevning sharhida Qosimov yondashuvi, avvalo, milliy-ijtimoiy mazmunni ochishga qaratilgan talqin sifatida tavsiflanadi [1.53–56]. Qosimov monografiyasining asl matnida ham ishqiy she'rlardagi mahzunlik millat taqdiri bilan bog'lanadi [4.371]. Bu yondashuv lirik kechinmaning jamoaviy tajriba bilan

aloqasini yoritadi. Uning dalillash chegarasi esa har bir she’rning xususiy obrazlar tizimi va tarixiy ma’lumotlari orqali aniqlanishi lozim.

Boltaboyevning so‘zboshisida milliy mazmun bilan poetik yangilanish yonma-yon qo‘yiladi. Olim Fitratning lirik merosini faqat «Sayha» bilan chegaralamaydi, uning til, uslub va she’r shakllari bilan bog‘liq izlanishlariga ham e’tibor beradi [3.12–14]. Demak, bu talqinda milliylik mavzu doirasidagina namoyon bo‘lmaydi: she’riy nutqni yangilash ham shu jarayonning tarkibiy qismi sifatida tushuntiriladi. Bu holat ijtimoiy-tarixiy va estetik mezonlarning o‘zaro tutashishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifatiy adabiyotshunoslik tahlili sifatida bajarildi. Material uch guruhdan tuzildi: Kenjayev dissertatsiyasidagi ilmiy talqinlar sharhi; Boltaboyevning 2000-yilgi nashrga yozgan so‘zboshisi; shu nashrdagi uch poetik asar. «Mirrix yulduziga» ijtimoiy tanqid va murojaat qurilishini, «Sharq» tarixiy makonning badiiy tasvirini, «Go‘zalim, bevafo gulistonim» esa ishqiy va milliy-ramziy o‘qish chegaralarini qiyoslash uchun tanlandi [2.36–37, 41–42, 45]. Tanlov barcha she’rlarni qamrab olishga emas, turlicha talqin talab qiladigan holatlarni tekshirishga yo‘naltirildi.

Qiyosiy-germenevtik metod matnning alohida belgilarini umumiy mazmun bilan bog‘lash, ilmiy izohni esa o‘sha belgilar bilan qayta tekshirish uchun qo‘llandi. Tarixiylik mezoni doirasida asarning sanasi, nashri va ijtimoiy kontekstga doir da’volar farqlandi. Badiiy-estetik mezon doirasida murojaatning kimga qaratilgani, obrazlar munosabati, takrorning vazifasi va kompozitsion siljishlar kuzatildi. Lirik subyektning nutqi muallifning bevosita biografik iqroriga avtomatik tenglashtirilmadi.

Tahlil birligi sifatida alohida so‘zning o‘zi emas, uning she’rdagi munosabatlari olindi. Masalan, gul obrazi ishqiy iztirobni ham, ramziy mazmunni ham tashishi mumkin; uning ma’nosi murojaat, harakat va takrorlar bilan birgalikda aniqlanadi. Har bir holatda asosiy talqin, uni quvvatlovchi matniy belgi, muqobil o‘qish va xulosaning chegarasi belgilandi. Shunday tartib ijtimoiy taxminning dalillangan natija o‘rnini egallashiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi.

Manbalardan foydalanishda bevosita va vositali dalillar ajratildi. Qosimovning 370–371-betlardagi talqinlari monografiyaning asl nusxasi bilan tekshirildi [4]. Qahramonovning qayta baholash tamoyillari Kenjayev dissertatsiyasidagi sharh orqali qiyoslandi [1.51–52; 5]. Boltaboyev fikrlari, she’r matnlari va nashr izohlari «Tanlangan asarlar»ning birinchi jildi bilan solishtirildi [2; 3]. Formalizm, poetik funksiya va o‘quvchi idrokiga doir nazariy qarashlar tahlilni aniqlashtirish uchun qo‘llandi [6–9]. Iqtiboslar kirill yozuvidan lotin yozuviga o‘girildi. Qo‘lyozma va barcha tarixiy nashrlar qiyoslanmagani sabab bu ish matnning tanqidiy nashrini yaratish da’vosini qo‘ymaydi.

Natijalar va muhokama. «Mirrix yulduziga» asarida ijtimoiy tanqidning poetik qurilishi. «Mirrix yulduziga»da lirik murojaat yerdagi munosabatlarni tashqi nuqtadan ko‘rish imkonini yaratadi. Mirrix oddiy astronomik obyekt vazifasidan chiqib, suhbatdosh sifatida tasavvur qilinadi. Dastlabki yaqinlik ohangi bilan keyingi ayblovlar o‘rtasidagi farq she’r harakatini belgilaydi. Yulduzning javobi berilmagani sabab savollarni o‘quvchi o‘z dunyosiga qaytarishga majbur bo‘ladi. Kosmik masofa shu tariqa axloqiy baholash masofasiga aylanadi [2.36–37].

Matndagi «Bormi senda» takrori bir xil boshlanishni saqlagan holda ijtimoiy illatlar doirasini kengaytiradi. Zuluk va qoplon obrazlari zo‘ravonlikni jismoniy harakatlar orqali sezdiradi; bu yerda tanqid mavhum tushunchalar bilangina berilmaydi. Takror ayblovlarni jamlaydi, so‘roq shakli esa bevosita hukmni keskin murojaatga aylantiradi. Ijtimoiy mazmun aynan shu qurilish orqali ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. She’rni faqat davr adolatsizligining ifodasi deb tavsiflash ana shu poetik mexanizmni to‘liq tushuntirmaydi.

Ayni paytda matndagi har bir salbiy obrazni muayyan tarixiy shaxsga tenglashtirish uchun she’rning o‘zi yetarli emas. Uning milliy-ijtimoiy o‘qilishi axloqiy

umumlashma bilan birga mavjud: o‘quvchi zulm, manfaatparastlik va xiyonatni tarixiy doiradan kengroq ma’noda ham anglaydi. Shu sabab tarixiy kontekst obrazning kelib chiqishini izohlasa, obrazning umumlashtirish xususiyati uning keyingi davrlarda ham o‘qilish imkoniyatini saqlaydi.

«Sharq» asarida tasvir va ayblov munosabati. «Sharq»ning boshlanishidagi makon tasviri bilan keyingi vayronalik manzaralari kompozitsion zidlik hosil qiladi. Dastlab tabiatning ko‘rkamligi va o‘lkaning yaxlitligi tasavvur etiladi; so‘ng zo‘ravonlik oqibatlari inson tanasi hamda buzilgan hayot detallari orqali ochiladi. Birinchi manzara keyingisini baholash uchun estetik va axloqiy mezon yaratadi. Demak, vayronalikning dahshati alohida tasvirlar yig‘indisidan emas, avvalgi yaxlitlikning buzilishidan ham kelib chiqadi [2.41–42].

Asardagi «Madaniyat degan g‘arbli olbosti» ifodasi nom bilan amaliy oqibat o‘rtasidagi ziddiyatni keskinlashtiradi. Madaniyatni da’vo qilish bilan vayronkor harakatning yonma-yon kelishi ayblovning ma’no markazini tashkil etadi. Shuning uchun bu o‘rindagi bahoni barcha madaniy hodisalarning mutlaq inkori sifatida umumlashtirish asosli emas. Satrdagi qarama-qarshilik hukmronlikni oqlovchi nom bilan uning insoniy oqibatlarini solishtirishga undaydi.

Manbani aniqlashtirish ham natijaga bevosita ta’sir qildi. Dissertatsiyaning 55-betida «Mirrix yulduziga» muhokamasi ichida mazkur satr keltiriladi. 2000-yilgi nashrda esa u «Sharq» tarkibida berilgan [1.55; 2.42]. Bu tafovutni hisobga olmaslik ikki asarning dalillarini aralashtiradi: birida yulduzga qaratilgan so‘roqlar, ikkinchisida makonning o‘zgarishi yetakchi. Umumiy ijtimoiy mazmun ularning kompozitsion farqini bekor qilmaydi.

Ishqiy lirikaning ramziy talqini va uning chegarasi. «Go‘zalim, bevafo gulistonim»da murojaat shaxsiy yaqinlik va ayriliq tajribasi atrofida qurilgan. Gul va rayhon obrazlari, yorga yuzlanish, xotira hamda qaytishga da’vat bir-birini to‘ldiradi. Takrorlanuvchi ikki satr lirik subyektning ayriliq nuqtasidan chiqolmayotganini ko‘rsatadi. Har bir yangi murojaatdan keyin shu nuqtaga qaytish hissiy harakatni aylanasimon qiladi. Bu kompozitsiya yo‘qotish iztirobini voqea bayonidan ko‘ra nutqning qaytalanishi orqali kuchaytiradi [2.45].

Dissertatsiyada Qosimovning ishqiy she’rlardagi alamni millat taqdiri bilan bog‘lagan qarashi keltiriladi [1.56; 4.371]. Bunday ramziy o‘qish imkoniyati mavjud, ammo yorning har bir belgisini Vatanga birma-bir tenglashtirish matnning ochiq ma’nosini toraytiradi. Shaxsiy muhabbat, lirik shartlilik va tarixiy iztirob bir-birini istisno qilmaydigan qatlamlar bo‘lishi mumkin. Milliy talqin shu qatlamlardan biri sifatida asoslanishi, yagona ma’no sifatida esa qo‘shimcha dalilsiz tasdiqlanmasligi kerak.

Nashr izohida ushbu she’r 1932-yil 4-noyabrda Samarqandda yozilgani qayd etilgan [2.235]. Bu ma’lumot uni bevosita 1917-yil siyosiy holatining ifodasi deb ko‘rsatishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Oldingi tajribaning keyingi lirikada aks etishi mumkin, lekin bu aloqani ko‘rsatish uchun biografik yoki matniy dalil kerak. Shunday qilib, sana ramziy talqinni bekor qilmaydi; uning tarixiy aniqlik darajasini chegaralaydi.

Tanlangan material ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik mezonlarni ketma-ket tekshirish zarurligini ko‘rsatadi. Dastlab matnning nashri, mansubligi va mavjud sanasi aniqlanadi. Keyin muayyan belgi qanday badiiy vazifa bajarayotgani kuzatiladi. Tarixiy izoh ana shu kuzatishlar bilan qiyoslangandagina tekshiriladigan ilmiy talqinga aylanadi. Kontekstni oldindan tayyor xulosa sifatida qabul qilish esa obrazlarni shu xulosaga moslashtirish xavfini tug‘diradi.

Natijalarni qiyoslash barcha asarlarga bir xil talqin qolipini qo‘llash o‘rniga dalilning xususiyatiga mos yondashuv tanlash zarurligini ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda tahlilning asosiy kuzatishlari umumlashtirildi.

1-jadval. Tanlangan asarlarda talqin mezonlarining munosabati

Asar	Badiiy-estetik dalil	Ijtimoiy talqinning chegarasi
«Mirrix yulduziga»	Yulduzga murojaat va ketma-ket so‘roqlar	Salbiy obrazni muayyan shaxsga tenglashtirish qo‘shimcha dalil talab qiladi.
«Sharq»	Ko‘rkam makon va vayronalik zidligi	Bir asardagi satrni boshqa asarga ko‘chirish talqin asosini o‘zgartiradi.
«Go‘zalim, bevafo gulistonim»	Shaxsiy murojaat va ikki satrning takrori	Vatan timsoli sifatidagi o‘qish yagona ma’no qilib belgilanmaydi.

Qayta baholashdagi muhim masala baho bilan isbotning nisbatidir. Milliy merosga ijobiy munosabat tadqiqotning axloqiy yoki madaniy motivi bo‘lishi mumkin, biroq ilmiy xulosa baribir tekshiriladigan dalilga tayanadi. Xuddi shuningdek, eski talqinning mafkuraviy sharoitda yuzaga kelgani uning har bir matniy kuzatishini avtomatik inkor etmaydi. Alohida kuzatishning aniqligi bilan undan chiqarilgan umumiy hukmning asoslanganligi ajratib tekshirilishi lozim.

Lirik subyektni muallifga tenglashtirmaslik ham shu masalaning tarkibiy qismidir. She’rda ifodalangan iztirob biografik tajribadan oziqlanishi mumkin, ammo u poetik tanlov, janriy an’ana va badiiy shartlilik orqali qayta tashkil topadi. Shuning uchun ayriliqni faqat muallif hayotidagi voqea bilan tushuntirish ham, uni faqat milliy timsolga aylantirish ham yetarli emas. Talqin kechinmaning matnda qanday gapirilayotganini ochishi kerak.

Amaliy tahlilda har bir tarixiy da’vo yoniga uni asoslovchi poetik belgini qo‘yish foydali. Milliy fojia haqida xulosa qilinsa, uning murojaat, obraz yoki kompozitsiyadagi asosi ko‘rsatiladi; shaxsiy kechinma ramziy ma’noda o‘qilsa, shu o‘tishning dalili tushuntiriladi. Muqobil izohni ham tekshirish xulosani zaiflashtirmaydi, aksincha, uning qaysi chegarada amal qilishini aniqlashtiradi. Bu tartib darslikdagi qisqa sharhda ham, ilmiy maqoladagi keng tahlilda ham qo‘llanishi mumkin.

Ijtimoiy mazmunni idrok etishning poetik shartlari. «Mirrix yulduziga»da odatiy ijtimoiy munosabatlarning boshqa sayyora bilan qiyoslanishi tanish hodisani yangidan ko‘rishga majbur qiladi. Shklovskiyning san’atda avtomatlashgan idrokni buzish haqidagi qarashi bunday usulni tushuntirishga yordam beradi [6]. Biroq bu o‘xshashlik Fitratga formalizmning bevosita ta’sirini isbotlamaydi. Bu yerda nazariya matnning ishlashini izohlash vositasidir. She’rda zulmning g‘ayritabiiy holat sifatida sezilishi tarixiy bahoning o‘quvchi kechinmasiga aylanishini ta’minlaydi. Demak, yangicha ko‘rish usuli ijtimoiy tanqidning o‘ziga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Takrorning vazifasi ham mazmunni qayta aytish bilan tugamaydi. Jakobson poetik funksiyani xabarning o‘z tuzilishiga qaratilgan e’tibor bilan bog‘laydi [7]. Shu nuqtayi nazardan «Bormi senda» birikmasi keyingi misralarni o‘zaro qiyoslanadigan birliklarga aylantiradi: yulduzga berilgan har bir savol yerdagi yangi nuqsonni ko‘rsatadi. Savollar javobsiz qolgan sari murojaatning axloqiy keskinligi ortadi. Takrorni olib tashlash mazmunning asosiy yo‘nalishini saqlashi mumkin, lekin uning to‘planib boruvchi ta’sirini kamaytiradi. Shunday ekan, bu vosita she’rning tashqi bezagi emas, fikrning izchil rivojlanish shaklidir.

«Sharq»dagi kompozitsiya o‘quvchining bahosini tasvirning o‘zidan hosil qiladi. Dastlabki ko‘rkamlik keyingi vayronalik uchun solishtirish asosini yaratadi. Qosimov ham asardagi o‘lka obrazining yaxlitligini, so‘ng uning talanishini ta’kidlaydi [4.370]. Bu kuzatish tarixiy mazmun bilan estetik tashkil topish bir-biridan ajralmasligini ko‘rsatadi. Tasvir tartibi o‘zgartirilsa, ayblovning dalillanish yo‘li ham o‘zgaradi: o‘quvchi avval qadr topgan makonning yo‘qotilishini boshdan kechiradi. Shuning uchun kompozitsion zidlikni ochmasdan turib, asarning ijtimoiy pozitsiyasini izohlash uning ta’sir mexanizmini to‘liq tushuntirmaydi.

Muallif niyatini aniqlash masalasida biografik ma'lumot bilan lirik nutqning farqini saqlash zarur. Uimsatt va Berdsli muallifning niyatini asarning badiiy bahosi uchun tayyor mezon deb olishni tanqid qiladilar [8]. Mazkur maqolada bu qarash tarixiy kontekstni chiqarib tashlash uchun emas, biografik taxminni matniy dalildan ajratish uchun qo'llanadi. «Go'zalim, bevafo gulistonim»dagi iztirobni muallifning aniq hayotiy voqeasi deb tasdiqlash ham, uni to'liq siyosiy timsolga aylantirish ham alohida isbot talab qiladi. Lirik nutqning shartliligi ana shu tekshiruvning boshlang'ich mezonidir.

Izer adabiy asarning matni bilan uning o'quvchi tomonidan ro'yobga chiqarilishi o'rtasidagi munosabatni ajratadi [9]. Bu farqlash ishqiy va milliy talqinlarning nega bir matn atrofida yuzaga kelishini tushuntiradi: o'quvchining tarixiy bilimi obrazni kengroq tajriba bilan bog'laydi. Ammo o'quvchi faolligi matndan mustaqil xulosa chiqarish huquqini bermaydi. Yor obrazi Vatan sifatida o'qilganda shaxsiy yaqinlik, ayriliq va qaytishga da'vat qanday qayta ma'nolantirilgani ko'rsatilishi kerak. Aks holda, talqin she'rning ko'pma'noliligini tushuntirish o'rniga uni bitta tushunchaga almashtirib qo'yadi.

Milliylik mezonining til bilan aloqasi ham muhim. Fitrat «Tilimiz» maqolasida ona tilining ifoda imkoniyatlarini, jumladan, yaqin ma'noli so'zlar orasidagi farqlarni muhokama qiladi [10]. Bu qarashni she'riyatga tatbiq etganda milliy mazmun faqat Vatan mavzusining mavjudligidan izlanmaydi; so'z tanlovi va nutqning ta'sirchanligi ham tekshiriladi. Biroq publitsistik fikr she'rdagi har bir so'zning ma'nosini oldindan belgilamaydi. U shoirning tilga munosabatini tushuntiruvchi kontekst bo'lib xizmat qiladi. Poetika bilan ijtimoiy tarix shu nuqtada tutashadi: umumiy madaniy maqsad muayyan matnda individual ifoda topadi.

Mazkur kuzatishlardan kelib chiqib, talqinlarni qiyoslashda dalilning ikki darajasini ajratish mumkin. Birinchi daraja matnda bevosita kuzatiladigan belgilardan: takror, murojaat, tasvirlar ketma-ketligi va so'zlar munosabatidan iborat. Ikkinchi daraja shu belgilarning tarixiy yoki ramziy ma'nosiga doir izohdir. Ikkinchi darajadagi xulosa birinchi darajadagi dalilni almashtirmasligi kerak. Bir talqin boshqa talqindan ustun deb baholanganda ham mezon aynan shu bo'ladi: u matnning ko'proq belgilarini izohlayaptimi va muqobil o'qish imkoniyatiga asoslangan javob beryaptimi? Bu tartib baholashning tekshiriladigan tomonini kuchaytiradi.

Natijalarni umumlashtirish chegarasi mavjud. Uch asar asosidagi kuzatishlar Fitratning butun she'riy merosi yoki fitratshunoslikdagi barcha qarashlarga tatbiq etilmaydi. Qosimov monografiyasining tegishli sahifalari bevosita tekshirilgan bo'lsa-da, uning barcha tadqiqotlari qamrab olinmadi. Keyingi izlanishda she'rlarning dastlabki nashrlari va boshqa ilmiy talqinlarni bir xil mezonlarda qiyoslash taklif etilayotgan yondashuvning imkoniyatlarini aniqroq tekshiradi.

Xulosa. Fitrat she'riyatini talqin qilishda ijtimoiy-tarixiy mezon mazmunning tarix bilan aloqasini, badiiy-estetik mezon esa shu mazmunning poetik tashkil topishini ochadi. «Mirrix yulduziga»dagi so'roq va takror, «Sharq»dagi kompozitsion zidlik ijtimoiy tanqidning ifoda shakllari sifatida namoyon bo'ldi. «Go'zalim, bevafo gulistonim» tahlili esa milliy-ramziy o'qish imkoniyatini saqlagan holda shaxsiy kechinmaning nisbiy mustaqilligini e'tiborga olish zarurligini ko'rsatdi.

Qayta baholashning asoslanganligi ijobiy hukm bilan emas, matnga qaytish va dalillarni tekshirish bilan belgilanadi. Asar mansubligi hamda sanasini aniqlashtirish talqinning texnik qo'shimchasi emas, uning mazmuniy shartidir. Shu bois Fitrat lirikasini o'rganishda tarixiy da'vo, poetik dalil, muqobil talqin va chegaralangan xulosa izchilligiga amal qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenjayev T. A. Adabiyotshunoslikda ilmiy-biografik manbalarni qayta baholash muammosi (fitratshunoslik misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi, 2022.

2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild: She’rlar, nasriy asarlar, dramalar / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi H. Boltaboyev; mas’ul muharrir N. Karimov. Toshkent: Ma’naviyat, 2000. 256 b.

3. Boltaboyev H. Fitrat va istiqlol ma’naviyati // Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: Ma’naviyat, 2000. B. 5–30.

4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

5. Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 184 b.

6. Shklovsky V. Art as Technique [1917]. Inglizcha tarjimadan elektron parcha. URL: https://www.paradise.caltech.edu/ist4/lectures/Viktor_Sklovski_Art_as_Technique.pdf (murojaat sanasi: 17.10.2026).

7. Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics // Style in Language / Ed. T. A. Sebeok. Cambridge, MA: MIT Press, 1960. P. 350–377.

8. Wimsatt W. K., Jr., Beardsley M. C. The Intentional Fallacy // The Sewanee Review. 1946. Vol. 54, No. 3. P. 468–488. URL: https://www.jstor.org/stable/27537676.

9. Iser W. The Reading Process: A Phenomenological Approach // New Literary History. 1972. Vol. 3, No. 2. P. 279–299. DOI: 10.2307/468316.

10. Fitrat A. Tilimiz // Ishtirokiyun. 1919. 12-iyun. 32-son. Elektron qayta nashr: https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-tilimiz-1919 (murojaat sanasi: 17.10.2026).

INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA TA'LIM BOSHQARUVINI AVTOMATLASHTIRISH

Ernazarov Zohid Nazarovich
Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, (PhD)
ernazarovzohid011@gmail.com
ORCID 0009-0006-9599-4096
UDK 378.1:004.8

Annotatsiya. Maqolada intellektual axborot tizimlari asosida oliy ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt, Big Data, elektron monitoring, LMS platformalari hamda Smart Education texnologiyalarining universitet boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Natijalar akademik, moliyaviy va kadrlar boshqaruvini avtomatlashtirish ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligini oshirishi, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirishi hamda boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashini ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida HEMIS, elektron jurnal, masofaviy ta'lim va monitoring tizimlaridan foydalanish holati ham yoritilib, texnik infratuzilma, internet sifati, raqamli kompetensiyalar va kiberxavfsizlikka doir muammolar atroflicha muhokama qilinadi. Intellektual boshqaruv platformalarini integratsiyalash bo'yicha xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: intellektual axborot tizimlari, ta'lim boshqaruvi, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, elektron boshqaruv, Smart Education, Big Data, raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim.

AUTOMATION OF EDUCATION MANAGEMENT BASED ON INTELLIGENT INFORMATION SYSTEMS

Abstract. This article analyses the theoretical foundations, practical possibilities and prospects of automating higher education management through intelligent information systems. The study aims to determine the impact of artificial intelligence, Big Data, LMS platforms and Smart Education technologies on the efficiency of university management. The results indicate that automating academic, financial and human-resource management increases the speed and accuracy of data processing, reduces human-factor errors and provides an information basis for managerial decisions. The use of HEMIS, electronic journals, distance-learning and monitoring systems in Uzbekistan's higher education institutions is examined, and problems of technical infrastructure, digital competencies and cybersecurity are discussed.

Key words: intelligent information systems, education management, automation, artificial intelligence, electronic management, Smart Education, Big Data, digital technologies, higher education.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonining kuchayishi boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga chiqardi [1]. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari murakkab tashkiliy tizim sifatida faoliyat yuritmoqda. Universitetlarda akademik boshqaruv, moliyaviy nazorat, ilmiy faoliyat monitoringi, talabalar ma'lumotlarini qayta ishlash va strategik rejalashtirish kabi ko'plab jarayonlarni samarali tashkil etish zamonaviy texnologiyalarni talab qiladi [2]. An'anaviy boshqaruv tizimlari ko'p hollarda qo'lda bajariladigan operatsiyalar, ortiqcha hujjatchilik va inson omiliga bog'liq xatoliklar bilan xarakterlanadi. Shu sababli intellektual axborot tizimlari asosida ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirish zamonaviy pedagogika va ta'lim menejmentining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi [3].

Intellektual axborot tizimlari ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Mazkur tizimlar sun'iy intellekt, Big Data, analitik platformalar va elektron monitoring texnologiyalariga asoslanadi [4]. Ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki ta'lim sifatini monitoring qilish, resurslardan oqilona foydalanish va strategik rivojlanishni ta'minlashga ham xizmat qiladi [5]. Mazkur maqolaning maqsadi intellektual axborot tizimlari asosida ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning nazariy-material bazasini intellektual axborot tizimlari, ta'limni raqamlashtirish, learning analytics, Smart Education va innovatsion ta'lim modellari bo'yicha ilmiy manbalar hamda O'zbekiston oliy ta'lim

tizimini raqamlashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etdi [1]–[8]. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni mazmuniy tahlil qilish, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv universitet boshqaruvini akademik, moliyaviy, kadrlar va axborot-kommunikatsion jarayonlar o'zaro bog'langan yagona boshqaruv muhiti sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Intellektual axborot tizimlari ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va avtomatik qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan raqamli boshqaruv platformalari sifatida talqin qilindi [3]. Ularning asosiy funksiyalari ma'lumotlarni yig'ish va saqlash, statistik tahlil, prognozlash, boshqaruv qarorlarini tavsiya qilish, monitoring hamda nazoratni avtomatlashtirish mezonlari bo'yicha o'rganildi. Sun'iy intellekt algoritmlarining katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali boshqaruv samaradorligiga ta'siri ham nazariy jihatdan baholandi [1].

Natijalar. Tahlil natijalari intellektual axborot tizimlarining ta'lim sifatini monitoring qilish, akademik jarayonlarni avtomatlashtirish, talabalar faoliyatini prognozlash, elektron hujjat aylanishini tashkil etish va masofaviy ta'limni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatdi. Yetakchi universitetlarda Smart Education konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv modellarining qo'llanilishi raqamli boshqaruvning kompleks xususiyatini namoyon etadi [4].

Akademik boshqaruvda intellektual tizimlar o'quv jarayonini monitoring qilish, reyting tizimini shakllantirish va talabalar natijalarini tahlil qilish imkonini beradi [6]. HEMIS, Moodle va boshqa LMS platformalari dars jadvallarini shakllantirish, davomad monitoringi, reyting nazorati, elektron topshiriqlarni boshqarish va test jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirib, boshqaruv aniqligini oshiradi [2].

Moliyaviy boshqaruvda avtomatlashtirish byudjetni rejalashtirish, xarajatlarni monitoring qilish, moliyaviy prognozlash va elektron to'lov tizimlarini boshqarishga tatbiq etiladi. Bu jarayon boshqaruv shaffofligini oshirish hamda korrupsion omillarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [5]. Kadrlar boshqaruvida esa professor-o'qituvchilar faoliyati ilmiy maqolalar, iqtibos ko'rsatkichlari, metodik faoliyat, dars sifati va talabalar fikrlari kabi ko'rsatkichlar asosida monitoring qilinadi [7].

Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari talabalar haqidagi ma'lumotlar, akademik ko'rsatkichlar, elektron platformalardagi faollik, ilmiy faoliyat statistikasi va moliyaviy ma'lumotlarni birgalikda tahlil qilish imkonini beradi [4]. Predictive analytics talabalar akademik muvaffaqiyatini oldindan prognozlash va akademik xavf guruhlarini aniqlashda qo'llanilishi mumkin [2]. Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar talabalar bilan tezkor kommunikatsiyani tashkil etib, universitet ma'muriyati yuklamasini kamaytirishga yordam beradi [6].

Muhokama. Smart Education raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan zamonaviy ta'lim modeli bo'lib, Smart Learning, Smart Management, Smart Communication va Smart Infrastructure komponentlarini birlashtiradi [4]. Ushbu konsepsiyada boshqaruv jarayonlarining yagona elektron platformada integratsiyalashuvi masofaviy boshqaruv, elektron hujjat aylanishi, onlayn monitoring, avtomatik statistik tahlil va raqamli reyting tizimlarini bir muhitda yuritish imkonini beradi. Natijada boshqaruvning tezkorligi va samaradorligi oshadi [5].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari HEMIS platformasi, elektron jurnal tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar va onlayn monitoring tizimlarining joriy etilishi bilan namoyon bo'lmoqda [8]. HEMIS orqali talabalar ma'lumotlari, reyting tizimi, o'quv rejalari, dars jadvallari va professor-o'qituvchilar faoliyatining muayyan ko'rsatkichlari boshqariladi. Pandemiya davrida masofaviy ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi [4]. Shu bilan birga, texnik

infratuzilmaning yetarli emasligi, internet sifati, raqamli kompetensiyalarning pastligi va kiberxavfsizlik tahdidlari avtomatlashtirish samaradorligini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish faqat dasturiy platformalarni tatbiq qilish bilan cheklanmasligi, balki texnik bazani modernizatsiya qilish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ma’lumotlarni himoyalash va turli platformalar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Xulosa. Intellektual axborot tizimlari asosida ta’lim boshqaruvini avtomatlashtirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv ma’lumotlar aniqligini oshirish, ta’lim sifatini monitoring qilish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini tezkor axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt, Big Data va Smart Education texnologiyalari universitet boshqaruvining integratsiyalashgan yangi modelini shakllantirmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli kompetensiyalarni oshirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va mavjud elektron platformalarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford : Blackwell Publishers, 2010. — 597 p.
2. Siemens G. Learning Analytics and Educational Data Mining. — New York : Springer, 2013. — 312 p.
3. Роберт И. В. Теория и методика информатизации образования. — Москва : ИИО РАО, 2018. — 398 с.
4. UNESCO Digital Transformation in Higher Education Reports. — Paris, 2022. — 184 p.
5. OECD Digital Education Outlook. — Paris : OECD Publishing, 2021. — 256 p.
6. Кларин М. В. Инновационные модели обучения. — Москва : Наука, 2019. — 287 с.
7. Толипов Ў. Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологиялар. — Тошкент : Ўқитувчи, 2017. — 320 б.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid qarorlari va farmonlari. — Toshkent, 2020–2024.

LEARNING PREFERENCES AND CHALLENGES IN DEVELOPING IDIOMATIC COMPETENCE OF EFL STUDENTS AT UZBEK UNIVERSITIES

Usmonova Dilbar Ibragimovna
PhD student
Tashkent Institute of Irrigation and
Agricultural Mechanization Engineers National Research University
ORCID 0009-0006-1967-9326

Abstract. This study determines the preferences of EFL students at Uzbek universities for developing idiomatic competence. 182 students participated. Data were collected using a questionnaire distributed via Google Forms. An explanatory sequential mixed-method approach was employed, and quantitative and qualitative data were analysed together. The results showed that students preferred authentic materials, especially films, YouTube videos and interactive platforms, to learn idiomatic items. The main challenges in grasping idioms were literal translation, poor understanding of the cultural context and difficulties in memorizing them. The study shows the need to integrate communicative and technological approaches to develop idiomatic competence in language teaching.

Key words: idiomatic competence, EFL learners, idioms, authentic materials, communicative competence, Google Forms, cultural context, mixed-method approach.

O‘ZBEKISTON UNIVERSITETLARIDA EFL TALABALARINING IDIOMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RGANISH AFZALLIKLARI VA QIYINCHILIKLARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston universitetlarida tahsil olayotgan, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi (EFL) talabalarning idiomatik kompetensiyani rivojlantirishdagi afzal ko‘rgan usullarini aniqlash maqsadida o‘tkazildi. Tadqiqotda 182 nafar talaba ishtirok etdi. Ma’lumotlar Google Forms platformasi orqali tarqatilgan so‘rovnoma yordamida to‘plandi. Tushuntiruvchi ketma-ket aralash usulli yondashuv qo‘llanilib, miqdoriy va sifat ma’lumotlari birgalikda tahlil qilindi. Natijalar talabalar idiomatik birliklarni o‘rganishda autentik materiallarni, ayniqsa, filmlar, teleseriallar, YouTube videolari va interaktiv platformalarni afzal ko‘rishini ko‘rsatdi. Idiomalarni o‘zlashtirishdagi asosiy qiyinchiliklar so‘zma-so‘z tarjima, madaniy kontekstni tushunmaslik va ularni yodda saqlash bilan bog‘liq. Tadqiqot ingliz tilini o‘qitishda idiomatik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun kommunikativ va texnologik yondashuvlarni birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: idiomatik kompetensiya, EFL o‘rganuvchilari, idiomalar, autentik materiallar, kommunikativ kompetensiya, Google Forms, madaniy kontekst, aralash usulli yondashuv.

Introduction. Today’s globalization is one of the most important aspects of international communication. Effective mastery of the English language requires frequent use of idiomatic units in real-life communication, in addition to the knowledge of grammar and vocabulary. Therefore, idiomatic competence occupies an important place in modern linguistics and methodology. Idiomatic competence is understood as the ability of a language learner to understand idioms, metaphorical expressions, and phraseological units and to correctly use them in communicative situations. [8] Idiomatic units reflect the cultural and pragmatic support of the language. Knowledge of idioms helps students to observe natural and fluent speech.

In the EFL context, students often have difficulty understanding idioms used in authentic speech, even if they can construct grammatically correct sentences. In particular, the figurative meaning of idioms makes their learning difficult, and as a result, learners often avoid using idioms in their oral and written speech. [7] Due to the greater emphasis on grammatical and academic competencies in English teaching at Uzbek universities, idiomatic competence is not sufficiently developed.

In recent years, the use of authentic materials and technological tools has been considered an effective way to develop idiomatic competence. Films, videos, podcasts, and interactive platforms increase student motivation and help them understand the contextual meaning of idioms. Additionally, lessons based on a communicative approach bring students closer to a real communicative environment. [6] The use of idiomatic units in real-life situations has a positive effect on the development of students’ pragmatic competence. Therefore, idiomatic competence is considered an integral part of

communicative competence. Today, students have wide access to English content through digital technologies. Netflix, YouTube, TikTok, and other media platforms allow them to observe idiomatic expressions in English in a natural context. This increases the likelihood of making the language learning process more effective than traditional methods.

The main objective of this study is to identify the preferences of Uzbek EFL students in developing idiomatic competence and analyze the problems they encounter in learning idiomatic units. The study seeks answers to the following questions:

1. What methods do students prefer to develop idiomatic competence?
2. What problems do students face in learning idiomatic units?
3. How do technological tools affect the development of idiomatic competence?
4. What is the motivation of students to learn idioms?

Literature review: Idiomatic competence is one of the important components of communicative competence. Canale and Swain interpreted communicative competence as a key factor in effective communication, and subsequent studies have emphasized the role of idiomatic units in communicative success. [4] Liontas evaluates idiomatic competence as one of the most complex but important components in second language acquisition. [9] In his opinion, understanding idioms develops students' pragmatic and cultural competence. A student who knows idiomatic units well can express his or her thoughts more naturally in real communicative situations. Boers and Lindstromberg demonstrate the effectiveness of cognitive approaches in teaching idioms. Researchers argue that visual associations and contextual teaching methods help to retain idioms in long-term memory. [2] Therefore, they recommend the use of authentic materials.

Mvanyashe notes that idiomatic units are closely related to the cultural characteristics of the language. Therefore, cultural awareness is an important factor in learning idioms. [1] If a language learner does not understand the culture of a particular people, he will not be able to fully understand idiomatic expressions. Cooper noted the tendency of EFL students to translate idioms literally. According to the results of the study, students often have difficulty understanding the figurative meaning of idioms. This is especially evident in speaking and listening activities. [5]

Wray put forward the concept of formulaic language and showed the role of idioms and phraseological units in speech fluency. According to the study, formulaic expressions help to form fast and natural speech in real communication. [11] Modern technologies are also considered as an important tool in the development of idiomatic competence. YouTube, Quizlet, Kahoot, and mobile applications create an interactive learning environment and increase student motivation. Byron noted that teaching idioms using the multimodal approach, which combines audio, text, and image, develops students' motivation and learning idioms in context. Especially through video materials, students have the opportunity to observe the natural use of idioms. [3] Spanish scholars Rodriguez and García Moreno taught idioms via corpus-based Disney movies and proved the effectiveness of visual image elements while learning idiomatic expressions. [10]

However, many studies show that idiomatic competence is not given enough attention in EFL lessons. Many teachers set grammatical competence as the main goal. As a result, students have difficulty in real communication. The number of studies on idiomatic competence in the Uzbek EFL context is limited. Therefore, this study serves to fill this gap.

Methodology: This study was conducted using an explanatory sequential mixed-method design. The study mainly relied on quantitative data, while qualitative data helped explain the results in detail. A total of 182 EFL students studying at various universities in Uzbekistan took part in the study. Among the participants, there were 11 males and 171 females, all between 18 and 24 years old. They were recruited from the following universities: National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and

Agricultural Mechanization Engineers Institute"; Gulistan State University; Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Data collection: The data for this study were collected using an online questionnaire distributed by Google Forms. The questionnaire was in English, and included 25 Likert-scale items to explore students' views and experiences with learning idioms. It covered sections on participants' demographic information, learning preferences, challenges in learning idioms, and their attitudes toward using technology for learning. Participants answered using a five-point Likert scale, from *Strongly Agree* to *Strongly Disagree*, as shown in **Table 1**.

Table 1. Likert Scale Used in the Questionnaire

Scale	Response
1	Strongly agree
2	Agree
3	Neutral
4	Disagree
5	Strongly disagree

Table 2. Sample Questionnaire Items

N	Questionnaire Items
1.	I think learning idioms is important for effective communication.
2.	Movies and TV series help me understand idiomatic expressions better.
3.	I prefer learning idioms through real-life conversations.
4.	I find idioms difficult because their meanings differ from literal meanings.
5.	YouTube videos help me learn idiomatic expressions effectively.

In addition, semi-structured interviews were conducted with 12 students.

Data analysis: Quantitative data were analyzed using descriptive statistics. Qualitative data were categorized using thematic analysis.

Results: The results showed that students preferred authentic materials over traditional methods.

Table 3. Learning preferences of students

Learning activities	*Number of students*	*Percentage*
Movies and TV series	46	25%
YouTube videos	40	22%
Role-play activities	35	19%
Mobile applications	28	15%
Group discussions	20	11%
Textbook exercises	13	8%

Students noted that learning idioms in context through films and videos was more effective. According to the interview results, students said that listening to real-life dialogues helped them understand idioms better. Many students noted that speaking activities and role-play sessions provided opportunities for active use of idioms.

Table 4. Challenges in learning idioms

Problems	*Number of students*	*Percentage*
Literal translation	52	29%
Lack of cultural awareness	41	23%
Limited vocabulary	36	20%
Difficulty in memorizing idioms	30	16%
Difficulty in understanding idioms	23	12%

Students noted that learning idioms in context through movies and videos was more effective. According to the interview results, students said that hearing real-life dialogues helped them understand idioms better. Many students noted that they tried to translate the meaning of idioms literally.

Technology-Based Learning: Students noted that using technology platforms increased motivation. Specifically, YouTube improved contextual understanding; Quizlet increased vocabulary retention; Kahoot increased classroom engagement. According to the interview results, students were more actively involved in interactive activities.

Discussion: The study's results confirm that idiomatic competence is an important component of communicative competence. Students learn idiomatic units more effectively using authentic materials. Through films and YouTube videos, idioms are demonstrated in real communicative situations. This develops students' pragmatic competence. The results are consistent with the research of Boers and Lindstromberg. They also noted that contextual learning and visual associations help to remember idioms.

It was also found that technological tools play an important role in increasing student motivation. Platforms such as Quizlet and Kahoot make learning more engaging through gamification. However, the problem of literal translation remains a major obstacle. This indicates the need for teaching idioms in context. The study found that integrating communicative and technological approaches is important for developing idiomatic competence in the Uzbek EFL context.

Conclusion: This study identified the preferences of Uzbek EFL students regarding the development of idiomatic competence. According to the results, students rated films, YouTube videos, role-play, mobile applications, and interactive platforms as the most effective methods. Also, literal translation and a lack of understanding of cultural context were noted as the main problems. Therefore, in teaching English, the use of authentic materials, integration of technological platforms, application of contextual teaching methods, and development of cultural awareness are important. Future research is recommended to further investigate the impact of idiomatic competence on speaking and listening skills.

References

1. Andiswa Mvanyashe. Preserving cultural legacy through the explicit teaching of idiomatic language: a case study of AmaXhosa proverbs and idioms, South African Journal of African Languages 2024., 44:3, P. 343-348, DOI: 10.1080/02572117.2024.2361017,

2. Boers, F., & Lindstromberg, S. *Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology*. Berlin: Mouton de Gruyter, 2008. P. 101.

3. Byron P., Tammy F.D. Learning idioms through the Multimodal approach. Journal of Education and Practice. SSN 2222-288X. Vol.12, No.24. 2021.

4. Canale, M., & Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*. 19801(1), 1–47.

5. Cooper, T. C. Processing of idioms by L2 learners of English. TESOL Quarterly. 1999. 33(2), 233–262. https://doi.org/10.2307/3587719.

6. Dilbar, U. Integrating Authentic Materials in Enhancing Idiom Acquisition of EFL Learners. Sustainable Agriculture. 2025. 26(2), P. 79-81. https://doi.org/10.5281/zenodo.16513228

7. Laufer, B. Avoidance of idioms in a second language: The effect of L1–L2 degree of similarity. Studia Linguistica, 2000. 54(2), 186–196. https://doi.org/10.1111/1467-9582.00059

8. Liontas, J.I. Developing a pragmatic methodology of idiomaticity: The comprehension and interpretation of SL vivid phrasal idioms during reading (Unpublished doctoral dissertation). The University of Arizona, Tucson, AZ., 1999. P. 18-23.

9. Liontas, J. I. Exploring second language learners' notions of idiomaticity. *System*, 30(3), 2002. P. 289–313.

10. Rodriguez, Irene Lopez, Elena Maria Garcia Moreno. Teaching idiomatic expressions to young learners of EFL through Disney movies. Interlingüistica, 18. 2009. P. 662-672.

11. Wray, A. Formulaic sequences in second language teaching: Principle and practice. *Applied Linguistics*, 21(4), 2000. P. 463–489.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI

Alauatdinov Saxabatdin Iniyatdinovich
Qoraqalpoq davlat universiteti birinchi prorektori,
pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), docent
alauatdinovsahabatdin@gmail.com
ORCID 0009-0007-5139-6040
UDK 378.112.2

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tizimida kompetentlikni shakllantirishning institutsional xususiyatlari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Kompetentlikka asoslangan ta'limning mazmuni, akademik muhit, pedagogik texnologiyalar, raqamli transformatsiya, sifatni boshqarish va mustaqil ta'limning o'zaro aloqasi yoritiladi. Kompetentlikning kognitiv, amaliy, motivatsion, aksiologik, kommunikativ va refleksiv komponentlari tavsiflanadi. Qoraqalpog'iston oliy ta'lim muassasalaridagi ikki tilli va ko'p madaniyatli muhitning kasbiy hamda jamoaviy-liderlik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilib, yaxlit institutsional mexanizm zarurligi asoslanadi. Tadqiqot materiali sifatida oliy ta'limda kompetentlik yondashuvining pedagogik va institutsional asoslariga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Manbalarni saralashda kompetentlik konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari, kasbiy kompetentlik, raqamlashtirish, ta'lim sifati hamda institutsional ekotizimga oid izlanishlarga ustuvorlik berildi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, oliy ta'lim, kompetentlik yondashuvi, institutsional muhit, pedagogik kompetentlik, raqamli kompetentlik, ta'lim sifati.

INSTITUTIONAL FEATURES OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abstract. The article provides a theoretical and methodological analysis of the institutional features of competence formation in higher education. It explores the interrelationship between competency-based education, the academic environment, pedagogical technologies, digital transformation, quality management and independent learning. The cognitive, practical, motivational, axiological, communicative and reflexive components of competence are described. The potential of the bilingual and multicultural environment of higher education institutions in Karakalpakstan for developing professional and collective leadership competencies is revealed, substantiating the need for a holistic institutional mechanism. National and foreign scientific sources on the pedagogical and institutional foundations of the competency-based approach served as research material.

Key words: competence, competency, higher education, competence-based approach, institutional environment, pedagogical competence, digital competence, educational quality.

Kirish. XXI asrda oliy ta'limning asosiy vazifasi nazariy bilimlarni egallagan mutaxassisni tayyorlash bilangina cheklanmay, o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslasha oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, kasbiy muammolarni samarali hal etadigan va raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan kompetent kadrlarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli kompetentlikka asoslangan yondashuv zamonaviy ta'limning muhim metodologik yo'nalishiga aylandi. I.A. Zimnyaya kompetentlikni bilim va tajribaga asoslangan integrativ shaxsiy xususiyat sifatida talqin qilsa [1], A.V. Xutorskoy uni samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq sifatlar majmui bilan izohlaydi [2]. L.M. Spencer va S.M. Spencer esa kompetentlik tarkibiga bilim va ko'nikmalar bilan birga motivlar, qadriyatlar hamda shaxsiy sifatlarni ham kiritadi [3].

Kompetentlikni shakllantirish samaradorligi faqat pedagogik metodlarga emas, balki oliy ta'lim muassasasining akademik muhiti, boshqaruv tizimi, ta'lim dasturlari, raqamli infratuzilmasi va ijtimoiy-madaniy sharoitiga ham bog'liq. Shu jihatdan institutsional yondashuv kompetentlikni o'zaro bog'langan pedagogik, tashkiliy va texnologik omillar natijasi sifatida o'rganishni talab qiladi. Qoraqalpog'istonning ikki tilli va ko'p madaniyatli ta'lim muhiti esa bo'lajak pedagoglarning kommunikativ, madaniyatlararo, kasbiy va jamoaviy-liderlik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun o'ziga xos institutsional imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim tizimida kompetentlikni shakllantirishning institutsional xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi

asosiy tashkiliy-pedagogik, akademik, texnologik va ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslashdan iborat.

Material va metodlar. Ushbu nazariy-tahliliy tadqiqotda oliy ta’limda kompetentlik yondashuvining pedagogik va institutsional tiykarlarini o‘rganishga bag‘ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tadqiqot materiali sifatida tahlil qilindi. Manbalarni saralashda kompetentlik konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari, kasbiy kompetentlik, raqamlashtirish, ta’lim sifati hamda institutsional ekotizim bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarga ustuvorlik berildi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy va qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash hamda konseptual modellashtirish metodlariga tayanadi. Nazariy va qiyosiy tahlil orqali “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyati va turli ilmiy maktablar yondashuvlaridagi farqlar aniqlandi. Tizimli hamda institutsional yondashuv kompetentlikni kognitiv, faoliyatga oid, motivatsion, aksiologik, kommunikativ va refleksiv komponentlardan iborat yaxlit tuzilma hamda uning universitetning tashkiliy-pedagogik muhiti, boshqaruv tizimi va raqamli infratuzilmasi bilan o‘zaro aloqasini tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqotning konseptual bazasini I.A. Zimnyayaning natijaga yo‘naltirilgan talqini, A.V. Khutorskoyning shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyalar konsepsiyasi hamda L.M. Spencer va S.M. Spencergina tegishli kompetentlik modelining chuqur va tashqi xususiyatlari farqlanishi tashkil etadi. Ushbu nazariyalar kompetentlikni ko‘p komponentli hodisa sifatida asoslaydi.

Tahlil jarayonida OTMning kompetentlikni shakllantiruvchi institutsional ekotizim sifatidagi funksiyasiga alohida e’tibor qaratildi. Unda akademik muhit, raqamlashtirish, mustaqil ta’lim, jamoaviy faoliyat va hududiy-madaniy omillar kompleks o‘rganildi. Dastlabki manbalarda texnologik mexanizmlar keng yoritilgan bo‘lsa-da, motivatsiya, emotsional intellekt va liderlik kabi ichki komponentlarni institutsional omillar bilan integratsiyalash yetarlicha ishlanmagan. Shu sababli tadqiqotda kompetentlik “shaxs – ta’lim jarayoni – akademik muhit – institut” tizimli munosabati natijasi o‘laroq talqin etildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari kompetentlikni shakllantirish alohida pedagogik metod bilan cheklanmay, oltita asosiy institutsional yo‘nalish (ta’lim mazmuni, tashkiliy-pedagogik muhit, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, sifatni boshqarish hamda ijtimoiy-madaniy va kommunikativ muhit) asosida kechadigan murakkab jarayon ekanini ko‘rsatdi.

1. Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari: Kompetentlikka asoslangan modelda ta’lim mazmuni bilimlarni shunchaki o‘zlashtirishdan amaliy faoliyat va natijaga yo‘naltiriladi. I.A. Zimnyaya va A.V. Khutorskoy ta’kidlaganidek, ta’lim natijalari amaliy faoliyat va shaxsiy-ijtimoiy ahamiyatga ega topshiriqlar bilan bog‘lanishi shart. Bo‘lajak pedagoglar tayyorlovida kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va loyiha topshiriqlari bitiruvchining yaxlit kasbiy profilini shakllantiradi.
2. Tashkiliy-pedagogik va akademik muhit: OTMni kompetentlikni rivojlantiruvchi ekotizim sifatida baholash lozim. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva ta’kidlaganidek, interfaol metodlar hamda hamkorlikdagi faoliyat talabaning amaliy tajribasini boyitadi. O‘qituvchi bilimlarni beruvchi emas, balki fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi, akademik mustaqillik esa talabalarda liderlik va mas’uliyatni rivojlantiradi.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Muammoli o‘qitish, case-study, rolli o‘yinlar va refleksiv topshiriqlar talabani faoliyat subyektiga aylantiradi. Jarayon “bilim → amaliy faoliyat → tajriba → refleksiya → kompetentlik” mantiqiy zanjiri bo‘yicha tashkil etilib, refleksiya orqali dinamik rivojlanish ta’minlanadi.
4. Raqamli transformatsiya: DigCompEdu konsepsiyasiga muvofiq, raqamli kompetentlik raqamli resurslardan foydalanish, virtual jamoada ishlash va axborot

xavfsizligini qamrab oladi. Raqamli muhit bo‘lajak pedagoglarning jamoaviy-liderlik kompetentligini oshirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

5. Ta’lim sifati va institutsional boshqaruv: An’anaviy test va imtihonlar amaliy kompetentlikni baholashda yetarli emas. Portfolio, keys, loyihalar va ekspert baholashidan foydalanib, boshqaruvni “rejalashtirish – shakllantirish – monitoring – baholash – refleksiya – takomillashtirish” sikli bo‘yicha amalga oshirish zarur.

6. Ijtimoiy-madaniy va ikki tilli ta’lim muhiti: Qoraqalpog‘iston OTMlari misolida ikki tilli va ko‘p madaniyatli ta’lim muhiti bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ, madaniyatlararo hamda jamoaviy-liderlik kompetentligini shakllantiruvchi qimmatli institutsional resurs hisoblanadi.

Muhokama. Olingan natijalarni mavjud nazariy yondashuvlar bilan qiyoslash kompetentlikni shakllantirish masalasida individual va institutsional darajalarni bir-biridan ajratib o‘rganish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Kompetentlik, bir tomondan, shaxsning bilim, ko‘nikma, motivatsiya, qadriyat va individual sifatlari bilan belgilanadi; ikkinchi tomondan esa ushbu xususiyatlarning namoyon bo‘lishi uchun tegishli institutsional sharoit talab etiladi.

Zimnyaya va Khutorskoyning yondashuvlari kompetentlikning faoliyatga va shaxsga yo‘naltirilgan mohiyatini ochib beradi [1; 2]. Spencer va Spencer modeli esa kompetentlik tarkibidagi ko‘rinadigan va chuqur shaxsiy komponentlarni farqlash imkonini beradi [3]. Biroq mazkur yondashuvlarni oliy ta’lim tizimiga tatbiq etishda muhim savol paydo bo‘ladi: shaxsdagi ushbu xususiyatlarni qaysi institutsional mexanizmlar rivojlantiradi?

Tadqiqot natijalari bu savolga kompetentlikning ikki darajali modelini taklif qilish imkonini beradi. Birinchi — shaxsiy daraja bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, motivatsiya, qadriyat, kommunikativ qobiliyat, refleksiya va individual xususiyatlarni qamrab oladi. Ikkinchi — institutsional daraja bo‘lib, unga ta’lim dasturi, pedagogik texnologiyalar, akademik muhit, raqamli infratuzilma, boshqaruv, baholash tizimi va ijtimoiy-madaniy sharoit kiradi.

Ushbu ikki daraja o‘zaro bog‘langan taqdirdagina kompetentlik barqaror shakllanadi. Masalan, talabada liderlik salohiyati mavjud bo‘lishi mumkin, ammo universitet ta’lim jarayonida unga guruhni boshqarish, loyiha tashkil etish, qaror qabul qilish va javobgarlikni o‘z zimmasiga olish imkoniyati berilmasa, mazkur salohiyat to‘laqonli kompetentlikka aylanmaydi.

Bu xulosa asl materialdagi muhim ilmiy muammo bilan hamohangdir. Unda mavjud milliy tadqiqotlarda kompetentlikning tashkiliy, texnologik va boshqaruv tomonlari nisbatan keng o‘rganilgani, biroq motivatsiya, emotsional intellekt, o‘zini anglash va kasbiy identifikatsiya kabi ichki omillar bilan ularning metodologik integratsiyasi yetarli emasligi ta’kidlangan.

Ayniqsa, jamoaviy-liderlik kompetentligi nuqtayi nazaridan ushbu integratsiya muhimdir. Uni faqat “lider bo‘lish qobiliyati” sifatida tushunish yetarli emas. Jamoaviy-liderlik kompetentligi maqsad belgilash, jamoani tashkil etish, kommunikatsiya, tashabbuskorlik, mas’uliyat, qaror qabul qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish, emotsional barqarorlik va raqamli muhitda hamkorlikni boshqarish kabi komponentlarning integratsiyasidan tashkil topadi.

Shu sababli oliy ta’limda kompetentlikni shakllantirishning samarali institutsional modeli uch asosiy tamoyilga tayanishi maqsadga muvofiq: integrativlik, ya’ni shaxsiy va institutsional omillarning uyg‘unligi; faoliyatga yo‘naltirilganlik, ya’ni kompetentlikning real yoki modellashtirilgan faoliyatda shakllanishi; kontekstuallik, ya’ni ta’lim jarayonining hududiy, madaniy, lingvistik va raqamli sharoitlarni hisobga olishi.

Bu jihatdan Qoraqalpog‘iston oliy ta’lim tizimi alohida tadqiqot maydoni hisoblanadi. Dastlabki materialda ham hududdagi kompetentlik tadqiqotlarining milliy til,

madaniy muhit, etnopedagogik qadriyatlar va ikki tilli ta’lim bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlangan. Bunday sharoitda universal kompetentlik modellarini mexanik tatbiq etish emas, balki ularni mahalliy institutsional va etnomadaniy xususiyatlarga moslashtirish zarur.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari kompetentlikni shakllantirishni individual pedagogik natijadan institutsional natijaga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda universitetning barcha tarkibiy elementlari — o‘quv dasturidan tortib raqamli infratuzilmagacha, auditoriya mashg‘ulotidan talabalar jamoasigacha — kompetent mutaxassisni shakllantirishning yagona tizimi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari oliy ta’limda kompetentlikni shakllantirish ko‘p komponentli va institutsional jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Kompetentlik kasbiy bilim, amaliy tajriba, motivatsiya, kommunikativ qobiliyat, refleksiya va raqamli savodxonlikning integratsiyasiga asoslanadi. Uni rivojlantirishda ta’lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, akademik va raqamli muhit, sifatni boshqarish hamda ijtimoiy-madaniy omillar muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpog‘istondagi ikki tilli va ko‘p madaniyatli ta’lim muhiti kommunikativ va jamoaviy-liderlik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois oliy ta’limda shaxsiy va institutsional omillarni uyg‘unlashtiruvchi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi yaxlit ta’lim ekotizimini yaratish kompetent, mustaqil fikrlaydigan va professional moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022. – 464 b.

2. "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 637-son. 2020 yil 23 sentyabr.

3. "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. –406-son. 2016 yil 14 sentyabr

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. Ўзбекистон, 2016. – 56 b.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. 2008. – 176 b.

6. Makarenko A.S. Pedagogik asarlar. Moskva: Pravda, 1987. – 624 b.

7. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — 38 с.

8. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.

9. Spencer L. M., Spencer S. M. *Competence at Work: Models for Superior Performance*. — New York: John Wiley & Sons, 1993. — XII, 372 p.

10. Толипов Ў. Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. — Тошкент: Фан, 2006. — 260 б.

11. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu* / Y. Punie (ed.). — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 95 p. — DOI: 10.2760/159770.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

K.R.Mamadaliyev, dots., p.f.f.d., (PhD), Chirchiq davlat universiteti,
S.Sh.Sarmanova, assistent, Alfraganus University, sadoqat1988sarmanova@gmail.com
ORCID 0009-0009-2070-8093

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'quv faoliyatini monitoring qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishdagi imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Talabalarning emotsional holati, motivatsiyasi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish omillari ochib berilgan. Raqamli ta'lim muhitida innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asoslari ishlab chiqilgan. An'anaviy ta'limda kommunikatsiya "o'qituvchi–talaba" modeli asosida tashkil etilgan bo'lsa, sun'iy intellekt texnologiyalari ko'p yo'nalishli va interaktiv kommunikativ muhitni shakllantiradi. Virtual platformalar, intellektual suhbat tizimlari va avtomatlashtirilgan yordamchilar talabalarga istalgan vaqtda axborot olish, savol berish va maslahatlar olish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, sun'iy intellekt, pedagogik mexanizm, psixologik mexanizm, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, adaptiv texnologiyalar, ta'lim innovatsiyasi, motivatsiya, raqamli pedagogika.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. The article analyses the pedagogical and psychological mechanisms of using artificial intelligence technologies in the digital educational environment. It highlights the potential of artificial intelligence to optimize the educational process, monitor learning activities and organize personalized education. The factors of effective use of these technologies are revealed with regard to students' emotional states, motivation and individual psychological characteristics. While communication in traditional education is mainly organized according to the "teacher–student" model, artificial intelligence technologies create a multidirectional and interactive communicative environment. Virtual platforms, intelligent conversational systems and automated assistants enable students to access information, ask questions and receive personalized consultations.

Key words: digital educational environment, artificial intelligence, pedagogical mechanism, psychological mechanism, personalized learning, adaptive technologies, educational innovation, motivation, digital pedagogy.

Kirish. Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'lim jarayonining nafaqat metodik va texnologik, balki psixologik jihatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar, virtual yordamchilar, chatbotlar, adaptiv ta'lim tizimlari va raqamli kommunikatsiya vositalari talabalar faoliyatini tashkil etishning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Ushbu jarayon talabaning kommunikativ faolligi, emotsional holati va motivatsion mexanizmlarini qayta shakllantirish bilan xarakterlanadi. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanishning psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.[1]

Kommunikativ nuqtayi nazardan qaralganda, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonidagi axborot almashinuvi va muloqot shakllarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Psixologik jihatdan bu jarayon kommunikativ erkinlikni kuchaytiradi. Ayrim talabalar auditoriya sharoitida o'z fikrini ochiq ifodalashda qiyinchilikka duch keladi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar esa psixologik bosimni kamaytirgan holda muloqot qilish imkoniyatini beradi. Talaba xato qilishdan qo'rqmasdan savol berishi yoki muammoni muhokama qilishi mumkin. Bu holat kommunikativ faollik va akademik ishtirok darajasining ortishiga yordam beradi.[4]

Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyaning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Jonli muloqotning qisqarishi natijasida talabalarda emotsional aloqa va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari sustlashishi mumkin. Insoniy hissiyotlar, mimika, intonatsiya va empatiya kabi kommunikativ elementlar raqamli tizimlarda to'liq aks etmaydi. Natijada shaxslararo munosabatlarning

tabiiy psixologik mexanizmlari zaiflashish ehtimoli yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslandi.

Tadqiqotning nazariy qismida pedagogika, psixologiya, raqamli pedagogika va sun'iy intellekt sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida raqamli ta'lim muhiti, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, adaptiv o'qitish tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar o'rganildi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, so'rovnoma, suhbat va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari va professor-o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar orqali sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi, ularga bo'lgan munosabat, motivatsion omillar hamda o'quv faoliyatiga ta'siri aniqlandi. Suhbatlar orqali ishtirokchilarning raqamli ta'lim vositalari bilan ishlash tajribasi va psixologik qabul qilish xususiyatlari o'rganildi.

Sun'iy intellektning emotsional jihatlari ham ta'lim psixologiyasida alohida o'rin tutadi. O'quv faoliyatidagi emotsional barqarorlik bilimni samarali o'zlashtirishning muhim omillaridan biridir. SI asosidagi platformalar individual yondashuv orqali talabaning stress darajasini kamaytirishi mumkin. Adaptiv tizimlar murakkablik darajasini talabaning imkoniyatiga moslashtirgani sababli ortiqcha zo'riqish va muvaffaqiyatsizlik hissi kamayadi. Bu esa o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni shakllantiradi.

Emotsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ayniqsa virtual tyutorlar va intellektual yordamchilarda namoyon bo'ladi. Rag'batlantiruvchi fikrlar, individual tavsiyalar va tezkor teskari aloqa talabaning psixologik ishonchini mustahkamlaydi. O'zlashtirishdagi kichik muvaffaqiyatlarning ham tizim tomonidan qayd etilishi emotsional qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Bu esa o'quv faoliyatining davomiyligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Biroq emotsional jihatdan sun'iy intellekt tizimlariga ortiqcha bog'lanish ayrim psixologik muammolarni ham yuzaga chiqarishi mumkin. Talabaning real ijtimoiy muhitdan uzoqlashishi, virtual muloqotga haddan tashqari moslashuvi yoki texnologik qaramlikning shakllanishi emotsional rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, insoniy qo'llab-quvvatlash o'rnini to'liq algoritmik tizimlar egallashi emotsional sovuqlik va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas.

Motivatsion jihatdan qaralganda, sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarni o'quv faoliyatiga jalb etishda samarali vosita hisoblanadi. Interaktiv platformalar, gamifikatsiya elementlari, individual topshiriqlar va real vaqt rejimidagi natijalar talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. O'quv faoliyatining bosqichma-bosqich monitoring qilinishi va natijalarning aniq ko'rinib borishi o'z-o'zini rag'batlantirish mexanizmlarini faollashtiradi.

Psixologiyada motivatsiyaning asosiy omillaridan biri muvaffaqiyat hissidir. Sun'iy intellekt tizimlari talabaning kichik yutuqlarini ham qayd etib, uni rag'batlantiradi. Shu asosda o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy ichki ehtiyoj shakllanadi. Individual yondashuv mavjudligi sababli talaba o'z imkoniyatiga mos vazifalarni bajaradi va bu muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish hissini kamaytiradi.

Motivatsion mexanizmlarning samaradorligi talabaning mustaqil faoliyati bilan ham bog'liq. SI texnologiyalari mustaqil izlanish, ma'lumotlarni tahlil qilish va individual qaror qabul qilish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada o'quv jarayonida tashqi nazoratdan ichki boshqaruvga o'tish holati kuzatiladi. Bu akademik mas'uliyat va o'zini

rivojlantirish ehtiyojining shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan eng muhim masalalardan biri sun'iy intellekt va inson omili o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Ta'lim jarayoni faqat texnologik tizimlar asosida tashkil etilsa, talabaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi cheklanishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi shaxsining pedagogik ta'siri, jonli muloqot va ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyatini saqlab qoladi. Sun'iy intellekt pedagogik faoliyatni to'ldiruvchi vosita sifatida qo'llanilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining kommunikativ, emotsional va motivatsion jihatlari oliy ta'lim tizimida murakkab psixologik jarayonlarni shakllantirmoqda. Ushbu texnologiyalar kommunikativ erkinlikni kengaytirish, emotsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va ichki motivatsiyani rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ularning samaradorligi pedagogik nazorat, insoniy muloqot va psixologik muvozanat bilan uyg'un holda tashkil etilganda yanada yuqori natija beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonining shakl va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) asosida tashkil etilgan masofaviy ta'lim tizimlari o'quv faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bunday tizimlar an'anaviy masofaviy ta'limdan farqli ravishda adaptiv boshqaruv, avtomatlashtirilgan tahlil va intellektual monitoring mexanizmlariga tayangan holda ishlaydi. Natijada o'quv jarayonining samaradorligi, shaffofligi va boshqaruv sifati sezilarli darajada oshadi.

Sun'iy intellekt asosidagi masofaviy ta'lim tizimining markazida pedagogik komponentlar turadi. Ushbu komponentlar ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarini o'zaro bog'liq holda tashkil etishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan bunday tizimlar shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllanadi. Talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish, o'quv faoliyatini differensial tashkil etish va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash SI texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Masofaviy ta'limning muhim pedagogik komponentlaridan biri adaptiv o'qitish mexanizmidir. Sun'iy intellekt tizimlari talabalar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni muntazam tahlil qilib, o'quv materialining murakkablik darajasini moslashtiradi. Talabaning bilim darajasi, xatolari, qiziqishi va o'zlashtirish sur'ati hisobga olinadi. Shu tariqa individual o'quv trayektoriyasi shakllanadi. Bu yondashuv o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga, kognitiv yuklamaning me'yoriy taqsimlanishiga ham xizmat qiladi.

Pedagogik komponentlarning yana biri interaktiv ta'lim muhitidir. Sun'iy intellekt asosidagi platformalarda virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, intellektual chatbotlar va simulyatsion modellar qo'llaniladi. Ushbu vositalar talabaning faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini yaratadi. Interaktiv muhit o'quv jarayonining monotonligini kamaytirib, bilimni faol o'zlashtirish mexanizmlarini kuchaytiradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosidagi platformalar va adaptiv o'qitish tizimlari talabalarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi hamda o'zlashtirish sur'atlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini moslashtirish imkonini beradi. Natijada o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati va mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligi ortadi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalaridan muntazam foydalanayotgan talabalar o'quv topshiriqlarini bajarishda yuqori faollik namoyon etgani, o'zlashtirish darajasi va o'quv motivatsiyasi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, intellektual yordamchilar va chatbotlardan foydalanish talabalarga tezkor axborot olish, murakkab mavzular yuzasidan

qo‘shimcha tushuntirishlarga ega bo‘lish hamda individual maslahatlar olish imkoniyatini yaratdi. Bu esa ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qildi.

Psixologik jihatdan tahlil qilinganda, sun’iy intellekt texnologiyalari talabalarning o‘quv jarayonidagi ishonchini oshirishi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish kompetensiyalarini shakllantirishi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim talabalar orasida texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanish, tanqidiy fikrlashning pasayishi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlar ham kuzatildi. Bu holat sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik nazorat va raqamli madaniyatni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi samaradorligi nafaqat texnik imkoniyatlarga, balki pedagogik yondashuvlar va psixologik omillarga ham bog‘liqdir. Sun’iy intellekt o‘qituvchini to‘liq almashtirmaydi, balki uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi va ta’lim jarayonini takomillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining metodik mahorati, talabalar bilan samarali kommunikatsiyasi va individual yondashuvi sun’iy intellekt tizimlarining natijadorligini yanada oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda talabalarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Ushbu omillar ta’lim sifatini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish va zamonaviy raqamli pedagogika tamoyillarini samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda texnologiyalardan foydalanishning etik me’yorlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur omillar sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish pedagogik va psixologik jarayonlarni takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning muhim vositasi ekanligini tasdiqladi. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga ilmiy asoslangan holda integratsiya qilish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Masofaviy ta’limda pedagogik hamkorlik ham muhim komponent hisoblanadi. O‘qituvchi, talaba va raqamli tizim o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik ta’lim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. O‘qituvchi endilikda faqat ma’lumot uzatuvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, maslahat beruvchi va pedagogik fasilitator sifatida faoliyat olib boradi. Sun’iy intellekt tizimlari esa o‘qituvchiga talabaning rivojlanish dinamikasi haqida analitik ma’lumotlar taqdim etadi.

Sun’iy intellekt asosidagi masofaviy ta’limda baholash tizimi ham o‘ziga xos ilmiy asosga ega. An’anaviy baholash ko‘pincha yakuniy natijaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, SI texnologiyalarida jarayonli va formatif baholash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tizim talabaning o‘quv faoliyatini doimiy monitoring qiladi, topshiriqlarni bajarish tezligi, aniqligi va mustaqillik darajasini tahlil etadi. Natijada baholash faqat natijani emas, balki o‘quv faoliyatining rivojlanish jarayonini ham aks ettiradi.

Baholash mezonlari ilmiy asoslangan, shaffof va ko‘p komponentli bo‘lishi talab etiladi. Ushbu mezonlar bilim darajasi, amaliy ko‘nikma, analitik fikrlash, muammoni hal qilish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyalarni qamrab oladi. Sun’iy intellekt tizimlari avtomatik tahlil yordamida subyektivlikni kamaytiradi hamda baholashning aniqligini oshiradi. Ayniqsa, test natijalari, esse tahlili, amaliy topshiriqlar va faoliyat statistikasi asosida kompleks baholash imkoniyati yaratiladi.

SIni informatika darslariga integratsiya qilishda xalqaro ilg‘or tajribalardan (xususan, ISTE Standards for

Educators, UNESCO AI Competency Framework, OECD AI in Education recommendations) lokal kontekstga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturlariga SI texnologiyalarini samarali kiritishni, amaliy vazifalar orqali SI asosli loyihalarni bajarishni, SI vositalaridan mas’uliyatli, etik va huquqiy jihatdan to‘g‘ri foydalanish kabi ishlab chiqilayotgan modul va kurslarni o‘z ichiga olishi lozim.[11]

Refleksiv baholash mexanizmlari ham SI texnologiyalarining muhim jihatlaridan biridir. Talaba o‘z faoliyati natijalarini real vaqt rejimida ko‘rish, xatolarini tahlil qilish va o‘zlashtirish darajasini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiv fikrlash va akademik mas’uliyatning shakllanishiga xizmat qiladi. O‘quv jarayonidagi muntazam teskari aloqa motivatsion mexanizmlarni faollashtiradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv faoliyatini individuallashtirish va talabalarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar talabalarning bilim darajasi, o‘quv ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik mexanizmlari sifatida o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim natijalarini monitoring qilish, avtomatlashtirilgan baholash va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlari aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirish hamda uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatdi. Monitoring tizimi sun’iy intellekt asosidagi masofaviy ta’limning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Monitoring jarayoni talabaning o‘quv faoliyati, davomati, topshiriqlarni bajarish sifati, platformadagi faolligi va bilim dinamikasini kuzatishga qaratiladi. SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash orqali o‘quv jarayonidagi muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, bu tizimining ilmiy asoslaridan biri prediktiv tahlil mexanizmidir. Tizim talabaning o‘zlashtirishidagi pasayish yoki faollikdagi o‘zgarishlarni tahlil qilib, ehtimoliy akademik xavf holatlarini prognozlaydi. Shu asosda o‘qituvchi yoki tizimning o‘zi individual tavsiyalar va qo‘shimcha resurslarni taklif qiladi. Bu esa o‘quv jarayonidagi uzilishlarning oldini olishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
2. Professor-o‘qituvchilarning raqamli pedagogika va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish zarur.
3. Ta’lim jarayoniga adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual yordamchilar va avtomatlashtirilgan baholash platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi.
4. Talabalarning psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi va individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarini yaratish va takomillashtirish lozim.
5. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va akademik halollik tamoyillarini ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish zarur.

6. Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik va psixologik samaradorligini muntazam monitoring qilish hamda natijalar asosida takomillashtirish choralarini ko‘rish tavsiya etiladi.

7. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’sirini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik nuqtayi nazardan monitoring tizimi talabaning mas’uliyat hissini shakllantiradi. Talaba o‘z faoliyati nazorat qilinayotganini bilgan holda o‘quv jarayoniga nisbatan faolroq munosabat bildiradi. Shu bilan birga, monitoringning haddan tashqari kuchayishi psixologik bosim yoki nazorat hissining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli monitoring tizimi pedagogik etikaga asoslangan holda tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Edward de Bono. Lateral Thinking. – London: Penguin Books, 2016. – 320 p.

2. . Benjamin Bloom. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2015. – 207 p.

3. . Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

4. . Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 208 p.

5. . Benjamin Bloom. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1984. – 207 p.

6. . Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kreativ yondashuv asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 256 b.

7. . World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. – Geneva, 2023. – 314 p.

8. . Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 224 b.

9. . Xudoyberdiyeva O.O., Yaxshiqulova M.T. “Ta’limda sun’iy intellektning o‘rni” // I international scientific and practical conference “Modern education and psychology facing complex problems: Synergetic approach problems affecting personal development”, april 15, 2025. C. 488-490

10. . Sulaymanov Z.R. Raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik va “learning analytics”ning nazariy asoslari C.262-267

11. . Najmetdinova N.S., O‘qituvchilarning sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv, Maktabgacha va maktab ta’limi, Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal, 2025-yil, avgust, №8-son, C 244-251

O‘QUVCHILARDA RAQAMLI MADANIYAT VA AXBOROT XAVFSIZLIGIGA DOIR TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Boltayeva Go‘zal Komilovna
Urganch RANCH texnologiya universiteti, Texnika kafedrasi katta o‘qituvchisi
boltayevagozal334@gmail.com
ORCID 0009-0001-4767-2897
UDK 37.02:004.056

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. Mavzu dolzarbligi raqamli texnologiyalar ko‘lamining kengayishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston, Estoniya va Finlyandiyaning raqamli madaniyat va kiberxavfsizlikka doir milliy dasturlari, ularning ta’limga joriy etilish yoshi, o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi hamda pedagogik yondashuv va metodik vositalari qiyosiy o‘rganilgan. Xorijiy davlatlarda raqamli kompetensiyalar boshlang‘ich sinfdan, bosqichma-bosqich va interfaol usullar, ya’ni gamifikatsiya, musobaqa hamda loyiha metodlari orqali shakllantirilishi, O‘zbekistonda esa bu jarayon rivojlanish bosqichida ekani aniqlangan. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligini tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va ota-onalarni jalb etishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi, tarbiyaviy kompetensiya, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik, o‘quvchilar, milliy tajriba, xorijiy tajriba, pedagogik yondashuv.

ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING EDUCATIONAL COMPETENCIES ON DIGITAL CULTURE AND INFORMATION SECURITY IN STUDENTS

Abstract. This article provides a comparative analysis of national and foreign experience in developing students’ educational competencies related to digital culture and information security. The national programmes of Uzbekistan, Estonia and Finland on digital culture and cybersecurity, teacher-training systems and the pedagogical approaches and methodological tools applied are compared. The analysis reveals that abroad digital competencies are formed from the primary grades, through interactive methods such as gamification, competitions and project-based learning, while in Uzbekistan this process is still developing. Practical recommendations are developed for integrating digital culture and information security into the educational process, enhancing teacher qualifications and involving parents.

Key words: digital culture, information security, educational competency, digital literacy, cybersecurity, students, national experience, foreign experience, pedagogical approach.

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalar insonning kundalik hayoti va ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelmoqda. O‘quvchilar maktab yoshidan boshlab internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va turli raqamli qurilmalardan keng foydalanmoqda. Bunday muhitda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni erta yoshdan shakllantirish muammosi pedagogik fan va amaliyotning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilib, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doid tarbiyaviy kompetensiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish; ikkinchidan, O‘zbekiston va yetakchi xorijiy davlatlar (Estoniya, Finlyandiya) tajribasini qiyosiy tahlil qilish; uchinchidan, maktablarda raqamli madaniyatni rivojlantirishning samarali pedagogik usullarini aniqlash.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligini ta’lim tizimiga integratsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Maktab o‘quvchilarida ushbu sohadagi kompetensiyalarning shakllantirilmasligi esa ularda ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri axborot tarqatish, kiberxavfsizlik qoidalarini bilmaslik, raqamli etikani buzish kabi salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi sohasidagi tarbiyaviy kompetensiyalar masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol o‘rganilmoqda. O‘zbekiston miqyosida Normatov S.A., Eshqobilov S.Q. kabi olimlar maktab o‘qituvchilarining axborot xavfsizligiga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalarini o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlarida maktab ichida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda turli to‘siqlar mavjudligi va ko‘plab o‘qituvchilar axborot xavfsizligi masalalarini yetarli darajada jiddiy qabul qilmasligi qayd etilgan [1].

Jumanazarova O.M. va Sattarova S.B. tadqiqotlarida raqamli etikaga rioya qilish, mualliflik huquqlarini hurmat qilish, internet xavfsizligi va axborot madaniyati tamoyillari o‘quvchilarni raqamli muhitda mas’uliyatli va ongli ishtirokchiga aylantirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan [2]. Shu bilan birga, ko‘plab universitet va maktab dasturlarida axborot madaniyati, internet xavfsizligi kabi modullar yetarli darajada integratsiyalanmagani ta’kidlanadi.

Xalqaro adabiyotlarda raqamli fuqarolik, media va axborot savodxonligi, internet xavfsizligi, bolalarni onlayn muhitdagi salbiy ta’sirlardan himoya qilishga oid yondashuvlar keng yoritiladi. Estoniya tajribasi bo‘yicha Priisalu J. va Ottis R. tadqiqotlarida raqamli xavfsizlikni shaxsiy boshqarish va e-hukumat tizimi yordamida ta’minlash mexanizmlari tahlil qilingan [3]. Finlyandiya va Estoniya 2021-yilgi Media Literacy Index reytingida birinchi o‘rinlarni egallagan davlatlar sifatida keng e’tirof etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiyalarni erta yoshdan bosqichma-bosqich shakllantirish, o‘yinli va interfaol metodlar orqali ta’lim jarayoniga joriy etish zarurati hamda milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish bu sohada yechimini topmagan muhim muammo bo‘lib qolmoqda [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan: qiyosiy tahlil metodi (O‘zbekiston, Estoniya va Finlyandiya ta’lim tizimlaridagi raqamli madaniyat va kiberxavfsizlik dasturlarini solishtirish); adabiy-hujjatli tahlil metodi (ilmiy maqolalar, davlat dasturlari, milliy strategiyalar va xalqaro hisobotlarni o‘rganish); tizimli tahlil metodi (raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning strukturaviy elementlarini aniq tizim sifatida ko‘rib chiqish).

Tadqiqot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” va “O‘zbekiston — 2030” strategiyalari, Estoniyaning ProgeTiiger va CyberSpike dasturlari, Finlyandiyaning Digiajan milliy dasturi, shuningdek, ResearchGate, inlibrary.uz, Education Estonia kabi platformalardagi ilmiy maqolalar ishlatildi. Tadqiqot nazariy va amaliy xarakter kasb etib, sohada mavjud pedagogik muammolarni aniqlab beradi va ularni hal etishning optimal yo‘llarini taklif qiladi.

Natijalar va muhokama.

O‘zbekistondagi milliy tajriba

O‘zbekiston Respublikasida raqamli ta’lim va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan tashqari, Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim planshetlari bilan ta’minlash tajribasi boshlanib, kelgusida respublika miqyosida joriy etish rejalashtirilgan [5].

Ta’lim dasturlariga raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash kabi mavzularni kiritish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantiruvchi uzluksiz o‘quv kurslari tashkil etish tavsiya etilmoqda. Biroq hali ham o‘quvchilar orasida raqamli charchoq, sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish va raqamli etikaga e’tiborsizlik kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish maqsadida maktabda tizimli tarbiyaviy ish olib borish zarurligini ko‘rsatadi

[6].

O‘zbekistonda raqamli fuqarolik va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha ta’lim oluvchilarga texnologiyadan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish etikasini shakllantirish, raqamli aloqa ko‘nikmalarini, maxfiylikni himoya qilishni, kiberxavfsizlikdan xabardorlikni o‘rgatish orqali zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan [7].

Estoniya tajribasi

Estoniya raqamli ta’lim sohasida jahondagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat «Silicon Valley of Europe» — «Yevropaning Silikon vodiysi» sifatida e’tirof etilmoqda. Estoniyada kiberxavfsizlik ta’limi bolalar bog‘chasidan boshlab NATO Kibermudofaa Markazi darajasigacha keng qamrovli tizim asosida yo‘lga qo‘yilgan.

ProgeTiiger milliy dasturi doirasida har yili taxminan 20 000 nafar yoshga kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim berilmoqda. CyberSpike musobaqasi o‘quvchilarga «Capture the Flag» ko‘rinishidagi amaliy topshiriqlar orqali kiber-hujumlarni simulyatsiya qilish va ulardan himoyalanishni o‘rgatadi. CyberOlympics musobaqasi esa Evropa Kiberxavfsizlik musobaqasining saralov bosqichi sifatida faoliyat yuritadi [8].

Estoniya ta’lim ekspertlari ta’kidlashicha, yoshlar uchun eng muhim qadamlardan biri — ularning fikrlash tarziga ta’sir qilish, faqat bilim berish emas. Chunki internet axborotga to‘la, lekin qiziquvchan va tanqidiy tafakkur bo‘lmasa, bu bilimlar foydasi yo‘q. Estoniya 2021-yil Media Literacy indeksida Finlyandiya va Daniya bilan birgalikda birinchi o‘rinlarda bo‘ldi.

Finlyandiya tajribasi

Finlyandiya dunyo ta’lim tizimlarining obro‘li reytinglarida doimo yuqori o‘rinlarda turadi. Mamlakat kiberxavfsizlik va raqamli savodxonlik sohasida kuchli milliy tizimga ega. Finlyandiyada kiberxavfsizlik sohasidagi magistrlik dasturlari nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq qamrab oladi: boshqaruv, texnologiya, huquqiy va inson omillari bir vaqtda o‘rgatiladi. Talabalar amaliy loyihalarda bevosita ishtirok etadi va Estoniya, Shvetsiya, Norvegiya kabi yetakchi Skandinaviya universitetlari bilan hamkorlikda o‘qiydi [9].

Maktab ta’limida raqamli kompetensiyalar boshlang‘ich sinfdan integratsiya qilinadi. Finlyandiyada raqamli savodxonlik faqat alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlarning uzviy qismi sifatida o‘qitiladi. O‘qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslari majburiy bo‘lib, pedagoglar raqamli pedagogika, interfaol usullar va metako‘nikmalar bo‘yicha chuqur tayyorgarlik ko‘radi.

1-jadval. O‘zbekiston, Estoniya va Finlyandiya raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi ta’limini qiyosiy tahlili

Mezon	O‘zbekiston	Estoniya	Finlyandiya
Boshlash yoshi	9-10 yosh (IV sinf)	7 yosh (I sinf)	7 yosh (I sinf)
Davlat dasturi	Raqamli O‘zbekiston 2030	ProgeTiiger	Digiajan
O‘qituvchi tayyorlash	Rivojlantirilmoqda	Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan	Kuchli tizim mavjud
Kiberhavfsizlik	Asosiy darajada	NATO bilan hamkorlik	Alohida kurslar
Raqamli fuqarolik	Joriy etilmoqda	Boshlang‘ichdan o‘rgatiladi	Milliy dasturda mavjud
Xalqaro indeks	Rivojlanmoqda	Media Literacy 1-o‘rin	Media Literacy top-3

Manba: muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan

Qiyosiy tahlil natijalari va muhokama

Uchala davlat tajribasini qiyosiy tahlil qilinganida bir qator umumiy qonuniyatlar va farqlar aniqlandi. Birinchidan, raqamli kompetensiyalar ta’limda qanchalik erta boshlanishi muhim rol o‘ynaydi — Estoniya va Finlyandiya birinchi sinfdan boshlab,

O‘zbekiston esa hozirda boshlang‘ich kompyuter savodxonligini maktabgacha davrdan joriy etishni boshlagan. Ikkinchidan, o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi tarbiyasida faqat nazariy bilim berish emas, balki interfaol usullar, musobaqalar, loyiha va simulyatsiya metodlari qo‘llash samarali natijalarga olib keladi. To‘rtinchidan, milliy strategiya va qonunchilik bazasining mavjudligi sohani tizimli rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi bu borada poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Milliy va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylangan. Estoniya va Finlyandiya tajribasida raqamli kompetensiyalar ta’limni boshlang‘ich sinfdan boshlab tizimli joriy qilish, o‘qituvchilarni professional tayyorlash, amaliy musobaqalar va interfaol metodlardan foydalanish samarali ekanligini isbotlagan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida mazkur soha rivojlanish yo‘lida turib, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida katta imkoniyatlar ochilmoqda. Biroq pedagogik amaliyotga tizimli integratsiya, o‘qituvchilar tayyorlash va tarbiyaviy tizim yaratish bo‘yicha qo‘shimcha sa’y-harakatlar talab etiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Umumta’lim maktablarida raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi bo‘yicha alohida tarbiyaviy dastur ishlab chiqilsin.
2. O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalar va kiberxavfsizlik bo‘yicha majburiy malaka oshirish kurslari joriy etilsin.
3. Estoniyaning CyberSpike va Finlyandiyaning amaliy musobaqalari tajribasini o‘rganib, o‘quvchilar uchun milliy kiberxavfsizlik olimpiadasi tashkil etilsin.
4. Interfaol metodlar, gamifikatsiya va loyiha usullarini raqamli madaniyat tarbiyasiga keng joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilsin.
5. Ota-onalarni ham raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi masalalariga jalb etuvchi maktab-oila hamkorlik dasturlari ishlab chiqilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov S.A., Eshqobilov S.Q. Raqamli texnologiyalar davrida maktab o‘qituvchilarining axborot xavfsizligiga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish // Ilmiy jurnal. – 2025. – №1. – B. 15–19.

2. Jumanazarova O.M., Sattarova S.B. Talabalarda raqamli madaniyat asoslarini shakllantirishning ahamiyati // Modern Education and Development. – 2025. – №2. – B. 1–8.

3. Priisalu J., Ottis R. Personal control of privacy and data: Estonian experience // Health and Technology. – 2017. – Vol. 8. – P. 79–84.

4. Global Science Review. O‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish: xalqaro tajriba // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2024. – №3. – B. 330–336.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023.

6. TGFU. Raqamli ta’limda muammolar va yechimlar // Fizika, Matematika va Informatika jurnali. – 2025. – №4. – B. 28–32.

7. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va vositalari. Raqamli fuqarolik va ma’lumotlar xavfsizligi. – Toshkent: Raqamli ta’lim metodika markazi, 2024.

8. Education Estonia. Cyber security education in Estonia: from kindergarten to NATO Cyber Defence Centre. – Tallinn, 2023. – URL: https://www.educationestonia.org

9. European Education Area. Study cybersecurity, data and cloud computing in Europe. – Brussels, 2026. – URL: https://education.ec.europa.eu

10. Educatly. Why Estonia leads in tech education for international students. – 2025. – URL: https://www.educatly.com

11. Eshqobilov S., Xalikova N. Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash masalalari // Ilmiy jurnal. – 2025. – №1. – B. 12–14.

12. Menejment.uz. Ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarishda raqamli kompetensiyalar. – 2024. – URL: https://www.menejment.uz

TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING SINERGETIK PARADIGMASI VA UNING KONSTRUKTIV IMKONIYATLARI

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori.
maxbuba_ergasheva@samdu.uz
maxbubaergasheva84@gmail.com
ORCID 0009-0008-5605-4506
UDK 101:37:001.8

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimi rivojlanishining sinergetik paradigmasi, uning nazariy-falsafiy asoslari hamda konstruktiv imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil etiladi. Sinergetik metodologiya nuqtayi nazaridan zamonaviy ta'lim tizimi ochiq, nochiziqli, muvozanatsiz va o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Ta'lim tizimida yuzaga keladigan beqarorlik, tartibsizlik, bifurkatsiya va transformatsiya jarayonlari inqiroz belgisi emas, balki sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga o'tishning obyektiv sharti ekanligi asoslanadi. Sinergetik yondashuvning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, ta'lim subyektlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Sinergetik paradigmaning zamonaviy ta'limni barqaror rivojlantirish, uning moslashuvchanligi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini kuchaytirishdagi metodologik imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, sinergetik paradigma, sinergetik metodologiya, o'z-o'zini tashkil etish, nochiziqlilik, bifurkatsiya, tartib va tartibsizlik, innovatsion ta'lim, ta'lim falsafasi.

THE SYNERGETIC PARADIGM OF EDUCATIONAL SYSTEM DEVELOPMENT AND ITS CONSTRUCTIVE POSSIBILITIES

Abstract. This article presents a socio-philosophical analysis of the synergetic paradigm of educational system development, its theoretical and philosophical foundations and its constructive potential. Within synergetic methodology, the modern educational system is interpreted as an open, nonlinear, non-equilibrium and self-organizing system. The study demonstrates that instability, chaos, bifurcation and transformation in the educational system are not manifestations of crisis but objective preconditions for a transition to a qualitatively new stage of development. The role of the synergetic approach in modernizing the educational system, creating an innovative educational environment, strengthening cooperation among educational stakeholders, and enhancing the quality of education is shown.

Key words: educational system, synergetic paradigm, synergetic methodology, self-organization, nonlinearity, bifurcation, order and chaos, innovative education, philosophy of education.

Kirish. Jahon sivilizatsion va innovatsion taraqqiyoti tobora jadallashib borishining asosi bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining evristik imkoniyatlari bilan amalga oshmoqda. Zero, dunyo mamlakatlari taraqqiyot indeksi barcha sohalar rivojini ta'lim jarayoni bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimi shunday bir jarayon sifatida namoyon bo'lmoqdaki, unda o'zgarish va turg'unlik, rivojlanish yoki orqada qolish, taraqqiyot yoxud tanazzul holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, hozirgi zamon ta'limining shakllanish va rivojlanish dinamikasini yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. Shu o'rinda, zamonaviy ta'lim jarayonining murakkab va ochiq sistema sifatida sinergetik qonuniyatlarini aniqlash bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarb mavqega ko'tarilmoqda.

"Ta'limning konstruktiv xususiyati deyilganda, ma'lum bir ta'lim sistemasining, ma'lum bir ta'lim bosqichining mavjud davlat va jamiyat hayoti uchun ahamiyatlilik tomonlari, kelajak uchun bunyodkorlik xususiyatiga egaligini tushunish mumkin" [20; 64]. Ta'lim jarayoni eng avvalo konstruktiv jarayondir. Aynan o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish – ta'lim jarayonining asosiy vazifasidir. Shu sababli ta'limni jamiyatning muhim konstruktiv funktsiyasi deyishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sinergetik metodologiya XX asrning 70 yillaridan boshlab tadqiqotchilar etiborini tortib kelgan. Sinergetika metodologiyasining imkoniyatlarini yoritishda xorijlik olimlardan G.Xaken, I.Prigojin [16; 240], I.Stengers, L.Bertalanfilarning xizmatlari diqqatga sozovordir. Shuningdek, K.M.Metyus, M.S.Uayt va R.G.Long [14] ijtimoiy bilimlar sohasida sinergetikadan foydalanish imkoniyatlari xususida, J.L.Jonson va B.K.Burton [10; 320] esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga

tartibsizlik nazariyasini qo‘llashni tavsiya etishgan. Sinergetika doirasidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar ko‘lami juda keng. Biz asosan ta’lim va sinergetik metodologiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarga etibor qaratdik. MDH da ta’lim jarayoniga sinergetik yondashuv masalasi M.A.Danilov [8; 5-11], L.Ya.Zorina [11; 105-109], E.G.Pugacheva [17; 41-45], V.G.Vinenko [6; 73-79], V.V.Vasilkova [5], V.P.Branskiy [3;112-129], Z.J.Janabaev, N.D.Xmel [9; 61-64] tadqiqotlarida kuzatiladi. Knyazeva va Kurdyumov ta’lim jarayoniga sinergetik yondashuv xususida mulohaza yuritib, ta’lim va tarbiya tizimini sinergetik tahlil etish, o‘quvchilarga hamda talabalarga sinergetik bilim berish lozimligini ilgari suradi [12; 414]. V.G.Budanov ta’lim va fanda sinergetik metodologiya printsiplaridan samarali foydalanishni taklif etib, gumanitar sohada sinergetik modellashtirish muammolari, uning bosqichlari va amaliy falsafa bilan bog‘liqligiga katta etibor qaratadi [4; 230]. V.F.Gorbatyuk ta’limning sinergetik tamoyillari xususida fikr yuritib, intellektning bazi modellari va ko‘p sonli aqllar nazariyasini ko‘rib chiqadi [7; 253]. V.I.Lebedev iqtisodiyot, sotsiologiya va gumanitar fanlarda sinergetik tamoyillardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. A.G.Madjuga o‘z tadqiqotlarida sinergetik ta’lim tamoyillarini ochib beradi, sinergetik madaniyat, pedagogik senergetika tushunchalarini tahlil etadi. B.A.**Mukushev** ta’lim tizimida sinergetik metodologiya g‘oyalari qo‘llash g‘oyaviy, uslubiy va sinergetik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiali sifatida fanning mazmunini loyihalashda, ta’limni modernizatsiya qilishda, integratsiya g‘oyalarini amalga oshirishda, shaxsni rivojlantirishning pedagogik vositasi va sinergetik fikrlash uslubini shakllantirishda muhim o‘rin tutishini isbotlashga harakat qiladi [15;105-122].

Mamlakatimiz tadqiqotchilari va olimlari sinergetikaning nazariy-metodologik muammolari xususida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishmoqda. Jumladan, O.F. Fayzullayev, M.N.Abdullayeva, B.R. Karimov, B.O.Turayev [18; 400], Q.N.Nazarov, N.A. Shermuxammedova, Sh.S. Qo‘shoqov, Z.R. Qodirova, G.G‘. G‘affarova, M.Q. Niyazimbetov, D.M. Bozarov [2; 152], G.S. Sultanovalar bu borada samarali izlanishlar olib borishgan. E.O.Kuvandikov [13; 126] tomonidan pedagogik sinergetika asoslari va istiqbollari, ta’lim tizimini boshqarishda sinergetik yondashuv borasidagi amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yurtimizda ta’lim va falsafiy fanlarni umumlashtirgan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, K.J. Tulenova ta’lim va innovatsion tafakkur masalalarida, R.J. Ishmuhamedov va M.A. Yuldashevlar ta’lim va tarbiyada innovatsion, pedagogik, falsafiy tafakkurni takomillashtirish borasida, N.N. Azizxo‘jaeva o‘qituvchi mutaxassislarni tayyorlash masalalarida, F.A.Babashev oliy ta’lim tizimida axborot siyosati borasida, N. Shermuhamedova va R. Xudoyberganov [19; 260] ta’lim muammolari va ta’limning falsafiy tahlili masalasida, R.D. Yuldashev [23;172] ta’lim muammolarini, falsafiy bilimlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini, ta’lim falsafasining ontologik va epistemologik mohiyatini hamda ta’limda innovatsion shaxsni shakllantirish masalalarini ochib beruvchi muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarda ta’limning sinergetik qonuniyatlari ochib berilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishida ta’lim tizimida amal qiladigan sinergetik qonuniyatlar va ularning ta’lim taraqqiyotidagi imkoniyatlari hamda sinergetik metodologiya kategoriyalari, xususiyatlarini ta’lim jarayonidagi namoyon bo‘lish masalalari nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, ob’yektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik yondashuv kabi usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Sinergetik ta’lim tizimi o‘quv jarayonini xilma-xilligini taminlash bilan birga ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda ham dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 2-bobi

“Ta’lim tizimi, turlari va shakllari” deb nomlanib, mazkur bobning 6-moddasiga binoan ta’lim tizimi quyidagi qism (element)ni qamrab oladi:

“- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

- ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini taminlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi” [1].

Ta’lim uzluksiz jarayondir. Ta’lim tizimi bir qancha qismlar (elementlar) yig‘indisidan tashkil topgan, o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan va bir-birini to‘ldiradigan, mazkur tizimdagi har bir qismning funktsiyasi butun bir tizim funktsiyasining bajarilishi uchun muhim bo‘lgan yaxlit murakkab tizim hisoblanadi.

Sinergetika metodologiyasi tamoyillari ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi shaxsning individual qobiliyati va kreativ faoliyatini anglash va rivojlantirish usullarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. “Sinergetik yoki o‘zini-o‘zi tashkil etish nazariyasi bugungi kunda eng mashhur va istiqbolli fanlararo yondashuvlardan biri bo‘lib tuyulmoqda” [15; 107]. Shu o‘rinda takidlash o‘rinliki, har bir metodologik yondashuv o‘z davri uchun muhim sanaladi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi mumkin. Taraqqiyot davom etar ekan, mutlaq, turg‘un, doimiy metodologik qarashlar ham bo‘lmaydi. Davr nuqtayi nazaridan takomillashib, o‘zgarib boraveradi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqib biz mazkur tadqiqot ishimizda sinergetik metodologiya va ta’lim tizimining sintezini ochib berishga harakat qildik.

Ta’lim jarayoni hamkorlikda rivojlanadigan, birgalikda harakatlanib yagona tizim muvaffaqiyati uchun, yaxlitligi uchun faoliyat olib boradigan qismlar yig‘indisidan tashkil topgan. Bugungi kunda ta’lim jarayonini tashkil etuvchi har bir qism funktsiyasini oqilona amalga oshishi uchun kerakli islohotlarni rivojlantirish sinergetik ta’lim tizimini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Sinergetik ta’lim tizimi nima?

Bizningcha***, sinergetik ta’lim tizimi*** bu – ta’lim tizimidagi bir necha bo‘laklarning (qismlarning) kelishilgan faoliyati asosida rivojlanadigan, proliferativ (tarmoqlanadigan) xususiyatiga ega bo‘lgan, yani tizimda yangi elementlar vujudga keladigan, o‘z-o‘zini tashkillashtira oladigan ochiq, muvozanatsiz, nochiziqli hamda murakkab tizimdir.

Sinergetik ta’lim tizimini shakllantirilishi tizimdagi bir muammoni bir necha yechimlarini taklif etilishida, tanlov imkoniyatini bir necha usul va yo‘llarining mavjudligini ko‘rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda ta’lim islohotlariga mamlakatimizda juda katta etibor qaratilayotgan bir vaqtda sinergetik ta’lim tizimining shakllantirilishi ta’lim jarayoniga tub burilish olib kirib, an’anaviy ta’lim modellarini zamonaviy ta’lim modellariga moslashtirilishida, ta’limning eng maqbul tizimini yaratilishida katta imkoniyatlarga ega.

B.A.Mukushev ta’lim tizimida sinergetika mavzusida mulohaza yuritib shunday takidlaydi: “Zamonaviy oliy va o‘rta ta’limning omon qolishi va yanada rivojlanishi o‘qituvchining psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan kasbiy malakasining o‘sishiga bog‘liq. Sinergetika nuqtayi nazaridan pedagogik tizimdagi faol tamoyil “o‘qituvchi – talaba” tamoyilidir. Maxsus quyi tizimlar pedagogik tizim ierarxiyasini tashkil qiladi. Ushbu quyi tizimlarga yuqoridagi barcha shartlar - ochiqlik, erkin malumot almashish, dialogizm, o‘zini namoyon qilish erkinligi, jamoaning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati va boshqalar xos bo‘lishi kerak” [15; 111]. Bizningcha, pedagogik tizimdagi faol tamoyil “o‘qituvchi – talaba – muhit” tamoyilidir. Bu tamoyil “ta’lim sinergetikasi tizimi”

hisoblanadi. Muhitga zamonaviy ta'lim modellari, IT texnologiyalari bilan qurollanganlik, informatsion tizim va b.q.larni kiritish mumkin. Demak, muhitsiz (shu jumladan, informatsion maydonsiz) o'qituvchi – talabaning o'zi sinergetik tizim bo'la olmaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida zamonaviy muhit hamda sinergetik ta'lim tizimini shakllantirish orqali asosiy e'tibor ta'lim markazida turgan talaba va o'qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratiladi [21; 44].

Sinergetik ta'lim tizimining muhim ontologik xususiyatlaridan biri uning ochiqligidir. Ochiqlik kategoriyasi ta'lim tizimining innovatsiyalar, islohotlar va yangi bilimlarni qabul qilish hamda ularga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Shu jihatdan sinergetik yondashuv ta'limni qat'iy deterministik model emas, balki o'z-o'zini tashkil etuvchi, nochiziqli va dinamik rivojlanuvchi tizim sifatida talqin etadi. Bunday tizimda shaxsning kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarish, mustaqil va tanqidiy tafakkurini shakllantirish, o'z-o'zini refleksiya qilish hamda uzluksiz o'zini rivojlantirish jarayoni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta'limning murakkab tabiati yagona universal metodologiyani inkor etib, har bir ta'lim oluvchining individual intellektual va psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi differensial yondashuvni taqozo etadi. Binobarin, ta'lim samaradorligi pedagogik jarayonni shaxsning individual rivojlanish trayektoriyasi bilan uyg'unlashtirish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra dinamik tizim sifatida ko'plab qarama-qarshi fikrlar, qarashlar, g'oyalar tasirida taraqqiy etadi. A.Pugacheva ta'kidlab o'tganidek, "bir tomondan, ta'limda ko'p asrlik ananalar ruhiga singib ketgan vorisiylik mexanizmi bo'lsa, boshqa tomondan, u atrofdagi dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar ritmiga amal qilishi kerak. Bir tomondan, qatiy tizimli (deterministik) tizim mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'lim islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan ko'plab urinishlar mavjud" [17; 41]. Zamonaviy ta'lim islohotlarini amalga oshirishda an'anaviy pedagogik tajriba va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi dialektik uyg'unlikni ta'minlash muhim metodologik tamoyil hisoblanadi. Chunki ta'lim tizimiga joriy etilayotgan har qanday innovatsiya murakkab adaptatsion jarayon orqali qabul qilinadi va uning natijalari muayyan vaqt o'tgach namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham, ta'limni mutlaq yangilash emas, balki tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlarning uzviy integratsiyasi samarali rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Xususan, xalqaro ta'lim amaliyotida keng qo'llanilayotgan **Blended Learning** konsepsiyasi ham an'anaviy va raqamli ta'lim metodlarining konstruktiv integratsiyasiga asoslanadi. Demak, ta'lim islohotlari milliy ta'lim an'analari, madaniy qadriyatlar va jamiyatning intellektual salohiyati bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina ta'lim tizimi murakkab, ochiq, ierarxik, dinamik va nochiziqli sinergetik tizim sifatida barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sinergetik ta'lim tizimining shakllanishi quyidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- ✓ **Ta'lim subyektlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarida.** Sinergetik ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi pedagog, ta'lim oluvchi, ota-onalar, davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik hamda kommunikativ integratsiyaning izchil shakllanishiga bog'liq.
- ✓ **Ta'lim tizimi va tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalarda.** Sinergetik metodologiya nuqtayi nazaridan ta'lim tizimi ochiq sistema sifatida tashqi muhit bilan uzluksiz axborot, bilim, innovatsiya va tajriba almashinuvini amalga oshiradi.
- ✓ **Tizimning tarkibiy elementlari o'rtasidagi funksional yaxlitlikda.** Ta'lim tizimini tashkil etuvchi har bir bo'g'in yagona maqsad sari yo'naltirilgan holda faoliyat yuritadi.
- ✓ **Rivojlanishning muqobil yo'llarini tanlash jarayonida.** Sinergetik tizimning muhim xususiyati uning ko'pvariantli rivojlanish imkoniyatiga egaligidir.

Divergent tafakkur asosida muqobil strategiyalar ishlab chiqilib, ular orasidan eng maqbul rivojlanish modeli tanlanadi.

✓ **Tartib va tartibsizlikning dialektik birligida.** Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tartib va xaos o'rtasidagi o'zaro ta'sir yangi rivojlanish nuqtalarini yuzaga keltiradi. Bunday holatda attraktorlar istiqbolli ta'lim modeli, yuqori malakali pedagoglar va raqobatbardosh ta'lim muassasalari orqali tizimning kelgusi rivojlanish yo'nalishini belgilovchi metodologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

✓ **O'z-o'zini tashkil etish mexanizmlarida.** Ta'lim tizimi ichki resurslari va tashqi ta'sirlar uyg'unligi asosida o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini rivojlantirish hamda yangi sifat holatlarini vujudga keltirish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab tizimdir.

✓ **Nochiziqli rivojlanish qonuniyatlarida.** Ta'lim tizimi dinamik va nochiziqli jarayon sifatida muayyan beqarorlik hamda fluktuatsiyalar orqali rivojlanadi. Aynan mazkur jarayonlar tizimning yangi sifat bosqichlariga o'tishining tabiiy mexanizmini tashkil etadi.

✓ **Prognostik rivojlanish imkoniyatlarida.** Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan har bir islohot, innovatsion yondashuv va pedagogik tajriba kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish hamda tizimning strategik istiqbollarini belgilash uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta'lim o'zini-o'zi tashkil etuvchi, ko'p sonli elementlardan tashkil topgan murakkab sinergetik tizimdir. U ochiq va muvozanatsizdir. Ta'limda beqarorliklar kuzatilishi mumkin va ma'lum barqarorlikka kelish uchun islohotlar amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida kuzatilgan ma'lum vaqtdagi beqarorlik tizimda sifat jihatdan yangi bosqichning hosil bo'lishiga asos bo'ladi. Ya'ni, ta'lim sistemasidagi beqaror holat bizningcha, ta'limning inqirozi emas, bir holatdan yangi bir holatga o'tish yo'lining boshlanishidir. Misol uchun, butun dunyoda insoniyatni yangicha muammo qarshisiga olib kelgan pandemiya sharoitida "online ta'lim" ning bir qancha platformalari shakllandiki, ta'lim beruvchilar ham, ta'lim oluvchilar ham birini o'zlashtirib ulgurmasdan, boshqa bir platforma tavsiya etildi. "Moddle", "Hemis", "Google claasroom", "Zoom", "Google meet" va hokazo onlayn darslarni tashkil etish vositalari bizningcha, dastlabki bosqichda butun bir ta'lim tizimida muayyan darajada beqarorlikka olib keldi. Ammo, ta'lim jarayoni to'xtab qolmadi, aksincha, bu kabi muammolardan yanada yangicha ko'rinishda, yangi-yangi g'oyalar asosida takomillashdi.

Bugungi kunga kelib sinergetik metodologiya imkoniyatlaridan keng foydalanish zaruratidan kelib chiqqan holda sinergetik ta'lim tizimini shakllantirish o'quv jarayoni sifatini nazorat qilishda ham muhim o'rin tutadi, deb hisoblaymiz.

Demak, ko'rib o'tganimizdek, ta'lim sifatini baholash, o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda sinergetik ta'lim tizimini joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Sinergetik ta'lim tizimi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- sinergetik fikrlash;
- sinergetik o'rganish;
- sinergetik tushunish va tushuntirish;
- sinergetik ta'lim konsepsiyalarini shakllantirish;
- sinergetik tafakkur tarzini shakllantirish;
- muammoga sinergetik yechim topishga o'rgatish;
- sinergetik ta'limning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;
- ta'limning sinergetik qonuniyatlaridan amalda foydalanish" [22].

"Sinergetika g'oyalarini ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'quvchilarda o'z-o'zini tashkil etish nazariyasidan bilimlar tizimini shakllantirish zarur, o'quv materialidagi hodisalar va tushunchalar sinergetik tarkibga ega" [15; 117]. Shuningdek,

zamonaviy ta’lim jarayoni mazkur dinamik rivojlanuvchi, nochiziqli tizimda o‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyalarini singdira oladigan ta’lim va tarbiya muhitini shakllantirishni talab etmoqda. Vaholanki, ta’limning o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonidagi kuchli tasirini etirof etmaslik mumkin emas. Shuningdek, “O‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyalari maktab tabiatshunoslik kurslarida va ehtiyotkorlik bilan gumanitar fanlar bo‘yicha, masalan, yuqori sinflar uchun integral kursda mujassam bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasiga alohida mavzularni kiritish shart emas. Ko‘pgina hollarda klassik fanning dasturiy masalalarini tushuntirishda diqqatni almashtirishga etibor qaratish afzaldir” [11; 105]. Sinergetik metodologiyada esa, postnoklassik fanning metodologik masalalari evristik hal etiladi.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, ta’lim sinergetik metodologiyaning muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘luvchi murakkab ijtimoiy tizim hisoblanadi. U ochiqlik, muvozanatsizlik, ichki va tashqi fluktuatsiyalar, nochiziqlilik, xaotiklik, dissipativlik hamda o‘z-o‘zini tashkil etish kabi fundamental sinergetik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan dinamik tizim sifatida tavsiflanadi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimining rivojlanishida sinergetik qonuniyatlar, xususan ochiqlik, nochiziqlilik, muvozanatsizlik, tartib va tartibsizlikning dialektik birligi hamda o‘z-o‘zini tashkil etish mexanizmlari amal qiladi. Shu bois zamonaviy ta’limni sinergetik paradigma asosida tadqiq etish ta’lim tizimida mavjud murakkab muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, zamonaviy ta’lim jarayonini sinergetik metodologiya asosida tashkil etish bugungi taraqqiyotning obyektiv talabi bo‘lib, u ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi. Sinergetik ta’lim tizimini joriy etish ko‘p omilli pedagogik muammolarni muqobil yondashuvlar asosida hal etish hamda eng maqbul rivojlanish strategiyalarini tanlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, sinergetik ta’lim tizimining shakllanishi ta’lim sifati va samaradorligini baholash hamda boshqarishda innovatsion metodologik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim shaxsda zamonaviy dunyoqarashni, mantiqiy, tanqidiy va sinergetik tafakkurni shakllantirish orqali uning intellektual hamda ijodiy salohiyatini yuksaltirishga metodologik asos yaratadi.

Beshinchidan, sinergetik ta’lim tizimi o‘z-o‘zini tashkil eta oladigan, uzluksiz o‘zini rivojlantirishga intiladigan, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qila oladigan, mehnat natijalarini obyektiv baholashga qodir hamda yuksak kasbiy va ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lgan zamonaviy, raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 24.09.2020., 03/20/637/1313-сон).

2. Бозаров Д.М. Синергетик парадигма. –Тошкент.: Тафаккур, 2010. –Б.152.

3. Бранский В.П. Теоретические основания социальной синергетики // Вопросы философии. – 2000. – № 4. – С. 112-129.

4. Буданов В.Г. Методология синергетики в постнеклассической науке и в образовании. – Москва.: URSS, 2008. – С.230.

5. Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем. Синергетика и теория социальной самоорганизации. – Спб.: Лан, 1999. – С.480.

6. Виненко В. Г. Последипломное образование педагога в свете постне-классической науки // Педагогика. – 1999. – № 3. – С. 73–79.

7. Горбатюк В.Ф. Системы естественного интеллекта: синергетика образования: Монография. Таганрогский институт имени А.П.Чехова. – Таганрог; Ростов-на-Дону: Легион-М, 2018. – С.253.

8. Данилов Ю. А. Роль и место синергетики в современной науке / Онтология и эпистемология синергетики. — Москва.: РАН Институт философии. 1997. - С. 5-11.

9. Жанабаев З.Ж., Хмель Н.Д. Синергетическая сущность педагогического процесса // Алматы. – 1996. – № 1. – С. 61–64.

10. Johnson J.L., Burton B.K. Chaos and complexity theory for management: Caveat emptor // Journal of Management Inquiry. 1994. vol 37. - №1. - P.320.

11. Зорина Л. Я. Отражение идей самоорганизации в содержании образования // Педагогика. – 1996. – № 4. – С.105–109.

12. Князева Е. Н., Курдюмов С. П. Основания синергетики. – Москва.: Алетея, 2002. – С.414.

13. Кувандиков Э.О. Педагогик синергетика асослари. – Самарқанд: СамДУ, 2007. – Б. 126.

14. Mathews K.M., White M.C., Long R.G. Why study the complexity sciences in the social sciences // Human relations, 1999, 52 (4). https://link.springer.com/article/10.1023/A:1016957424329.

15. Мукушев. Б.А. Синергетика в системе образования // Образование и наука. - 2008. - № 3 (51). – С.105-122.

16. Пригожин И., Стенгерс И. Время. Хаос. Квант. К решению парадокса времени. – Москва.: Прогресс, 2003. – С. 240.

17. Пугачева Е.Г. Синергетический подход к системе высшего образования // Высшее образование в России. – 1998. – № 2 – С.41–45.

18. Тураев Б.О. ва бошқ. Синергетика 2: Назария ва амалиёт. – Тошкент.: FANZIYOSI. 2022. – Б. 400.

19. Шермухамедова Н.А., Худойберганов Р. Таълим фалсафаси. – Тошкент.: ТАҚИ, 2018. – Б. 260.

20. Эргашева М.Х.Таълим тараққиёти: синергетик таҳлил. – Самарқанд: Самарқанд Давлат чет тиллар институти нашриёти, 2022. – Б. 160.

21. Ergasheva M. K. Synergistic analysis of education // Наука, образование, теория, практика: новые подходы и актуальные исследования. – 2021. – С. 44-46.

22. Эргашева М. Х. Замонавий таълим синергетик тизим сифатида // Философия и жизнь международный журнал. – 2022. – №. SI-1.

23. Юлдашев Р.Д. Таълим фалсафаси таълим жараёнини ривожлантиришнинг назарий-концептуал асоси. –*Тошкент.: 2020.*– Б. 172.

ISSIQLIK TARQALISH JARAYONINI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR YORDAMIDA O‘QITISH METODIKASI

Xurramov Oybek Shermamatovich
QarDU Algebra va geometriya kafedrasi katta o‘qituvchisi.
xurramovoybek982@gmail.com
ORCID 0009-0007-6029-3019
UDK 517.958.37.016

Annotatsiya. Maqolada issiqlik tarqalish jarayonini differensial tenglamalar yordamida o‘qitish metodikasi va mazkur jarayonni matematik modellashtirish asoslari yoritilgan. Issiqlikning turli muhitlarda vaqt va fazo bo‘yicha tarqalish qonuniyatlarini ifodalovchi issiqlik tarqalish tenglamasining matematik mazmuni, fizik mohiyati hamda uni tushuntirishning usullari tahlil qilingan. Nazariy asoslarni real fizik jarayonlar bilan bog‘lash, matematik modelni shakllantirish, boshlang‘ich va chegaraviy shartlar mazmunini ochib berish hamda yechimlarni fizik nuqtayi nazardan izohlashga e’tibor qaratilgan. Amaliy masalalar, grafik tasvirlash, hisoblash usullari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Taklif etilgan metodik yondashuv o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, matematika va fizika o‘rtasidagi fanlararo aloqadorlikni ta’minlash hamda talabalarning matematik modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: issiqlik tarqalishi, differensial tenglamalar, issiqlik tenglamasi, matematik modellashtirish, o‘qitish metodikasi, chegaraviy shartlar, boshlang‘ich shartlar, amaliy masalalar, fanlararo integratsiya.

METHODOLOGY OF TEACHING THE HEAT DIFFUSION PROCESS USING DIFFERENTIAL EQUATIONS

Abstract. This article discusses the methodology of teaching the heat diffusion process using differential equations and the mathematical foundations of modelling this process. The mathematical content and physical significance of the heat equation, which describes heat propagation in different media over time and space, are analysed, along with effective ways of presenting the topic. Attention is paid to connecting theory with physical processes, constructing mathematical models, explaining initial and boundary conditions and interpreting solutions from a physical perspective. The proposed approach strengthens the practical orientation of teaching differential equations, establishes interdisciplinary connections between mathematics and physics and develops students’ modelling competencies.

Key words: heat transfer, differential equations, heat equation, mathematical modeling, teaching methodology, boundary conditions, initial conditions, practical problems, interdisciplinary integration.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan bog‘lash, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va matematik modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, differensial tenglamalarni o‘qitishda ularning real hayotdagi jarayonlarni ifodalash imkoniyatlarini ko‘rsatish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish va mavzuni chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi. Tabiat va texnikada uchraydigan ko‘plab jarayonlar, jumladan, issiqlik tarqalishi, suyuqliklar harakati, tebranishlar, diffuziya va boshqa hodisalar differensial tenglamalar orqali matematik jihatdan tavsiflanadi.

Issiqlik tarqalish jarayoni fizikada muhim o‘rin egallab, jismlarda haroratning vaqt va fazo bo‘yicha o‘zgarishini ifodalaydi. Mazkur jarayonni matematik jihatdan tavsiflash uchun xususiy hosilali differensial tenglamalardan foydalaniladi. Bir o‘lchamli muhitda issiqlik tarqalish jarayonining matematik modeli odatda quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$$

bu yerda u(x,t) — muhitning x nuqtasidagi t vaqtdagi harorati, a^2 — muhitning issiqlik o‘tkazuvchanlik xususiyatini ifodalovchi koeffitsiyentdir. Ushbu tenglama orqali haroratning vaqt davomida qanday o‘zgarishi va muhit bo‘ylab qanday tarqalishi o‘rganiladi.

Issiqlik tarqalish tenglamasini ta’lim jarayonida qo‘llash talabalarga differensial tenglamalarning abstrakt matematik tushuncha emas, balki real fizik hodisalarni tadqiq etishning samarali vositasi ekanligini anglash imkonini beradi. Bunda matematik va fizik

bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanib, talabalarning fanlararo fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, matematik modelni tuzish, boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni aniqlash, tenglamani yechish hamda olingan natijalarni fizik mazmun jihatidan izohlash bosqichlari talabalarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolaning asosiy maqsadi issiqlik tarqalish jarayonini differensial tenglamalar yordamida o‘qitishning samarali metodik yondashuvlarini ishlab chiqish va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida issiqlik tarqalishining matematik modeli, uni o‘quv jarayonida tushuntirish usullari hamda amaliy masalalar asosida talabalarning matematik modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Issiqlik tenglamasi

Issiqlik tarqalish jarayonini matematik jihatdan ifodalashda asosiy vositalardan biri **issiqlik tenglamasi** hisoblanadi. Ushbu tenglama jism yoki muhitdagi haroratning vaqt va fazo bo‘yicha o‘zgarishini tavsiflaydi. Bir o‘lchamli holatda issiqlik tenglamasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\frac{\partial u(x,t)}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u(x,t)}{\partial x^2},$$

bu yerda:

- u(x,t) — x nuqtadagi jismning t vaqtdagi harorati;
- t — vaqt;
- x — fazoviy koordinata;
- a^2 — muhitning issiqlik tarqalish koeffitsiyenti;
- $\frac{\partial u}{\partial t}$ — haroratning vaqt bo‘yicha o‘zgarish tezligi;
- $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ — haroratning fazo bo‘yicha ikkinchi hosilasi.

Issiqlik tenglamasining mazmunini o‘qitishda talabalarga tenglamaning har bir matematik komponentini uning fizik mazmuni bilan bog‘lab tushuntirish muhim. Masalan, $\frac{\partial u}{\partial t}$ haroratning vaqt davomida qanchalik tez o‘zgarayotganini, $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ esa harorat taqsimotining fazodagi egriligini ifodalaydi. Shu sababli tenglama issiqlikning yuqori haroratli sohalardan past haroratli sohalarga tarqalish jarayonini matematik ravishda ifodalash imkonini beradi.

Umumiy uch o‘lchamli holatda issiqlik tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial u}{\partial x} = a^2 \nabla^2 u$$

Bu yerda ∇^2 — **Laplas operatori** bo‘lib,

$$\nabla^2 u = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial z^2}.$$

O‘qitish jarayonida avvalo bir o‘lchamli modelni ko‘rib chiqish, so‘ngra ikki va uch o‘lchamli modellarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday ketma-ketlik talabalarda mavzuning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish va differensial

tenglamaning real fizik jarayon bilan bog‘liqligini yaxshiroq anglash imkonini beradi. [1],[2],[3],[4].

Chegaraviy va boshlang‘ich shartlar

Issiqlik tarqalish tenglamasini to‘liq yechish uchun differensial tenglamaning o‘zi bilan bir qatorda **boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni** ham berish zarur. Chunki bu shartlar jismning dastlabki holatini hamda uning chegaralarida issiqlik almashinuvi qanday kechishini belgilaydi.

Agar uzunligi L ga teng bo‘lgan sterjen bo‘ylab issiqlik tarqalishi qaralsa, matematik model quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad 0 < x < L,\ t > 0.$$

Boshlang‘ich shart sterjenning t=0 vaqtdagi harorat taqsimotini ifodalaydi:

$u(x,0)=\varphi(x)$, $0\le x\le L$.

Bu yerda $\varphi(x)$ — sterjenning boshlang‘ich harorat taqsimoti. Masalan, sterjenning barcha nuqtalaridagi dastlabki harorat bir xil T_0 bo‘lsa:

$$u(x,0)= T_0 .$$

Misol. Uzunligi L=1 metr bo‘lgan metall sterjenning boshlang‘ich harorati barcha nuqtalarda **20°C** bo‘lsin.

Bunda:

$$u(x,0)=20,\ 0\le x\le 1.$$

Bu nimani anglatadi?

Ya’ni tajriba boshlanishidan oldin sterjenning har bir nuqtasida harorat 20°C bo‘lgan.

Agar sterjenning turli nuqtalarida harorat turlicha bo‘lsa, masalan,

$$u(x,0)=20+10x,$$

unda x=0 nuqtada:

$$u(0,0)= 20°C ,$$

x=1 nuqtada esa:

$$u(1,0)= 30°C .$$

Demak, boshlang‘ich shart bizga jarayonning boshlanishidagi harorat taqsimotini beradi.[3].

Chegaraviy shartlar esa sterjenning uchlaridagi harorat yoki issiqlik oqimi qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, sterjen uchlarining harorati doimiy qiymatda saqlansa, Dirixle chegaraviy shartlari:

$$u(0,t)= T_1 ,u(L,t)= T_2$$

ko‘rinishida yoziladi.

Agar sterjen uchlari issiqlik o‘tkazmaydigan bo‘lsa, Neymann chegaraviy shartlari qo‘llaniladi:

$$\frac{\partial u}{\partial x}(0,t) = 0,\ \frac{\partial u}{\partial x}(L,t) = 0.$$

Shunday qilib, boshlang‘ich shart “jarayon qanday holatdan boshlandi?”, chegaraviy shart esa “jism chegaralarida qanday sharoit mavjud?” degan savollarga javob beradi.[2],[4],[7].

Differensial tenglamaning fizik mazmuni

Endi asosiy tenglamani ko‘rib chiqamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

Bu tenglamaning fizik ma'nosi juda muhim.

$\frac{\partial u}{\partial t}$ Chap tomon: — haroratning vaqt bo'yicha o'zgarish tezligi.

$a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ O'ng tomon: — haroratning fazoda qanday taqsimlanganligini ifodalaydi.

Ya'ni jismning bir qismida harorat juda yuqori, qo'shni qismida esa past bo'lsa, harorat vaqt davomida o'zgaradi va issiqlik yuqori haroratli joydan past haroratli joyga tarqaladi.

Misol. Uzunligi 1 metr bo'lgan metall sterjenni olaylik. Dastlab uning harorati:

$u(x,0) = 20^0C$ bo'lsin.

Sterjenning o'rtasi, ya'ni x=0.5 nuqta, tashqi manba yordamida 100^0C gacha qizdirildi.

Natijada taxminan quyidagi holat yuzaga keladi:

$$20^0C,\ 20^0C,\ 100^0C, 20^0C,\ 20^0C$$

Issiqlik o'rtadagi 100^0C bo'lgan nuqtadan uning atrofidagi 20^0C bo'lgan qismlarga tarqala boshlaydi.

Bir oz vaqt o'tgach:

$$25^0C,\ 40^0C,\ 70^0C, 40^0C,\ 25^0C$$

kabi holat paydo bo'lishi mumkin.

Yana vaqt o'tgach:

$$35^0C,\ 45^0C,\ 55^0C, 45^0C,\ 35^0C.$$

Shunday qilib, harorat farqi asta-sekin kamayadi.

Bu jarayonni matematik jihatdan aynan

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

issiqlik tenglamasi ifodalaydi.[2],[3],[6],[7].

Bir jinsli chegaraviy shartga keltiramiz:

Chegaraviy shartlardan biri 100, ikkinchisi 20 bo'lgani uchun avval stasionar yechimni topamiz.

$$u(x,t)=v(x,t)+w(x)$$

deb olamiz.

Stasionar yechim w(x) uchun:

$$w''(x)=0.$$

Ikki marta integrallaymiz:

$$W'(x) = C_1$$

$$W(x) = C_1 x + C_2$$

Chegaraviy shartlardan: w(0)=100,w(1)=20.

Birinchi shartdan: $C_2 = 100$

Ikkinchi shartdan:

$$C_1 + 100 = 20$$

demak, $C_1 = -80$

Shunday qilib:

$$w(x)=100-80x.$$

Endi

$$u(x,t)=v(x,t)+100-80x$$

deb yozamiz.

Issiqlik tarqalish tenglamasini o‘qitish metodikasi

Issiqlik tarqalish tenglamasini o‘qitishda asosiy maqsad talabalarga tayyor formulalarni yodlatish emas, balki fizik jarayonni kuzatish, uni matematik modelga aylantirish, differensial tenglamani hosil qilish va olingan natijani fizik jihatdan izohlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan muammoli ta’lim, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari, grafik va matematik modellashtirish hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish samarali metodik vositalar hisoblanadi.

1. Muammoli ta’lim

Muammoli ta’limda talabalarga tayyor bilim berishdan oldin muayyan fizik muammo qo‘yiladi. Masalan, o‘qituvchi quyidagi savolni beradi:

“Bir uchi qizdirilgan metall sterjenning ikkinchi uchiga issiqlik qanday va qancha vaqtda yetib boradi?”

Talabalar dastlab ushbu savolga fizik mulohazalar asosida javob berishga harakat qiladilar. Shundan so‘ng issiqlikning vaqt va fazoga bog‘liq ravishda o‘zgarishini matematik ifodalash zarurligi tushuntiriladi.

2. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari

Issiqlik tenglamasini o‘qitishda nazariy ma’lumotlarni amaliy tajriba bilan bog‘lash mavzuni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Laboratoriya mashg‘ulotida metall sterjenning bir uchi qizdirilib, uning turli nuqtalaridagi harorat ma’lum vaqt oralig‘ida o‘lchanadi.

3. Grafik va matematik modellashtirish

Grafik modellashtirish issiqlik tarqalish jarayonini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beradi. Talabalar u(x,t) funksiyasining qiymatlarini grafik ko‘rinishda tasvirlab, haroratning fazo va vaqt bo‘yicha o‘zgarishini kuzatadilar.

4. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish

Issiqlik tenglamasini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish murakkab matematik jarayonlarni vizual ko‘rsatish imkonini beradi. Ayniqsa, sonli usullar yordamida tenglamaning taxminiy yechimini hisoblash va uning vaqt davomida o‘zgarishini animatsiya yoki grafik orqali namoyish etish samarali hisoblanadi.

Metodik jihatdan umumlashtirish

Yuqoridagi metodlarni yagona dars jarayoniga birlashtirish mumkin. Dars avvalida real fizik muammo qo‘yiladi, keyin tajriba yoki kuzatish orqali muammo o‘rganiladi. Olingan natijalar asosida matematik model tuziladi va issiqlik tenglamasi hosil qilinadi. Keyingi bosqichda tenglama analitik yoki sonli usulda yechiladi hamda kompyuter yordamida grafik tasvirlanadi. Yakunda nazariy natijalar tajriba natijalari bilan taqqoslanib, fizik xulosa chiqariladi.

Pedagogik samaradorlik

Issiqlik tarqalish tenglamasini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan bog‘lash talabalarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, fizik hodisani avval kuzatish, keyin uni matematik model yordamida ifodalash va natijani grafik orqali ko‘rsatish differensial tenglamalarning mazmunini tushunishni osonlashtiradi.

Talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish

Muammoli ta'lim usulidan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Dars boshida "Nima uchun issiqlik issiq joydan sovuq joyga tarqaladi?", "Vaqt o'tishi bilan harorat qanday o'zgaradi?" kabi savollar beriladi. Talabalar dastlab o'z fikrlarini bildiradilar, keyin esa matematik model yordamida o'z xulosalarini tekshiradilar.

Bunday yondashuv talabaning tayyor formulani yodlab olishidan ko'ra, **muammoni tahlil qilish, taxmin qilish, hisoblash va xulosa chiqarish** ko'nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy ko'nikmalarning shakllanishi

Issiqlik tarqalishiga oid masalalarni yechish orqali talabalar differensial tenglamalarni real jarayonlarga tatbiq etishni o'rganadilar. Masalan, metall sterjenning harorati berilganda uning turli nuqtalaridagi haroratni aniqlash, vaqt o'tishi bilan haroratning o'zgarishini hisoblash va natijalarni grafikda tasvirlash mumkin.

Bu jarayonda talaba:

fizik jarayon→matematik model→differensial tenglama→yechim→fizik xulosa ketma-ketligini o'zlashtiradi.

Kutiladigan pedagogik natijalar

Ushbu metodikani qo'llash natijasida talabalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- differensial tenglamalarning fizik mazmunini tushunish;
- fizik jarayon uchun matematik model tuzish;
- boshlang'ich va chegaraviy shartlarni to'g'ri aniqlash;
- differensial tenglamalarni yechish;
- matematik yechimni fizik jihatdan talqin qilish;
- grafik va jadvallar yordamida natijalarni tahlil qilish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanib matematik modellarni tadqiq qilish;
- mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish.

Pedagogik samaradorlikni aniqlash uchun o'qituvchi mavzu boshlanishidan oldin va mavzu yakunlangandan keyin talabalarning bilim darajasini taqqoslashi mumkin. Bunda nazariy savollar, amaliy masalalar va matematik modellashtirish topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Natijalarni taqqoslash orqali qo'llanilgan metodikaning talabalarning bilim va amaliy ko'nikmalariga ta'siri baholanadi.

Umuman olganda, issiqlik tarqalish tenglamasini muammoli, amaliy, grafik va kompyuter texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar orqali o'qitish talabalarning mavzuga qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi va differensial tenglamalarni real fizik jarayonlarni modellashtirish vositasi sifatida qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. [2],[3],,[4][6],[7].

Xulosa. Issiqlik tarqalish jarayonini differensial tenglamalar yordamida o'qitish matematika va fizika fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashning samarali usullaridan biridir. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida talabalar issiqlikning vaqt va fazo bo'yicha tarqalishini nafaqat fizik hodisa sifatida, balki matematik model orqali ifodalanuvchi jarayon sifatida ham tushunib oladilar.

Tadqiqot davomida issiqlik tarqalishining asosiy matematik modeli

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

tenglama orqali ifodalanishi, uni yechishda boshlang'ich va chegaraviy shartlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi. Namunaviy masalalar orqali talabalarga fizik jarayonni matematik modelga aylantirish, differensial tenglamani tuzish, boshlang'ich va chegaraviy shartlarni aniqlash hamda olingan yechimning fizik

mazmunini izohlash bosqichlari tushuntirildi.

Issiqlik tenglamasini o‘qitishda muammoli ta’lim, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, grafik modellashtirish hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarning mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, nazariy formulalarni real fizik jarayonlar bilan bog‘lash talabalarning mustaqil fikrlashi, matematik modellashtirish va amaliy masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, issiqlik tarqalish tenglamasini o‘qitishda “fizik jarayon → matematik model → differensial tenglama → yechim → grafik tasvir → fizik xulosa” ketmaketligidan foydalanish samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarda differensial tenglamalarni amaliy masalalarga tatbiq etish kompetensiyasini shakllantirish bilan birga, matematik va fizik bilimlarni integratsiyalashga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evans, L. C. Partial Differential Equations. — 2nd ed. — Providence, RI: American Mathematical Society, 2010.

2. Strauss, W. A. Partial Differential Equations: An Introduction. — 2nd ed. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2008.

3. Haberman, R. Applied Partial Differential Equations with Fourier Series and Boundary Value Problems. — 5th ed. — Boston: Pearson, 2013.

4. Kreyszig, E. Advanced Engineering Mathematics. — 10th ed. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2011.

5. Boyce, W. E., DiPrima, R. C., Meade, D. B. Elementary Differential Equations and Boundary Value Problems. — 11th ed. — Hoboken, NJ: Wiley, 2017.

6. Incropera, F. P., DeWitt, D. P., Bergman, T. L., Lavine, A. S. Fundamentals of Heat and Mass Transfer. — 7th ed. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2011.

7. Carslaw, H. S., Jaeger, J. C. Conduction of Heat in Solids. — 2nd ed. — Oxford: Clarendon Press, 1959.

8. Crank, J. The Mathematics of Diffusion. — 2nd ed. — Oxford: Clarendon Press, 1975.

9. Polyanin, A. D. Handbook of Linear Partial Differential Equations for Engineers and Scientists. — Boca Raton: Chapman & Hall/CRC, 2002.

10. Арнольд, В. И. Обыкновенные дифференциальные уравнения. — Москва: Наука, 1984.

11. Тихонов, А. Н., Самарский, А. А. Уравнения математической физики. — Москва: Наука, 1977.

12. Самарский, А. А. Теория разностных схем. — Москва: Наука, 1989.

13. Петровский, И. Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. — Москва: Наука, 1984.

14. Сборник задач по уравнениям математической физики / Под ред. В. С. Владимирова. — Москва: Наука.

15. Ландау, Л. Д., Лифшиц, Е. М. Теоретическая физика. Том VI: Гидродинамика. — Москва: Физматлит.

AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA RAQAMLI MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK KONSEPSIYASI

Xo'jaqulov Akbar Eshquvatovich
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
humanresourcedep@qarshidu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim oluvchilarda axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlik, raqamli fuqarolik va raqamli madaniyat tushunchalarining o'zaro munosabati aniqlashtirilib, raqamli faoliyatning texnik, axborotiy va kommunikativ jihatlari axloqiy pozitsiya, huquqiy mas'uliyat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaxlit tizimda talqin etilgan. Qadriyatli-motivatsion, kognitiv, axloqiy-kommunikativ, faoliyatli-xavfsizlik va refleksiv komponentlardan iborat pedagogik tuzilma taklif qilingan. Konsepsiyaning maqsadli, metodologik, mazmunli, texnologik, tashkiliy-pedagogik, diagnostik va natijaviy bloklari asoslangan. Tadqiqot natijalari ta'lim mazmuniga raqamli etika, mediasavodxonlik, akademik halollik, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish va sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish masalalarini integratsiya qilishga xizmat qiladi. Bu oliy ta'limda raqamli tarbiya sifatini oshiradi.

Kalit so'zlar: raqamli madaniyat, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar, raqamli fuqarolik, mediasavodxonlik, raqamli etika, axborot xavfsizligi, akademik halollik, sun'iy intellekt, oliy ta'lim.

PEDAGOGICAL CONCEPT OF FORMING DIGITAL CULTURE BASED ON MORAL AND SPIRITUAL VALUES

Abstract. This article analyses the theoretical-methodological foundations of developing learners' digital culture based on moral and spiritual values. It clarifies relations between digital literacy, digital competence, digital citizenship and digital culture, and interprets the technical, informational and communicative dimensions of digital activity in unity with moral position, legal responsibility, and national and universal values. A pedagogical structure comprising value-motivational, cognitive, moral-communicative, activity-safety and reflective components is proposed. The target, methodological, content, technological, organisational-pedagogical, diagnostic and outcome blocks of the concept are substantiated. The findings support integrating digital ethics, media literacy, academic integrity and responsible use of artificial intelligence into educational content.

Key words: digital culture, moral and spiritual values, digital citizenship, media literacy, digital ethics, information security, academic integrity, artificial intelligence, higher education.

Kirish. Jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan raqamli transformatsiya insonning bilim olish, muloqot qilish, mehnat faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Biroq raqamli qurilmadan foydalanish tezligi yoki dasturiy vositalarni o'zlashtirish darajasi shaxsda yetuk raqamli madaniyat shakllanganini anglatmaydi. Talaba texnik topshiriqni bajara olgan holda axborot manbasining ishonchliligini tekshirish, mualliflik huquqiga rioya qilish, boshqalarning sha'ni va shaxsiy hayotini hurmat qilish, algoritmik ta'sirni anglash yoki tarqatilgan kontentning oqibatlarini baholashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Raqamli fuqarolik konsepsiyasida onlayn hayot shaxsning real hayotidan ajratilmaydi. Unda huquq, mas'uliyat, farovonlik, axloqiy tanlov va ijtimoiy ishtirok yagona tarbiyaviy maydon sifatida qaraladi. Shu jihatdan raqamli madaniyatni shakllantirish faqat axborot texnologiyalariga oid ko'nikmalarni rivojlantirish emas, balki shaxsning virtual makondagi ichki mezonlarini qaror toptirish jarayonidir. C. Redecker pedagogning raqamli kompetensiyasini texnologik mahorat bilangina cheklamay, raqamli resurslarni mas'uliyatli tanlash, ta'lim oluvchini faol subyektga aylantirish va uning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'laydi [9, P. 20–21]. O'zbek pedagogi B.X. Xodjayev esa tarbiyani shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy mas'uliyati va qadriyatli yo'nalishini tizimli shakllantiruvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida izohlaydi. Demak, ta'lim oluvchining raqamli faoliyatini insonparvarlik, haqqoniylik, adolat, hurmat va javobgarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanadi [2, B. 126].

Tadqiqotning maqsadi axloqiy-ma'naviy qadriyatlar asosida raqamli madaniyatni shakllantirishning pedagogik konsepsiyasini nazariy jihatdan asoslash, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, mezonlari va natijaviy ko'rsatkichlarini

belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda falsafiy, pedagogik va psixologik manbalarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish, komponentli tahlil va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida aksiologik, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, madaniy, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi tanlandi. Aksiologik yondashuv raqamli vositani shaxsiy yoki texnik maqsad emas, balki bilim, ezgulik va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etadi. Tizimli yondashuv raqamli madaniyatning qadriyat, bilim, faoliyat, muloqot, xavfsizlik va refleksiya bilan bog‘liq qismlarini yaxlit hodisa sifatida ko‘rishga imkon beradi. Faoliyatli yondashuv esa axloqiy qadriyatlarning real raqamli vaziyatlarda namoyon bo‘lishini nazarda tutadi.

Raqamli madaniyat tushunchasining pedagogik mohiyati. Ilmiy adabiyotlarda “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetentlik”, “media va axborot savodxonligi”, “raqamli fuqarolik” hamda “raqamli madaniyat” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, mazmunan bir xil emas. Raqamli savodxonlik axborotni topish, tushunish, qayta ishlash va raqamli vositalardan foydalanishga oid boshlang‘ich bilim hamda ko‘nikmalarni anglatadi. Raqamli kompetentlik mazkur bilimlarni muayyan vazifani hal etishda ongli va samarali qo‘llash qobiliyatidir. Raqamli madaniyat esa ushbu imkoniyatlarni boshqaradigan qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, huquqiy ong, muloqot odatlari, xavfsizlik ko‘nikmalari va o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmlarini ham qamrab oladi.

Shu asosda axloqiy-ma’naviy qadriyatlarga tayangan raqamli madaniyatni shaxsning raqamli texnologiyalardan ezgu maqsadlarda, ongli, tanqidiy, xavfsiz, huquqiy va ijtimoiy mas’uliyatli tarzda foydalanishini ta’minlaydigan qadriyatlar, bilimlar, kompetensiyalar, xulq-atvor me’yorlari va refleksiv qobiliyatlar tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Mazkur sifat raqamli muhitdagi harakatning “qanday bajarilishi” bilan birga “nima maqsadda bajarilishi”, “kimga ta’sir qilishi” va “qanday oqibat tug‘dirishi” haqidagi savollarga ham javob beradi.

Axloqiy-ma’naviy qadriyatlarning raqamli madaniyatdagi o‘rni

Axloqiy-ma’naviy qadriyatlar insonning voqelikni baholashi, maqsad belgilashi va xatti-harakatlarini boshqaruvchi ichki mezonlardir. Virtual makonda anonimlik, masofaviylik va axborotning tez tarqalishi insonning javobgarlik hissini susaytirishi mumkin. Shu sababli raqamli faoliyatda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, haqqoniylik, mas’uliyat, adolat, bag‘rikenglik, shaxsiy hayot daxlsizligi, intellektual mulkni qadrlash, milliy madaniy merosga ehtirom va axborot iste’molida me’yor kabi qadriyatlar amaliy mezonga aylanishi zarur. Abdulla Avloniy axloq va tarbiyani inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatida baholaydi; uning qarashlarida halollik, vijdon, ilm, sabr, intizom va mas’uliyat shaxs xulqini boshqaruvchi barqaror fazilatlar sifatida talqin qilinadi. Mazkur g‘oyalarni raqamli muhitga tatbiq etish ta’lim oluvchining virtual xatti-harakatlarini ham real hayotdagi axloqiy mezonlar asosida boshqarishga xizmat qiladi [1, B. 8–10].

Mazkur qadriyatlar ta’lim mazmunida umumiy shior sifatida emas, balki aniq raqamli vaziyatlar bilan bog‘langan holda o‘rgatilishi kerak. Halollik plagiatdan voz kechish, iqtibosni to‘g‘ri keltirish va sun’iy intellekt yordamidan foydalanganlikni ochiq ko‘rsatishda; hurmat netiket, empatiya va kiberbullingga qarshi turishda; mas’uliyat manbani tekshirish, shaxsiy ma’lumotlarni ehtiyotkor boshqarish va yolg‘on xabarni tarqatmaslikda namoyon bo‘ladi.

Raqamli madaniyatning tarkibiy komponentlari. Taklif etilayotgan tuzilmada o‘zaro bog‘liq beshta komponent ajratildi. Qadriyatli-motivatsion komponent raqamli vositalardan ezgu va ijtimoiy foydali maqsadlarda foydalanishga intilish hamda axborot halolligiga ehtiyojni; kognitiv komponent raqamli etika, mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, kiberxavfsizlik va sun’iy intellektga oid bilimlarni; axloqiy-kommunikativ

komponent virtual muloqot odobi, empatiya va bag‘rikenglikni ifodalaydi. Faoliyatli-xavfsizlik komponenti bilim va qadriyatlarning real raqamli xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishini, refleksiv komponent esa shaxsning o‘z axborot iste’moli, ekran vaqti, muloqot uslubi va kontent yaratish faoliyatini tahlil qilishini qamrab oladi.

1-jadval. Axloqiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan raqamli madaniyat komponentlari

Komponent	Mazmuni	Asosiy ko‘rsatkichlari
Qadriyatli-motivatsion	Ezgu maqsad, axborot halolligi, inson qadr-qimmatiga hurmat va fuqarolik mas’uliyati.	Mas’uliyatli motiv; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat; foydali raqamli tashabbus.
Kognitiv	Raqamli etika, mediasavodxonlik, huquq, maxfiylik, kiberxavfsizlik va SI etikasi haqidagi bilimlar.	Manbani baholash; algoritmik ta’sirni anglash; mualliflik va maxfiylik qoidalarini bilish.
Axloqiy-kommunikativ	Netiket, empatiya, bag‘rikenglik, nizoni madaniy hal qilish va kiberbullingga qarshi turish.	Hurmatli uslub; mas’uliyatli ulashish; turli fikr va madaniyatlarga tolerant munosabat.
Faoliyatli-xavfsizlik	Qadriyat va bilimlarni xavfsiz, huquqiy va mas’uliyatli raqamli harakatlarda qo‘llash.	Faktcheking; xavfsiz parol; shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash; axloqiy kontent yaratish.
Refleksiv	Raqamli xatti-harakat, ekran vaqti, axborot iste’moli va qarorlar oqibatlarini tahlil qilish.	O‘zini baholash; xatoni tuzatish; sog‘lom raqamli odat; rivojlanish strategiyasi.

Konseptual model. Model maqsadli, metodologik, mazmunli, texnologik, tashkiliy-pedagogik, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topadi. Maqsadli blok axloqiy-ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan barqaror raqamli madaniyatni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Mazmunli blok raqamli etika, mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi, akademik halollik, sun’iy intellekt etikasi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qamrab oladi. Texnologik blokda muammoli vaziyat, axloqiy dilemma, keys-stadi, loyiha, debat, faktcheking va refleksiv topshiriqlar qo‘llanadi. Tashkiliy-pedagogik blok fanlararo integratsiya, pedagogning namunaviy raqamli xulqi, raqamli axloq kodeksi hamda oila va ta’lim muassasasi hamkorligini nazarda tutadi.

Shakllantirish mexanizmi va pedagogik shart-sharoitlar. Jarayonni diagnostik-qadriyatli, axborot-kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlarida tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda ta’lim oluvchilarning raqamli odatlari, axborot manbalari, xavfsizlik ko‘nikmalari va axloqiy tanlovlarga munosabati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda raqamli huquqlar, mualliflik, shaxsiy ma’lumotlar, manipulyatsiya, kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt etikasi haqidagi bilimlar tizimlashtiriladi. Uchinchi bosqichda soxta xabarni aniqlash, kiberbulling vaziyatiga munosabat bildirish, mualliflik maqomini baholash, ijtimoiy reklama yoki foydali raqamli mahsulot yaratish kabi amaliy topshiriqlar bajariladi. Yakuniy bosqichda elektron portfolio, refleksiv esse, o‘zini o‘zi baholash xaritasi va tengdoshlar bahosi orqali shaxsiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Konsepsiyani amaliyotga joriy etish uchun, birinchidan, raqamli etika va xavfsizlik masalalarini barcha fanlar mazmuniga integratsiya qilish; ikkinchidan, real raqamli vaziyatlar va axloqiy dilemmalarga asoslangan metodlardan foydalanish; uchinchidan, pedagoglarning raqamli-pedagogik va axloqiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, sun’iy intellektdan foydalanish va virtual muloqotga oid aniq qoidalarni qamrab olgan raqamli axloq kodeksi ishlab chiqilishi lozim. Oila, ta’lim muassasasi va jamoat tashkilotlari hamkorligi esa ta’lim oluvchining turli muhitlarda bir xil axloqiy mezonlarga amal qilishini ta’minlaydi.

Diagnostikada qadriyatli-motivatsion, kognitiv, axloqiy-kommunikativ, faoliyatli-xavfsizlik va refleksiv mezonlardan kompleks foydalanish tavsiya etiladi. Baholash faqat test bilan cheklanmasdan, amaliy topshiriq, raqamli keys, elektron portfolio, kuzatish, o‘zini o‘zi baholash va ekspert bahosini ham qamrab olishi kerak. Yuqori darajada ta’lim oluvchi raqamli faoliyatini axloqiy qadriyatlar asosida mustaqil boshqaradi, axborotni tanqidiy tekshiradi, xavflarni oldindan ko‘radi va boshqalarga ijobiy namuna ko‘rsatadi. O‘rta darajada bilim va ijobiy munosabat mavjud bo‘lsa-da, murakkab vaziyatlarda tashqi ko‘mak talab etiladi. Past darajada esa axloqiy-huquqiy oqibatlar yetarlicha anglanmaydi va xavfsiz xulq-atvor barqaror shakllanmagan bo‘ladi.

Olingan natijalar raqamli madaniyatni texnik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Texnologiyaning pedagogik samarasi uning yangiligiga emas, qanday maqsadda, qaysi metod bilan va qanday axloqiy sharoitda qo‘llanishiga bog‘liq. Ta’lim oluvchi raqamli vositani tez ishlata olishi mumkin, biroq tekshirilmagan xabarni tarqatishi, boshqalarning shaxsiy ma’lumotini oshkor qilishi yoki sun’iy intellekt yaratgan materialni o‘z nomidan taqdim etishi uning raqamli faoliyatida qadriyatli boshqaruv mexanizmi yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Taklif etilgan konsepsiyaning ilmiy yangiligi raqamli madaniyatning texnik, kognitiv va faoliyatli jihatlarini axloqiy-ma’naviy qadriyatlar, kommunikativ mas’uliyat, xavfsizlik va refleksiya bilan yagona pedagogik tizimda birlashtirganida namoyon bo‘ladi. Unda axloqiy qadriyatlar raqamli faoliyatga tashqaridan qo‘shiladigan qoida emas, balki axborotni tanlash, kontent yaratish, muloqot qilish va qaror qabul qilishni boshqaruvchi ichki mexanizm sifatida talqin etiladi. Shu sababli taqiq va doimiy tashqi nazoratga tayangan yondashuv o‘rniga ongli tanlov, ichki mas’uliyat va o‘zini o‘zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor hisoblanadi.

Sun’iy intellektning ta’limga kirib kelishi mazkur muammoning yangi qirralarini yuzaga chiqarmoqda. Generativ tizimlar g‘oya ishlab chiqish, ma’lumotni tartiblash va individual yordam ko‘rsatishda samarali bo‘lishi mumkin. Biroq ularning natijasini tekshirmasdan qabul qilish, mualliflikni yashirish, shaxsiy yoki maxfiy ma’lumotlarni tizimga kiritish mustaqil tafakkur, akademik halollik va raqamli xavfsizlikka tahdid tug‘diradi. O‘zbek tadqiqotchisi N. Atakulova talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, texnologik imkoniyatlarni insoniy qadriyatlar, mustaqil fikrlash va shaxsiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Demak, sun’iy intellekt fikrlash o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki inson nazorati ostida qo‘llanadigan intellektual yordamchi sifatida o‘rgatilishi zarur [7, B. 132].

Onlayn makonda yuzma-yuz aloqa belgilarining kamayishi, tezkor javob berish bosimi va anonimlik qo‘pol munosabat, kamsitish yoki kiberbulling xavfini kuchaytiradi. Shuning uchun netiket faqat yozishma qoidalari emas, balki qarshidagi insonning qadr-qimmati va hissiyotlarini tan olish, fikrlar xilma-xilligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, nizoni konstruktiv hal etish hamda tarqatilayotgan kontentning ijtimoiy ta’sirini oldindan baholash qobiliyatidir. X.M. Xasanov mediasavodxonlikni axborotni tanqidiy tahlil qilish, manba ishonchliligini tekshirish va manipulyativ kontentga qarshi ongli munosabatni shakllantiruvchi kompetensiya sifatida yoritadi. M. Ribble esa raqamli fuqarolikda hurmat, ta’lim va himoya elementlarining o‘zaro birligini asoslaydi [3; 10, P. 29–46].

Konsepsiyaning amaliy ahamiyati uning asosida maxsus modul, tarbiyaviy dastur, diagnostik vosita, elektron portfolio topshiriqlari va raqamli axloq kodeksini ishlab chiqish mumkinligi bilan belgilanadi. Mazkur mazmun faqat informatika yoki axborot texnologiyalari faniga yuklanmasligi kerak. Filologiyada manba va tarjima etikasi, pedagogik fanlarda elektron baholashning adolatliligi, iqtisodiy yo‘nalishlarda ma’lumotlar maxfiyligi, tabiiy fanlarda ilmiy natijalarni halol taqdim etish, mustaqil

ta’limda esa sun’iy intellektdan oshkora va mas’uliyatli foydalanish orqali raqamli madaniyat fanlararo rivojlantiriladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida raqamli madaniyat raqamli savodxonlik va kompetentlikni qamrab oladigan, biroq ulardan qadriyatli, axloqiy-huquqiy, kommunikativ va refleksiv mazmunining kengligi bilan farqlanadigan integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin etildi. Mazkur sifat qadriyatli-motivatsion, kognitiv, axloqiy-kommunikativ, faoliyatli-xavfsizlik va refleksiv komponentlar birligida shakllanadi. Uni rivojlantirish aksiologik, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, madaniy, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlar integratsiyasiga asoslanishi lozim.

Taklif etilgan model ta’lim mazmuniga raqamli etika, mediasavodxonlik, akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanishni fanlararo integratsiya qilishni nazarda tutadi. Real axloqiy dilemmalar, raqamli keys, elektron portfolio, o‘zini o‘zi baholash va ekspert bahosidan foydalanish talabaning nafaqat bilimini, balki real raqamli xatti-harakatini ham aniqlash imkonini beradi. Konsepsiyaning amaliyotga tatbiq etilishi axborotni tanqidiy baholaydigan, boshqalarning huquq va qadr-qimmatini hurmat qiladigan, xavfsiz va halol kontent yarata oladigan hamda o‘z raqamli faoliyati natijalariga mas’uliyat bilan yondashadigan mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.

2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

3. Xasanov X.M. Talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish va uning ijtimoiy ahamiyati // IQRO jurnali. – 2025. – Jild 17, 1-son. – B. 143–147. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.iqro.135963.

4. Mavlonova K. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning mediasavodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2024. – Jild 2, 2/S-son. – B. 51–58. – DOI: 10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp51-58.

5. Turgunov B.R. Raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari // “Maktabgacha ta’lim taraqqiyoti: muammo, yechim va istiqbol” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2025. – B. 590–591. – DOI: 10.5281/zenodo.15255345.

6. Choriyev I.G‘., Eshqorayev A.I. Raqamli pedagogika ta’lim xizmatlari sifatini oshirish omili // Journal of Universal Science Research. – 2025. – Jild 3, 1-son. – B. 80–85. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.universal-scientific-research.63782.

7. Atakulova N. Global ta’lim muhitida talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan sun’iy intellektning o‘rni // “Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya qilish: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2025. – B. 132–134.

8. Umarova F. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik madaniyatni rivojlantirish omillari // Pedagogika va psixologiya zamonaviy dunyoda: nazariy va amaliy tadqiqotlar. – 2025. – B. 90–92. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdpp.130175.

9. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / ed. by Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p. – DOI: 10.2760/159770.

10. Ribble M. Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know. – 3rd ed. – Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2015. – 212 p.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH SIYOSATI

Xayitov Akmal Xolboyevich
Renessans ta'lim universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar oliy maktabi direktori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
akmalxolboyevich88@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ichki ta'lim sifatini ta'minlash siyosatining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari va uni amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarishning strategik ahamiyati, manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga yo'naltirilganlik, akademik halollik, uzluksiz takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashuv masalalari ham yoritiladi. Shuningdek, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va muntazam monitoring qilish, professor-o'qituvchilar salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda tashqi va ichki sifat nazorati mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim muassasalarida sifat madaniyatini shakllantirish va ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar universitetlarning ichki sifat tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, sifat siyosati, oliy ta'lim, ichki sifatni ta'minlash, sifat madaniyati, akademik halollik, monitoring, akkreditatsiya, raqamlashtirish.

INTERNAL QUALITY ASSURANCE POLICY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the essence, key principles and implementation mechanisms of internal quality assurance policy in higher education institutions. It highlights the strategic importance of quality management in education, stakeholder-oriented approaches, academic integrity, continuous improvement and compliance with international standards. The study also explores the development and monitoring of educational programmes, the enhancement of academic staff capacity, the integration of digital technologies and the interrelationship between internal and external quality assurance mechanisms. Based on the findings, scientific conclusions and practical recommendations are proposed to foster a quality culture and ensure the sustainable development of educational quality in higher education institutions.

Key words: educational quality, quality policy, higher education, internal quality assurance, quality culture, academic integrity, monitoring, accreditation, digitalization.

Kirish: Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va mehnat bozori talablarining keskin o'zgarishi oliy ta'lim tizimiga yangi vazifalarni yuklamoqda. Zamonaviy universitetlar nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki innovatsiyalar markazi, ilmiy tadqiqotlar generatori hamda inson kapitalini rivojlantiruvchi strategik institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli ta'lim sifatini ta'minlash va boshqarish masalasi oliy ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda sifat tushunchasi faqat ta'lim natijalari bilan emas, balki o'quv jarayonining tashkil etilishi, ta'lim dasturlarining dolzarbligi, professor-o'qituvchilar salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasi bilan ham belgilanadi. Mazkur omillarni yagona tizim asosida boshqarish ichki ta'lim sifatini ta'minlash siyosati orqali amalga oshiriladi. Ta'lim kampusi -yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti [1]

Ichki sifatni ta'minlash tizimi universitet faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi kompleks boshqaruv mexanizmi bo'lib, strategik maqsadlarga erishish, ta'lim natijalarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashishni ta'minlaydi.

Ta'lim sifati tushunchasi pedagogika, menejment va iqtisodiyot fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab kategoriyadir. UNESCO va ESG (European Standards and Guidelines for Quality Assurance in Higher Education) hujjatlarida ta'lim

sifati ta’lim xizmatlarining manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga mosligi hamda belgilangan natijalarga erishish darajasi sifatida talqin etiladi. Ta’lim sifatini belgilovchi asosiy jihatlar quyudagilardan iborat.[2]

- o‘quv dasturlarining mazmuni;
- o‘qituvchi malakasi;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv muhitining sharoiti;

natijalar.

- baholash tizimi;

Oliy ta’lim muassasasining sifat siyosati uning strategik rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Sifat siyosatining asosiy maqsadi ta’lim jarayonlarining samaradorligini oshirish, ta’lim dasturlarining raqobatbardoshligini ta’minlash va sifat madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, ta’lim sifati masalasi oliy ta’lim tizimining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Olimlar Harvey va Green (1993) ta’lim sifatini manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida tavsiflaydi. Deming va Juran sifat siyosatini tashkilotning sifat bo‘yicha strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi boshqaruv instrumenti sifatida izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasasining ta’lim sifati siyosati ta’lim jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan strategik boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. [3-9-34]

Sifat siyosatini to‘ldiruvchi muhim omillardan biri bu sifat madaniyati hisobllanadi. Sifat madaniyati universitet jamoasining barcha a’zolari tomonidan sifatni ustuvor qadriyat sifatida qabul qilishini anglatadi. Bunday yondashuvda har bir xodim va talaba ta’lim sifati uchun ma’lum darajada javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Natijada sifatni boshqarish faqat ma’muriy nazorat vositasi emas, balki universitetning kundalik faoliyatiga singib ketgan madaniy jarayonga aylanadi.

Ta’lim sifati siyosatini shakllantirishda strategik muvofiqlik, manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilganlik, akademik halollik va shaffoflik, uzluksiz takomillashtirish, natijadorlik, innovatsion rivojlanish hamda xalqaro standartlarga moslik tamoyillariga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Strategik muvofiqlik tamoyili: Oliy ta’lim muassasasining rivojlanish strategiyasi bilan sifatni boshqarish tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, ta’lim sifati faqat kundalik o‘quv jarayonlari bilan emas, balki universitetning uzoq muddatli maqsadlari, ya’ni ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro reytinglarda o‘rin egallash va mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bilan ham uyg‘un bo‘lishi kerak.

Statistik ma’lumotlar bu tamoyilning amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, YuNESKO va OECD tahlillariga ko‘ra, strategik rejalashtirish va sifat tizimi integratsiyalashgan universitetlarda bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi o‘rtacha 15-25 foizga yuqori bo‘ladi. Shuningdek, bunday OTMlarda ilmiy maqolalar chop etish ko‘rsatkichi 20-30 foizgacha oshishi qayd etilgan. Bu esa strategik muvofiqlikning nafaqat ta’lim sifati, balki ilmiy faoliyat samaradorligiga ham bevosita ta’sir qilishini bildiradi.

Bundan tashqari, xalqaro reyting tizimlari (masalan, QS va Times Higher Education) ham universitetlarning strategik boshqaruviga alohida e’tibor beradi. Ushbu reytinglarda yuqori o‘rinni egallagan OTMlarning aksariyati sifat siyosatini strategik rejalarga integratsiya qilganligi bilan ajralib turadi.[4]

Manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilganlik tamoyili: oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifati va uning natijadorligini oshirishda asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, ta’lim jarayoni faqat akademik mazmun bilan cheklanib qolmay,

balki asosiy manfaatdor tomonlar - talabalar, ish beruvchilar, bitiruvchilar hamda jamiyat ehtiyojlari asosida shakllantiriladi.

Statistik ma'lumotlar bu tamoyilning amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, xalqaro mehnat bozori tahlillariga ko'ra, ish beruvchilarning 60-70 foizdan ortig'i bitiruvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar va yumshoq kompetensiyalar (soft skills) yetishmasligini ta'kidlaydi. Shu sababli, manfaatdor tomonlar fikri inobatga olingan ta'lim dasturlarida bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, bunday yondashuv qo'llanilgan OTMlarda ishga joylashish ko'rsatkichi 15-30 foizgacha oshishi mumkin. Shuningdek, talabalar qoniqish darajasi ham bevosita ushbu tamoyil bilan bog'liq. O'quv dasturlari mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan universitetlarda talabalar qoniqish indeksi o'rtacha 20 foizga yuqori qayd etiladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, universitetning ijtimoiy nufuzini ham mustahkamlaydi. [5]

Akademik halollik va shaffoflik tamoyili oliy ta'lim tizimida o'qitish, baholash va boshqaruv jarayonlarining adolatli, ochiq va ishonchli tarzda tashkil etilishini ta'minlaydi. Ushbu tamoyilga ko'ra, har bir akademik faoliyat - imtihonlar, ilmiy ishlar, kredit tizimi va boshqaruv qarorlari - aniq mezonlar asosida, manfaatlar to'qnashuvisiz va adolat tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Statistik tahlillar akademik halollikning ta'lim sifati va universitet nufuziga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, akademik halollik siyosati kuchli joriy etilgan universitetlarda talabalarning o'qishdan qoniqish darajasi 20-25 foizga yuqori bo'ladi. Shuningdek, plagiatga qarshi tizimlar va shaffof baholash mexanizmlari joriy etilgan OTMlarda ilmiy ishlar sifati va xalqaro nashrlar soni ham sezilarli darajada oshishi kuzatiladi.

Shu bilan birga shaffoflik darajasi yuqori bo'lgan ta'lim muassasalarida ishonch indeksi ham kuchli bo'ladi. Bu esa nafaqat talabalar, balki ish beruvchilar va jamiyat tomonidan ham universitetga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Natijada, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshadi.[5]

Uzluksiz takomillashtirish tamoyili sifatni boshqarish tizimining fundamental falsafasini ifodalaydi va ta'lim muassasasida barcha akademik hamda boshqaruv jarayonlarini doimiy ravishda rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, sifat bir martalik natija emas, balki muntazam monitoring, tizimli tahlil va qayta aloqaga asoslangan uzluksiz jarayondir.

Mazkur yondashuv doirasida ichki auditlar, talaba va ish beruvchilardan olinadigan so'rovnomalar, o'quv natijalarini baholash hamda akademik faoliyat samaradorligini tahlil qilish orqali mavjud holat doimiy ravishda o'rganiladi. Olingan natijalar asosida o'quv dasturlari, o'qitish metodikalari va boshqaruv mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashtirib boriladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, uzluksiz takomillashtirish tamoyilini tizimli joriy etgan oliy ta'lim muassasalarida sifat ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday universitetlarda ta'lim jarayonlarining samaradorligi oshib, talabalar qoniqish darajasi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada yaxshilanadi.[2]

Natijadorlik tamoyili ta'lim faoliyatining samaradorligi erishilgan real natijalar asosida baholanishini nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, oliy ta'lim muassasasining barcha jarayonlari-o'qitish, ilmiy-tadqiqot faoliyati va boshqaruv tizimi-oldindan belgilangan strategik maqsadlarga qanchalik darajada erishilganligi bilan o'lchanadi. Ya'ni, jarayonning o'zi emas, balki uning yakuniy natijasi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Statistik tahlillar natijadorlik tamoyilining ta'lim sifati va institutsional rivojlanishdagi muhim rolini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, xalqaro ta'lim monitoringi ma'lumotlariga ko'ra, natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimi joriy etilgan

universitetlarda bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi o‘rtacha 18-28 foizga yuqori bo‘ladi. Shuningdek, bunday OTMlarda ilmiy mahsuldorlik – ya’ni Scopus yoki Web of Science bazalarida indekslanadigan maqolalar soni – 20-35 foizgacha oshishi kuzatiladi.

Bundan tashqari, natijadorlik yondashuvi qo‘llanilgan ta’lim tizimlarida resurslardan foydalanish samaradorligi ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Masalan, ayrim xalqaro universitetlar tajribasida boshqaruv samaradorligi oshishi natijasida xarajatlar optimallashtirilib, bir talabaga to‘g‘ri keladigan ta’lim sifati ko‘rsatkichlari 30-40 foizgacha yaxshilangan. Shuningdek, talabalar qoniqish darajasi ham bevosita natijadorlik tamoyiliga bog‘liq bo‘lib, aniq KPI va baholash tizimlari joriy etilgan OTMlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 20-35 foizga yuqoriroq ekani qayd etilgan.[5]

Innovatsion rivojlanish tamoyili oliy ta’lim muassasasining ta’lim, ilmiy-tadqiqot va boshqaruv jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli yechimlar hamda innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etishga asoslanadi. Ushbu tamoyil ta’lim tizimining statik emas, balki doimiy yangilanib boruvchi va o‘zgaruvchan tashqi muhit talablariga tez moslasha oladigan dinamik tizim bo‘lishini ta’minlaydi.

Statistik ma’lumotlar innovatsion yondashuvlarning ta’lim sifatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Masalan, UNESCO va World Bank tahlillariga ko‘ra, raqamli ta’lim platformalari va blended learning (aralash ta’lim) tizimi joriy etilgan universitetlarda o‘quv samaradorligi o‘rtacha 50-60 foizga oshgan. Shuningdek, onlayn ta’lim va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish texnologiyalaridan foydalangan OTMlarda talabalar bilimni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy usullarga nisbatan 35-45 foizga yuqori ekanligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, innovatsion rivojlanish tamoyili ilmiy faoliyatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli laboratoriyalar, ochiq ilmiy resurslar va xalqaro hamkorlik platformalaridan foydalangan universitetlarda ilmiy maqolalar soni 25-35 foizgacha oshgani kuzatiladi. Bu esa universitetning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi.[6]

Xalqaro standartlarga moslik tamoyili oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini ta’minlash jarayonlarini xalqaro talablar, mezonlar va ilg‘or tajribalar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyil ta’lim dasturlari, baholash tizimlari, ilmiy faoliyat va boshqaruv mexanizmlarining global akademik standartlarga mosligini ta’minlash orqali universitetning xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlar tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida bitiruvchilarning diplomlari tan olinishi darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lib, ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, Yevropa universitetlari tajribasiga ko‘ra, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan OTMlarda talabalar almashinuvi dasturlarida ishtirok etish darajasi 25-40 foizgacha yuqoriroq bo‘ladi.

Xalqaro standartlarga moslashgan universitetlarda ilmiy hamkorlik loyihalari soni ham sezilarli oshadi. Masalan, OECD ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro akkreditatsiyaga ega muassasalarda qo‘shma tadqiqotlar va grantlar ulushi 20-35 foizgacha ko‘proq ekanligi qayd etilgan. Bu esa ilmiy salohiyatni oshirish bilan birga, universitetning global reytinglardagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sifati siyosatini ta’minlashda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish markaziy o‘rin egallaydi. Ta’lim dasturi oliy ta’lim sifatining asosiy tizim tashkil etuvchi elementi bo‘lib, u universitetning strategik maqsadlari va sifat siyosatini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, ta’lim dasturlari kompetensiyaviy model asosida ishlab chiqilib, aniq va o‘lchanadigan ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Xalqaro ta’lim standartlari, xususan ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) hamda natijalarga asoslangan ta’lim

yondashuvlari ta’lim dasturlarining markazida bilim hajmi emas, balki bitiruvchilarning egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalar va amaliy ko‘nikmalar turishini taqozo etadi. Shu jihatdan ta’lim dasturi sifat siyosatining amaliy ifodasi sifatida qaraladi.

Ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida professor-o‘qituvchilar bilan bir qatorda ish beruvchilar, talabalar, bitiruvchilar hamda mustaqil ekspertlarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ko‘p tomonlama yondashuv ta’lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta’minlash bilan birga, uning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shuningdek, ta’lim dasturlarida fanlararo integratsiya, tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yechimlaridan foydalanish kabi zamonaviy yo‘nalishlarning aks etishi bugungi oliy ta’lim tizimi uchun dolzarb hisoblanadi.

Ta’lim dasturlarining davriy monitoringi va qayta ko‘rib chiqilishi ularning dolzarbligini saqlab qolish va sifatini doimiy oshirib borishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar fikri, bitiruvchilarning kasbiy faoliyati natijalari hamda talabalar qoniqish darajasi asosiy indikatorlar sifatida qo‘llaniladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, manfaatdor tomonlar ishtirokida takomillashtirilgan ta’lim dasturlari bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichini sezilarli darajada oshiradi hamda universitetning akademik va kasbiy nufuzini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, ta’lim dasturlarini tizimli ravishda ishlab chiqish va takomillashtirish oliy ta’lim muassasasining sifat siyosatini samarali amalga oshirishning asosiy sharti bo‘lib, u ta’lim sifati, mehnat bozori talablari va xalqaro raqobatbardoshlik o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.[7]

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim va baholash tizimi

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabaga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi ustuvor pedagogik paradigma sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu yondashuv konstruktivistik ta’lim nazariyasiga asoslanib, talabaning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda talaba ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki bilimni faol shakllantiruvchi subyekt sifatida qaraladi.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi quyidagi asosiy imkoniyatlarni yaratadi:

- individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish;
- tanlov fanlari asosida moslashuvchan o‘quv rejasini ishlab chiqish;
- akademik mobillik imkoniyatlarini kengaytirish;
- mustaqil ta’lim ulushini oshirish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatiga erta jalb etish.

Baholash tizimi esa talabaga yo‘naltirilgan ta’limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shaffoflik, xolislik va aniq mezonlarga asoslanganlik tamoyillari asosida tashkil etilishi lozim. Ushbu tizimda elektron baholash platformalari, apellyatsiya mexanizmlari hamda muntazam qayta aloqa (feedback) jarayonlari baholashning adolatli va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.[9]

Ta’lim sifati siyosatini samarali amalga oshirish nuqtai nazaridan talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini institutsional darajada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda universitetda professor-o‘qituvchilar, talabalar va ish beruvchilar vakillaridan iborat Sifat kengashini tashkil etish taklif etiladi. Mazkur kengash ta’lim sifatini monitoring qilish, muammolarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tizimli boshqaruv mexanizmini shakllantiradi.

Ichki monitoring natijalariga ko‘ra, so‘nggi ikki o‘quv yilida talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida nomutanosibliklar kuzatilgan bo‘lib, 16 foiz talabalar qoniqarsiz, 33 foizi qoniqarli, atigi 9 foizi esa a’lo darajada baholangan. Ushbu holat ta’lim jarayonlarida individual yondashuvni kuchaytirish va baholash tizimini

takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Natijada, kelgusida a’lo va yaxshi bahoga erishuvchi talabalar ulushini 80-85 foizgacha yetkazish maqsad qilib qo‘yiladi.[14]

Shuningdek, talabalar dars mashg‘ulotlaridagi ishtirokini oshirish muhim indikatorlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, hozirgi 68-72 foizlik ko‘rsatkichni 88-95 foizgacha yetkazish choralari ko‘riladi. Ushbu maqsadga erishishda o‘quv jarayonlarini interaktiv metodlar asosida tashkil etish va raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim sifati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fakultetlar kesimida talabalar orasidan **“Sifat koordinatori”** institutini joriy etish taklif etiladi. Ushbu tizim orqali talabalar qoniqish darajasi har semestrda anonim so‘rovnomalar asosida muntazam o‘rganilib boriladi va aniqlangan muammolar bo‘yicha tezkor tuzatish choralari ko‘riladi. Natijada talabalarning ta’lim xizmatlaridan qoniqish darajasini 85-90 foizga yetkazish rejalashtiriladi.

Bundan tashqari, universitetda sifat madaniyatini shakllantirish maqsadida har semestr **“Sifat haftaligi”**ni tashkil etish, uning doirasida eng faol professor-o‘qituvchilar va talabalarni aniqlash hamda ularni **“Sifat elchisi”** nominatsiyasi bilan rag‘batlantirish tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv akademik halollik, innovatsion faollik va sifatga yo‘naltirilganlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.[13]

Shuningdek, kafedralar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida o‘quv jarayoni sifati, talabalar o‘zlashtirishi, ilmiy faoliyat natijalari, ish beruvchilar bilan hamkorlik hamda talabalar qoniqish darajasi asosida **“Eng yaxshi kafedra”** reyting tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu reyting natijalariga ko‘ra yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan kafedralarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimi orqali qo‘llab-quvvatlash ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Professor-o‘qituvchilar salohiyati va sifatni boshqarish

Professor-o‘qituvchilar oliy ta’lim sifatining asosiy subyekti hisoblanadi. Shu sababli sifat siyosatida kadrlarni tanlash, rivojlantirish va rag‘batlantirish masalalari alohida o‘rin tutadi.

Universitetlarda meritokratiya tamoyili asosida kadrlarni tanlash, malaka oshirish dasturlarini muntazam tashkil etish va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Statestik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim pedagoglarning darslari talabalarda yetarli qiziqish uyg‘ota olmaydi. Buning asosiy sabablari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi, nazariya va amaliyot integratsiyasining yetarli emasligi, interaktiv metodlarning kam qo‘llanilishi hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlari bilan bog‘liq.

Professor-o‘qituvchilarni ishga saralab olishning uch bosqichli mexanizimini joriy qilish. Bunda: tanlov e’lon qilish, suhbat asosida baholash va, layoqat testidan o‘tkazishni belgilash. Tanlab olingan professor-o‘qituvchilarning tegishli ma’lumotidan kelib chiqib fanlarni taqsimlash, mutaxassisligi mos kelmagan fanlarni yuklama chiqarish uchun taqsimlashga yo‘l qo‘ymaslik, bir professor-o‘qituvchiga taqsimlanadigan fanlar sonini ko‘pi bilan (bir o‘quv yilida) 5 tagacha fan taqsimlash, pedagoglarga qo‘shimcha soat chiqarish uchun o‘quv rejaga tanlov fani kiritish mexanizimidan vos kechish, tanlov fanlarni mehnat bozorining talablari va malaka talabining xususiyatidan kelib chiqib o‘quv rejaga kiritish sifatni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.

Har oy kafedra kesimida o‘tilmagan darslar reytingini aniqlash, o‘tilmagan darsning o‘rnini bosuvchi mashg‘ulot rejasini tuzish va fakultet dekani tomonidan tasdiqlash, professor-o‘qituvchi KPIni baholashda talabalarning fanni o‘zlashtirish darajasini va fanga ishtirok etish davomatini hisobga olish.

Shuningdek, professor-o‘qituvchilar faoliyatini KPI tizimi orqali baholash va

innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash sifat ko‘rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi.[10]

Raqamli transformatsiya oliy ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy universitetlarda HEMIS, LMS, elektron kutubxona, KPI platformalari va boshqa axborot tizimlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborotni boshqarish tizimi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta’lim natijalarini monitoring qilish;
- talabalar o‘zlashtirishini tahlil qilish;
- bitiruvchilar bandligini kuzatish;
- manfaatdor tomonlar qoniqishini o‘rganish;
- boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish.

Raqamlashtirish natijasida ta’lim jarayonining ochiqligi, shaffofligi va tezkorligi ta’minlanadi hamda sifat nazorati samaradorligi oshadi.

Oliy ta’lim sifatini ta’minlash faqat ichki nazorat bilan cheklanib qolmaydi. Akkreditatsiya, reytinglar, litsenziyalash va tashqi ekspertiza kabi mexanizmlar universitet faoliyatining mustaqil baholanishini ta’minlaydi.

Tashqi baholash natijalari universitetga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, rivojlanish istiqbollarini belgilash hamda xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi. Shu bois ichki va tashqi sifat tizimlari bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida qaralishi lozim.

Sifatni ta’minlashning samarali modeli ichki monitoring natijalari va tashqi baholash xulosalarini yagona boshqaruv tizimida uyg‘unlashtirish orqali shakllanadi.[12]

Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida ichki ta’lim sifatini ta’minlash siyosati universitet rivojlanishining strategik omili hisoblanadi. Sifat siyosati ta’lim dasturlarini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilar salohiyatini rivojlantirish, talabaga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Ichki sifat tizimining samaradorligi manfaatdor tomonlar ishtiroki, akademik halollik, uzluksiz monitoring va xalqaro standartlarga moslik bilan belgilanadi. Shu bilan birga, sifat madaniyatini shakllantirish oliy ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Kelgusida universitetlarda “Universitet 5.0” modeli, sun’iy intellekt texnologiyalari va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 3-moddasi– Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 7-moddasi– Toshkent, 2020

3. A.Harvey, L., Green, D. Defining Quality // Assessment & Evaluation in Higher Education. – 1993. – Vol. 18, No. 1. – P. 9–34. – DOI: 10.1080/0260293930180102.

4. ENQA. (2015). Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG), Standard.

5. Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti-Toshkent-2021.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

7. ESG – Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area. Brussels, 2015.

8. UNESCO. Quality Assurance in Higher Education: A Practical Guide. Paris, 2022.

9. Oliy ta’limning Milliy kvalifikatsiyalar ramkasi. Toshkent, 2024.

10. Harvey L., Green D. Defining Quality in Higher Education. Higher Education Journal.

11. Sallis E. Total Quality Management in Education. London: Routledge.

12. Barnett R. Improving Higher Education. Buckingham: SRHE and Open University Press.

13. Quality Culture in Higher Education. European University Association Reports.

14. Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi. Nizom-Toshkent 2018.

MAGISTRANTNING INDIVIDUAL ILMIY-TADQIQOT TRAYEKTORIYASINI ELEKTRON PORTFOLIO ASOSIDA BOSHQARISH MEXANIZMI

Parmanov Jamshid Tag‘oymuratovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat texnika universiteti
jamshidparmanov1987@gmail.com
ORCID 0009-0008-8225-2194
UDK 378.22:001.891

Annotatsiya. Maqolada magistrantlarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini individual ilmiy-tadqiqot trayektoriyasi va elektron portfolio asosida rivojlantirish mexanizmi asoslanadi. Kompetensiyaviy, refleksiv va o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish yondashuvlari uyg‘unlashtirilib, individual tadqiqot xaritasi, nazorat nuqtalari, portfolio dalillari va formativ qayta aloqa yagona boshqaruv sikliga birlashtiriladi. Elektron portfolio yakuniy ishlar arxivi sifatida emas, balki muammo qo‘yish, manbalarni tahlil qilish, metod tanlash, empirik dalillarni qayta ishlash, matnni tahrirlash hamda refleksiya dinamikasini ko‘rsatuvchi vosita sifatida talqin etiladi. Taklif etilgan mexanizm pedagogga rivojlanishdagi uzilishlarni erta aniqlash, magistrantga esa tadqiqot qarorlarini dalillar asosida boshqarish imkonini beradi. Mexanizmning amaliy ahamiyati individual farqlarni hisobga olish, monitoringni shaffoflashtirish va metodologik mustaqillikni bosqichma-bosqich rivojlantirish bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: magistratura, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi, individual trayektoriya, elektron portfolio, o‘zini o‘zi boshqarish, monitoring, formativ baholash, refleksiya.

MECHANISM FOR MANAGING A MASTER’S STUDENT’S INDIVIDUAL RESEARCH TRAJECTORY BASED ON AN ELECTRONIC PORTFOLIO

Abstract. This article substantiates a mechanism for developing master’s students’ research competence through an individual research trajectory and an electronic portfolio. Competency-based, reflective and self-regulated learning approaches are integrated into a single management cycle that combines an individual research map, milestone monitoring, portfolio evidence and formative feedback. The electronic portfolio is interpreted not as an archive of final products but as a structured record of problem formulation, literature analysis, methodological choice, empirical work, academic writing, revision and reflection. The mechanism enables supervisors to identify developmental gaps early and helps students justify their research decisions with evidence, thereby supporting gradual methodological independence.

Key words: master’s education, research competence, individual trajectory, electronic portfolio, self-regulated learning, monitoring, formative assessment, reflection.

Kirish. Magistratura bosqichi oliy ta’limning ilmiy-tadqiqot faoliyati eng aniq namoyon bo‘ladigan darajalaridan biridir. Magistrantdan nafaqat muayyan fan sohasidagi bilimlarni chuqur egallash, balki mustaqil ilmiy muammoni ko‘ra olish, tadqiqot savolini asoslash, manbalarni tanqidiy tahlil qilish, adekvat metod tanlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, natijalarni ilmiy mantiq asosida talqin etish hamda ularni akademik shaklda taqdim etish kutiladi. Bunday kompleks faoliyat bir martalik topshiriq orqali emas, balki izchil rivojlanadigan kompetensiyalar tizimi sifatida shakllanadi. Kompetensiyani rivojlantirishda shaxsning o‘z kuchiga ishonchi va faoliyatni boshqarish qobiliyati muhim ekanligi Bandura tomonidan asoslangan [1], o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish esa maqsad qo‘yish, bajarishni nazorat qilish va natijani refleksiv baholash sikli bilan bog‘lanadi [2].

Amaliyotda magistrantning ilmiy faoliyati ko‘pincha kalendar reja bajarilishi, dissertatsiya boblarining tayyorlik darajasi yoki yakuniy himoya natijasi orqali nazorat qilinadi. Mazkur nazorat shakllari zarur bo‘lsa-da, ular rivojlanish jarayonining ichki mantiqini to‘liq ko‘rsatmaydi. Masalan, ikki magistrant bir vaqtda adabiyotlar sharhini topshirishi mumkin, biroq birinchisi manbalarni tahliliy sintez qilgan, ikkinchisi esa ularni ketma-ket qayta hikoya qilgan bo‘lishi ehtimol. Shuningdek, tayyor metodika bo‘limi mavjudligi magistrantning metodni nima uchun tanlaganini tushunishini kafolatlamaydi. Demak, nazorat tayyor mahsulotni qayd etishdan tashqari ilmiy qarorning qanday shakllanganini ham ko‘rsatishi lozim.

Formativ baholash va sifatli qayta aloqa talabaning o‘z faoliyatini nazorat qilishiga yordam berishi, uning o‘z-o‘zini baholash va korreksiya qilish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin [3]. Qayta aloqani faqat pedagog tomonidan beriladigan izoh sifatida talqin qilish

cheklangan; zamonaviy yondashuvda talaba feedbackni qabul qiluvchi emas, undan foydalanuvchi va zarur bo‘lganda uni izlovchi faol subyekt sifatida qaraladi [4]. Shu nuqtai nazardan magistrantning ilmiy faoliyatini individual tadqiqot trayektoriyasi sifatida tashkil etish va bu trayektoriyaning dalillarini elektron portfolio orqali qayd etish istiqbolli metodik yechimdir.

Portfolio yondashuvi baholashning faqat yakuniy natijaga qaratilgan shaklidan rivojlanish dalillariga qaratilgan shakliga o‘tish imkonini beradi. Elektron portfolio turli bosqichlarda yaratilgan ilmiy mahsulotlar, ularning tahrirlangan variantlari, rahbar va tengdoshlarning izohlari, magistrantning refleksiv yozuvlari hamda keyingi qarorlarini bir tizimda ko‘rsatishi mumkin. Barrett elektron portfolioning ta’limiy qiymatini o‘quvchi faolligi, refleksiya va “assessment for learning” bilan bog‘laydi [6]. Shu sababli e-portfolio magistrlik dissertatsiyasining tayyor fayllari saqlanadigan papka emas, balki kompetensiya rivojlanishining izchil dalillarini namoyon qiluvchi pedagogik muhit sifatida tashkil etilishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi magistrantning individual ilmiy-tadqiqot trayektoriyasini elektron portfolio asosida boshqarish mexanizmini ishlab chiqish, uning tarkibiy qismlari va ishlash algoritmini ilmiy-metodik jihatdan asoslash hamda mazkur mexanizmning magistrant metodologik mustaqilligini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha qo‘yildi: individual tadqiqot xaritasi, bosqichli monitoring, elektron portfolio dalillari va refleksiv qayta aloqa qanday yagona tizimga birlashtirilsa, magistrantning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi rivojlanishini shaffof va boshqariladigan jarayon sifatida tashkil etish mumkin?

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola konseptual-metodik tadqiqot xarakteriga ega. Unda tizimli tahlil, kompetensiyaviy yondashuv, o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish nazariyasi, refleksiv ta’lim, formativ baholash va elektron portfolio yondashuvlari integratsiya qilindi. Tizimli yondashuv individual ilmiy faoliyatning alohida topshiriqlar yig‘indisi emas, o‘zaro bog‘langan qarorlar ketma-ketligi ekanini ko‘rsatish uchun qo‘llandi. Kompetensiyaviy yondashuv esa natijani faqat bilim hajmi bilan emas, real tadqiqot vaziyatida bilim, ko‘nikma, mas’uliyat va refleksiyani birgalikda qo‘llay olish bilan bog‘lash imkonini berdi [9].

Metodik konstruksiyani ishlab chiqishda Kolbning tajribaviy o‘rganish siklidagi tajriba, kuzatish, konseptuallashtirish va faol sinash g‘oyalaridan [7], Schönning refleksiv amaliyot konsepsiyasidan [8], hamda o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishning maqsad qo‘yish–monitoring–refleksiya siklidan [2] foydalanildi. Bu nazariy asoslar tadqiqot faoliyatini “bir marta bajariladigan topshiriq” emas, natija va feedback asosida qayta ko‘rib chiqiladigan jarayon sifatida qurishga imkon berdi.

Maqolada tahlil birligi sifatida magistrantning alohida topshirig‘i emas, uning muayyan ilmiy qarori qabul qilindi. Har bir ilmiy qaror beshta element orqali tavsiflandi: vazifa, tanlangan yechim, yechimni asoslovchi dalil, olingan natija va keyingi korreksiya. Shu asosda umumiy sikl quyidagicha ifodalandi: “muammo → maqsad → tadqiqot savoli → manba → metod → dalil → tahlil → xulosa → refleksiya”. Har bir bo‘g‘in keyingi bo‘g‘inga o‘tish sharti sifatida qaraldi.

Elektron portfolio tarkibini belgilashda uch xil dalil guruhi ajratildi: jarayon dalillari, mahsulot dalillari va refleksiya dalillari. Jarayon dalillariga qidiruv strategiyasi, tadqiqot rejasining versiyalari, metod tanlash asoslari va feedback yozuvlari; mahsulot dalillariga adabiyotlar sintezi, instrumentlar, jadvallar, diagrammalar, maqola yoki dissertatsiya parchalari; refleksiya dalillariga esa magistrantning “nima o‘zgardi, nima uchun o‘zgardi va keyingi qadam nima?” savollariga javoblari kiritildi. Bunday tasnif elektron portfolio faqat namoyish portfolioga aylanib qolishining oldini oladi.

Taklif etilgan mexanizmning baholash logikasi summativ natijadan ko‘ra formativ rivojlanishga yo‘naltirildi. Black va Wiliamning formativ baholash bo‘yicha ishlari [5]

hamda Nicol va Macfarlane-Dickning feedback orqali o‘zini o‘zi boshqarishni qo‘llab-quvvatlash tamoyillari [3] asosida har bir nazorat nuqtasida to‘rt mezon belgilandi: ilmiy qarorning aniqligi, dalillilik darajasi, mustaqillik darajasi va korreksiya sifati. Mazkur mezonlar raqamli reytingdan ko‘ra rivojlanish profilini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi eksperimental samaradorlikni alohida statistik o‘lchashni maqsad qilmaydi; u amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik mexanizmni nazariy jihatdan konstruksiyalash va uning mantiqiy yaxlitligini asoslashga qaratilgan. Shu sababli maqoladagi natijalar konseptual model va metodik tavsiyalar ko‘rinishida taqdim etiladi. Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda mexanizmning turli mutaxassisliklar va oliy ta’lim tashkilotlarida samaradorligini kvazi-eksperimental yoki longitudinal dizayn asosida tekshirish mumkin.

Natijalar va muhokama.

1. Individual tadqiqot xaritasi: trayektoriyani rejalashtirish va qayta rejalashtirish

Tahlil natijasida individual tadqiqot xaritasi magistrant ilmiy faoliyatining markaziy boshqaruv hujjati sifatida belgilandi. An’anaviy kalendar rejadan farqli ravishda unda faqat “qachon bajariladi?” savoli emas, “nima uchun bajariladi?”, “qaysi dalil bilan tasdiqlanadi?” va “keyingi bosqichga o‘tish sharti nima?” savollari aks etadi. Shu sababli xarita statik reja emas, tadqiqot jarayonida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan dinamik hujjatdir.

Individual xaritada tadqiqot muammosi, maqsad va savollar, nazariy tayanch, kalit manbalar, metodlar, ma’lumot manbasi, tahlil usuli, kutilayotgan ilmiy mahsulot, xavf va cheklovlar, nazorat sanasi hamda keyingi qaror ustunlari bo‘lishi tavsiya etiladi. Bunday tuzilma magistrantni topshiriqni bajarishga emas, tadqiqot mantiqini boshqarishga yo‘naltiradi. Masalan, “adabiyotlar sharhini yozish” umumiy vazifasi “uchta nazariy yondashuvni taqqoslash va tadqiqot bo‘shlig‘ini asoslash” tarzida aniqlashtirilganda natija o‘lchanuvchan va ilmiy ma’noga ega bo‘ladi.

Individual xarita magistrantlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Bir magistrant axborot qidirishda kuchli, ammo metod tanlashda qiynalishi mumkin; boshqasida statistik vositalar yetarli, ammo ilmiy muammoni chegaralash sust bo‘lishi mumkin. Demak, bir xil yakuniy akademik standartga erishish uchun individual rivojlanish yo‘llari turlicha bo‘lishi tabiiy. Bu prinsip Biggs va Tang ta’kidlagan maqsad, faoliyat va baholash o‘rtasidagi konstruktiv moslikni individual darajada ta’minlashga xizmat qiladi [9].

	Bosqich	**Asosiy ilmiy qaror**	**Portfolio dalili**	**Nazorat savoli**
1.	Muammo	Muammo va tadqiqot chegarasi	Muammo xaritasi, dastlabki savollar	Muammo aniq va tekshiriladimi?
2.	Manbalar	Nazariy tayanch va tadqiqot bo‘shlig‘i	Manbalar matritsasi, sintez matni	Manbalar o‘zaro taqqoslanganmi?
3.	Dizayn	Metod, tanlanma, instrument	Tadqiqot dizayni va asoslash varag‘i	Metod savolga mosmi?
4.	Empirika	Ma’lumot yig‘ish va sifat nazorati	Dataset, kuzatuv yoki protokol	Dalil yetarli va shaffofmi?
5.	Tahlil	Tahlil va interpretatsiya	Jadval, diagramma, kod yoki tahlil	Xulosa dalildan oshib ketmayaptimi?
6.	Taqdimot	Ilmiy matn va himoya	Maqola/dissertatsiya versiyalari	Natija aniq va asosli taqdim etilganmi?

2. Nazorat nuqtalari va formativ monitoring

Mexanizmning ikkinchi elementi — tadqiqotning mazmuniy o‘tish nuqtalarida tashkil etiladigan qisqa monitoring. Bunday nazorat “reja bajarildi yoki bajarilmadi” tipidagi ma’muriy tekshiruvdan farq qiladi. Unda magistrant ma’lum ilmiy qarorni himoya qiladi: masalan, nima uchun aynan shu nazariy model tanlandi, nima uchun berilgan

metod tadqiqot savoliga mos, nega ma’lum tahlil usuli qo‘llandi. Shunday qilib, nazorat nuqtasi hisobot berishdan ilmiy dalillashga o‘tadi.

T_1 — muammo va savol; T_2 — adabiyotlar sintezi; T_3 — tadqiqot dizayni; T_4 — empirik dalil; T_5 — tahlil va interpretatsiya; T_6 — ilmiy matn va taqdimot ketma-ketligi tavsiya etiladi. Nazorat nuqtalarining soni mutaxassislik va tadqiqot xususiyatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin, biroq ularning pedagogik vazifasi o‘zgarmaydi: keyingi bosqichga o‘tishdan oldin asosiy ilmiy qarorning yetarliligini tekshirish.

Boud va Molloy feedbackni o‘quvchining kelajakdagi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan dizayn elementi sifatida ko‘rishni taklif qiladi [4]. Shu sababli nazorat nuqtasidagi qayta aloqa faqat “xato”ni ko‘rsatmasligi, keyingi ilmiy harakatni aniqlashtirishi kerak. Masalan, “adabiyotlar qismi sust” izohi o‘rniga “uch asosiy yondashuvni mezonlar bo‘yicha taqqoslang va qarama-qarshi natijalarni alohida ko‘rsating” kabi harakatga yo‘naltirilgan feedback berish samaraliroqdir.

Nazorat nuqtalarini tez-tez tashkil etish haddan tashqari nazoratga aylanib qolmasligi kerak. Shuning uchun har bir tekshiruv faqat muhim metodologik burilish nuqtalarida o‘tkazilishi, oraliqda esa magistrantga mustaqil ishlash uchun yetarli vaqt berilishi zarur. Bu muvozanat tashqi nazoratdan ichki o‘zini o‘zi boshqarishga bosqichli o‘tishni ta’minlaydi.

3. Elektron portfolio: fayllar to‘plamidan rivojlanish dalillari tizimiga

Elektron portfolio mazkur mexanizmda barcha bosqichlarni bog‘lovchi daliliy platforma vazifasini bajaradi. Uning asosiy pedagogik qiymati bir xil ilmiy mahsulotning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatishidir. Masalan, tadqiqot savolining dastlabki varianti, rahbar izohi, qayta ishlangan varianti va magistrantning “nima uchun o‘zgartirdim?” izohi birgalikda saqlansa, metodologik rivojlanish ko‘rinadigan bo‘ladi. Faqat yakuniy variantni saqlash esa bu jarayonni yashiradi.

Portfolio tarkibi minimal va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Har bir fayl pedagogik qaror qabul qilishga xizmat qilishi zarur. Hujjatlar sonini orttirish monitoring sifatini avtomatik oshirmaydi. Aksincha, ortiqcha hujjatlashtirish magistrantda formalizm va yuklama hissini kuchaytiradi. Shu sababli har bir nazorat nuqtasi uchun 2–4 ta asosiy dalil kifoya: mahsulot, feedback, qayta ishlangan variant va qisqa refleksiya.

Elektron portfolio refleksiv ta’lim bilan bog‘langanda kuchliroq natija beradi. Schönning refleksiv amaliyot g‘oyasi [8] va Kolbning tajriba sikli [7] nuqtai nazaridan magistrant bajarilgan ishni faqat saqlab qo‘ymaydi, balki undagi qarorlarni qayta ko‘rib chiqadi. Shu tariqa portfolio o‘tmishdagi ishlar arxividan kelajakdagi qarorlar uchun axborot manbaiga aylanadi.

Brew oliy ta’limda tadqiqot va o‘qitish o‘rtasidagi chegarani kamaytirish zarurligini ta’kidlaydi [10]. Elektron portfolio bu integratsiyani amaliy darajada qo‘llab-quvvatlashi mumkin: fan doirasidagi topshiriqlar magistrlik tadqiqotining real qismlariga aylantiriladi, ularning natijalari esa portfolio orqali keyingi ilmiy ishga ulanadi. Natijada o‘quv topshirig‘i va dissertatsiya faoliyati o‘rtasidagi uzilish kamayadi.

Portfolio dalili	**Nimani ko‘rsatadi?**	**Pedagogik foydalanish**
Muammo va savol versiyalari	Muammoni aniqlashtirish dinamikasi	Savolning aniqligi va chegarasini kuzatish
Manbalar matritsasi	Tanqidiy o‘qish va sintez	Deskriptiv sharhdan tahliliy sharhga o‘tishni ko‘rish
Metod tanlash asoslari	Metodologik fikrlash	Metodning tadqiqot savoliga mosligini tekshirish
Empirik material va tahlil	Amaliy-analitik kompetensiya	Ma’lumot sifati va tahlil izchilligini baholash
Matnning V1–V2–V3 variantlari	Feedbackdan foydalanish	Tahrirning mazmuniy yoki faqat uslubiy ekanini aniqlash

Portfolio dalili	Nimani ko‘rsatadi?	Pedagogik foydalanish
Refleksiv yozuv	O‘z faoliyatini baholash	Keyingi individual vazifani belgilash

4. Refleksiv qayta aloqa va korreksiya sikli

Taklif etilgan mexanizmning to‘rtinchi elementi — refleksiv qayta aloqa. Har bir nazorat nuqtasidan so‘ng magistrant beshta savolga javob beradi: “Qanday ilmiy qaror qabul qildim?”, “Uni qaysi dalil bilan asosladim?”, “Qaysi qiyinchilik paydo bo‘ldi?”, “Feedbackdan keyin nimani o‘zgartirdim?” va “Keyingi qadam nima?”. Ushbu savollar faoliyatni verbalizatsiya qilish orqali magistrantning metakognitiv nazoratini kuchaytiradi.

Refleksiya faqat umumiy hissiy taassurot bilan cheklanmasligi kerak. “Ish qiyin bo‘ldi” tipidagi izoh metodik qiymatga ega emas. Refleksiya ilmiy qaror va dalil bilan bog‘langanida rivojlantiruvchi bo‘ladi. Masalan, “tanlanma sonini oshirdim, chunki dastlabki guruh tadqiqot savolining barcha kategoriyalarini qamrab olmadi” kabi izoh metodologik fikrlashni ko‘rsatadi.

Natijada umumiy boshqaruv sikli quyidagicha shakllanadi: faoliyat → dalil → feedback → refleksiya → korreksiya → yangi faoliyat. Sikl bir necha bor takrorlanganda magistrant tashqi ko‘rsatmaga tayanadigan ijrochidan o‘z tadqiqotining mantiqiy asoslarini tushuntira oladigan mustaqil subyektga o‘tadi. Bu holat o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish konsepsiyasi bilan mos keladi [2].

5. Mexanizmning pedagogik samarasi va joriy etish shartlari

Mexanizmning birinchi kutiladigan samarasi — ilmiy muammolarni erta aniqlash. Agar magistrantning adabiyotlar sintezi yoki metod tanlashdagi qiyinchiligi faqat yakuniy matnda ko‘rinsa, uni tuzatish uchun vaqt va resurs ko‘p sarflanadi. Nazorat nuqtalari va portfolio esa muammoni paydo bo‘lgan bosqichida ko‘rsatadi. Ikkinchi samara — feedbackning izchilligi. Rahbarning tavsiyasi keyingi versiya bilan bog‘langanligi sababli qaysi izoh bajarilgani, qaysi biri rad etilgani va nima uchun rad etilgani ko‘rinadi.

Uchinchi samara — magistrantning metodologik mustaqilligini bosqichma-bosqich oshirish. Dastlab xarita va mezonlar ko‘proq pedagog tomonidan berilishi mumkin; keyingi bosqichlarda magistrant nazorat nuqtalarini o‘zi rejalashtiradi, feedback izlaydi va portfolio dalillarini tanlaydi. Bunda maqsad nazoratni kuchaytirish emas, nazorat funksiyasini asta-sekin magistrantning o‘ziga o‘tkazishdir.

Joriy etish uchun kamida to‘rtta tashkiliy shart zarur: birinchidan, portfolio uchun sodda va barqaror raqamli muhit; ikkinchidan, rahbar va magistrant uchun aniq mezonlar; uchinchidan, nazorat nuqtalarini fanlar va dissertatsiya jadvali bilan uyg‘unlashtirish; to‘rtinchidan, shaxsiy ma’lumotlar va tadqiqot ma’lumotlarini saqlashda maxfiylik talablariga rioya qilish. ResearchComp tadqiqotchilik faoliyatida o‘zini rivojlantirish, tadqiqot olib borish, muloqot va professional boshqaruv kabi transversal kompetensiyalarning ahamiyatini ko‘rsatadi [12]; taklif etilgan mexanizm ushbu kompetensiyalarni magistrlik bosqichida amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Mexanizmning cheklovi shundaki, uning samarasi avtomatik ravishda raqamli platforma mavjudligi bilan ta’minlanmaydi. Agar portfolio faqat hujjat yuklash talabiga aylansa, u byurokratik yuk bo‘lib qoladi. Shuningdek, rahbarning feedback sifati past bo‘lsa, yaxshi tuzilgan platforma ham metodologik rivojlanishni ta’minlay olmaydi. Shu sababli texnologik va pedagogik dizayn birgalikda ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa va takliflar. Magistrantning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini individual trayektoriya asosida rivojlantirish tadqiqot faoliyatini yakuniy dissertatsiya natijasidan uzluksiz rivojlanish jarayoniga aylantiradi. Individual tadqiqot xaritasi maqsad va bosqichlarni aniqlashtiradi, nazorat nuqtalari muhim ilmiy qarorlarni vaqtida tekshiradi, elektron portfolio qaror va natijalar evolyutsiyasini dalillar bilan saqlaydi, refleksiv qayta aloqa esa keyingi korreksiyani asoslaydi. Shu jihatdan taklif etilgan mexanizmning asosiy formulasi “individual xarita + nazorat nuqtalari + portfolio dalillari + refleksiya =

boshqariladigan ilmiy rivojlanish” ko‘rinishida ifodalanishi mumkin.

Amaliyot uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: magistrlik dasturining birinchi semestridan individual tadqiqot xaritasini joriy etish; dissertatsiya ishini 5–6 mazmuniy nazorat nuqtasiga ajratish; har bir nuqtada faqat tayyor mahsulot emas, qarorning asoslanishini baholash; elektron portfolioda dastlabki va tahrirlangan versiyalarni feedback bilan bog‘lab saqlash; qisqa refleksiv yozuvlarni majburiy, biroq hajman ixcham komponent sifatida qo‘llash; yakuniy baholashda portfolio dalillaridan magistrantning mustaqillik dinamikasini ko‘rsatish uchun foydalanish.

Kelgusidagi tadqiqotlarda taklif etilgan mexanizmning empirik samaradorligini baholash, portfolio indikatorlari uchun baholovchilararo ishonchlilikni aniqlash, turli mutaxassisliklarda nazorat nuqtalarining optimal sonini taqqoslash hamda elektron portfolio faoliyati bilan magistrantning metodologik mustaqilligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman, 1997.

2. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. 2002. Vol. 41, No. 2. P. 64–70. DOI: 10.1207/S15430421TIP4102_2.

3. Nicol D.J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // Studies in Higher Education. 2006. Vol. 31, No. 2. P. 199–218. DOI: 10.1080/03075070600572090.

4. Boud D., Molloy E. Rethinking Models of Feedback for Learning: The Challenge of Design // Assessment & Evaluation in Higher Education. 2013. Vol. 38, No. 6. P. 698–712. DOI: 10.1080/02602938.2012.691462.

5. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5, No. 1. P. 7–74.

6. Barrett H.C. Researching Electronic Portfolios and Learner Engagement: The REFLECT Initiative // Journal of Adolescent & Adult Literacy. 2007. Vol. 50, No. 6. P. 436–449. DOI: 10.1598/JAAL.50.6.2.

7. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.

8. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.

9. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press/McGraw-Hill Education, 2011.

10. Brew A. Research and Teaching: Beyond the Divide. London: Palgrave Macmillan, 2006.

11. Creswell J.W., Creswell J.D. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 5th ed. Los Angeles: SAGE, 2018.

12. European Commission. ResearchComp: The European Competence Framework for Researchers. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023.

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 2026-yil 25.09.da berildi.

Bosishga 2026-yil 30.09. da ruxsat etildi.

2026-yil 02.10.da bosildi.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasi. Nashriyot hisob tabog‘i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.